Kalit so'zlar: seysmik himoya, bino, rezonans, seysmik himoya tizimlari, xavf-xatar, avariya holati, tebranish, rezonans chastotasi, zilzilabardosh binolar va inshootlar.

INTRODUCTION

Seismic protection devices are devices that completely or partially isolate a building from earthquake energy, that is, absorb, dissipate or control deformation. They are installed between the main structure and the foundation or between floors and, by reducing the amplitude of vibrations, keep the deformation of the building within the regulatory limits. Such devices include elastomeric isolators, viscous dampers, metal energy absorbers, semi-active shock absorbers, variable stiffness supports, and in recent years - active systems with electromechanical control.

Modern seismic protection systems are conventionally divided into three types:

Passive systems - they operate without external control and mainly absorb deformation energy mechanically. These include viscoelastic dampers, metal plate absorbers, friction isolators and elastomer blocks.

Semi-active systems - they can partially change their properties using electrical or hydraulic control elements. For example, magnetorheological dampers (MR-dampers) or fluid-based controlled shock absorbers.

Active systems - these systems record earthquake vibrations in real time through sensors and generate a counterforce using actuators based on computer algorithms.

Literature review.

Earthquakes remain one of the most destructive natural hazards affecting the safety and serviceability of civil engineering structures. The increasing urbanization of seismic regions has intensified the demand for advanced seismic protection systems capable of minimizing structural damage, ensuring occupant safety, and maintaining post-earthquake functionality. Conventional seismic design primarily relies on increasing the strength and stiffness of structural members. However, modern earthquake engineering has shifted toward performance-based design and energy dissipation technologies, which significantly improve structural resilience under dynamic loading [1], [2].

The fundamental principles of structural dynamics form the theoretical basis for understanding seismic response. Chopra [3] explains that buildings subjected to earthquake excitation experience complex dynamic interactions between inertia, damping, and stiffness. Accurate prediction of these responses requires dynamic analysis techniques such as modal analysis, response spectrum analysis, and nonlinear time-history analysis. Similarly, Clough and Penzien [4] emphasize that the seismic behavior of buildings depends not only on structural configuration but also on damping characteristics and soil-structure interaction, making dynamic modeling essential for modern seismic design.

International seismic design standards have evolved to incorporate these scientific advances. The former Soviet standard SNiP II-7-81* [1] established the initial framework for seismic-resistant construction by prescribing structural detailing, material requirements, and seismic zoning. Although widely adopted in several post-Soviet countries, the standard mainly focuses on conventional strengthening techniques. In contrast, Eurocode 8 [2] introduces performance-based seismic design principles, emphasizing ductility, capacity design, controlled plastic deformations, and the application of innovative seismic protection devices such as base isolation systems and supplemental damping mechanisms. Likewise, ASCE 7 [5] provides comprehensive methodologies for determining seismic loads, response modification factors, and structural performance objectives based on probabilistic seismic hazard assessments.

One of the most significant developments in earthquake engineering is the implementation of base isolation systems. These systems reduce seismic forces transmitted from the ground to the superstructure by introducing flexible bearings between the foundation and the building. Base isolation effectively lengthens the natural period of structures and significantly reduces acceleration demands during earthquakes [2], [5]. Numerous studies have demonstrated that isolated buildings experience considerably lower inter-story drifts and structural damage compared with conventionally fixed-base structures. This technology is particularly suitable for hospitals, emergency response facilities, and essential infrastructure where uninterrupted functionality is critical after seismic events.

Another important advancement is the application of energy dissipation devices, including viscous dampers, friction dampers, metallic yielding dampers, and tuned mass dampers. These devices absorb a significant portion of earthquake-induced energy before it reaches primary structural members. According to Chopra [3], supplemental damping systems effectively reduce displacement, vibration amplitude, and internal stresses while improving structural stability during strong ground motion. Modern design approaches often combine damping systems with base isolation to achieve optimal seismic performance under varying earthquake intensities.

Recent research has also focused on combined seismic protection systems, integrating flexible foundations, damping devices, and innovative structural materials. Makhmudov, Abdullayev, and Kayumov [8] investigated buildings equipped with flexible-bottom systems,

demonstrating that increasing foundation flexibility can significantly reduce dynamic forces transferred to the superstructure. Their analytical results indicate improvements in vibration control and overall seismic performance compared with conventional rigid foundation systems. Building upon this concept, the same researchers analyzed frame buildings utilizing combined earthquake protection systems, concluding that hybrid protection strategies offer greater structural reliability and energy dissipation than single protection methods [9].

In addition to structural systems, modern construction materials contribute substantially to earthquake resistance. Abdullayev et al. [6] introduced an innovative Polystroblock production technology designed to reduce structural self-weight while maintaining sufficient mechanical strength. Since seismic inertial forces are directly proportional to structural mass, lightweight materials provide an effective means of reducing earthquake-induced loads. Their subsequent study further optimized the composition of Polystroblock materials, highlighting improvements in thermal insulation, durability, and structural efficiency [7]. These characteristics make lightweight composite materials attractive alternatives for seismic regions where both structural safety and energy efficiency are required.

The thermal and mechanical properties of lightweight construction materials also influence long-term structural performance. The study on thermal conductivity characteristics of foam and Polystroblock materials [11] demonstrates that improved thermal efficiency can be achieved without significantly compromising structural integrity. Although primarily focused on energy performance, these findings indirectly support seismic engineering objectives by enabling lighter structural systems that generate lower inertial forces during earthquakes.

Vibration control in reinforced concrete frame buildings remains another important research direction. Kayumov [10] investigated vibration control techniques for earthquake-resistant multi-story reinforced concrete buildings and demonstrated that optimized structural configurations significantly reduce vibration amplitudes and improve overall seismic stability. The research emphasizes that proper dynamic control not only enhances structural safety but also extends service life by reducing cumulative fatigue damage under repeated seismic loading.

The integration of advanced computational methods has further transformed seismic analysis. Performance-based seismic engineering increasingly employs finite element modeling, nonlinear dynamic analysis, and probabilistic risk assessment to evaluate structural performance under realistic earthquake scenarios [2], [3]. These analytical approaches allow engineers to predict damage states, estimate economic losses, and optimize seismic protection strategies before construction. Consequently, modern seismic design is shifting from prescriptive code compliance toward resilience-oriented performance objectives.

Overall, contemporary research demonstrates that no single seismic protection technology provides universal solutions for all structural conditions. Instead, optimal seismic performance is achieved through integrated systems combining lightweight materials, base isolation, supplemental damping devices, flexible foundation systems, and performance-based structural design. Such multidisciplinary approaches significantly enhance structural resilience, reduce economic losses, and improve public safety in earthquake-prone regions [2], [5], [8], [9].

Methodology.

The effectiveness of these systems is determined not only by their technical characteristics, but also by quantitative reliability. For example, the same type of damper can give different results in two different buildings, since the structural stiffness, mass distribution, resonant frequency and seismic spectrum change. Therefore, it is necessary to analyze the parameters of the seismic protection system separately for each project.

Result and discussion.

The reliability of a building is the probability that it will maintain its functional state under specified conditions for a certain period of time. Determining this probability under the influence of uncertain and random loads, such as an earthquake, is a complex mathematical problem. Because the duration of the earthquake process, the frequency, amplitude and direction of vibration are random variables. Therefore, probability theory, statistical analysis and modeling methods play a key role in quantitative assessment.

For example, using the Monte Carlo method, thousands of random load cases are modeled, and the probabilities of stress, deformation, and failure in various elements of a building system are calculated. As a result, an overall reliability index is determined. This index (usually denoted by β) represents the level of safety of the system: the larger β, the more reliable the building is.

Sometimes, to avoid resonance, “anti-vibration systems” are deliberately installed. These are usually heavy metal masses located at the top of a building that move in the opposite direction when the building shakes. Such systems are called “mass dampers.” For example, the Taipei 101 tower in Taiwan has a 660-ton spherical damper installed. It moves in the opposite direction of the building’s vibration, reducing the amplitude by up to 40 percent. In Uzbekistan, buildings with damper systems have also begun to appear in recent years. Some new business centers in Tashkent use hydraulic dampers and steel beam energy absorbers. These systems reduce not only earthquakes, but also strong wind or traffic vibrations. As a result, the long-term stability of the building increases.




Photo 4. Taipei Building Scheme

To accurately assess natural vibration, engineering uses a method called “modal analysis.” In this method, the building is divided into small elements using models, and mass and stiffness matrices are created for each element. As a result of computer calculations, all natural frequencies and mode shapes of the system are determined. They are then compared with the seismic spectrum. If the building frequencies are close to the spectrum, changes are made to the design - for example, reducing stiffness, adding dampers, or changing the mass to avoid resonance.

An important parameter in vibration analysis is the damping coefficient. It shows how quickly the system loses energy. If the damping is small, the vibration will last longer, which is dangerous. On the contrary, high damping "softens" the system. For this reason, viscoelastic materials are widely used in seismic isolation systems. They convert energy into heat and naturally dampen vibrations.

There are many situations that disrupt the natural balance of vibrations. The most common is that the frequency of vibrations decreases as the height of a building increases. As the number of floors increases, the system becomes more elastic, the stiffness decreases, and as a result, the vibrations increase. Therefore, in tall buildings, structural systems are reinforced with multi-level supports. These supports direct the energy to the lower floors, and the dampers there absorb it. In this way, the building becomes a flexible mechanism that works "from the top down, not the bottom up." In engineering analysis, resonance is considered not only a danger, but also a desirable condition. In the laboratory, models are brought to a state of resonance and their maximum deformation limits are measured. These tests allow you to simulate real earthquake conditions. After the structures are tested, their energy dissipation coefficient, elastic modulus, and vibration frequencies are determined. To deeply understand building vibrations, an engineer must be not only an accountant, but also a psychologist. He knows the "character" of the building: where it is weak, where it is strong, where energy is concentrated, where it is dissipated. Every column, every beam, every wall plays its part in this "orchestra". An earthquake is a test, but it also shows synchronicity. If the system works harmoniously, it wins. Understanding the phenomenon of vibration is using a single language for both man and nature. The earth shakes, the building responds. At the end of this dialogue, harmony is needed, not victory. Therefore, the goal of the engineer is not to defeat nature, but to listen to it. It is from this philosophical approach that seismic stability begins.

CONCLUSION

The issue of seismic stability is not just a branch of engineering, but a test of the entire human mind. Because an earthquake always tests a person at an unexpected moment. It does not distinguish any country, religion or academic level, but asks only one question: "are you ready?". Humanity has been answering this question with technology, science and thinking. This chapter has analyzed one form of these answers - seismic protection devices and their effective systems on a scientific basis.

The results of the study show that the seismic stability of any structure depends not on its structural structure, but on how it works as a system. This means that a separate strong column or wall does not mean anything - what is important is their mutual harmony, how they distribute vibration energy, where the damping process occurs. Therefore, in engineering practice, the concept of "effective system" is measured not by a material or form, but by energy management. The first chapter showed that three main principles play a leading role in ensuring seismic stability: structural integrity, energy balance and flexibility. Structural integrity refers to the integral relationship between the geometry, stiffness and mass of a building. Energy balance determines how the energy entering the building system during an earthquake is absorbed, dissipated and distributed. Flexibility determines how the structure responds to changing conditions. It consists not in rigidity, but in intelligent action.

Since the majority of seismic hazard areas in Uzbekistan fall within highly active zones, these principles are even more important in practical terms. In regions such as Tashkent, the Fergana Valley, Andijan, Samarkand and Kashkadarya, the seismic intensity reaches 8–9 points. Therefore, each new building in these regions must be designed not only with its external form, but also with an internal "protection system". The analyses presented in the chapter show that it

is precisely the protective devices — dampers, isolators, mass-damper systems, control sensors — that have become the modern criterion of stability.

The effectiveness of energy-absorbing and isolating systems used in modern structures directly depends on their physical mechanisms. Elastomeric isolators soften earthquake vibrations and do not transmit high-frequency ground vibrations to the building. Viscous and viscoelastic dampers convert vibration energy into heat. Metal energy absorbers retain deformation energy. As a result, the building is protected from general shaking. The advantage of each system is in the frequency of waves it is suitable for.

ADABIYOTLAR

1.SNiP II-7-81* "Seysmik zonalarda qurilish".

2.Eurocode 8: Seysmik tahdidlarga chidamli konstruksiyalarni loyihalash.

3.Chopra, A. K. (2012). Dynamics of Structures: Theory and Applications to Earthquake Engineering.

4. Clough, R. W., & Penzien, J. (1993). Dynamics of Structures.

5. ASCE 7: Minimum Design Loads for Buildings and Other Structures.

6. Mahammadovich, A. A., Dilshatbekovich, K. A., & Alimardon, Z. (2023). POLISTIROBLOK ISHLARI CHIQARISH YANGI TEXNOLOGIYASI. Conferencea, 32-24.

7. Mahammadovich, A. A., & Dilshatbekovich, K. A. (2023). INNOVATSION QURILISH MATERIALLI" POLISTROBLOK" NI TARKIBI. Conferencea, 66-69.

8. S.M. Makhmudov., Mahammadovich A. A., Dilshatbekovich K. A. (2025). «Sistems With a "Flixible Bottom" of the Bilding Objekt» AMERICAN Journal of Engineering, Mechanics and ArchitectureVolume 3, Issue 1, 2025ISSN (E): 2993-2637.

9. S.M. Makhmudov., Mahammadovich A. A., Dilshatbekovich K. A. (2025). «Techical Science Building and ArchitectureSeismic Response of Frame Buildings with Combined Earthquake Protection System» AMERICAN Journal of Engineering, Mechanics and ArchitectureVolume 3, Issue 1, 2025ISSN (E): 2993-2637.

10. Kayumov Asilbek Dilshatbekovich. (2025). CONTROL OF VIBRATION IN THE REINFORCED CONCRETE FRAME OF BUILDINGS OF EARTHQUAKE-RESISTANT MULTI-STORY BUILDINGS. Journal of Applied Science and Social Science, 15(10), 1489–1492. Retrieved from.

11. CALCULATION METHODOLOGY BY THERMAL CONDUCTIVITY OF FOAM AND "POLYSTROBLOCK" OF THE MAIN CHARACTERISTIC. (2025). Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations, 4(9), 1475-1479. https://doi.org/10.55640/

UO‘T: 625.85:691.16

BITUMNING CHO‘ZILUVCHANLIGINI ANIQLASH VA UNING YO‘L QOPLAMASI SIFATIGA TA’SIRI

Raxmonov Xurshidbek Nurmuxammad o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti Transport logistikasi kafedrasi assistenti, Andijon, O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada yo‘l bitumining cho‘ziluvchanligi, uni duktilometr yordamida aniqlash tartibi va mazkur ko‘rsatkichning asfaltbeton qoplama ishlash qobiliyatiga ta’siri tizimli ravishda yoritilgan. Sinov namunasini tayyorlash, suv vannasida termostatlash, belgilangan tezlikda cho‘zish va uzilish masofasini qayd etish bosqichlari amaldagi laboratoriya yondashuvlari asosida bayon qilingan. Harorat, tortish tezligi, qolip geometriyasi, namunaning termik tarixi va o‘lchash aniqligi natijaga ta’sir qiluvchi asosiy omillar sifatida tahlil etilgan. 60/70 penetratsion bitum bo‘yicha adabiyotdagi harorat qatori alohida misol sifatida ko‘rib chiqilib, undan umumiy xulosa chiqarishda sinov shartlari bir xil bo‘lishi zarurligi asoslangan. Cho‘ziluvchanlikni penetratsiya, yumshash harorati, qovushqoqlik va qarish ko‘rsatkichlari bilan birgalikda baholash yo‘l qoplamasining yorilishga va doimiy deformatsiyaga chidamliligini to‘g‘ri talqin qilish imkonini beradi.

Аннотация. В статье системно рассмотрены растяжимость дорожного битума, порядок её определения с помощью дуктилометра и влияние этого показателя на работоспособность асфальтобетонного покрытия. Описаны подготовка образца, термостатирование в водяной ванне, растяжение с заданной скоростью и фиксация расстояния в момент разрыва. Проанализированы основные факторы, влияющие на результат: температура испытания, скорость перемещения захватов, геометрия формы, тепловая история образца и точность измерений. Температурный ряд для битума марки 60/70, приведённый в научной литературе, использован как отдельный расчётный пример; подчёркнуто, что его нельзя распространять на все битумы без сохранения одинаковых условий испытания. Обоснована необходимость комплексной оценки растяжимости совместно с пенетрацией, температурой размягчения, вязкостью и показателями старения. Такой подход повышает достоверность лабораторного контроля и позволяет лучше прогнозировать устойчивость покрытия к трещинообразованию и остаточным деформациям.

Abstract. The paper systematically examines road-bitumen ductility, the procedure for determining it with a ductilometer, and the relevance of this indicator to asphalt-pavement performance. The main stages of the test are described: specimen preparation, conditioning in a temperature-controlled water bath, extension at a specified rate, and recording the elongation at rupture. Test temperature, pulling rate, mould geometry, specimen thermal history, and measurement accuracy are analysed as the principal sources of result variability. A published temperature series for 60/70 penetration-grade bitumen is considered as a separate calculation example, while emphasizing that its trend should not be generalized without maintaining identical test conditions. The paper substantiates that ductility must be interpreted together with

penetration, softening point, viscosity, and ageing indicators. Such a combined assessment improves laboratory quality control and provides a more reliable basis for judging pavement resistance to cracking, loss of cohesion, and permanent deformation.

Kalit so‘zlar. bitum, cho‘ziluvchanlik, duktilometr, sinov harorati, asfaltbeton, o‘lchash noaniqligi, yorilishga bardoshlilik, sifat nazorati

Ключевые слова. битум, растяжимость, дуктилометр, температура испытания, асфальтобетон, неопределённость измерений, трещиностойкость, контроль качества


Keywords. bitumen, ductility, ductilometer, test temperature, asphalt concrete, measurement uncertainty, cracking resistance, quality control

Kirish

Yo‘l-qurilish materiallari ichida bitum alohida o‘rin tutadi. U asfaltbetondagi mineral donalarni yupqa parda ko‘rinishida qoplaydi, ularning o‘zaro bog‘lanishini ta’minlaydi va transport yukidan paydo bo‘ladigan kuchlanishlarni qatlam bo‘ylab qayta taqsimlashda ishtirok etadi. Shu sababli qoplamaning ravonligi yoki mustahkamligini faqat mineral skelet bilan izohlash yetarli emas; bog‘lovchining haroratga sezgirligi, yopishqoqligi, deformatsiyalanish qobiliyati va qarishga moyilligi ham hisobga olinishi kerak. Bitumning ushbu xususiyatlari ishlab chiqarish, yotqizish va ko‘p yillik ekspluatatsiya bosqichlarida bir xil qolmaydi. Qizdirish, havodagi kislorod, ultrabinafsha nurlanish, suv va takroriy yuklanish uning tarkibiy muvozanatini o‘zgartiradi [6–8, 12].

Cho‘ziluvchanlik bitum namunasining standart shakl va sharoitda uzilguncha cho‘zilish masofasi bilan ifodalanadigan empirik ko‘rsatkichdir. ASTM D113/D113M standarti ushbu sinovni asfalt materiallarining cho‘zilish xossalarini baholash va ayrim spetsifikatsiya talablarini tekshirish vositasi sifatida ko‘rsatadi [1]. AASHTO T 51 hamda IS 1208 (Part 1):2023 hujjatlarida ham duktilometrik sinov alohida usul sifatida berilgan [2, 3]. Sinovning nisbatan sodda tuzilishi uning o‘quv va ishlab chiqarish laboratoriyalarida keng qo‘llanishiga sabab bo‘ladi. Biroq olingan bitta sonni materialning barcha reologik xususiyatlarini ifodalovchi universal mezon deb qabul qilish noto‘g‘ri. Cho‘ziluvchanlik natijasi harorat, tortish tezligi va namuna tayyorlash tartibiga bevosita bog‘liq.

Yo‘l qoplamasida harorat pasayganda bog‘lovchi qattiqlashadi va relaksatsiya qobiliyati kamayadi, natijada termik kuchlanishlar yoriq hosil bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Yuqori haroratda esa qovushqoqlikning kamayishi va transport g‘ildiragi ostidagi siljishlar iz tushishi xavfini kuchaytiradi. Cho‘ziluvchanlik laboratoriyada bitumning uzluksiz parda hosil qilish va ma’lum deformatsiyani uzilmasdan qabul qilish qobiliyatiga bilvosita baho beradi. Shu jihatdan u yorilishga moyillikni dastlabki nazorat qilishda foydali, ammo qoplamaning haqiqiy xizmat muddatini bevosita hisoblab bermaydi. Mazkur maqolada sinov usuli, natijaga ta’sir etuvchi omillar va ko‘rsatkichni yo‘l qoplamasi sifati bilan bog‘lashning ehtiyotkor talqini bir butun tizimda yoritiladi.



1-rasm. Duktilometr yordamida bitumning cho‘ziluvchanligini aniqlashning umumiy sxemasi

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Tadqiqotning maqsadi bitum cho‘ziluvchanligini aniqlash metodikasini standartlashtirilgan nuqtai nazardan sharhlash, tajriba natijasining ishonchliligiga ta’sir qiluvchi omillarni guruhlash hamda mazkur ko‘rsatkichning asfaltbeton qoplama sifatiga qanday bog‘lanishini asoslashdan iborat. Maqsadga erishish uchun duktilometr, briquette qolipi va suv vannasining vazifalari tahlil qilindi; namuna tayyorlashdan natijani qayd etishgacha bo‘lgan ketma-ketlik shakllantirildi; takroriy o‘lchashlar uchun statistik ifodalar keltirildi; harorat qatori bo‘yicha hisobiy baholash bajarildi; cho‘ziluvchanlikning penetratsiya, yumshash harorati, qovushqoqlik va qarish bilan o‘zaro bog‘liqligi izohlandi. Ishda keltirilgan harorat qiymatlari yangi dala yoki laboratoriya o‘lchovi sifatida emas, e’lon qilingan ilmiy manbadagi ma’lumotlarning metodik tahlili sifatida qabul qilindi [5].


Nazariy asos va cho‘ziluvchanlik mexanizmi

Bitum murakkab uglevodorodlar va ularning hosilalaridan tashkil topgan kolloid-dispers tizim sifatida qaraladi. Soddalashtirilgan tasavvurda yuqori molekulali asfaltenlar nisbatan yengilroq malten muhitida disperslangan bo‘ladi. Smolalar ushbu tuzilmaning barqarorligida va fazalararo ta’sirda muhim rol o‘ynaydi. Namuna cho‘zilganda tashqi ish dastlab molekulalararo bog‘lanishlarni qayta tartiblaydi, keyin esa material ichida bo‘yincha hosil bo‘lib, u uzilishgacha ingichkalashadi. Bog‘lovchi yetarli koheziyaga va deformatsiya qobiliyatiga ega bo‘lsa, bo‘yincha uzoqroq masofada uzluksiz saqlanadi. Mo‘rtlashgan yoki kuchli qarigan materialda esa mikroyoriqlar erta rivojlanib, uzilish masofasi qisqarishi mumkin [6, 7].

Cho‘zilish jarayonini faqat elastik deformatsiya deb talqin qilib bo‘lmaydi. Bitum viskoelastik material bo‘lgani uchun sinov davomida qaytuvchan va qaytmas deformatsiyalar bir vaqtda namoyon bo‘ladi. Tortish tezligi oshirilsa materialning relaksatsiya uchun vaqti qisqaradi; harorat o‘zgarsa qovushqoqlik va molekulyar harakatchanlik o‘zgaradi. Demak, bir xil bitum turli tezlik yoki haroratda turlicha cho‘ziluvchanlik ko‘rsatishi mumkin. Laboratoriya bayonnomasida faqat yakuniy santimetr qiymatini emas, balki sinov harorati, cho‘zish tezligi, namunani termostatlash vaqti, qolip turi va kuzatilgan uzilish xarakterini ham qayd etish shu sababli zarur.

Asfaltbetonda bitum yupqa parda holatida ishlaydi va uning real deformatsiyasi mineral skelet, bo‘shliqlar miqdori, granulometrik tarkib hamda qatlam haroratiga bog‘lanadi. Duktilometrdagi erkin cho‘zilish qoplamadagi murakkab kuchlanish holatini to‘liq takrorlamaydi. Shunga qaramay, sinov material partiyalarini taqqoslash, keskin mo‘rtlashgan

bog‘lovchini aniqlash va qarishdan oldingi hamda keyingi holatni solishtirish uchun qulay. Natija to‘g‘ri talqin qilinganda cho‘ziluvchanlik bitum qabul qilish nazoratining foydali tarkibiy qismiga aylanadi.



2-rasm. Cho‘ziluvchanlik sinovida qo‘llaniladigan briquette namunaning shartli ko‘rinishi

$$L = l$$

$$L_o‘rt = (L_1 + L_2 + ... + L_n) / n$$

Bu yerda L — bitta namunaning uzilish paytidagi cho‘zilish masofasi, sm; l — duktilometr shkalasida qayd etilgan masofa, sm; L_o‘rt — takroriy o‘lchashlarning o‘rtacha qiymati; $L_1...L_n$ — alohida namunalar natijalari; n — yaroqli takrorlar soni. O‘rtacha qiymat faqat barcha namunalar bir xil sharoitda sinalganda mazmunli bo‘ladi.


Tadqiqot materiallari va sinov metodikasi

Sinov uchun olinadigan bitum namunasi butun partiyani ifodalashi kerak. Saqlash idishining faqat yuzasidan yoki tubidan olingan material tarkibiy jihatdan notekis bo‘lishi mumkin. Shuning uchun namuna dastlab ehtiyotkorlik bilan bir jinsli holatga keltiriladi. Qizdirishning maqsadi bitumni qolipga quyish uchun yetarli oquvchanlikka olib kelishdir; uzoq vaqt ortiqcha qizdirish esa oksidlanish va yengil fraksiyalarning yo‘qolishini tezlashtirib, sinov natijasini buzishi mumkin. Qizdirish harorati va davomiyligi laboratoriya jurnalida qayd etilishi, bir-biri bilan taqqoslanadigan namunalar uchun esa bir xil tartib qo‘llanishi lozim.

Briquette qolipining ichki sirtlari toza bo‘lishi va namuna belgilangan geometriyada shakllanishi zarur. Bitum qolipga uzluksiz oqimda, havo pufaklari hosil qilmasdan quyiladi. Sovitilgandan keyin ortiqcha material qizdirilgan tekis pichoq bilan qolip yuzasi bo‘ylab olinadi. Namuna suv vannasida sinov haroratigacha termostatlanadi. Suvning zichligi namuna sinov vaqtida tubga cho‘kib yoki yuzaga qalqib ketmasligini ta’minlashi kerak; aks holda mos tuz yoki spirt eritmasi bilan zichlik me’yorlashtiriladi. Duktilometr qisqichlari bir o‘qda joylashishi, mexanizm siltanmasdan bir tekis harakatlanishi va tezlik tekshirilgan bo‘lishi kerak [1–4, 11].

Ko‘p qo‘llaniladigan sharoitlardan biri 25 °C harorat va 50 mm/min tortish tezligidir. Biroq bu qiymatlar barcha texnik topshiriqlar uchun avtomatik ravishda yagona shart emas; mahsulot spetsifikatsiyasi yoki qo‘llanayotgan standart boshqacha sharoit belgilashi mumkin. Shuning uchun natija “L = 80 sm” ko‘rinishida emas, “L = 80 sm, T = 25 °C, v = 50 mm/min” shaklida qayd etilishi ilmiy jihatdan to‘g‘riroq. Agar namuna uzilmasdan duktilometrning chegaraviy masofasiga yetsa, natijani asbob diapazonidan katta qiymat sifatida belgilash va bayonnomada bu holatni alohida ko‘rsatish kerak.

Har bir material uchun kamida bir nechta parallel namuna tayyorlash takrorlanuvchanlikni baholash imkonini beradi. Uzilish qolip uchiga juda yaqin sodir bo‘lsa, namuna sinov paytida suv yuzasiga chiqsa yoki tubga tegsa, qolipdan ajralib ketsa yoxud tortish mexanizmi to‘xtab qolsa, bunday o‘lchov yaroqsiz deb qayd etiladi. Yaroqsiz natijani o‘rtacha qiymatga qo‘shish dispersiyani sun’iy oshiradi va material sifatiga noto‘g‘ri baho berilishiga sabab bo‘ladi.



3-rasm. Bitum cho‘ziluvchanligini aniqlash bo‘yicha laboratoriya jarayonining blok-sxemasi

Metrologik ta’minot va o‘lchash ishonchliligi

Duktilometrik sinovning ishonchliligi faqat asbob shkalasiga bog‘liq emas. Haroratni barqaror saqlash, qisqichlar tezligini tekshirish, qolip geometriyasini nazorat qilish, vaqtni bir xil hisoblash va operatorning uzilish nuqtasini to‘g‘ri belgilashi umumiy natijaga hissa qo‘shadi. Sinovlar seriyasi uchun o‘rtacha qiymat bilan birga tarqalishni tavsiflovchi standart og‘ish va variatsiya koeffitsientini hisoblash maqsadga muvofiq:

$$s = \sqrt{[\Sigma(L_i - L_o‘rt)^2 / (n - 1)]}$$

$$V = (s / L_o‘rt) \cdot 100\ \%$$

Bu yerda s — tanlanma standart og‘ishi, sm; V — variatsiya koeffitsienti, foiz. Ushbu ko‘rsatkichlar o‘lchovlarning bir-biriga qanchalik yaqinligini ko‘rsatadi, lekin ular asbob kalibrlanishi yoki metodik xatoni o‘z-o‘zidan aniqlamaydi. Masalan, suv vannasi harorati doimiy ravishda noto‘g‘ri o‘lchansa, parallel natijalar juda yaqin chiqishi mumkin, biroq ularning barchasi tizimli siljigan bo‘ladi. Shu sababli statistik ishlov metrologik nazorat bilan birga olib boriladi.

1-jadval

Ta’sir omili	Natijaga ehtimoliy ta’siri	Nazorat chorasi
Suv vannasi harorati	Bitum qovushqoqligi va relaksatsiya tezligini o‘zgartiradi	Kalibrlangan termometr; vanna bo‘ylab bir xil harorat
Tortish tezligi	Materialning deformatsiya uchun vaqtini o‘zgartiradi	Harakat tezligini davriy tekshirish va jurnalga yozish

Ta’sir omili	Natijaga ehtimoliy ta’siri	Nazorat chorasi
Qolip geometriyasi	Ishchi kesimdagi kuchlanish konsentratsiyasini o‘zgartiradi	Qolipni yeyilish va deformatsiyaga tekshirish
Namunaning termik tarixi	Qarish va tuzilma qayta tashkil topishiga olib kelishi mumkin	Qizdirish harorati hamda vaqtini cheklash
Suvdagi holati	Qalqish yoki tubga tegish uzilish shaklini buzadi	Suyuqlik zichligini namuna holatiga moslashtirish
Operator va shkala o‘qilishi	Uzilish nuqtasini qayd etishda subyektiv farq paydo qiladi	Aniq mezon, video qayd yoki ikki operatorli tekshiruv

Duktilometrik sinov natijasiga ta’sir qiluvchi omillar va nazorat choralari

Haroratning cho‘ziluvchanlikka ta’siri

Maqolaning dastlabki materialida 60/70 penetratsion bitum uchun 25,0–43,2 °C oralig‘idagi qiymatlar keltirilgan. Ular Abdulkadir va Alhasssan tadqiqotidagi harorat ta’sirini tahlil qilish ma’lumotlariga asoslangan [5]. Mazkur qatorda 25,0 °C da 100 sm deb olingan qiymat 43,2 °C da 43,67 sm gacha kamayadi. Berilgan ikki chekka nuqta bo‘yicha nisbiy o‘zgarish quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta L = [(L_{25} - L_{43,2}) / L_{25}] \cdot 100 = 56{,}33\ \%$$

Chekka nuqtalar orasidagi o‘rtacha harorat sezgirligi esa k_T = (43,67 − 100)/(43,2 − 25,0) = −3,10 sm/°C ga teng. Bu koeffitsient butun intervalda chiziqli qonuniyat mavjudligini anglatmaydi; u faqat berilgan ikki nuqta orasidagi integral o‘rtacha qiyalikdir. Jadval va grafikdan pasayishning dastlabki 25–30 °C oralig‘ida tezroq, keyingi nuqtalarda esa sekinlashgani ko‘rinadi. Shu sababli bitta chiziqli regressiya bilan barcha diapazonni ifodalash fizik jarayonni ortiqcha soddalashtirishi mumkin.


Ushbu kuzatuvni barcha bitum turlari uchun umumiy qoida sifatida qabul qilish mumkin emas. Bitumning kelib chiqishi, penetratsion markasi, qarish darajasi, qizdirish tarixi va sinov metodidagi farqlar trendga ta’sir qiladi. Muhim metodik xulosa shundan iboratki, turli laboratoriya yoki turli partiya natijalarini taqqoslashda harorat va tortish tezligi qat’iy bir xil saqlanishi kerak. Aks holda material farqi bilan sinov sharoiti farqi bir-biriga aralashib ketadi.

2-jadval

Harorat, °C	O‘rtacha cho‘ziluvchanlik, sm
25,0	100,00
26,4	78,20
27,8	68,67
29,2	53,67
30,6	50,33

Harorat, °C	O‘rtacha cho‘ziluvchanlik, sm
32,0	47,67
33,4	46,33
34,8	46,67
36,2	46,00
37,6	45,00
39,0	44,67
40,4	44,33
41,8	44,67
43,2	43,67

60/70 penetratsion bitum bo‘yicha adabiyotda keltirilgan harorat qatori [5]



4-rasm. Berilgan ma’lumotlar bo‘yicha harorat oshishi bilan cho‘ziluvchanlikning o‘zgarishi

Cho‘ziluvchanlikning yo‘l qoplamasi sifatiga ta’siri

Asfaltbeton qoplama ekspluatatsiya vaqtida cho‘zilish, siqilish va siljish deformatsiyalarining murakkab birikmasini qabul qiladi. G‘ildirak izi yaqinida yuqori haroratli siljishlar, qatlam ostidagi egilish zonasida takroriy cho‘zilish, sovuq davrda esa termik qisqarish yuz beradi. Bitum mineral donalar orasidagi aloqani saqlashi va deformatsiya davomida pardaning uzluksizligini imkon qadar yo‘qotmasligi kerak. Yetarli deformatsiyalanish qobiliyati mikroyoriqlarning keskin tarqalishini sekinlashtirishi mumkin. Biroq juda yumshoq bog‘lovchi yuqori haroratda qoplamaning doimiy deformatsiyaga qarshiligini kamaytirishi ehtimoli bor. Shuning uchun “cho‘ziluvchanlik qancha katta bo‘lsa, qoplama shuncha yaxshi” degan sodda xulosa barcha sharoitlarda to‘g‘ri emas [7, 8].

Bitumning penetratsiyasi uning ma’lum sharoitdagi konsistensiyasini, yumshash harorati yuqori haroratda yumshashga moyilligini, qovushqoqlik esa aralashtirish va zichlash jarayonidagi oqim xususiyatini tavsiflaydi. Cho‘ziluvchanlik ushbu tizimda materialning uzilishgacha bo‘lgan deformatsiya qobiliyatini ko‘rsatadi. Qarishdan oldin yuqori bo‘lgan cho‘ziluvchanlik qizdirish va oksidlanishdan keyin keskin pasaysa, qoplama vaqt o‘tishi bilan mo‘rtlashishga moyil bo‘lishi mumkin. Shu sababli yangi va laboratoriyada qaritilgan namunalarning natijalarini qiyoslash bog‘lovchining xossalarini saqlab qolish qobiliyati haqida ko‘proq ma’lumot beradi [9, 10].

Yo‘l qoplamasidagi nuqsonni faqat bitum sinovi bilan izohlab bo‘lmaydi. Masalan, ko‘ndalang yoriqlar past haroratli qisqarish bilan birga asos qatlamining harakati yoki mavjud yoriqning aks etishi natijasida paydo bo‘lishi mumkin. To‘r ko‘rinishidagi charchash yoriqlari qatlamning yetarli bo‘lmagan qalinligi, asosning zaifligi, namlanish yoki ortiqcha takroriy yuk bilan bog‘liq bo‘ladi. Iz tushish esa mineral skeletning beqarorligi, ortiqcha bitum, yetarli zichlanmaslik yoki yuqori haroratdagi yumshoq bog‘lovchi ta’sirida kuchayadi. Demak, laboratoriya natijasi qoplama diagnostikasi, tarkib loyihasi va ishlab chiqarish nazorati bilan birga baholanganda amaliy qiymat kasb etadi.

3-jadval

Ko‘rsatkich	Asosiy mazmuni	Cho‘ziluvchanlik bilan birga talqini
Penetratsiya	Standart yuk, vaqt va haroratdagi konsistensiya	Qattiqlik va deformatsiya qobiliyati o‘rtasidagi muvozanatni ko‘rsatadi
Yumshash harorati	Yuqori haroratda yumshashga moyillik	Issiq sharoitdagi barqarorlikni cho‘ziluvchanlik bilan birga baholaydi
Qovushqoqlik	Oqishga qarshilik va texnologik ishlov berish xususiyati	Aralashtirish-zichlash rejimi hamda ekspluatatsion xatti-harakatni bog‘laydi
Qarishdan keyingi xossalar	Issiqlik va havo ta’siridan keyingi o‘zgarish	Xizmat davomida mo‘rtlashish va parda uzluksizligining yo‘qolish xavfini ko‘rsatadi
Cho‘ziluvchanlik	Uzilishgacha bo‘lgan masofa	Koheziya va deformatsiyaga moslashuvchanlikning empirik bahosini beradi

Bitum sifat ko‘rsatkichlarini kompleks talqin qilish

Natijalar va ularning muhokamasi

Tahlil duktilometrik usulning asosiy afzalligi uning ko‘rgazmaliligi va bajarilish algoritmi sodda ekanini ko‘rsatdi. Sinov davomida namunaning cho‘zilish shakli bevosita kuzatiladi, uzilish masofasi esa santimetrda qayd etiladi. Shu bilan birga, natijaning yuqori sharoitga bog‘liqligi uning asosiy cheklovidir. Haroratdagi kichik farq, tezlikning nominal qiymatdan og‘ishi yoki namunaning noto‘g‘ri termostatlanishi materialning o‘zidan kelib

chiqmagan tafovutni paydo qilishi mumkin. Shu sababli laboratoriyalararo qiyoslashda usul nomini ko‘rsatishning o‘zi yetarli emas; aniq standart nashri va sinov rejimi qayd etilishi lozim.

Berilgan harorat qatori cho‘ziluvchanlikning 25,0 dan 43,2 °C gacha 100,00 dan 43,67 sm gacha o‘zgarishini ko‘rsatdi. Hisob bo‘yicha chekka nuqtalar orasidagi pasayish 56,33 foizni tashkil etdi. Bu natija adabiyotdagi aynan shu material va tajriba shartlariga tegishli. Ilmiy nuqtai nazardan eng muhim jihat trendning yo‘nalishi emas, balki sinov harorati o‘zgarganda yakuniy qiymat keskin farqlanishi mumkinligidir. Bitta partiyani 25 °C da, boshqasini esa boshqa haroratda sinab, ularni bevosita solishtirish material sifatiga noto‘g‘ri xulosa chiqarishga olib keladi.

Duktilometrik ko‘rsatkich qoplamadagi yoriq boshlanishini bevosita hisoblamaydi, chunki real asfaltbeton kompozit materialdir. Undagi bitum pardasi qalinligi, mineral kukun bilan o‘zaro ta’sir, bo‘shliqlar va namlik ham muhim. Zamonaviy reologik sinovlar yuqori va past haroratdagi ishlash xususiyatini batafsilroq tavsiflashi mumkin. Shunga qaramay, cho‘ziluvchanlik sinovi oddiy qabul nazorati, o‘quv laboratoriyasi va bir xil markadagi materiallarning qiyosiy bahosi uchun o‘z qiymatini saqlaydi. Uni boshqa ko‘rsatkichlar bilan bog‘lash va bayonnomani to‘liq yuritish usulning amaliy ishonchliligini sezilarli oshiradi.

Amaliy tavsiyalar

Yo‘l laboratoriyasida cho‘ziluvchanlik sinovi uchun alohida ishchi yo‘riqnoma tuzilib, unda standart nashri, namuna olish tartibi, qizdirish chegarasi, termostatlash vaqti, sinov harorati, tortish tezligi va yaroqsiz natijani ajratish mezonlari ko‘rsatilishi kerak. Har bir seriya boshlanishida suv vannasi termometri va harakat tezligi tekshiriladi. Qoliplar tekisligi, ichki o‘lchamlari va qisqich teshiklari yeyilishi davriy nazorat qilinadi. Natija bayonnomasida uchta yoki undan ortiq parallel o‘lchov, o‘rtacha qiymat, tarqalish ko‘rsatkichi va uzilish xarakteri yoziladi.

Bitum partiyasini qabul qilishda cho‘ziluvchanlik qiymati penetratsiya, yumshash harorati va texnik topshiriqda belgilangan boshqa sinovlar bilan birga ko‘rib chiqiladi. Agar natijalar orasidagi tafovut katta bo‘lsa, darhol o‘rtachalashtirish o‘rniga namuna tayyorlash, harorat rejimi va asbob ishlashi qayta tekshiriladi. Qarishning ta’sirini baholash zarur bo‘lganda dastlabki bitum va issiqlik-havo ta’siridan keyingi qoldiq uchun bir xil sharoitda parallel sinovlar o‘tkaziladi. Bunday yondashuv bitumning faqat boshlang‘ich emas, balki texnologik jarayondan keyingi holatini ham baholash imkonini beradi.

Xulosa

Bitum cho‘ziluvchanligi uning belgilangan harorat va tortish tezligida uzilishgacha deformatsiyalanish qobiliyatini ifodalovchi empirik ko‘rsatkichdir. Duktilometrik sinov material partiyalarini qiyoslash va mo‘rtlashish belgilarini aniqlashda foydali, biroq natija sinov sharoitiga kuchli bog‘liq bo‘lgani uchun harorat, tezlik, namuna geometriyasi va termik tarix bayonnomada to‘liq ko‘rsatilishi shart.

Keltirilgan harorat qatori bo‘yicha 25,0–43,2 °C oralig‘ida cho‘ziluvchanlikning chekka qiymatlari 56,33 foizga farq qilishi hisoblandi. Mazkur natija faqat tahlil qilingan 60/70 penetratsion bitum va manbadagi tajriba shartlariga tegishli bo‘lib, boshqa materiallarga

to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirilmaydi. Asosiy metodik xulosa — taqqoslanadigan sinovlar bir xil sharoitda bajarilishi zarurligidir.

Yo‘l qoplamasi sifatini ishonchli baholash uchun cho‘ziluvchanlik penetratsiya, yumshash harorati, qovushqoqlik, qarishdan keyingi xossalar va asfaltbetonning tarkibiy ko‘rsatkichlari bilan birgalikda talqin qilinishi kerak. Metrologik nazorat, parallel o‘lchashlar va statistik ishlov qo‘llanganda laboratoriya xulosasining takrorlanuvchanligi oshadi hamda bitum tanlash bo‘yicha muhandislik qarori yanada asosli bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. ASTM International. ASTM D113/D113M-17(2023)e1: Standard Test Method for Ductility of Asphalt Materials. West Conshohocken, PA, 2023.

2. American Association of State Highway and Transportation Officials. AASHTO T 51-22: Ductility of Asphalt Materials. Washington, DC, 2022.

3. Bureau of Indian Standards. IS 1208 (Part 1):2023. Methods for Testing Tar and Bituminous Materials. Part 1: Determination of Ductility. New Delhi, 2023.

4. Qatar University, Department of Civil and Architectural Engineering. Asphalt Testing Laboratory Manual: Ductility Test of Bituminous Materials. Doha.

5. Abdulkadir I., Alhasssan H. M. Impact of Climate Change on Rheological Properties of Bitumen. Open Journal of Civil Engineering. 2020. Vol. 10. P. 93–104. DOI: 10.4236/ojce.2020.102009.

6. Read J., Whiteoak D. The Shell Bitumen Handbook. 5th ed. London: Thomas Telford Publishing, 2003.

7. Asphalt Institute. The Asphalt Handbook. MS-4. 7th ed. Lexington, Kentucky, 2007.

8. Roberts F. L., Kandhal P. S., Brown E. R., Lee D.-Y., Kennedy T. W. Hot Mix Asphalt Materials, Mixture Design, and Construction. 2nd ed. Lanham, Maryland: NAPA Research and Education Foundation, 1996.

9. ASTM International. ASTM D2872-22: Standard Test Method for Effect of Heat and Air on a Moving Film of Asphalt (Rolling Thin-Film Oven Test). West Conshohocken, PA, 2022.

10. ASTM International. ASTM D36/D36M-14(2020): Standard Test Method for Softening Point of Bitumen (Ring-and-Ball Apparatus). West Conshohocken, PA, 2020.

11. Controls Group. Determination of Ductility. Advanced Pavements Testing Systems brochure.

12. Hindustan Petroleum Corporation Limited. HP Bitumen Handbook. Mumbai.

UO‘T: 677.021.152

VINTLI KONVEYER VINTI HISOB SXEMASI VA ARAMETRLARINI ASOSLASH

Yuldashev Kozimjon Komiljonovich
t.f.d. dotsent.
Andijon davlat texnika instituti
kozimjon590@gmail.com.

Annotatsiya. Maqolada paxtani transportirovka qilish va tozalovchi vintli konveyer konstruksiyasini ishlab chiqish, vint parametrlarini asoslash natijalari keltirilgan. Konveyer vinti xarakatida transportirovka qilinayotgan paxta bo‘lagi bilan ta’sirlashuv hususiyatlari, bog‘lanish grafiklari qurilgan. Parametrlarning bog‘lanish grafiklari taxlilariga asosan, yetarli darajada tozalash samarasi va yuqori ish unumini ta’minlaydigan vintni ko‘tarilish burchagi qiymatlari aniqlangan.

Аннотация. В статье представлены результаты разработки конструкции винтового конвейера для транспортировки и очистки хлопка, а также обоснования параметров винта. Построены графики взаимосвязи, особенности взаимодействия с транспортируемым куском хлопка при движении конвейерного винта. На основе анализа графиков зависимости параметров определены значения угла подъема винта, обеспечивающие достаточный очистительный эффект и высокую производительность.


Abstract. The article presents the results of developing the design of a screw conveyor for cotton transportation and cleaning, and substantiating the screw parameters. Characteristics of the interaction between the conveyor screw and the transported piece of cotton, as well as bonding graphs, have been constructed. Based on the analysis of the dependence graphs of the parameters, the values of the screw lift angle, which ensure a sufficient cleaning effect and high productivity, were determined.

Kalit so‘zlar: Vintli konveyer, ko‘tarilish burchagi, diametr, burchak tezlik, to‘rli yuza, egri sirtli teshiklar, ishqalanish, massa, inersiya, markazdan qochma, reaksiya, havo tezligi, transportirovka.

Ключевые слова: Винтовой конвейер, угол подъема, диаметр, угловая скорость, сетчатая поверхность, отверстия с кривой поверхностью, трение, масса, инерция, центробежный, реакция, скорость воздуха, транспортировка.

Keywords: Screw conveyor, lift angle, diameter, angular velocity, mesh surface, holes with a curved surface, friction, mass, inertia, centrifugal force, reaction, air velocity, transportation.

Kirish. Vintli konveyerlarda tashilayotgan tolali materialning yetarli titilishini va konveyerning butun uzunligi bo‘ylab tozalashning bir tekisda ta’minlash uchun, shuningdek, setkali yuzasi orqali chiqindilarni intensiv olib tashlash uchun vintli konveyerning konstruksiyasi ishchi zonasini ko‘paytirish orqali takomillashtirildi, ishqalanish kuchini oshirish, shuningdek, tebranuvchi setka yuzasi bo‘ylab vintli konveyerining butun uzunligi bo‘ylab tashiladigan material bilan vintning o‘zaro ta’sir kuchining yo‘nalishini o‘zgartiriladi.



1-rasm. to‘lqinsimon shakldagi vintli konveyer

Tavsiya etilgan vintli konveyerda lintni (tolali materialni) tashish va tozalash jarayonida to‘rli yuza 3 ta zonadan iborat, qayishqoq tayanchga ega. Ishlash jarayonida to‘rli yuza tebranishida, ajralgan chiqindilar egri shaklli tarnovdan tushib ketadi. Shuning uchun to‘rli yuzani tebranishlarini nazariy tomondan taxlil qilish, parametrlarini asoslash muhim hisoblanadi..

Vintli konveyerda paxta bo‘lagini to‘rli yuza ustida vint sirti bo‘yicha harakatlanishini tahlili. Tavsiya etilgan paxta bo‘laklarini tozalash va transportirovka qilish konveyerida paxta bo‘lagidan chiqindilarni samarali ajratish maqsadida to‘rli yuzadagi teshiklar egri qilib vint sirtlarining burchagiga teng qilib og‘ma etib bajarilgan. Paxta bo‘lagini vint sirti bilan ta’sirlashuvidagi harakat qonunini aniqlash hamda vintni ko‘tarilish burchagini asoslash muhim hisoblanadi.

2-rasmda vintni paxta bo‘lagiga ta’sirlashuvidagi hisob sxemasi keltirilgan. Hisob sxemasiga asosan paxta bo‘lagini transportirovka qilish va tozalash jarayonida quyidagi kuchlar ta’sir qiladi: $\bar{G}$-og‘irlik kuchi; $\bar{R}$-paxta bo‘lagiga vint sirtini reaksiya kuchi; $\bar{F}_h$-havo oqimini ta’sir kuchi; $\bar{F}_k$-Koriolis kuchi; $\bar{F}_{m.s}$-markazdan qochma kuch; $\bar{F}_{iv}$-paxta bo‘lagi bilan vint sirti orasidagi ishqalanish kuchi; $\bar{F}_{it}$-paxta bo‘lagining to‘rli yuza bilan ishqalanish kuchi; $\bar{F}_i$-inersiya kuchi.

Paxta bo‘lagini transportirovka va tozalash zonasida konveyer vinti sirtidagi harakatini “X” va “Y” o‘qlari bo‘ylab aniqlash uchun Lagranjning II-tartibli tenglamasidan foydalanib aniqlandi [5,6]:


$$m_p \ddot{X} = F_{iv} - F_{kor}Sin\beta - F_{it}Cos\alpha \qquad (1)$$
$$m_p y = F_{ir} - F_x - F_{kor}Cos\beta - F_{it}Sin\alpha - R$$

bu yerda, m_p -lint bo‘lagi massasi; β-markazdan qochma kuch vektorini “X” o‘qi bilan hosil qiluvchi burchagi; α-vintni ko‘tarilish burchagi.

Paxta bo‘lagini vint sirti bilan ishqalanish kuchi $F_{ir}=f_vRni$ hamda paxta bo‘lagi y o‘qi bo‘ylab harakati nolga teng deb qaralganda, quyidagi differensial tenglama hosil bo‘ladi:

$$m_p \ddot{X} = m_p\omega_v^2 R_v Sin\beta + f_v F_{kor} - f_v K V_h^2 - f_b m_p \omega_v^2 R_v Cos\beta - f_v f_t\, m_p\, gSin\alpha - f_t\, m_p gCos\alpha \qquad (2)$$

Bu yerda, ω_v-konveyer vinti burchak tezligi; R_v-vint radiusi; f_v, f_t-paxta bo‘lagini vint va to‘rli yuza bilan ishqalanish koeffitsentlari; V_h-havo oqimi tezligi; g-erkin tushish tezlanishi.



fazoviy sxema yuqoridan ko‘rinishi

2-rasm. Paxta bo‘lagini konveyer vinti ta’siridagi kuchlar vektorlarini ifodalovchi hisob sxemasi.

Paxta bo‘lagi konveyerda tozalash va transportirovka qilish jarayonida beshta erkinlik darajasiga ega bo‘ladi [7]. Bunda faqat to‘rli yuzaga tik yo‘nalish bo‘yicha paxta bo‘lagi harakatlanmaydi. Paxta bo‘lagini xarakatida uning tolalarini o‘zaro chigallanishi va shikastlanishini kamaytirish uchun α-burchagini optimal qiymati bir zumdagi harakatida ya’ni $t\to 0$, bo‘lganida, X=0; $\dot{X}$=0; $\ddot{X}$=0 deb qaralganda aniqlanadi. Ushbu holatdan foydalanib konveyer vintini ko‘tarilish burchagi, ya’ni paxta bo‘lagani ta’sir burchagini aniqlash mumkin bo‘ladi [7,8].

Bunda (2) dan quyidagi ifoda kelib chiqadi:

$$f_vF_{kor}- m_p\omega_v^2R_vSin\beta-f_vKV_h^2-f_vm_p\omega_v^2R_vCos\beta-f_vf_t\ m_pgSin\alpha-f_t\ m_pgCos\alpha=0 \qquad (3)$$

Ma'lumki paxta bo'lagi vint sirtida saqlanib, to'rli yuza bo'ylab olib o'tilganda sirpanish bo'lishi kerak emas. Bunda paxta bo'lagi vint sirtida qoladi. Paxta bo'lagi (lint) vint sirtida sirpanmasligi uchun f_v=1,0 bo'lishi qaraladi. Trigonometrik bog'lanishlarga [9,10]ga asosan:

$$Sin\alpha+Cos\alpha=\sqrt{2}\ Cos\ (\frac{\pi}{4}-\alpha) \qquad (4)$$


Bunda vintni ko'tarilish burchagini aniqlash formulasini hosil qilamiz:

$$\alpha \le \frac{\pi}{4}-A$$

$$A=arcCos[f_vF_{kor}- f_vKV_h^2 - f_vm_p\omega_v^2R_vCos\beta-m_p\omega_v^2R_vSin\beta]\frac{1}{\sqrt{2}f_vf_tm_pg} \qquad (5)$$


Masalani sonli yechimi va natijalar tahlili. Koveyerning vintini ko'tarilish burchagini aniqlash ifodasi (5)ni sonli yechimini parametrlarning quyidagi boshlang'ich qiymatlarda amalga oshirildi [11,12]: $m_p=(0,15\div0,85)10^{-3}$kg; $f_v=(0,3\div1,0)$; $f_t=(0,2\div0,4)$; $\omega_v=(3,0\div4,0)c^{-1}$; g=9,8m/c^2; R_v=0,15m; t_v=0,21m; α_{v0}=30º; β=(25º÷35º); $V_h=(0,45\div1,2)$m/s; K=(0,2÷0,3)

Konveyer vinti ko'tarilish burchagini aniqlashda sonli yechim Runge-kutta EHM dasturidan foydalanib amalga oshirildi. Natijada sistema parametrlari va vint diametri, burchak tezligi, paxta bo'lagi vint sirti va to'rli yuza bilan ishqalanishi koeffitsentlari, paxta bo'lagi massasi, havo oqimi tezligini vint ko'tarilish burchagiga ta'sirini ko'rsatuvchi grafik qonuniyatlar olindi. Jumladan 3-rasmda konveyer vinti ko'tarilish burchagining o'zgarishini paxta bo'lagi massasi va vint diametriga bog'liqlik grafiklari keltirilgan. Ma'lumki paxta bo'lagi massasini ortishi uni transportirovka qilishni qiyinlashtiradi. Bunda vint ko'tarilish burchagini yetarlicha kamaytirish talab etiladi. Olingan bog'lanish qonuniyatlarini tahliliga ko'ra, paxta bo'lagi massasi $0,15\cdot10^{-3}$kg dan $0,8\cdot10^{-3}$kg gacha ortishida va R_v=0,2m bo'lganida, konveyer vintini ko'tarilish burchagi 21,8º dan 13,1º gacha nochiziqli bog'lanishda kamayib boradi. Lekin, R_v=0,11m bo'lganida, "α" burchagiga paxta massasi ta'siri deyarli parallel ravishda ortadi, va 36,7º dan 24,9ºgacha kamayishini ko'rish mumkin (3-rasm, 4-grafik). Demak, paxta qanchalik yaxshi titilgan bo'lsa, uni transportirovka qilishda vint ko'tarilish burchagini katta qilib olish maqsadga muvofiq bo'ladi.




1-R_v=0,2m; 2-R_v=0,17m;
3- R_v=0,14m; 4- R_v=0,11m;
3-rasm. Konveyer vinti ko'tarilish burchagining o'zgarishini paxta bo'lagi (lint) massasiga va vint diametriga bog'liqlik grafiklari.

Qurilgan 4-rasmda konveyer vinti ko'tarilish burchagining o'zgarishini vint burchak tezligini o'zgarishiga bo'g'liqlik grafiklari keltirilgan.



1-m_p=1,15·10^{-3}kg; 2- m_p =0,3·10^{-3}kg; 3- m_p =0,45·10^{-3}kg; 4- m_p =0,62·10^{-3}kg

4-rasm. Koveyer vinti ko‘tarilish burchagining o‘zgarishini vint burchak tezligi o‘zgarishiga bog‘liqlik grafiklari.



1-R_v=0,2m; 2-R_v=0,17m; 3-R_v=0,14m; 4-R_v=0,11m;

5-rasm. Konveyer vintini ko‘tarilish burchagining o‘zgarishini paxta bo‘lagini to‘rli yuza bilan ishqalanish koeffitsenti va vint radiusini o‘zgarishiga bo‘g‘liqlik grafiklari

Grafiklar analiziga asosan konveyer vinti burchak tezligi qiymatlari 1,8s^{-1} dan 3,5s^{-1} gacha orttirilganda va m_p=0,62·10^{-3}kg bo‘lganida vintni ko‘tarilish burchagi α ni qiymatlari 28,1º dan 12,1º gacha chiziqsiz qonuniyatda kamayadi. Mos ravishda ω_v qiymatlari 3,5s^{-1} gacha kamayganda va paxta bo‘lagi (lint) massasi 0,15·10^{-3}kg bo‘lganida konveyer vintini ko‘tarilish burchagi 32,2º dan 25,3º gacha chiziqsiz bog‘lanishda pasayib boradi. Demak, vint vali burchak tezligini yuqori bo‘lishi paxta bo‘laklari transportirovkasini, ya’ni ish unumini ortishiga olib keladi. Bunda paxta bo‘laklari yetarlicha titilgan bo‘lishi talab etiladi. Tavsiya qiymatlari: ω_v=(2,7÷3,2)s^{-1}, m_p≤(0,15÷3,2)·10^{-3}kg. Bunda konveyer vinti ko‘tarilish burchagi (28º÷30º) oralig‘ida bo‘lishi ta’minlanadi.

5-rasmda konveyer vintini ko‘tarilish burchagining o‘zgarishini paxta bo‘lagini to‘rli yuza bilan ishqalanish koeffitsenti va vint radiusini o‘zgarishiga bo‘g‘liqlik grafiklari keltirilgan. Yuqorida vint ko‘tarilish burchagini aniqlashda paxta bo‘lagini vint sirtidan sirpanmasdan transportirovka qilishda, ya’ni ishqalanish koeffitsenti shartli ravishda birga teng qilib olingan (sirpanish yo‘q). Lekin paxtani transportirovka va tozalash jarayonlarida uni egri profilli to‘rli yuza bilan ishqalanish koeffitsentini o‘zgarishi muhim o‘rin tutadi. Ushbu ishqalanish koeffitsenti 0,15dan 0,4 gacha ortganida konveyer vinti ko‘tarilish burchagi “α” qiymatlari R_v=0,2m bo‘lganida, 34º dan 27,6º gacha nochiziqli qonuniyatda kamayib borsa, vint radiusi 0,19m gacha kamaytirilib aniqlanganda, “α” burchak qiymatlari 17,3º dan 13,4º gacha kamayadi. Shuning uchun f_t qiymatlarini ortishi uchun og‘ma egri shaklli teshiklarni paxta bo‘laklari harakat yo‘nalishiga tik qilib olingan. Tavsiya qiymatlari: f_t≥(0,5÷0,35); R_v=(0,17÷0,2)m qilib olinganda α qiymatlari (28º÷36º) bo‘lishi ta’minlanadi.

Xulosa. Paxtani (lintni) transportirovka qiluvchi va tozalovchi vintli konveyer konstruksiyasi ishlab chiqilgan, vint parametrlarini qiymatlari asoslangan. Vintli konveyerda paxta bo‘lagini to‘rli yuza ustida vint sirti bilan harakatlanishining tahlili asosida vintni ko‘tarilish burchagini tavsiya qiymatlari aniqlangan.

ADABIYOTLAR

1. Djuraev A., Yuldashev K. “Dynamics of the Screw Conveyor for Transportation and Cleaning of Fiber Material” International Journal of Advanced Science and Technology. Vol. 29, No. 5, (2020), pp. 8557-8566. ISSN: 2005-4238.

2. Djuraev A., Mamaxanov A., Yuldashev K. "Development of an Effective Design and Justification of the Parameters of a Screw Conveyor for Transporting and Cleaning Cotton Linters”. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. Vol. 7, Issue 5 , May 2020. R. 13649-13653. ISSN: 2350-0328.

3. Djuraev A., Mamaxanov A., Yuldashev K. “Improvement of the term of service life of the drive roller chain of transmission”. International Journal of Advanced Research in Scince, Enjineering and Technology. Vol. 6, Issue 3, March 2019 R. 8508-8514. ISSN: 2350-0328.

4. Djurayev A., Yuldashev K., Teshaboyev O.. “Development of construction of a screw conveyer that transports and cleans cotton, justification of screw parameter”. XIV international conference on transport infrastructure: Territory development and sustainability TITDS-XIV-2023.

5. Djurayev A., Yuldashev K., Daliyev Sh., Nizomov T “Results of theoretical research of curved pile drums for cleaning cotton from small impurities”. XI International Scientific and Practical Conference Innovative Technologies in Environmental Science and Education (ITSE-2023) 13 October 2023 E3S Web of Conferences 431, 01058 (2023) ITSE-2023.

UO‘T: 539.3

BO‘YLAMA EGILISH NAZARIYASINI EKSPERIMENTAL TEKSHIRISH VA SIQILGAN STERJENNING KRITIK KUCHINI ANIQLASH

Xadjieva Salima Sadikovna
Andijon davlat texnika instituti, katta o‘qituvchi
E-mail: sxadjiyeva011@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada siqilgan sterjenlarning ustivorlik masalalari va bo‘ylama egilish nazariyasining eksperimental tekshirilishi bayon etilgan. Tadqiqot davomida siqilgan sterjenning ustivorligi yo‘qoladigan kritik kuch qiymatini WP 120 qurilmasi orqali laboratoriya sharoitida aniqlanib, olingan natijalar Eyler nazariyasi asosida hisoblangan qiymatlar bilan taqqoslangan. Tajriba natijalari sterjenning uzunligi, kesim yuzasi va materialning elastik xossalari kritik kuchga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Nazariy va eksperimental ma’lumotlar o‘rtasidagi tafovutlar tahlil qilinib, ularning yuzaga kelish sabablari ko‘rsatildi. Tadqiqot natijalari qurilish konstruksiyalari hamda mashinasozlik elementlarini loyihalashda ustivorlik hisoblarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы устойчивости сжатых стержней и экспериментальная проверка теории продольного изгиба. В ходе исследования в лабораторных условиях с помощью прибора WP 120 была определена критическая сила, вызывающая потерю устойчивости стержня, а полученные результаты сопоставлены с теоретическими расчетами по формуле Эйлера. Эксперимент подтвердил влияние длины стержня, площади поперечного сечения и упругих свойств материала на величину критической силы. Проведен анализ расхождений между теоретическими и экспериментальными результатами. Полученные данные могут быть использованы при проектировании строительных конструкций и элементов машин.

Abstract. This article examines the stability of compressed beams and experimentally validates the theory of buckling. Using a WP 120 instrument, the critical force causing beam buckling was determined in a laboratory study, and the results were compared with theoretical calculations using Euler's formula. The experiment confirmed the influence of beam length, cross-sectional area, and elastic properties of the material on the critical force. Discrepancies between theoretical and experimental results were analyzed. The data obtained can be used in the design of building structures and machine components.

Kalit so‘zlar: WP 120 qurilmasi , bo‘ylama egilish, ustivorlik, kritik kuch, siqilgan sterjen, Eyler formulasi, kritik kuchlanish, deformatsiya, elastiklik moduli, laboratoriya tajribasi, konstruksiya.

Ключевые слова: прибор WP 120 продольный изгиб, устойчивость, критическая сила, сжатый стержень, формула Эйлера, деформация, критическое напряжение, модуль упругости, эксперимент, конструкция.


Keywords: WP 120 device, buckling, stability, critical load, compressed column, Euler formula, deformation, critical stress, modulus of elasticity, experiment, structural design.

Kirish


Materiallar qarshiligi va qurilish mexanikasi fanlarida siqilgan sterjenlarning ustivorligini o‘rganish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Ko‘plab muhandislik konstruksiyalari, jumladan ustunlar, fermalar, tayanchlar, minoralar va mashina detallari siqilish yuklamalari ta’sirida ishlaydi [3].

Nazariy mexanikadan bizga ma’lumki absolyut qattiq jismning muvozanat holati uch xil , ustivor, befarq va noustivor bo‘lishi mumkin. Xuddi shunday holatlarni deformatsiyalanuvchi qattiq jismlarda ham ko‘rishimiz mumkin. Amaliyotda ko‘pincha konstruksiya elementlarining

ustivorligini yo‘qotish hollari uchrab turadi. Bunday holat asosan ko‘ndalang kesim o‘lchamlariga nisbatan uzunligi juda katta bo‘lgan sterjenlarda ro‘y beradi. [6]. Konstruksiya elementlariga ta’sir qilayotgan kuchni qiymatiga qarab, uni muvozanat holatda turishini belgilash materiallar qarshiligini asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Bu xodisada asosan uzun va ingichka sterjenlarda ko‘p uchraydi. Misol tariqasida quydagi holatlarni kuzatishimiz mumkin 1.1-rasm.



1-rasm. a) ustvor; b) befarq; v) noustivor



2-rasm

Agarda sterjen unga ta’sir qilayotgan kuchning biror qiymatida o‘zining ham to‘g‘ri chiziqli, ham egri chiziqli holatida muvozanatini saqlab tura olsa, bu holatga to‘g‘ri kelgan kuch ***kritik kuch deyilib, u*** P_{kr} ***deb belgilanadi.***

Kuchni miqdori, kritik kuchni qiymatiga yetgandan keyin juda kichkina ta’sir ham sterjenni muvozanatdan chiqarib, u juda tez egilib ketishi mumkin. SHuning uchun bu holat juda xavfli bo‘lib, bunday egilish bo‘ylama egilish deb ataladi. [5]. Bu xodisa faqat sterjenli konstruksiya elemetlarida ro‘y bermasdan, u plastinkalik va qobiqlik konstruksiyalarda ham ko‘p uchraydi.

Zamonaviy qurilish va mashinasozlik amaliyotida esa nazariy hisob-kitoblarni tajriba natijalari bilan solishtirish alohida ahamiyatga ega.Mazkur tadqiqotning maqsadi bo‘ylama egilish nazariyasini laboratoriya tajribasi asosida tekshirish hamda siqilgan sterjenning kritik kuchini eksperimental ravishda aniqlashdan iborat.

Materiallar va tadqiqot usullari

Siqilgan sterjenlar ustivorligi masalalari Mexanika bo‘limining Materiallar qarshiligi fani eng muhim bo‘limlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishdagi dastlabki ilmiy izlanishlar Leonhard Eyler tomonidan amalga oshirilgan. U siqilgan sterjenlarning elastik holatda ustivorligini yo‘qotish qonuniyatlarini nazariy jihatdan asoslab berdi va kritik kuch formulasini taklif etdi. Keyinchalik Yasinskiy, Timoshenko, Gere, Hibbeler va boshqa olimlar tomonidan siqilgan elementlarning ustivorligi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar davom ettirildi. Timoshenko siqilgan sterjenlarning elastik va elastik-plastik holatlaridagi ishlash mexanizmlarini chuqur o‘rgandi. Gere va Goodno tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda turli mahkamlash sxemalarining kritik yuklamaga ta’siri tahlil qilingan [4,5].

Zamonaviy ilmiy manbalarda eksperimental tadqiqotlarga katta e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, laboratoriya sharoitida olingan natijalarni nazariy hisoblash usullari bilan taqqoslash

konstruksiyalarni yanada ishonchli loyihalash imkonini bermoqda. O‘zbekiston olimlari tomonidan ham materiallar qarshiligi va qurilish mexanikasi sohasida siqilgan elementlarning ustivorligini o‘rganishga bag‘ishlangan qator ilmiy ishlar bajarilgan. Ushbu tadqiqotlar qurilish konstruksiyalarining xavfsizligini oshirish va konstruksiyalarni tejamkor loyihalash masalalarini hal qilishga xizmat qilmoqda.

Natijalar

Materiallarni bo‘ylama egilishga sinashdan maqsad siqilishga ishlaydigan har bir ingichka va uzun konstruksiya uchun u ko‘tara olishi mumkin bo‘lgan kritik kuchning miqdorini aniqlash asosiy masala hisoblanadi. Agar biz kritik kuchni baholay olsak u xolda biz konstruksiyamiz ko‘tarishi mumkin bo‘lgan kuchni, kritik kuchdan bir necha marta kichik qilib olishimiz mumkin [3] Siqilgan sterjenlar ustvorligini turli usullarda bajarilib, ulardan eng ko‘p tarqalgani Eyler usulidir.

Bu sinovda WP 120 qurilmasi (1.3-rasm)ni boshqarish va egilish sinovini qay tariqa olib borish namoyish etiladi. 1-holatda Evler egilishi har ikkala chetdagi sharnirli montajli sterjen o‘q kuchiga sekin asta bog‘liq bo‘lib boradi. Ma’lum bir yukdan yuqorida u yon tomonga egiladi. Bu holatda sterjenli namunaning egilishi sterjenning o‘rtasida o‘lchanadi va jadvalga birgalikdagi kuch bilan qayd etiladi. Kuch/deformatsiya grafigi mazkur o‘lchangan qiymatlardan foydalangan holda to‘ldirib boriladi. Sinovning natijalari egilish nazariyasining qiymatlari bilan taqqoslanadi. Po‘latdan yasalgan S2 sterjenli namunasi (o‘lchami 20 mm x 4 mm x 500 mm) qo‘llanilishi kerak [1].

Elastik sistemalarning ustuvor muvozanatini tekshirish uchun bir necha usullar mavjud. Ular qurilish va mashinasozlikda ishlatiladigan turli konstruksiya elementlarini ustuvorliklarini tekshirishda ishlatiladi. Bulardan eng oddiysi va eng asosiysi Eyler usuli bo‘lib, bu usul bilan injenerlik praktikasida uchraydigan ko‘pgina masalalarni oddiygina xal qilish mumkin. Markaziy siqilgan va egiluvchi sterjenlarni ko‘tarishi mumkin bo‘lgan kritik kuchni qiymatini topish masalasini birinchi bo‘lib 1744 yilda Leonard Eyler topgan.

$$P_{кр} = \frac{\pi^2 E I_{\min}}{l^2}; \qquad (1)$$

Amaldagi xodisalarni kuzatish shuni ko‘rsatadiki:

- cho‘zilishga ishlayotgan sterjenlarda xavfli holat (yemirilish) belgilari oldindan paydo bo‘ladi, ya’ni konstruksiyada va materialda ba’zi o‘zgarishlar paydo bo‘ladi (yemirilish, ko‘ndalang kesimni kichrayishi va x.k.).

-Siqilgan sterjenlarda esa ustuvorlikni yo‘qolishi sezilarli belgilarsiz birdaniga hosil bo‘lishi mumkin. Bu ayniqsa o‘lchamlari noto‘g‘ri tanlangan konstruksiyalarda ko‘p uchrab turadi[7].

Sterjenli namunalar ikkita jamlanmadan iboratdir. Uskunadan tajriba davomida o‘ta samarali foydalanish uchun sterjenli namunalarning hajmi WP 120 uskunasiga qarab moslanadi. [2]. Standart jamlanamdan iborat sterjenli namunalarni montajlar, uzunlik va materialning ta`sirlariiga sinovlarni olib borishda ishlatish mumkin. Eksesentrik montaj va turli xil ko‘ndalang kesimli rasmlarning ta`sirini qo‘shimcha moslamali WP 120.01 qurilmasi(1.3-rasm)da o‘rganish mumkin.Тажриба WP 120 Sinov qurilmasi yordamida bajariladi. Sinov uskunasi asosan asos, boshlovchi ustunlar va ko‘ndalang to‘sindan iborat.

Bu sinovda WP 120 qurilmasini boshqarish va egilish sinovini qay tariqa olib borish namoyish etiladi. 1-holatda Evler egilishi har ikkala chetdagi sharnirli montajli sterjen o‘q kuchiga sekin asta bog‘liq bo‘lib boradi[1]. Ma’lum bir yukdan yuqorida u yon tomonga egiladi. Bu holatda sterjenli namunaning egilishi sterjenning o‘rtasida o‘lchanadi va jadvalga (ilova) birgalikdagi kuch bilan qayd etiladi. Kuch/deformatsiya grafigi mazkur o‘lchangan qiymatlardan foydalangan holda to‘ldirib boriladi. Sinovning natijalari egilish nazariyasining qiymatlari bilan

taqqoslanadi. Po‘latdan yasalgan S2 sterjenli namunasi (o‘lchami 20 mm x 4 mm x 500 mm) qo‘llanilishi kerak.



3-rasm.WP 120.01 qurilmasi

Sinov qurilmasini vertikal yoki gorizontal holatda o‘rnating. Kuch indikatorini bu vaziyatda 90 darajaga o‘zgartirish mumkin.

- Uskunaning o‘yiq yeriga S2 sterjenli namunani ikki chekkasi bilan kirgazing.
- Ko‘ndalang to‘sin boshlovchi ustunga shunday qotirilishi kerak-ki, yuqoridagi turtish bo‘lagining harakatlanishi uchun taxminan 5 *mm* joy qolsin.

-Sterjenli namunani shunday joylashtiring-ki uning egilish yo‘nalishi yonlama boshlovchi ustunlarga qarab yo‘nalgan bo‘lsin. Bu yerda, uning ikki cheti ko‘ndalang to‘singa perpendikulyar bo‘lsin.

-Sterjenli namunani past o‘lchanmyadigan kuch bilan oldindan mahkamlang.

-Tayanch vintlari bilan indikatorni o‘rtaga joylashtiring. Indikator egilish yo‘nalishiga to‘g‘ri burchak ostida joylashtirilishi kerak.

-O‘zgaradigan tayanch bilan indikatorni 10 *mm* o‘zgarish bilan oldindan mahkamlang.

-Yuk gaykasi bilan sterjenli namuna yukini sekinlik bilan bog‘lang.

-Indikatordagi yo‘nalish o‘zgarishini kuzating. Har 0,25 *mm* dan 1 mmgacha yo‘nalish o‘zgarishini kuzating va qayd eting.

-1 mm dan yuqoridagi yo‘nalish o‘zgarishida har 0,5 *mm* da yo‘nalish o‘zgarishi va kuchni qayd etish yetarli[1,2].

Sterjenlarni hisoblashda oldin nazariy(hisob-kitob) so‘ng amaliy (tajriba) bajariladi.


Sterjenni uzunliklari ℓ uchun egilish kuchini quyidagi 1-formula Evler kuchi uchun yaratilgan formulaga binoan hisoblash mumkin. Hisoblashda ℓ masofalari yani 350,500,600,700mm qilib hisoblanadi

Olingan natijalar quyidagi 1-jadvalga kiritiladi.

1-jadval

Sterjenli namuna:					S2 po`lat									
Uzunlik:					500 mm									
Inersion geometrik moment:					106.6 mm^4									
Elastiklik moduli:					210000 N/mm^2									
O`zgarish mm da	0	0.25	0.5	0.75	1.0	1.5	2.0	2.5	3.0	3.5	4.0	5.0		
Kuch N	0	400	570	650	710	780	810	840	850	860	870	870		

1-jadvalga yozilgan ma’lumotlarni quyidagi grafikka kirgazish orqali namoyish qilinadi.



4-rasm.1-jadvaldan olingan natijalar bo‘yicha diagramma

O‘tkazilgan WP 120 qurilmasi [7].orqali o‘tkazilgan sinov natijalari bo‘ylama egilish nazariyasini eksperimental tekshirish va siqilgan sterjenning kritik kuchini aniqlashda Eyler usuli orqali aniqlash konstruksiya elementlarini samaradorligini oshiradi..

Muhokama

WP120-sinov uskunasi yordamida o‘tkazilgan tajribadan shu xulosaga kelindiki

- Siqilgan sterjenlarning ustivorligi kritik kuch bilan tavsiflanadi.
- Sterjen uzunligi ortishi bilan kritik kuch kamayadi.
- Eksperimental natijalar Eyler formulasi yordamida olingan nazariy natijalar bilan mos keladi.
- Sterjen kesimining geometrik xarakteristikalari ustivorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa

Yuqoridagi tajriba orqali konstruksiyalarni loyihalashda ustivorlik hisoblarini Evler nazariyasi orqali tekshirish, sterjen uzunligi va diamterining ta’siri va material parametrlarining ta’sirini,bundan tashqari, trayektoriya va kuch o‘lchovi kabi asosiy texnik sinovlarni amalda qo‘llash mumkin.

ADABIYOTLAR

1.All rights reserved G.U.N.T. Gerätebau GmbH. Hamburg.WP 120 Потеря устойчивости стерженей. Publication No. 912.000 00A 120 12.

2. G.U.N.T Gerätebau GmbH, Fahrenberg 14, D-22885 Barsbüttel, Phone +49 (40) 67 08 54-0, Fax +49 (40) 67 08 54-42, E-mail sales@gunt.de, Web http://www.gunt.deWe reserve the right to modify our products without any notifications.

3.Timoshenko S.P., Gere J.M. Theory of Elastic Stability. – New York: McGraw-Hill, 1961.

4.Gere J.M., Goodno B.J. Mechanics of Materials. – Boston: Cengage Learning, 2018.

5.Timoshenko S.P. Strength of Materials. – New York, 1955.

6.Дарков А.В., Шпиро Г.С. Сопротивление материалов. – Москва: Высшая школа, 2015.

7.Sobirov X. A., Атабаев К., Bekkulov B.R., Xadjiyeva S.S. Mexanika fanidan laboratoriya ishlarini bajarish. O‘quv qo‘llanma. “Omadbek print number one” nahsriyoti. Andijon, 2024 yil.164 b.

8. К.Атабаев, С.С.Хаджиева. Лабораторные работы по курсу «Сопротивление материалов». [Учебное пособие] – ООО “Omadbek print number one”. Андижан: 2025. – 124 стр.

UO‘T: 656.13:656.08

YO‘L HARAKATI QATNASHCHILARI VA ULARNING O‘ZARO TA’SIRI: TIZIMLI YONDASHUV VA OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Baynazarov Xayrullo Raximovich
Andijon davlat texnika instituti
“Transport logistikasi” kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD).
E-mail: avtodoroj2012@gmail.com
ORCID: 0000-0002-1219-9059

Annotatsiya. Mazkur maqolada yo‘l harakati qatnashchilarining turlari, ularning funksional roli va o‘zaro ta’sir shakllari tizimli tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar, xususan, AI, V2I, IoT va GIS asosida qatnashchilar o‘rtasidagi muvofiqlashtirilgan harakatni ta’minlash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston shaharlarida kuzatilayotgan muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

Abstract. This article presents a systematic analysis of the types of road traffic participants, their functional roles, and the forms of interaction among them. It also explores the potential for coordinated movement based on modern technologies, particularly AI, V2I, IoT, and GIS. The study highlights existing challenges observed in urban areas of Uzbekistan and proposes solutions for their mitigation.

Аннотация. В данной статье представлен систематический анализ типов участников дорожного движения, их функциональных ролей и форм взаимодействия между ними. Также исследуется потенциал скоординированного движения на основе современных технологий, в частности ИИ, V2I, IoT и ГИС. В исследовании освещаются существующие проблемы, наблюдаемые в городских районах Узбекистана, и предлагаются решения для их смягчения.

Kalit so‘zlar: Yo‘l harakati qatnashchilari, o‘zaro ta’sir, transport xavfsizligi, V2I, AI, IoT, trayektoriya, svetofor.

Keywords: Road traffic participants, interaction, transport safety, V2I, AI, IoT, trajectory, traffic light.

Ключевые слова: Участники дорожного движения, взаимодействие, транспортная безопасность, V2I, ИИ, IoT, траектория, светофор.

Kirish. Zamonaviy shahar transport tizimlarida yo‘l harakati qatnashchilari - haydovchilar, piyodalar, velosipedchilar, jamoat transporti operatorlari va favqulodda xizmatlar - o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir murakkab, ko‘p qatlamli va dinamik jarayon bo‘lib, u transport xavfsizligi va harakat samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Har bir qatnashchi o‘zining trayektoriyasi, tezligi, ustuvorligi va axborot qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lib, bu ularning o‘zaro muvofiqligini ta’minlashni talab etadi [1].

Ushbu o‘zaro ta’sirlar nafaqat fizik harakatlar orqali, balki vizual signallar (svetofor, yo‘l belgisi), axborot texnologiyalari (V2I, IoT), va ijtimoiy omillar (transport madaniyati, odob) orqali ham shakllanadi. Ayniqsa, sun’iy intellekt (AI), transport vositalari va infratuzilma o‘rtasidagi real vaqtli axborot almashinuvi (V2I), hamda geografik axborot tizimlari (GIS) ushbu jarayonni avtomatlashtirish va optimallashtirish imkonini bermoqda [2, 3].

O‘zbekiston shaharlarida kuzatilayotgan muammolar - piyodalar xavfsizligining pasayishi, jamoat transporti kechikishlari, velosipedchilar uchun infratuzilmaning yetishmasligi va favqulodda xizmatlar harakatining cheklanishi - qatnashchilar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mexanizmlarining takomillashuvini talab etadi [4, 5]. Shu bois, ushbu maqolada yo‘l harakati qatnashchilarining turlari, ularning funksional roli va o‘zaro ta’sir shakllari tizimli tahlil qilinadi. Shuningdek, AI, V2I, IoT va GIS texnologiyalari asosida qatnashchilar harakatini

muvofiqlashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Yo‘l-transport hodisalari (YTH) dunyo miqyosida dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma’lumotlariga ko‘ra, har yili dunyo bo‘yicha 1,19 milliondan ortiq inson yo‘l-transport hodisalari oqibatida vafot etadi va 20–50 million nafarga yaqin kishi turli darajadagi tan jarohati oladi. YTHlarning katta qismi transport oqimi yuqori bo‘lgan shaharlarda va tirband hududlarda sodir bo‘ladi. Shu sababli transport oqimini samarali boshqarish va tirbandliklarni kamaytirish yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi [10]. Rossiya olimlari V.V. Silyanov, A.E. Gorev va Yu.A. Kremenets yo‘l harakatini tashkil etish va transport oqimlarini boshqarish masalalarini chuqur tadqiq etganlar. Ularning ishlarida transport oqimining zichligi, yo‘lning geometrik elementlari va chorrahalarning o‘tkazuvchanligi YTH xavfiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [11–13].

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda yo‘l harakati qatnashchilari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va zamonaviy texnologiyalar asosida optimallashtirish imkoniyatlarini baholash uchun kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot multidisiplinar asosda olib borildi - texnologik (AI, V2I, IoT), ijtimoiy (xulq-atvor, madaniyat), huquqiy (qonunchilik) va fazoviy (GIS, trayektoriya) jihatlar birgalikda tahlil qilindi. Har bir qatnashchi guruhning funksional roli, trayektoriya xususiyatlari va o‘zaro ta’sir shakllari alohida modellashtirildi. Ma’lumotlar bazasi birlamchi va ikkilamchi manbalarga tayandi: birlamchi manbalar sifatida O‘zbekiston Respublikasi IIV YHXBB statistik hisobotlari (2022–2024), shahar transport boshqarmalari ma’lumotlari, svetofor fazalari va piyoda o‘tish joylari xaritalari tahlil qilindi; ikkilamchi manbalar esa xalqaro ilmiy maqolalar (Markkula et al., Dey et al.), UNECE va ETSC hujjatlari, hamda urbanistik modellar va simulyatsiya platformalaridan iborat bo‘ldi. Bu yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va amaliy qo‘llanilishini ta’minlashga xizmat qildi.

Natijalar. Yo‘l harakati qatnashchilari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni tahlil qilish transport xavfsizligi, harakat samaradorligi va shahar infratuzilmasini rejalashtirishda muhim ilmiy yo‘nalish bo‘lib, bu jarayon multidisiplinar yondashuvni talab etadi: texnologik (AI, V2I, IoT), ijtimoiy (xulq-atvor, madaniyat), huquqiy (qonunchilik) va fazoviy (GIS, trayektoriya) jihatlar birgalikda o‘rganiladi. Markkula et al. (2020) tomonidan ishlab chiqilgan interaktiv harakat modeli qatnashchilar o‘rtasidagi vizual va ijtimoiy signallar asosida shakllanadigan xatti-harakatlarni tushuntiradi [1], Dey et al. (2025) esa dyadik o‘zaro ta’sirni simulyatsiya qilish orqali trayektoriya tahlili va svetofor fazalarini optimallashtirishga ilmiy asos beradi [2]. UNECE (2024) va ETSC (2023) hujjatlarida AI va V2I texnologiyalarining transport xavfsizligiga ta’siri, favqulodda xizmatlar uchun ustuvorlik mexanizmlari ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, Traffic Safety Research (TSR) jurnalida muntazam chop etiladigan maqolalar YTH statistikasi, xavfsizlik strategiyalari va texnologik innovatsiyalarni tahlil qilishda muhim manba sifatida xizmat qiladi [3, 4, 5].

Yo‘l harakati qatnashchilari tasnifi va funksiyalari.

Yo‘l harakati qatnashchilari - bu transport tizimida faol ishtirok etuvchi shaxslar va subyektlar bo‘lib, ularning har biri harakat xavfsizligi, samaradorligi va ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ular funksional jihatdan turli guruhlarga bo‘linadi:

1) Haydovchilar - bu yengil avtomobil, yuk mashinasi, jamoat va maxsus xizmat transporti vositalarini boshqaruvchi shaxslar bo‘lib, ular yo‘l harakati qoidalariga rioya qilish, boshqa qatnashchilarga e’tiborli bo‘lish hamda svetoforlar, yo‘l belgilar, piyodalar, velosipedchilar va favqulodda xizmatlar bilan muvofiqlikda harakat qilish orqali transport tizimining xavfsiz va samarali ishlashini ta’minlaydi.

2) Piyodalar - bu kattalar, bolalar, nogironlar va jamoat transporti yo‘lovchilaridan iborat qatnashchilar bo‘lib, ular yo‘lni kesib o‘tish, bekatlardan foydalanish va xavfsiz trayektoriya tanlash orqali haydovchilar, svetoforlar, piyoda o‘tish joylari hamda jamoat transporti bilan muvofiqlikda harakat qiladi.

3) Velosipedchilar va mikromobil vositalar egalari - bu velosiped, elektroskuter va elektrobike foydalanuvchilari bo‘lib, ular ekologik harakat vositasi sifatida belgilangan yo‘laklarda harakatlanadi hamda avtomobillar, piyodalar va yo‘l infratuzilmasi bilan muvofiqlikda ishtirok etadi.

4) Jamoat transporti operatorlari - avtobus, tramvay, metro va marshrutka haydovchilari hamda tizim operatorlaridan iborat bo‘lib, ular yo‘lovchilarni belgilangan yo‘nalishlarda xavfsiz va samarali tashish vazifasini bajaradi hamda bekatlar, haydovchilar, piyodalar va svetoforlar bilan muvofiqlikda harakat qiladi.

5) Favqulodda xizmatlar - tez yordam, yong‘in xavfsizligi va politsiya transporti vositalaridan iborat bo‘lib, ular favqulodda holatlarda tezkor harakat qilish va ustuvorlikka ega bo‘lish funksiyasini bajaradi hamda barcha qatnashchilar, V2I tizimlari va svetoforlar bilan muvofiqlikda ustuvorlikni ta’minlaydi.

6) Avtonom transport vositalari - sun’iy intellekt asosida boshqariladigan avtomobillar va robotlashtirilgan transport vositalaridan iborat bo‘lib, ular sensorlar va algoritmlar orqali xavfsiz harakatlanadi hamda infratuzilma, boshqa transport vositalari va piyodalar bilan V2I va IoT texnologiyalari orqali real vaqtli axborot almashinuvi asosida o‘zaro ta’sir qiladi.

Yo‘l harakati qatnashchilarining to‘g‘ri tasnifi va ularning funksional rolini aniqlash transport tizimini optimallashtirish, xavfsizlikni oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Har bir guruhning o‘ziga xos trayektoriya, tezlik, ustuvorlik va axborot qabul qilish xususiyatlari ularning o‘zaro ta’sir mexanizmlarini shakllantiradi.

O‘zaro ta’sir shakllari va mexanizmlari. Yo‘l harakati qatnashchilari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir - bu harakat muvofiqligi, xavfsizlik va samaradorlikni ta’minlashga qaratilgan murakkab tizim bo‘lib, u bir nechta shakllar va texnologik mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Har bir qatnashchi guruh o‘z trayektoriyasi, tezligi, ustuvorligi va axborot qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lib, bu ularning o‘zaro ta’sirini belgilaydi [1, 2, 6].

Fizik ta’sir - bu trayektoriya kesishishi, harakat yo‘nalishlari va tezlik farqlari asosida yuzaga keladigan o‘zaro ta’sir shakli bo‘lib, unda to‘qnashuv xavfi, masofa saqlash, burilish va to‘xtash holatlari muhim rol o‘ynaydi; ayniqsa, piyoda va avtomobil trayektoriyasi kesishgan nuqtalarda svetofor yoki belgi bo‘lmasa, xavf darajasi sezilarli darajada ortadi.

Vizual ta’sir - bu svetofor signallari, yo‘l belgilar, chiziqlar va piyoda o‘tish joylari orqali amalga oshadigan o‘zaro ta’sir shakli bo‘lib, qatnashchilar harakatni muvofiqlashtirishda aynan ushbu vizual signallarga tayanadi, uning samaradorligi esa belgilar joylashuvi, yoritilishi va ko‘rinish darajasiga bevosita bog‘liqdir.

Axborot ta’siri - bu V2I (Vehicle-to-Infrastructure), IoT (Internet of Things) va AI (sun’iy intellekt) texnologiyalari orqali transport vositalari va infratuzilma o‘rtasida tezlik, trayektoriya, svetofor fazasi hamda xavf darajasi kabi ma’lumotlarning real vaqtli almashinuvi asosida shakllanadigan o‘zaro ta’sir bo‘lib, u favqulodda xizmatlar uchun ustuvorlikni avtomatik tarzda ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy ta’sir - bu transport madaniyati, xulq-atvor me’yorlari, odob va etik qoidalar asosida shakllanadigan o‘zaro ta’sir shakli bo‘lib, haydovchining piyodaga yo‘l berishi yoki velosipedchining belgilangan yo‘lakdan harakatlanishi kabi holatlar unga misol bo‘la oladi. Ushbu ta’sirni kuchaytirish uchun axborot kampaniyalari, targ‘ibot ishlari va ta’lim jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Yo‘l harakati qatnashchilari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir shakllari - fizik, vizual, axborot va ijtimoiy - bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni muvofiqlashtirish transport tizimining xavfsiz va samarali ishlashini ta’minlaydi. Zamonaviy texnologiyalar bu ta’sirlarni avtomatlashtirish va optimallashtirish imkonini beradi, ijtimoiy madaniyat esa ularning barqarorligini ta’minlaydi. Ushbu ta’sirlar transport infratuzilmasi va boshqaruv tizimlari orqali muvofiqlashtiriladi.

Zamonaviy texnologiyalar orqali muvofiqlashtirish. Zamonaviy texnologiyalar orqali yo‘l harakati muvofiqlashtirish - bu avtomatlashtirilgan boshqaruv, real vaqtli monitoring va axborot almashinuvi orqali qatnashchilar harakatini xavfsiz va samarali tarzda muvofiqlashtirish tizimidir.

Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari (ITS) - bu intellektual transport tizimlari orqali svetofor fazalarini real vaqt rejimida optimallashtirish, tirbandlik darajasiga qarab yo‘l belgilarini, svetoforlarni va harakat yo‘nalishlarini moslashtirishni ta’minlaydigan texnologik yondashuv bo‘lib, O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasining qarorida ushbu tizimlarni joriy etish orqali yo‘l harakati xavfsizligini oshirish choralari belgilangan [7, 8].

V2I va IoT texnologiyalari - bu avtomobillarning svetoforlar, bekatlar va boshqa infratuzilma elementlari bilan axborot almashishini ta’minlovchi Vehicle-to-Infrastructure (V2I) tizimlari hamda transport vositalari va piyodalar trayektoriyasi, tezligi va xavf darajasini aniqlovchi Internet of Things (IoT) sensorlari orqali ishlovchi zamonaviy yondashuv bo‘lib, ular favqulodda xizmatlar uchun ustuvorlikni avtomatik tarzda ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Sun’iy intellekt asosidagi tahlil - bu AI algoritmlari orqali transport qatnashchilarining harakat dinamikasini tahlil qilish, trayektoriya kesishish ehtimolini oldindan aniqlash, haydovchi xatti-harakatini bashorat qilish, svetofor fazalarini moslashtirish hamda xavfsizlik zonalarini belgilash orqali yo‘l harakati jarayonini optimallashtirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvdir.

Mobil ilovalar va raqamli platformalar - bu yo‘l harakati qatnashchilariga Yandex.Navigator, Google Maps kabi navigatsiya ilovalari orqali tirbandlik, avariya va yo‘l yopilishi haqida ogohlantirishlar berish hamda jamoat transporti tizimlarida elektron chiptalar, GPS kuzatuv va real vaqtli bekat ma’lumotlari orqali yo‘lovchilarning harakatini muvofiqlashtirish imkonini beruvchi zamonaviy texnologik yechimlardir [8, 9].

O‘zbekiston sharoitida transport tizimini muvofiqlashtirishdagi mavjud muammolar.

1. Piyodalar va haydovchilar o‘rtasidagi ziddiyatlar. Ko‘plab shahar va tumanlarda piyoda o‘tish joylarining noto‘g‘ri joylashuvi, svetoforlar bilan muvofiqlashtirilmagan kesishmalar va belgilarning yetishmasligi piyodalar xavfsizligini pasaytiradi hamda haydovchilar bilan ziddiyatli holatlarni keltirib chiqaradi.

2. Velosipedchilar uchun infratuzilmaning yetishmasligi. Maxsus veloyo‘laklar, belgilangan harakat zonalari va xavfsizlik choralari yetarli darajada joriy etilmaganligi sababli velosipedchilar umumiy harakat oqimida qatnashishga majbur bo‘lmoqda, bu esa xavf darajasini oshiradi.

3. Jamoat transporti kechikishlari va ustuvorlikning yo‘qligi. Avtobus va marshrutkalar tirbandlikda qolib ketishi, svetofor fazalarida ustuvorlikka ega bo‘lmasligi, GPS asosidagi real vaqtli monitoringning sustligi yo‘lovchilar uchun kechikish va noqulayliklarni keltirib chiqaradi.

4. Favqulodda xizmatlar harakatining cheklanishi. Tez yordam, yong‘in xavfsizligi va politsiya transporti vositalari uchun maxsus yo‘laklar va avtomatik ustuvorlik tizimlarining yo‘qligi ularning favqulodda holatlarga tezkor yetib borishini cheklaydi.

5. Texnologik integratsiyaning sustligi (AI, V2I, GIS). Sun’iy intellekt, V2I (Vehicle-to-Infrastructure) va GIS (Geoinformatsion tizimlar) kabi zamonaviy texnologiyalar transport tizimiga to‘liq integratsiyalanmagan bo‘lib, bu muvofiqlashtirish, xavfsizlik va monitoring darajasini pasaytiradi.

Takliflar va yechimlar.

1. Piyodalar va velosipedchilar uchun alohida yo‘laklar tashkil etish. Harakat xavfsizligini ta’minlash va ziddiyatli trayektoriyalarni kamaytirish maqsadida piyodalar va velosipedchilar uchun maxsus yo‘laklar ajratilishi lozim. Bu nafaqat xavfsizlikni oshiradi, balki ekologik transport vositalaridan foydalanishni ham rag‘batlantiradi.

2. AI va V2I texnologiyalarini sinovdan o‘tkazish (pilot loyihalar). Toshkent, Samarqand yoki Andijon kabi yirik shaharlarda sun’iy intellekt va Vehicle-to-Infrastructure (V2I) texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha pilot loyihalarni amalga oshirish orqali real vaqtli boshqaruv, svetofor fazalarini moslashtirish va favqulodda xizmatlar uchun ustuvorlikni sinovdan o‘tkazish mumkin.

3. Svetofor fazalarini trayektoriya tahliliga asoslangan holda boshqarish. Transport vositalari va piyodalar trayektoriyasini real vaqt rejimida tahlil qiluvchi algoritmlar asosida svetoforlar ishini moslashtirish orqali tirbandlikni kamaytirish va o‘zaro to‘qnashuv xavfini minimallashtirish mumkin.

4. Transport etikasi va axborot kampaniyalarini kuchaytirish. Haydovchilar va piyodalarning xulq-atvorini yaxshilash, yo‘l harakati madaniyatini oshirish uchun ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va ta’lim muassasalari orqali muntazam ravishda targ‘ibot ishlari olib borilishi zarur.

5. Normativ-huquqiy bazani zamonaviy texnologiyalarga moslashtirish. AI, V2I, IoT va GIS texnologiyalarining transport tizimiga integratsiyasini huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun mavjud qonunchilikni yangilash, texnik reglamentlar va standartlarni ishlab chiqish talab etiladi.

Xulosa. Yo‘l harakati qatnashchilari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni tizimli tahlil qilish va zamonaviy texnologiyalar orqali muvofiqlashtirish transport xavfsizligi va samaradorligini oshirishda muhim omildir. O‘zbekiston sharoitida bu boradagi islohotlar texnologik, tashkiliy va ijtimoiy yondashuvlarni uyg‘unlashtirishni talab etadi.

ADABIYOTLAR

1. Markkula G., Madigan R., Romano R. Defining interactions: a conceptual framework for understanding interactive behaviour in human and automated road traffic // Theoretical Issues in Ergonomics Science. — 2020. — Vol. 21, No. 6. — S. 728–752.

2. Dey D., Habibovic A., Ju W. Operationalizing Dyadic Urban Traffic Interaction Studies: From Theory to Practice // Applied Sciences. — 2025. — Vol. 15, No. 7. — Article 3738.

3. UNECE. Guidelines on Artificial Intelligence and Road Safety. — Geneva: UNECE, 2024. — 64 p.

4. ETSC. AI and V2X in European Road Safety Strategy. — Brussels: European Transport Safety Council, 2023. — 52 p.

5. Traffic Safety Research. — International Journal. — Accessed October 2025. — https://tsrjournal.org.

6. Efremov, A., Kochetova, E. Neural network model for recognition and classification of types of interactions in road traffic // Transportation Research Procedia. – 2022. – T. 63. – S. 115–123.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Qaror №354 “Yo‘l harakati xavfsizligini oshirish va intellektual transport tizimlarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – Toshkent: Lex.uz, 2023. – 11 avgust. – Rejim kirish: https://lex.uz/docs/-6569673 (murojaat qilingan sana: 31.10.2025).

8. Bo‘ronova, O.Q., Ko‘chimova, D.I. Yo‘lovchilarni tashishda zamonaviy texnologiyalar // Jizzax politexnika instituti ilmiy axborotnomasi. – 2024. – №1. – B. 45–50.

9. Ochilova, T. Temir yo‘l yo‘lovchi tashish tizimi tahlili va boshqaruv samaradorligini oshirish // International Journal of Fundamental and Applied Research. – 2024. – T. 4, №2. – B. 112–118.
10. World Health Organization. Global Status Report on Road Safety 2023. Geneva: WHO, 2023.
11. Сильянов В.В. Транспортно-эксплуатационные качества автомобильных дорог. Москва: Транспорт, 2008.
12. Горев А.Э. Организация автомобильных перевозок и безопасность движения. Москва: Академия, 2015.
13. Кременец Ю.А. Технические средства организации дорожного движения. Москва: Транспорт, 2005.

UO‘T: 656.13.08:656.072

SHAHAR AVTOMAGISTRALLARIDA XAVFSIZ HARAKATNI TASHKIL ETISH UCHUN MAQBUL TRANSPORT ZICHLIGINI ANIQLASH

Baynazarov Xayrullo Raximovich
Andijon davlat texnika instituti
“Transport logistikasi” kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD).
E-mail: avtodoroj2012@gmail.com
ORCID: 0000-0002-1219-9059

Annotatsiya. Ushbu maqolada shahar avtomagistrallarida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda transport oqimi zichligining maqbul darajasini aniqlash muammosi tahlil qilinadi. Transport zichligi va harakat xavfsizligi o‘rtasidagi funksional bog‘liqlik modellashtiriladi, mavjud holatlar o‘rganiladi hamda O‘zbekiston sharoitida maqbul zichlikni belgilash bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Abstract. Traffic flow management systems play a crucial role in ensuring road safety and reducing congestion. This article analyzes static, dynamic, and intelligent methods of traffic flow control and highlights their impact on traffic safety efficiency. It also examines the current capabilities of traffic management systems in Uzbekistan, explores ways to improve them, and substantiates the prospects for enhancing safety through the phased implementation of Intelligent Transport Systems (ITS) technologies.

Аннотация. В данной статье анализируется проблема определения оптимального уровня плотности транспортного потока при обеспечении безопасности дорожного движения на городских автомагистралях. Моделируется функциональная зависимость между транспортной плотностью и безопасностью движения, изучаются существующие ситуации и разрабатываются научно-практические рекомендации по определению оптимальной плотности в условиях Узбекистана.

Kalit so‘zlar: transport oqimi, boshqaruv tizimlari, svetofor fazalari, intellektual transport tizimlari (ITS), raqamli integratsiya, tirbandlik, xavfsizlik, O‘zbekiston transporti, multimodal logistika, avtomatlashtirish.

Keywords: traffic flow, control systems, traffic signal phases, Intelligent Transport Systems (ITS), digital integration, congestion, safety, Uzbekistan transport, multimodal logistics, automation.

Ключевые слова: транспортный поток, системы управления, светофорные фазы, интеллектуальные транспортные системы (ИТС), цифровая интеграция, пробки, безопасность, транспорт Узбекистана, мультимодальная логистика, автоматизация.

Kirish. Transport oqimini boshqarish tizimlari yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda strategik ahamiyatga ega bo‘lib, tirbandlikni kamaytirish, avariya holatlarini oldini olish va harakat muvofiqligini oshirish orqali inson hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishga xizmat qiladi. Jahon tajribasida xavfsizlikni oshirish maqsadida transport oqimini boshqarishning statik, dinamik va intellektual usullari qo‘llaniladi. Ayniqsa, Intelligent Transport Systems (ITS) texnologiyalari real vaqt rejimida harakatni nazorat qilish, xavfli vaziyatlarni aniqlash va tezkor choralar ko‘rish imkonini beradi [1, 2].

O‘zbekiston sharoitida yo‘l harakati xavfsizligini oshirishga qaratilgan transport boshqaruv tizimlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Toshkent, Samarqand va Andijon kabi yirik shaharlar markazlarida ITS komponentlari - svetofor fazalarini avtomatik muvofiqlashtirish, kameralar orqali monitoring, GPS asosidagi harakat tahlili - joriy etilgan bo‘lsa-da, ularning qamrovi hali cheklangan. Qishloq va chekka hududlarda esa transport harakati asosan qo‘lda boshqariladi, bu esa reaktiv yondashuv va past xavfsizlik darajasiga olib keladi.

Shuningdek, yuk tashish jarayonida ortiqcha vaqt va xarajatlarning yuzaga kelishi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki transport vositalari va piyodalar xavfsizligini ham pasaytiradi. Shu bois, transport oqimini boshqarish usullarini xavfsizlik mezonlari asosida tahlil qilish, ularning O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan modelini ishlab chiqish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega [3].

Мавзуга оид адабиётлар шарҳи. Yo‘l-transport hodisalari (YTH) dunyo miqyosida dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma’lumotlariga ko‘ra, har yili dunyo bo‘yicha 1,19 milliondan ortiq inson yo‘l-transport hodisalari oqibatida vafot etadi va 20–50 million nafarga yaqin kishi turli darajadagi tan jarohati oladi. YTHlarning katta qismi transport oqimi yuqori bo‘lgan shaharlarda va tirband hududlarda sodir bo‘ladi. Shu sababli transport oqimini samarali boshqarish va tirbandliklarni kamaytirish yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi [7]. Rossiya olimlari V.V. Silyanov, A.E. Gorev va Yu.A. Kremenets yo‘l harakatini tashkil etish va transport oqimlarini boshqarish masalalarini chuqur tadqiq etganlar. Ularning ishlarida transport oqimining zichligi, yo‘lning geometrik elementlari va chorrahalarning o‘tkazuvchanligi YTH xavfiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [8–10].

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda transport oqimini boshqarish usullarining harakat xavfsizligiga ta’sirini baholash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Unda, statik, dinamik va intellektual boshqaruv usullari bo‘yicha xorijiy hamda mahalliy ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi, shuningdek, ITS (Intelligent Transport Systems) texnologiyalarining xavfsizlikka ta’siri ETSC, UNECE, ADB va O‘zbekiston Transport vazirligi hujjatlari asosida o‘rganildi.

Natijalar. Transport oqimini boshqarish usullari tasnifi.

Transport oqimini boshqarish tizimlari yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, tirbandlikni kamaytirish va harakat muvofiqligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Jahon tajribasida ushbu tizimlar uch asosiy toifaga bo‘linadi.

1) Statik boshqaruv.

2) Dinamik boshqaruv.

3) Intellektual transport tizimlari (ITS).

Har bir usulning texnologik murakkabligi, xavfsizlikka ta’siri va qo‘llanish sohasi o‘ziga xosdir.

Statik boshqaruv tizimlari.

Statik boshqaruv tizimlari - bu transport oqimini boshqarishning eng sodda va an’anaviy shakli bo‘lib, svetofor fazalarining almashinuvi oldindan belgilangan vaqt oralig‘ida avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Ushbu tizimlar harakat zichligiga moslashmaydi, ya’ni ular reaktiv emas, balki passiv yondashuvga asoslanadi. Bu esa tirbandlik va avariya holatlarining ortishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bunday boshqaruv tizimlarida svetoforlar harakat oqimining real vaqt holatini hisobga olmaydi. Masalan, chorrahaning bir yo‘nalishida transport vositalari to‘planib qolgan bo‘lsa ham, boshqa yo‘nalishdagi bo‘sh oqim uchun belgilangan yashil chiroq vaqti o‘zgarishsiz qoladi. Bu esa resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishiga, harakat samaradorligining pasayishiga va xavfsizlikning zaiflashishiga olib keladi [1, 4].

Statik boshqaruv tizimlari texnik jihatdan sodda va arzon bo‘lib, elektron boshqaruv bloklari orqali oson sozlanadi hamda kam harakatli hududlar uchun yetarli darajada samaradorlikka ega bo‘lishiga qaramay harakat zichligiga moslasha olmasligi, tirbandlik va kutish vaqtini oshirishi, avariya xavfini kamaytirish bo‘yicha cheklangan imkoniyatlarga ega bo‘lishi hamda favqulodda vaziyatlarda ustuvorlikni avtomatik ta’minlay olmasligi bilan ajralib turadi.

Hozirda statik boshqaruv tizimlari O‘zbekistonning ko‘plab qishloq va kichik shaharlarida asosiy boshqaruv shakli sifatida saqlanib qolgan. Ular, asosan, kam harakatli chorrahalarda yoki

texnologik infratuzilmasi zaif hududlarda qo‘llaniladi. Biroq, aholining avtomobil egalik darajasi ortib borayotgan sharoitda bu tizimlar o‘zining samaradorligini yo‘qotmoqda va zamonaviy boshqaruv usullariga o‘tish zarurati kuchaymoqda [4].

Dinamik boshqaruv tizimlari. Dinamik boshqaruv tizimlari transport oqimini real vaqt rejimida nazorat qilishga asoslangan bo‘lib, harakat zichligini aniqlovchi sensorlar, kameralar va avtomatlashtirilgan algoritmlar yordamida svetofor fazalarini moslashtiradi. Bu tizimlar statik boshqaruvga nisbatan sezilarli darajada samarali bo‘lib, tirbandlikni kamaytirish, kutish vaqtini qisqartirish va avariya holatlarini oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.

Dinamik tizimlar harakat holatini doimiy ravishda kuzatadi va svetofor fazalarini real sharoitga moslashtiradi. Masalan, agar bir yo‘nalishda transport vositalari to‘planib qolsa, tizim avtomatik ravishda yashil chiroq vaqtini uzaytiradi, boshqa yo‘nalishdagi harakat esa qisqartiriladi. Bu yondashuv moslashuvchan boshqaruvni ta’minlaydi va harakat xavfsizligini oshiradi.

Dinamik boshqaruv tizimlari harakat zichligiga moslashib tirbandlikni kamaytiradi, svetofor fazalarining sinxronlashuvi orqali oqilona harakat muvofiqligini ta’minlaydi, avariya holatlarini sezilarli darajada kamaytiradi hamda favqulodda vaziyatlarda, xususan tez yordam mashinalari uchun, ustuvorlikni avtomatik tarzda ta’minlash imkonini beradi, lekin texnologik infratuzilmani talab qilishi (sensorlar, kameralar, serverlar), dasturiy ta’minot va texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarining yuqoriligi hamda elektr ta’minoti va aloqa uzilishlariga sezgirligi bilan murakkablik tug‘diradi.

O‘zbekistonning yirik shaharlarida - xususan Toshkent, Samarqand va Andijonda - ayrim chorrahalarda dinamik boshqaruv tizimlari sinov tariqasida joriy etilgan. Bu tizimlar svetofor fazalarini harakat zichligiga moslashtirish orqali tirbandlikni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Biroq, tizimlarning to‘liq integratsiyasi va texnik xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi hali to‘liq shakllanmagan. Shunga qaramay, dinamik boshqaruv ITS tizimlariga o‘tishdagi muhim oraliq bosqich sifatida qaralmoqda.

Intellektual transport tizimlari (ITS). Intellektual transport tizimlari (ITS - Intelligent Transport Systems) - bu transport oqimini boshqarishda sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, sensorlar, GPS, kameralar va IoT (Internet of Things) vositalaridan foydalanishga asoslangan zamonaviy yondashuvdir. ITS tizimlari real vaqt rejimida harakat holatini tahlil qiladi, xavfli vaziyatlarni oldindan aniqlaydi va avtomatik tarzda muvofiqlashtirish choralarini ko‘radi. Bu tizimlar yo‘l harakati xavfsizligini oshirish, tirbandlikni kamaytirish, ekologik ta’sirni pasaytirish va transport samaradorligini maksimal darajada ta’minlashga xizmat qiladi.

ITS tizimlari quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

- Adaptiv svetofor tizimlari: harakat zichligiga qarab fazalarni avtomatik sozlaydi.
- Video monitoring va raqamli tahlil: kameralar orqali transport oqimi va xavfsizlik holati nazorat qilinadi.
- GPS va navigatsiya tizimlari: transport vositalarining joylashuvi va harakat trayektoriyasi aniqlanadi.
- Favqulodda vaziyatlar uchun ustuvorlik modullari: tez yordam, yong‘in va politsiya transporti uchun avtomatik ustuvorlik yaratiladi.
- Ma’lumotlar almashinuvi platformalari: transport operatorlari, shahar boshqaruvi va foydalanuvchilar o‘rtasida integratsiyalashgan axborot oqimi ta’minlanadi.

Intellektual tizimlar harakat holatini proaktiv tarzda boshqaradi, avariya holatlarini oldindan aniqlaydi, svetofor fazalarini sinxronlashtiradi, favqulodda vaziyatlarda ustuvorlikni avtomatik ta’minlaydi va transport oqimini samarali tarzda muvofiqlashtiradi.

ITS tizimlari yuqori texnologik infratuzilma, raqamli xavfsizlik, texnik xizmat ko‘rsatish va malakali kadrlar talab qiladi. Shuningdek, dasturiy ta’minotning uzluksiz ishlashi va ma’lumotlar almashinuvi tizimlarining barqarorligi muhim omil hisoblanadi [5, 6].

O‘zbekistonning yirik shaharlarida ITS komponentlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. 2025-yil PQ-28-sonli Prezident qaroriga muvofiq, ITS texnologiyalarini transport-logistika tizimiga integratsiyalash bo‘yicha strategik chora-tadbirlar belgilangan. Bu esa O‘zbekiston transport tizimini xavfsiz, raqamli va ekologik jihatdan barqaror modelga o‘tkazish yo‘lida muhim qadam hisoblanadi.

Quyidagi 1-jadvalda transport oqimini boshqarishning statik, dinamik va intellektual usullarini harakat xavfsizligi samaradorligi nuqtai nazaridan taqqoslovchi jadvali keltirilgan.

1-jadval

Transport oqimini boshqarish usullari: taqqoslovchi jadval

Boshqaruv turi	Boshqaruv turi	Moslashuvchanlik	Xavfsizlikka ta’siri	Qo‘llanish sohasi	Kamchiliklari
Statik boshqaruv	Past	Yo‘q	Cheklangan: zichlikka moslashmaydi, avariya xavfi yuqori	Qishloq hududlari, kam harakatli chorrahalar	Reaktiv yondashuv, ustuvorlikni avtomatik ta’minlay olmaydi
Dinamik boshqaruv	O‘rta	Bor	O‘rtacha: zichlikka moslashadi, xavfsizlikni oshiradi	O‘rta va yuqori zichlikdagi shahar chorrahalari	Sensorlar va texnik xizmat talab qiladi, elektr uzilishlariga sezgir
Intellektual tizimlar (ITS)	Yuqori	Yuqori	Yuqori: proaktiv boshqaruv, xavfli vaziyatlarni oldindan aniqlaydi	Yirik shaharlar, multimodal logistika markazlari	Yuqori xarajat, raqamli infratuzilma va malakali kadrlar talab qiladi

Xulosa. Transport oqimini boshqarish usullarining to‘g‘ri tanlanishi va mahalliy sharoitga moslashtirilgan holda joriy etilishi O‘zbekiston transport tizimining barqaror va xavfsiz ishlashini ta’minlaydi. Zamonaviy texnologiyalar asosidagi yondashuvlar orqali harakat muvofiqligi, ekologik samaradorlik va iqtisodiy faollikni oshirish mumkin**.**

ADABIYOTLAR

1. Vohidov, D. A., Xadiyeva, G. Sh., Egamshukurov, P. S., Ochilov, A. M. Shaharda transport oqimini boshqarish asoslari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – №2. – B. 1033–1040.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ-28-сон 27.01.2025. O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida // Lex.uz. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-7342148
3. Tursunboyev, L. E. Transport oqimini boshqarishni zamonaviy usullari // Zenodo. – 2023.
4. ETSC. Traffic Management and Road Safety: Static vs Adaptive Control. – Brussels: European Transport Safety Council, 2022.
5. UNECE. Road Safety and ITS Integration Guidelines. – Geneva: United Nations Economic Commission for Europe, 2023.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ-28-сон 27.01.2025. O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida // Lex.uz.
7. World Health Organization. Global Status Report on Road Safety 2023. Geneva: WHO, 2023.
8. Сильянов В.В. Транспортно-эксплуатационные качества автомобильных дорог. Москва: Транспорт, 2008.

UO‘T: 338.439.4

QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTINI OSHIRISHDA LOGISTIKA INFRATUZILMALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

G‘iyasidinov Abdumannob Sharoxidinovich
Andijon davlat texnika instituti
“Transport logistikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
ORCID: 0009-0007-6470-4532

Annotatsiya. Mazkur maqolada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini oshirishda logistika infratuzilmasini rivojlantirishning nazariy asoslari tahlil qilingan. Zamonaviy iqtisodiyotda logistika infratuzilmasi tashqi savdo samaradorligini oshirish, transport xarajatlarini kamaytirish, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim omili sifatida qaraladi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini yuksaltirishda transport-kommunikatsiya tarmoqlari, logistika markazlari, sovuq zanjir (Cold Chain), ombor xo‘jaligi, raqamli logistika va bojxona infratuzilmasining o‘rni asoslangan.

Maqolada logistika infratuzilmasining nazariy jihatlari, xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari hamda O‘zbekistonda agrologistika tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari yoritilgan. Shuningdek, Logistika samaradorligi indeksi (LPI), ta’minot zanjiri boshqaruvi va eksport raqobatbardoshligi o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilishda logistika tizimini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va logistika xizmatlari sifatini oshirish eksport hajmini ko‘paytirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of logistics infrastructure development in enhancing the export of agricultural products. In the modern economy, logistics infrastructure is considered one of the key factors in improving the efficiency of foreign trade, reducing transportation and logistics costs, and ensuring product quality and competitiveness. The study substantiates the importance of transport and communication networks, logistics centers, cold chain systems, warehousing facilities, digital logistics, and customs infrastructure in increasing the export potential of agricultural products.

The paper examines the theoretical and methodological aspects of logistics infrastructure, reviews the scientific approaches of foreign scholars, and identifies the priority directions for the development of the agrologistics system in Uzbekistan. Furthermore, the relationship between the Logistics Performance Index (LPI), supply chain management efficiency, and export competitiveness is analyzed. The findings indicate that modernizing logistics infrastructure, introducing digital technologies, improving the quality of logistics services, and developing cold chain systems contribute significantly to increasing agricultural exports and strengthening their competitiveness in international markets.

Annotatsiya. В данной статье проанализированы теоретические основы развития логистической инфраструктуры в повышении экспорта селскохозяйственной продуксии. В современных экономических условиях логистическая инфраструктура рассматриваеця как один из ключевых факторов повышения эффективности внешней торговли, снижения транспортных и логистических издержек, обеспечения качества продуксии и её конкурентоспособности. Обоснована рол транспортно-коммуникационных сетей, логистических сентров, системы «холодовой сепи» (Солд Чаин), складской инфраструктуры, сифровой логистики и таможенной инфраструктуры в наращивании экспортного потенсиала селскохозяйственной продуксии.

В статье рассмотрены теоретико-методологические аспекты логистической инфраструктуры, проанализированы научные подходы зарубежных исследователей, а

также определены приоритетные направления развития системы агрологистики в Узбекистане. Кроме того, исследована взаимосвяз между Индексом эффективности логистики (Логистисс Перформансэ Индех, ЛПИ), эффективностю управления сепями поставок и экспортной конкурентоспособностю. Результаты исследования показывают, что модернизация логистической инфраструктуры, внедрение сифровых технологий, повышение качества логистических услуг и развитие системы «холодовой сепи» способствуют увеличению объёмов экспорта селскохозяйственной продуксии и укреплению её конкурентоспособности на международных рынках.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, eksport, logistika infratuzilmasi, ta’minot zanjiri, agrologistika, transport logistikasi, sovuq zanjir, raqamli logistika, eksport samaradorligi, LPI.

Keywords: agriculture, export, logistics infrastructure, supply chain, agrologistics, transport logistics, cold chain, digital logistics, export efficiency, Logistics Performance Index (LPI).

Ключевые слова: селское хозяйство, экспорт, логистическая инфраструктура, сеп поставок, агрологистика, транспортная логистика, холодовая сеп (Солд Чаин), сифровая логистика, эффективност экспорта, Индекс эффективности логистики (ЛПИ).

1. Kirish. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini rivojlantirish mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xalqaro bozorlarda raqobatning kuchayishi logistika tizimining samaradorligiga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Mahsulotni yetishtirishdan tortib iste’molchiga yetkazib berishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarda logistika infratuzilmasi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda keyingi yillarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini diversifikatsiya qilish, eksport geografiyasini kengaytirish va tashqi bozorlarga yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlarni yetkazib berish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq transport yo‘laklarining cheklanganligi, logistika markazlarining yetarli emasligi, sovuq zanjir tizimining to‘liq shakllanmaganligi, eksport jarayonlarining yuqori xarajatliligi kabi muammolar eksport salohiyatidan to‘liq foydalanish imkonini cheklamoqda.

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatning logistika samaradorligi darajasi eksport hajmiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Logistika xizmatlari sifati yaxshilanishi tashqi savdo xarajatlarini kamaytiradi, mahsulotlarning tezkor yetkazilishini ta’minlaydi va ularning xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshiradi.

So‘nggi yillarda **Porter**, **Christopher**, **Ballou**, **Bowersox**, **Notteboom**, **Rodrigue**, **Arvis** kabi olimlar logistika infratuzilmasining eksport faoliyatiga ta’sirini har tomonlama tadqiq etganlar. Ularning ishlarida transport tizimi, logistika markazlari, intermodal tashishlar va raqamli ta’minot zanjiri boshqaruvining tashqi savdodagi ahamiyati asoslab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloq xo‘jaligi, transport va logistika sohalarini rivojlantirishga qaratilgan farmon va qarorlarida agrologistika infratuzilmasini takomillashtirish, xalqaro transport yo‘laklaridan samarali foydalanish, logistika markazlari tarmog‘ini kengaytirish hamda eksport jarayonlarini raqamlashtirish muhim vazifalar sifatida belgilangan.

Shu nuqtai nazardan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini oshirishda logistika infratuzilmasini rivojlantirishning nazariy asoslarini tadqiq qilish, xalqaro tajribani o‘rganish va milliy sharoitga mos ilmiy takliflar ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan hisoblanadi.

2. ADABIYOTLAR TAHLILI. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini rivojlantirishda logistika infratuzilmasining o‘rni iqtisodiyot nazariyasi, xalqaro savdo va ta’minot zanjiri boshqaruvi sohasida faol tadqiq qilinayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mamlakatning eksport salohiyatini oshirishda transport

tarmog‘i, logistika markazlari, ombor xo‘jaligi, sovuq zanjir (Cold Chain), raqamli logistika va bojxona infratuzilmasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Logistika nazariyasining shakllanishida **Ballou (2004)** (1), **Christopher (2016)** (2), **Bowersox va Closs (2013)** (3) kabi olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Ballou logistikani mahsulot, axborot va moliyaviy oqimlarning samarali harakatini ta’minlovchi kompleks tizim sifatida ta’riflaydi. Uning fikricha, logistika xarajatlarini optimallashtirish korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Martin Christopher ta’minot zanjirini boshqarish konsepsiyasini rivojlantirib, raqobat alohida kompaniyalar o‘rtasida emas, balki ta’minot zanjirlari o‘rtasida kechishini ta’kidlaydi. U eksport samaradorligi ko‘p jihatdan logistika infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi bilan belgilanishini ilmiy asoslab bergan.

Bowersox va hammualliflar logistika tizimining asosiy vazifalarini transport, ombor, axborot texnologiyalari, zaxiralarni boshqarish va xizmat ko‘rsatish sifati orqali ta’riflaydi. Ular raqamli texnologiyalarning logistika jarayonlariga joriy qilinishi eksport xarajatlarini kamaytirishini ko‘rsatgan.

So‘nggi yillarda Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan **Logistics Performance Index (LPI)** mamlakatlarning logistika tizimini baholashning eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida tan olingan. **Arvis va hammualliflar (2023)** (4) ta’kidlashicha, LPI ko‘rsatkichining yuqori bo‘lishi tashqi savdo aylanmasi hamda eksport hajmining o‘sishi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq.

Rodrigue (5) va Notteboom (6) xalqaro transport yo‘laklari, dengiz portlari va intermodal tashish tizimlarining tashqi savdo rivojiga ta’sirini o‘rganganlar. Ular transport infratuzilmasi yaxshi rivojlangan davlatlarda eksport logistikasi xarajatlari sezilarli darajada past bo‘lishini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ularning tez buziluvchanligi hisoblanadi. Shu bois **Cold Chain Logistics** tizimi zamonaviy agrologistikaning asosiy elementlaridan biri sifatida qaraladi. Aung va Chang (2014) (7) sovuq zanjir texnologiyalari mahsulot sifatini saqlash, eksportdagi yo‘qotishlarni qisqartirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotlagan.

So‘nggi yillarda raqamli logistika texnologiyalari jadal rivojlanmoqda. IoT (Internet of Things), GPS monitoring, RFID texnologiyalari, sun’iy intellekt va blokcheyn asosidagi ta’minot zanjiri boshqaruvi mahsulot harakatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini bermoqda. Ivanov va Dolgui (2020) (8) raqamli logistika ta’minot zanjirining barqarorligini ta’minlash va xavflarni kamaytirishda muhim vosita ekanligini ta’kidlaydi.

FAO ekspertlari (9) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda rivojlanayotgan mamlakatlarda meva-sabzavot mahsulotlarining 25–40 foizi saqlash va tashish jarayonida yo‘qotilishi qayd etilgan. Bu esa zamonaviy logistika markazlari va muzlatkich omborlarini tashkil etish eksport samaradorligini oshirishning muhim sharti ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston olimlaridan **A.A. Abdullayev**, **Sh.E. Ergashev**, **B.B. Berdiyev**, **U.T. Berdiyev** va boshqalar mamlakatimizda transport logistikasi, agrologistika hamda eksport logistikasini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ularning ishlarida xalqaro transport koridorlari, logistika markazlari va multimodal tashishlarni rivojlantirish orqali eksport hajmini oshirish mumkinligi asoslab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining so‘nggi yillarda qabul qilingan farmon va qarorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini rivojlantirish maqsadida agrologistika markazlarini tashkil etish, eksportchilarga logistika xizmatlarini subsidiyalash, tashqi bozorlarga chiqishni soddalashtirish hamda raqamli logistika platformalarini joriy qilish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda logistika infratuzilmasining eksport raqobatbardoshligiga ta’siri keng yoritilgan bo‘lsa-da, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti uchun logistika infratuzilmasini kompleks baholash, logistika markazlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash hamda eksport zanjirini raqamlashtirish masalalari hali ham yetarlicha o‘rganilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqotda ushbu yo‘nalishlar chuqur tahlil qilinib, milliy iqtisodiyot sharoitiga mos ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

3. TADQIQOT METODOLOGIYaSI

Tadqiqotning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini oshirishda logistika infratuzilmasini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda O‘zbekiston sharoitida logistika tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- logistika infratuzilmasining eksport jarayonlaridagi ahamiyatini baholash;
- agrologistika tizimining nazariy asoslarini tahlil qilish;
- xalqaro tajribani o‘rganish;
- O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi eksportidagi logistika muammolarini tahlil qilish;
- logistika samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob’yekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportida ishtirok etuvchi logistika tizimi tanlangan.

Tadqiqot predmeti esa eksport logistikasi samaradorligiga ta’sir etuvchi transport infratuzilmasi, logistika markazlari, omborlar, sovuq zanjir texnologiyalari, bojxona tizimi hamda raqamli logistika jarayonlari hisoblanadi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

- tizimli tahlil;
- iqtisodiy tahlil;
- statistik tahlil;
- SWOT tahlil;
- qiyosiy tahlil;
- grafik tahlil;
- ekspert baholash usuli;
- logik tahlil;
- ilmiy abstraksiya;
- induksiya va deduksiya;
- ta’minot zanjiri tahlili (Supply Chain Analysis).

Tadqiqotni amalga oshirishda quyidagi manbalardan foydalanildi:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari;
- Statistika agentligi ma’lumotlari;
- Bojxona qo‘mitasi ma’lumotlari;
- Qishloq xo‘jaligi vazirligi hisobotlari;
- World Bank;
- FAO;
- WTO;
- UNCTAD;
- OECD;
- Logistics Performance Index (LPI);
- Scopus va Web of Science bazasidagi ilmiy maqolalar.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi.

1. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish.

2. Nazariy yondashuvlarni umumlashtirish.
3. Eksport holatini baholash.
4. Logistika tizimini tahlil qilish.
5. SWOT tahlil.
6. Ilmiy takliflarni ishlab chiqish.

Maqolada:

- eksport logistikasini baholashning kompleks modeli taklif qilindi;
- agrologistika samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar tizimlashtirildi;
- raqamli logistika platformalarining ahamiyati asoslandi;
- logistika markazlari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha amaliy mexanizmlar ishlab chiqildi.

4. TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot natijalari qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti samaradorligi ko‘p jihatdan mamlakat logistika infratuzilmasining rivojlanganlik darajasiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi.

Logistika infratuzilmasi eksport jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oladi:

- mahsulotni yig‘ish;
- saralash;
- qadoqlash;
- saqlash;
- sovitish;
- tashish;
- bojxona rasmiylashtiruvi;
- tashqi bozorga yetkazib berish.

Ushbu zanjirning biror bo‘g‘inidagi kamchilik umumiy eksport samaradorligini pasaytiradi.

Eksport logistikasi samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillar

Jadval 1

Omil	Ta’sir darajasi
Avtomobil yo‘llari sifati	Juda yuqori
Temir yo‘l infratuzilmasi	Yuqori
Logistika markazlari	Juda yuqori
Sovuq zanjir	Juda yuqori
Bojxona jarayonlari	Yuqori
Axborot texnologiyalari	Juda yuqori
Ombor tizimi	Yuqori
Konteyner logistikasi	O‘rta
Kadrlar salohiyati	Yuqori

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, logistika markazlari va raqamli texnologiyalar eksport hajmiga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi omillar hisoblanadi.

SWOT tahlil

Jadval 2

Kuchli tomonlar	Kamchiliklar

Qishloq xo‘jaligi salohiyati yuqori	Sovuq omborlar kam
Eksport hajmi oshib bormoqda	Logistika xarajatlari yuqori
Davlat qo‘llab-quvvatlashi	Konteynerlar yetishmaydi
Geografik joylashuv	Transport yo‘laklari cheklangan

Imkoniyatlar	**Xavflar**
Yangi eksport bozorlari	Geosiyosiy xavflar
Raqamli logistika	Yoqilg‘i narxi o‘sishi
Yashil texnologiyalar	Klimat o‘zgarishi
Xalqaro investitsiyalar	Jahon bozorida raqobat

SWOT tahlil natijalari mamlakatimizda logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish eksport o‘sishining asosiy omillaridan biri ekanligini ko‘rsatdi.

Logistika infratuzilmasini rivojlantirish modeli

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi model taklif etildi:

Ishlab chiqaruvchi
⬇
Logistika markazi
⬇
Sovuq ombor
⬇
Transport terminali
⬇
Bojxona
⬇
Eksport markazi
⬇
Xorijiy iste’molchi

Mazkur model mahsulot sifatini saqlash, tashish vaqtini qisqartirish va eksport xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Eksport samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- har bir viloyatda zamonaviy agrologistika markazlarini tashkil etish;
- sovuq zanjir texnologiyalarini keng joriy qilish;
- raqamli logistika platformasini ishlab chiqish;
- bojxona jarayonlarini to‘liq elektronlashtirish;
- multimodal transport xizmatlarini rivojlantirish;
- eksportchilar uchun logistika xarajatlarini subsidiyalash;
- logistika sohasida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish;
- logistika mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirish.

5. MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportining barqaror o‘sishi logistika infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi bilan uzviy bog‘liq. Jahon bankining **Logistics Performance Index (LPI)** ma’lumotlari yuqori logistika samaradorligiga ega davlatlarda eksport hajmi, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyati va mahsulot raqobatbardoshligi sezilarli darajada yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Christopher (2016) ta'kidlaganidek, zamonaviy raqobat kompaniyalar o'rtasida emas, balki ta'minot zanjirlari o'rtasida kechmoqda. Shu nuqtai nazardan, agrologistika tizimini kompleks rivojlantirish eksport jarayonlarining barqarorligini ta'minlaydi. Tadqiqot davomida olingan natijalar mazkur nazariy yondashuvni tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishda transport infratuzilmasini yaxshilash bilan bir qatorda sovuq zanjir (Cold Chain) tizimini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Meva-sabzavot, go'sht va sut mahsulotlari kabi tez buziluvchan mahsulotlarni eksport qilishda harorat rejimiga rioya qilinmasligi sifat yo'qotishlari va iqtisodiy zararlarga olib keladi.

Shuningdek, tadqiqot raqamli logistika texnologiyalarini (IoT, GPS monitoring, RFID, blokcheyn, sun'iy intellekt) joriy qilish orqali mahsulot harakatini real vaqt rejimida kuzatish, logistika jarayonlarini optimallashtirish va inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytirish mumkinligini ko'rsatdi. Bu esa eksport jarayonlarining shaffofligi va tezkorligini oshiradi.

Xalqaro tajriba tahlili Niderlandiya, Germaniya va Janubiy Koreyada logistika markazlari, intermodal transport tizimi va raqamli platformalar eksport raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaganini ko'rsatadi. Ushbu tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish milliy agrologistika tizimini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi konseptual yo'nalishlar taklif etiladi:

- hududiy agrologistika markazlari tarmog'ini kengaytirish;
- xalqaro transport koridorlaridan foydalanish samaradorligini oshirish;
- eksportga yo'naltirilgan sovuq omborlar sonini ko'paytirish;
- raqamli logistika platformalarini joriy qilish;
- logistika sohasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish;
- eksport logistikasi bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash.

6. XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini oshirishda logistika infratuzilmasini rivojlantirishning nazariy asoslari kompleks ravishda tahlil qilindi.

Tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Logistika infratuzilmasi tashqi savdo raqobatbardoshligini ta'minlovchi strategik omil hisoblanadi.
2. Eksport hajmining o'sishi transport, ombor, logistika markazlari, bojxona va raqamli logistika tizimlarining rivojlanganligiga bog'liq.
3. Sovuq zanjir texnologiyalarining rivojlanmaganligi eksport qilinayotgan mahsulotlar sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.
4. Raqamli logistika texnologiyalarini joriy qilish orqali eksport xarajatlarini qisqartirish va logistika xizmatlari sifatini oshirish mumkin.
5. Logistika markazlari tarmog'ini kengaytirish mamlakat eksport salohiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Amaliy takliflar

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- har bir viloyatda xalqaro standartlarga mos agrologistika markazlarini tashkil etish;
- sovuq omborlar va refrijerator transport vositalari sonini oshirish;
- raqamli logistika platformasini joriy qilish;
- eksport jarayonlarini to'liq elektronlashtirish;
- multimodal transport tizimini rivojlantirish;
- logistika sohasiga investitsiyalarni keng jalb qilish;
- eksportchilar uchun logistika xarajatlarini qisman kompensatsiya qilish;
- logistika sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;

- yashil logistika texnologiyalarini keng qo‘llash;
- eksport logistikasi samaradorligini baholash milliy indeksini ishlab chiqish.

Mazkur takliflarni amalga oshirish O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish, eksport geografiyasini kengaytirish va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Ballou R.H. *Business Logistics/Supply Chain Management*. 5th ed. Pearson, 2004.
2. Christopher M. *Logistics and Supply Chain Management*. 5th ed. Pearson, 2016.
3. Bowersox D.J., Closs D.J., Cooper M.B. *Supply Chain Logistics Management*. McGraw-Hill, 2013.
4. Arvis J.F., et al. *Connecting to Compete: Trade Logistics in the Global Economy*. World Bank.
5. Rodrigue J.P. *The Geography of Transport Systems*. Routledge, 2020.
6. Notteboom T., Pallis T. *Port Economics, Management and Policy*. Routledge, 2021.
7. Aung M.M., Chang Y.S. Temperature management for the quality assurance of a perishable food supply chain // *Food Control*. 2014.
8. Ivanov D., Dolgui A. Viability of intertwined supply networks // *International Journal of Production Research*. 2020.
9. FAO. *The State of Food and Agriculture*. Rome.
10. https://www.gazeta.uz/uz/2019/07/04/agrologistika/
11. https://lex.uz/docs/4454761#4457100

UO‘T: 338.439.4

TEZ BUZILUVChAN YUKLARNI TAShISh UCHUN SAMARALI HARAKATLANUVCHI TARKIBNI TANLASH USLUBIYATI

G‘iyasidinov Abdumannob Sharoxidinovich
Andijon davlat texnika instituti
“Transport logistikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
ORCID: 0009-0007-6470-4532

Annotatsiya. Tez buziluvchan yuklarni muvaffaqiyatli saqlashga faqatgina mahsulotning yashash siklining ishlab chiqarishdan tortib to iste’mol qilishgacha (tashish ham shu hisobga kiradi) bo‘lgan barcha bosqichlarida sifatning saqlanishi uchun zarur bo‘ladigan maxsus harorat rejimini ushlab turish orqali erishish mumkin.

Tez buziluvchan yuklarni tashish uchun harakatlanuvchi tarkibni tanlashda asosiy mezon yukning saqlanishini ta’minlash hisoblanadi. Buning uchun marshrutning xarakteri, tarqatish marshrutida tushirish punktlarining soni, avtomobil-refrijeratorning sovutish qurilmasining tipi hisobga olinadi.

Ushbu maqolada tez buziluvchan yuklarni tashish uchun samarali harakatlanuvchi tarkibni tanlash uslubiyatining asosiy bosqichlari asoslangan.

Аннотация. Успешного хранения скоропортящихся продуктов можно добиця толко при соблюдении особого температурного режима, необходимого для поддержания качества на всех этапах жизненного сикла продукта от производства до потребления (включая транспортировку).

Главный критерий при выборе подвижного состава для перевозки скоропортящихся грузов - обеспечение сохранности груза. Для этого необходимо учитыват характер маршрута, количество точек разгрузки на маршруте раздачи, тип охлаждающего устройства автомобиля-рефрижератора.

Настоящая статя основана на основных этапах эффективной методологии выбора подвижного состава для перевозки скоропортящихся грузов.

Annotatsion. Successful storage of perishable goods can only be achieved by maintaining a special temperature regime that is necessary to maintain quality at all stages of the product life cycle from production to consumption (including transportation).

The main criterion in the selection of rolling stock for the transport of perishable goods is to ensure the safety of the cargo. To do this, take into account the nature of the route, the number of unloading points on the distribution route, the type of cooling device of the car-refrigerator.

This paper is based on the basic steps of an effective rolling stock selection methodology for transporting perishable goods.

Kalit so‘zlar: tez buziluvchan yuklar, tashish, transport, harakatlanuvchi tarkib, refrijerator, samaradorlik, ekspluatatsiya.

Ключевые слова: скоропортящиеся товары, транспортировка, транспортировка, подвижной состав, охлаждение, эффективност, эксплуатация.

Keywords: Perishable goods, transportation, transportation, rolling stock, refrigeration, efficiency, operation.

Kirish. tez buziluvchan yuklarni muvaffaqiyatli saqlashga faqatgina mahsulotning yashash siklining ishlab chiqarishdan tortib to iste’mol qilishgacha (tashish ham shu hisobga kiradi) bo‘lgan barcha bosqichlarida sifatning saqlanishi uchun zarur bo‘ladigan maxsus harorat rejimini ushlab turish orqali erishish mumkin.

Tez buziluvchan yuklarni tashish jarayonida yukni qurshab turuvchi muhitning harorat bosimidan himoya qilish zarur bo‘ladi, bu nazorat qilib bo‘lmaydigan ob-havo omillari qatoriga kiradi.

Tashishda tez buziluvchan yuklarning sifatini saqlash uchun issiqlik oqimlarini kompensatsiyalash talab qilinishi mumkin, bu tez buziluvchan yuklarni tashish uchun mo‘ljallangan va maxsus uskunalar bilan jihozlangan yoki jihozlanmagan, vaqtinchalik yoki doimiy sovutish manbaiga ega bo‘lgan izotermik kuzovlar o‘rnatilgan ixtisoslashtirilgan harakatlanuvchi tarkibdan foydalanish zaruratini chaqiradi [1].

Savdo, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat yuklarini tashishda ixtisoslashtirilgan furgon-refrijeratorlarga umumiy mo‘ljallanishli furgonlarga qo‘yiladigan xuddi o‘sha talablar qo‘yiladi, bundan tashqari, tashiladigan yuklarning bu yuklarga va tovar aylanmasi jarayoniga xos bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlardan kelib chiqadigan spesifik xususiyatlar bilan belgilanadigan qo‘shimcha talablar qo‘yiladi [2]:

- tashish jarayonida tovarlarning yo‘qolishining oldini olish, bu deganda faqatgina u yoki bu sabablar oqibatida ularning miqdorining kamayishi emas, ularning iste’mol xususiyatlari va tashqi ko‘rinishining saqlanishi ham ko‘zda tutiladi;
- savdoga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashish xarajatlarini ham, shu bilan bog‘lanadigan boshqa xarajatlarni ham maksimal darajada qisqartirishga faol tarzda ko‘maklashish;
- yuklash-tushirish operatsiyalarida qo‘l mehnatini bartaraf qilishga faol tarzda ko‘maklashish;
- yuklarni iste’molchiga o‘z vaqtida yetkazib berish.

Adabiyotlar tahlili. Yuk tashish jarayonlarini samarali tashkil etish, transport vositalarini tanlash va logistika tizimini takomillashtirish masalalari transport logistikasi sohasidagi ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

D. P. Velikanov (1) transport vositalarini muayyan yuk turlari va tashish sharoitlariga mos ravishda tanlashning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqqan. Muallif yuk avtomobillarining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini baholash, tashish xarajatlarini kamaytirish hamda transport vositalaridan samarali foydalanish mezonlarini asoslab bergan. Uning ilmiy yondashuvlari avtotransport tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

A. V. Velmojin, V. A. Gudkov va L. B. Mirotin (2) transport jarayonlari va tizimlari nazariyasini kompleks yondashuv asosida tadqiq etgan. Ular transport oqimlarini boshqarish, logistika jarayonlarini modellashtirish va transport tizimlari samaradorligini baholashning nazariy asoslarini ishlab chiqqan bo‘lib, mazkur yondashuvlar zamonaviy ta’minot zanjirini boshqarish konsepsiyalarining shakllanishiga xizmat qilgan.

YE. YE. Vitvitskiy va M. A. Mirgorodskiy (3) shahar sharoitida mayda partiyali yuklarni tashish uchun harakatlanuvchi tarkibni tanlash metodikasini taklif qilgan. Mualliflar transport vositalarini yuk hajmi, tashish masofasi va marshrut xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlash orqali logistika xarajatlarini kamaytirish va tashish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatgan.

A. S. Gavayev (4) gazoballonli avtomobillarning past haroratli iqlim sharoitida ekspluatatsiya xususiyatlarini tadqiq etgan. Tadqiqotda chiqindi gazlar toksikligi va yoqilg‘i sarfiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilinib, ekologik xavfsizlik va energiya samaradorligini ta’minlash bo‘yicha ilmiy xulosalar berilgan.

A. E. Gorevning (5,6) ishlarida yuk avtomobil tashuvlarini tashkil etish, transport jarayonlarini rejalashtirish, harakatlanuvchi tarkibdan samarali foydalanish va logistika tizimini boshqarishning nazariy hamda amaliy jihatlari keng yoritilgan. Muallif transport xizmati sifatini oshirish, tashish xarajatlarini optimallashtirish va avtomobil transporti faoliyati samaradorligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratgan.

V. G. Gusakov (7) rahbarligida tayyorlangan ilmiy asarda ijtimoiy-iqtisodiy modellarning shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlari, iqtisodiy tizimlarni boshqarish hamda resurslardan samarali foydalanishning nazariy va metodologik asoslari yoritilgan. Mazkur yondashuvlar logistika infratuzilmasini rivojlantirish va transport sohasida strategik qarorlar qabul qilishning iqtisodiy mexanizmlarini asoslashda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Umuman olganda, tahlil qilingan ilmiy manbalar transport va logistika sohasida transport vositalarini tanlash, transport jarayonlarini boshqarish, logistika xarajatlarini optimallashtirish, ekologik samaradorlikni ta'minlash hamda transport infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha muhim nazariy va amaliy yondashuvlarni shakllantirgan. Shu bilan birga, raqamli logistika texnologiyalari, intellektual transport tizimlari va agrologistika infratuzilmasini rivojlantirishga oid zamonaviy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurligi kuzatiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Harakatlanuvchi tarkibning tipi va uning yuk ko'taruvchanligini tanlashda tovarlarning xususiyatlari va xarakteri, jo'natmaning o'lchami, yilning fasli va qurshab turuvchi muhitning harorati, yuklarni savdo tarmog'iga yetkazib berishning qanchalik shoshilinchligini hisobga olish lozim bo'ladi.

Yuk harakatlanuvchi tarkibini tanlash – yuklarni ko'chirishning transport-texnologik sxemalarini asoslashda hal qilinadigan asosiy masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. U yukni o'rash, ko'chirish va iste'molga tayyorlash texnologiyasida qo'llaniladigan transport uskunalari, yuklash-tushirish ishlari va boshqa ishlarni bajarish usullari va vositalari bilan chambarchas bog'lanadi [3].

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, tashishlarni operativ rejimda bajarish sharoitlarida harakatlanuvchi tarkibni tanlash tashish uchun mas'ul bo'lgan shaxslarning intuitsiyasi va amaliy tajribasi asosida amalga oshiriladi.

Bunda tashuvchi yukning xususiyatlari va uni tashqi omillarning ta'siridan himoyalashga qo'yiladigan talablarga alohida e'tibor qaratishi shart [4]. Yuklash-tushirish ishlarini bajarish paytida harakatlanuvchi tarkibning turib qolishi, tez buziluvchan yuklarning shikastlanishi yoki yaroqsiz holga kelishi, avtomobillarni to'liq yuklamaslik yoki oshiqcha yuklash, tashishga berilgan buyurtmani bajarmaslik yoki to'liq bajarmaslik holatlari qayd qilingan [5].

Muamolar va ularni yechilishi. Harakatlanuvchi tarkibni ratsional tanlashga yetkazib berishning o'z vaqtidaligi va yukning saqlanishi, tashishlar rejasining bajarilishi, tashishlar tannarxining pasayishi va korxona ishlashining rentabelligining ortishi bog'liq bo'ladi. Berilgan tashishlar hajmini belgilangan muddatlarda minimal material va mehnat sarflari bilan bajargan harakatlanuvchi tarkibni ko'proq samarali ishlayotgan tarkib deb aytish mumkin.

Konkret ekspluatatsiya qilish sharoitlarida real tashishlar hajmini va parkning tarkib topgan strukturasini hisobga olish bilan ko'proq samarali tarkibni tanlash masalasini bir xil tashish sharoitlarida turlicha tip va modeldagi harakatlanuvchi tarkiblarning ishlashini o'zaro taqqoslash va solishtirish yo'li bilan hal qilish mumkin.

Bunda faqatgina tashishlarning hajmi va masofasi emas, balki jo'natmalarning kattaligi (partiyaliligi), yuklash-tushirish ishlarini bajarish usullari va vositalari, yo'l tarmog'ining holati, yo'l qoplamasining tipi, yo'l qo'yiladigan eng chekka o'q yuklamalari, yo'llar va sun'iy inshootlarning o'tkazish qobiliyati ham hisobga olinadi [4].

Harakatlanuvchi tarkibning tipini tanlashni amalga oshirishda shuningdek mavjud ekspluatatsiya qilish sharoitlariga nisbatan uning ekspluatatsion sifatlarini ham baholash zarur bo'ladi, bu ekspluatatsiya qilish sharoitlari transport, yo'l va iqlim omillarining turlicha birikishlari bilan shartlanadi.

Transport vositasining optimal markasi va modeli iqtisodiy hisob-kitoblar asosida aniqlanadi. Ilmiy tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish shunday deb tasdiqlash imkonini beradiki, transport vositasini tanlash masalasini hal qilishda optimallik mezoni sifatida ko'pgina mualliflar

transport vositalarining unumdorligi, keltirilgan xarajatlarning minimalligi, shuningdek yuklarni yetkazib berishning tannarxini qabul qilishadi.

Avtomobilning unumdorligini, agar kuzovning tipi harakatlanuvchi tarkibning unumdorligiga ta'sir ko'rsatsa va narx ko'rsatkichlariga, ayniqsa saqlash xarajatlariga ta'sir ko'rsatmasa, bir xil markadagi va bir xil yuk ko'taruvchanlik klassidagi harakatlanuvchi tarkibning kuzovining tipini tanlashda mezon sifatida qo'llash mumkin.

Shunday fikr borki [5], avtomobillarning samaradorligini solishtirma baholash uchun mezon sifatida keltirilgan tashish xarajatlari ko'rsatkichini qabul qilish lozim bo'ladi, u o'zida ekspluatatsion xarajatlar va kapital qo'yilmalardan foydalanishning yillik samarasi yig'indisining transport ishi birligiga nisbatini taqdim qiladi:

$$Z_p = S_{ye} + \frac{YE_n(K-Sl)}{W} \qquad (1)$$

Bu yerda Z_p – keltirilgan xarajatlar, shartli pul birligi;


Se – tashishga ketgan ekspluatatsiya xarajatlari, shartli pul birligi/t·km;

YE_n –me'yoriy samaradorlik koeffitsiyenti;

K – avtomobildan foydalanish uchun qo'yilgan kapital qo'yilmalar, shartli pul birligi;

S_l – transport vositasining likvid qiymati, shartli pul birligi;

W – avtomobilning o'rtacha yillik unumdorligi, t·km.



1- rasm. Harakatlanuvchi tarkibni tanlash sxemasi.

Tashuvchining raqobatbardoshligini tashishlarning tannarxini pasaytirish hisobiga oshirish mumkin. Tashishlarning tannarxini pasaytirishga ularni konsentratsiyalash, bir paytda tashiladigan yuklarning partiyalarini yiriklashtirish va bu yukni jo'natuvchiga va qabul qilib oluvchiga zarar yetkazmaydigan taqdirda katta yuk ko'taruvchanlikka ega bo'lgan avtomobillardan foydalanish bilan erishish mumkin [6].

Ko'pgina hollarda seriyali transport vositalari orasidan ko'proq ratsional transport vositasi turini tanlash uchun, agar tannarxda transport vositasini yuklash-tushirish xarajatlari, shuningdek avtmobil yo'llariga xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash xarajatlari hisobga olingan bo'lsa, ularni tashishlarning tannarxi bo'yicha solishtirma baholash yetarli bo'lishi mumkin [7].

Tez buziluvchan yuklarni tashish uchun harakatlanuvchi tarkibni tanlashda asosiy mezon yukning saqlanishini ta'minlash hisoblanadi. Buning uchun marshrutning xarakteri, tarqatish marshrutida tushirish punktlarining soni, avtomobil-refrijeratorning sovutish qurilmasining tipi hisobga olinadi.

Masalan, xalqaro tashishlarda asosan avtomobillarga va yarim tirkamalarga o‘rnatilgan avtonom sovutish qurilmalaridan foydalaniladi, ular avtomobilning dvigateli ishlash-ishlamasligidan qat’iy nazar berilgan harorat rejimini ushlab turish imkonini beradi.

Shaharlarda va shahar atrofida tashishlarda sovutish qurilmasining kompressori avtomobilning dvigatelidan yoki tashqi oziqlantirish manbaidan yuritiladigan sovutish qurilmalaridan foydalaniladi.

Umuman olganda, tez buziluvchan yuklarni tashish uchun ko‘proq samarali harakatlanuvchi tarkibni tanlash uslubiyati quyidagi asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

1. Optimallik mezonini tanlash. Yuqorida aytib o‘tilganidek, yuklarni tashish samaradorligini o‘lchaydigan asosiy ko‘rsatkichlar transport vositasining unumdorligi, qiymat ko‘rsatkichlari (transport xarajatlari, tannarx, foyda) va tashishlarning energiyatalabligi (solishtirma yoqilg‘i sarfi) bo‘lib hisoblanadi. Unumdorlik imkon qadar maksimal bo‘lishi, tashishlarning qiymat ko‘rsatkichlari va energiyatalabligi esa – minimal bo‘lishi lozim

2. Ekspluatatsiya qilish sharoitlarining qattiqlik chegaralarini aniqlash.

Tez buziluvchan yuklarni yetkazib berish va tarqatish marshrutlarining taxminiy parametrlarini aniqlash; zaruriy saqlash haroratini aniqlash; tashishni amalga oshirish zarur bo‘ladigan joyda havoning oylik o‘rtacha haroratini aniqlash; ekspluatatsiya qilish sharoitlarining qattiqlik chegaralarini aniqlash.

3. Tanlangan avtomobillarning ekspluatatsiya qilish sharoitlarining berilgan qattiqlik chegaralarida yukning saqlanishini ta’minlashga qodirligini tekshirish.

Bunda yuklarni yetkazib berish bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita tarzda bog‘lanadigan xarajatlarning minimal bo‘lishini ta’minlash talabidan kelib chiqish va quyidagilarni hisobga olish lozim bo‘ladi: yuklash-tushirish ishlari va yo‘l tarkib toptiruvchisi xarajatlari; yetkazib berish jarayonida yukning mumkin bo‘lgan miqdoriy va sifatiy yo‘qolishlari; aylanmada bo‘lgan mablag‘lar va yuklarni saqlash bilan bog‘lanadigan xarajatlar; yuklarni iste’molchilarga tashish uchun tayyorlashdagi ombor xarajatlari; transport jarayonini ta’minlaydigan yordamchi vositalardan (konteynerlar, tagliklar, ko‘p aylanmali idishlar va hokazolar) foydalanish xarajatlari; harakatlanuvchi tarkib, yuklash-tushirish vositalari, garajlar, ombor xo‘jaligiga qo‘yilgan kapital qo‘yilmalar va hokazolar. Agar berilgan ekspluatatsiya qilish sharoitlarida solishtirma xarajatlarning alohida tarkib toptiruvchilari teng bo‘lsa, u holda ularni hisobga olmaslik mumkin [7].

4. Tanlangan avtomobillarni optimallik mezoni bo‘yicha taqqoslash.

Avtomobillarni taqqoslashni ekspluatatsiya qilish sharoitlarining qattiqlik intervallarida tashishlarning tannarxini minimallashtirish kriteriylari bo‘yicha diagrammalar vositasida grafik usul bilan amalga oshirish mumkin.

5. Grafik taqqoslash natijalari bo‘yicha konkret tez buziluvchan yukni ekspluatatsiya qilish sharoitlarining qattiqligining konkret diapazonida tashish uchun avtomobilni tanlash bo‘yicha yakuniy qaror qabul qilinadi.

Xulosa. Tez buziluvchan yuklarni tashish uchun harakatlanuvchi tarkibni tanlashda asosiy mezon yukning saqlanishini ta’minlash hisoblanadi. Buning uchun marshrutning xarakteri, tarqatish marshrutida tushirish punktlarining soni, avtomobil-refrijeratorning sovutish qurilmasining tipi hisobga olinadi. Umuman olganda, tez buziluvchan yuklarni tashish uchun ko‘proq samarali harakatlanuvchi tarkibni tanlash uslubiyati quyidagi optimallik mezonini tanlash, ekspluatatsiya qilish sharoitlarining qattiqlik chegaralarini aniqlash, tanlangan avtomobillarning ekspluatatsiya qilish sharoitlarining berilgan qattiqlik chegaralarida yukning saqlanishini ta’minlashga qodirligini tekshirish, tanlangan avtomobillarni optimallik mezoni bo‘yicha taqqoslash va grafik taqqoslash natijalari bo‘yicha konkret tez buziluvchan yukni ekspluatatsiya

qilish sharoitlarining qattiqligining konkret diapazonida tashish uchun avtomobilni tanlash bo‘yicha yakuniy qaror qabul qilinadi.

ADABIYOTLAR

1. Velikanov, D.P. Vibor naiboleye effektivnыx gruzovix avtomobiley dlya opredelennogo vida perevozok: uchebnik dlya vuzov / D.P. Velikanov. – M.: Transport, 1977. – 326 s.
2. Velmojin A.V. Teoriya transportnыx protsessov i sistem / A.V. Velmojin, V.A. Gudkov, L.B. Mirotin. – M : Transport, 1998. – 167 s.
3. Vitvitskiy, YE.YE. Metodika vыbora podvijnogo sostava pri perevozke gruzov melkimi otpravkami v gorodax / YE.YE. Vitvitskiy, M.A. Mirgorodskiy // Avtotransportnoye predpriyatiye. – 2009.– № 6. – s. 45-48.
4. Gavayev A.S. Prisposoblennost gazoballonnix avtomobiley k nizkotemperaturnim usloviyam ekspluatatsii po toksichnosti otrabotavshix gazov i rasxodu topliva. – Tyumen: TyumGNGU, 2007. – 21 s.
5. Gorev A.E. Gruzovыye avtomobilnыye perevozki: uchebnik dlya vuzov / A.E. Gorev. – M.: Akademiya, 2004. – 288 s.
6. Gruzoviye avtomobilnыye perevozki: Ucheb. posobiye dlya stud. vissh. ucheb. zavedeniy / A. E. Gorev. — 5-ye izd., ispr. — M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2008. —288 s.
7. Gusakov V.G. Sotsialno-ekonomicheskaya model: stanovleniye i razvitiye: teoriya, metodologiya, praktika. Pod obsh. red. V.G. Gusakova. V 2 kn. Kn. 1/V.G. Gusakov i dr.; Nats. akad. nauk Belarusi, In-t ekonomiki. – Minsk: Belorusskaya nauka, 2015. – 554 s.
8. https://www.gazeta.uz/uz/2019/07/04/agrologistika/
9. https://lex.uz/docs/4454761#4457100

UDC: 339.564

SELECTION OF THE OPTIMAL PRODUCT DELIVERY MODEL BY SOLVING THE LINEAR PROGRAMMING PROBLEM BY THE COMBINATORIAL METHOD

Giyasidinov Abdumannob Shorakhidinovich
Senior Lecturer, Department of Transport Logistics
Andijan State Technical Institute, Andijan, Uzbekistan
ORCID: 0009-0007-6470-4532

Abstract. Optimization of the supply chain presupposes the presence of an existing, functioning system in one way or another. This paper will consider the model of export of Uzbek fruit and vegetable products to markets interested in it. The aim of the study is to create a mechanism that allows a balanced assessment of various options for the delivery of goods to the final (section of the chain) for the manufacturer.

Аннотация. Оптимизация цепи поставок предполагает наличие уже в том или ином роде наличия имеющейся, функционирующей системы. В данной работе будет рассмотрена модель экспорта узбекской плодоовощной продукции на заинтересованные в ней рынки. Целью исследования является создание механизма, позволяющего взвешенно оценить различные варианты доставки грузов до конечного (участка цепи) для производителя.

Annotatsiya. Ta’minot zanjirini optimallashtirish mavjud, ishlaydigan tizimning qandaydir shakli allaqachon mavjud bo‘lishini taxmin qiladi. Ushbu maqolada o‘zbek meva-sabzavot mahsulotlarini undan manfaatdor bozorlarga eksport qilish modeli ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning maqsadi ishlab chiqaruvchi uchun zanjirning yakuniy qismiga tovarlarni etkazib berishning turli xil variantlarini muvozanatli baholash imkonini beruvchi mexanizmni yaratishdir.

Keywords. Supply chain, optimization, ABC analysis, XYZ analysis, delivery, transportation, cargo.

Ключевые слова: Цеп поставок, оптимизация, анализ ABC, анализ XYZ, доставка, перевозка, груз.

Kalit so‘zlar. Ta'minot zanjiri, optimallashtirish, ABC tahlili, XYZ tahlili, yetkazib berish, tashish, yuk.

I.INTRODUCTION

The supply chain is a set of processes and information flows that connect the participants in the production process, the main goal of which is to meet the requirements of the consumer in goods and services.

In turn, supply chain management is a management concept and organizational strategy, which consists in an integrated approach to planning and managing the entire flow of information about raw materials, materials, products, services that arise and transform in the logistics and production processes of an enterprise, aimed at a measurable total economic effect , the main criteria of which are: minimizing costs and maximizing profits, including long-term ones. For the participants in the chain, this is expressed in finding the right amount of products, at the right time and in the right place.

Optimization of the supply chain presupposes the presence of an existing, functioning system in one way or another. This paper will consider the model of export of Uzbek fruit and vegetable products to markets interested in it. The aim of the study is to create a mechanism that allows a balanced assessment of various options for the delivery of goods to the final (section of the chain) for the manufacturer.


II. LITERATURE REVIEW and METHODOLOGY

Linear programming provides a method for finding the optimum for a wide class of functions that depend on many variables and obey certain constraining conditions. It is the most

famous and one of the most widely used management science tools. This is a mathematical method for solving the problem of optimal distribution of available resources (or money, or materials, or time) to achieve a certain goal (the highest income or the lowest costs) [2–4].

In general, the supply chain itself is fundamentally amenable to optimization for two key streams.:

- Material flow. Includes distribution, movement and storage of goods or materials.
- Information flow. Allows various supply chain partners to plan and coordinate joint actions.



Picture 1. A classic example of an extended supply chain.

Information flows allow various partners in the supply chain to plan and coordinate joint actions. Effective exchange of information requires the use of modern technology, as well as a willingness to cooperate and integrate. Enterprises integrated into the supply chain will be "connected" to each other through material and information flows. Working in such a tandem will allow the system to be managed as a whole, which will improve the efficiency of demand management on a global scale.

III.EXPERIMENTAL RESULTS

The approach described below directly affects both optimization options using ABC - XYZ analysis:

For example, taken (calculations) data on the export of agricultural products from Uzbekistan, in the context of regions and an interval of 10 years:

Table 1.

Data on the export of vegetables by regions of the Republic of Uzbekistan.

	2010	**2011**	**2012**	**2013**	**2014**	**2015**	**2016**	**2017**	**2018**	**2019**	**2020**
Tashkent	1299	1418	1572	1717	1842	2037	2244	1239	1082	1066	1067
Samarkand	1050	1149	1253	1351	1458	1584	1768	1787	1439	1585	1636

Andijan	862	952	1077	1203	1309	1411	1596	1478	1571	1597	1611
Surkhandarya	486	540	633	690	807	897	967	1014	914	972	1014
Fergana	459	520	578	639	712	783	867	874	1008	1090	1129
Namangan	439	489	530	575	623	655	722	766	795	811	832
Bukhara	355	391	438	478	520	567	659	696	689	729	769
Tadqiqot jarayonida yo‘l belgilarining tasnifi, ularning joylashtirilish tartibi, ko‘rinish darajasi va haydovchilar tomonidan idrok etilishiga ta’sir qiluvchi omillar o‘rganildi [8,9]. Analitik usul yordamida belgilarni qo‘llash samaradorligi, xavfsizlikka ta’siri hamda turli yo‘l sharoitlarida ularning qo‘llanilish xususiyatlari baholandi. Natijalar asosida yo‘l harakati xavfsizligini oshirishga qaratilgan xulosalar shakllantirildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Yo‘l belgilari, svetoforlar, to‘siqlar va yo‘naltiruvchi qurilmalar yo‘l harakati ishtirokchilarining kunduzi ham, qorong‘ida ham eng yaxshi ko‘rinishini, foydalanish va texnik xizmat ko‘rsatish qulayligini, shuningdek ularning bexosdan zarar etkazish ehtimolini istisno


qilishni hisobga olgan holda joylashtirilishi kerak. Shu bilan birga, ular yo‘l harakati ishtirokchilaridan hech qanday to‘siqlar (yashil maydonlar, tashqi yoritish ustunlari va boshqalar) bilan yopilmasligi kerak.

Yo‘l belgilari va svetoforlarni joylashtirishda ular uzatayotgan ma’lumotlarning faqat u mo‘ljallangan yo‘l harakati ishtirokchilariga yo‘naltirilishini ta’minlash kerak.



1-rasm. Yo‘l belgilari, svetoforlar, to‘siqlar va yo‘naltiruvchi qurilmalarning qo‘llanilishi

Yo‘l harakati tartibini belgilaydigan yo‘l chiziqlarini aniqlash qiyin bo‘lgan (qor, loy va boshqalar) yoki ularni ko‘rinishini tiklab bo‘lmaydigan yo‘l qismlarida tegishli yo‘l belgilari o‘rnatilishi kerak.



2-rasm. Yo‘l chiziqlarini qo‘lanilishi

Agar yo‘l harakati ishtirokchilarining yo‘l harakatini tashkil etishning texnik vositalarini idrok etishiga to‘sqinlik qilmasa yo‘l chegarasida va aholi punktlaridan tashqarisida – yo‘l oralig‘ida, belgilangan tartibda reklama, plakatlar, bannerlar va boshqa qurilmalarni joylashtirishga ruxsat beriladi.

Ular joylashtirilgan belgilar, svetoforlar va tayanchlarga, reklama, plakatlar, bannerlar va harakatni tashkil qilish bilan bog`liq bo`lmagan boshqa qurilmalarni joylashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi.



3-rasm. Yo‘l belgilari, svetoforlarning qo‘llanilishi

Yo‘l harakatining tashkil etishning texnik vositalari, ulardan foydalanish vaqtinchalik sabablarga ko‘ra (yo‘llarni ta’mirlash ishlari, harakatning mavsumiy xususiyatlari va boshqalar), bu sabablar bartaraf etilgandan so‘ng darhol qayta o‘rnatilishi kerak. Shu bilan birga, belgilar va svetoforlarni g‘ilof bilan yopishga ruxsat beriladi. Yo‘l harakatini tashkil etishning texnik vositalaridan foydalanish standartlarda nazarda tutilmagan hollarda, agar ulardan foydalanish zarurati yo‘l harakatining o‘ziga xos shartlari bilan asoslansa, foydalanishga ruxsat beriladi.

Belgining ta’siri ustiga o‘rnatilgan qatnov qismiga, velosiped yoki piyodalar yo‘lkasiga tadbiq etiladi. Nur qaytaruvchi yuzaga ega bo‘lgan belgilar doimiy yoritilmagan yo‘l qismlarida, ichki va tashqi yoritgichli belgilar–doimiy yoritilgan yo‘l qismlarida qo‘llaniladi. Agar kamida 100 m masofadan belgilarning ko‘rinishi ta’minlansa, doimiy yoritilgan yo‘llarning qismlarida nur qaytaruvchi yuzaga ega bo‘lgan belgilar ishlatilishi mumkin.



4-rasm. Doimiy yoritilgan yo‘llarning qismlarida nur qaytaruvchi yuzaga ega bo‘lgan belgilar

GOST 23457-86 “Yo‘l belgilari, yo‘l chiziqlari, yo‘l to‘siqlari, svetoforlar va to‘suvchi qurilmalaridan foydalanish qoidalari”, O‘zDSt 3283-2017 “Yo‘l belgilari”, xavfsiz harakatlanishni tashkil qilish uchun avtomobil yo‘llari va ko‘chalarda yo‘l belgilari qo‘llaniladi. Ular ma’lum bir harakatlanish tartibini o‘rnatadi yoki haydovchilar va piyodalarga ularning yo‘lidagi harakatlanish sharoitlari to‘g‘risida ma’lumot beradi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda yo‘l belgilarining nima uchun muhimligi va ularni qanday ishlatish kerakligi o‘rganildi. Belgilar haydovchilar, piyodalar va yo‘lovchilar uchun yo‘l harakatini tartibga soladi va xavfli joylar haqida ogohlantiradi. Har bir belgi o‘z vazifasiga qarab ishlatiladi: ogohlantiruvchi, taqiqlovchi, buyuruvchi yoki axborot beruvchi. Belgilarni to‘g‘ri joylashtirish,

ularni yoritish va haydovchi tomonidan ko‘rinadigan qilish juda muhim. Shuningdek, belgilarni takrorlash yoki oldindan qo‘yish ham harakatni xavfsiz qilishga yordam beradi. Umuman, yo‘l belgilariga amal qilish harakat xavfsizligini oshiradi va yo‘l-transport hodisalarini kamaytirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. GOST 23457-86: Traffic control devices. Rules for use of technical means of organizing traffic, 1–28, 30–37, 40–15, 21–25. Scribd, 1986.
2. A. Qodirov, B. Tursunov, va Sh. Yo‘ldoshev, Yo‘l belgilarining milliy sharoitga mos qo‘llanilishi va harakat xavfsizligiga ta’siri, Toshkent: ToshDTI nashriyoti, 2018, pp. 12–35.
3. Улканов, С., Эргашев, К., Торабоева, С., & Сайдуллаева, Д. (2022). СОВРЕМЕННЫЙ АВТОМОБИЛЕЙ ОХЛАЖДЕНИЕ СИСТЕМА РАБОТА ОСОБЕННОСТИ. *Science and innovation in the education system*, *1*(6), 23-30.
4. R. Lamm, Traffic Control Devices and Human Factors, New York: Van Nostrand Reinhold, 1991, pp. 45–78.
5. E. Hauer, Observational Studies in Road Safety, Toronto: University of Toronto Press, 1992, pp. 101–130.
6. D. Shinar, Traffic Safety and Human Behavior, Amsterdam: Elsevier, 2007, pp. 55–90.
7. Ernazarov A. et al. Optimization of the parameters of the functioning of public passenger transport stops //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2026. – Т. 3390. – №. 1. – С. 050004.
8. Convention on Road Signs and Signals, Vienna, Austria, 1968, pp. 1–45.
9. O‘zDSt 3283-2017, Yo‘l belgilari, Toshkent: O‘zbekiston Standartlashtirish Instituti, 2017, pp. 1–40.

UO‘T: 629.113.001.2

AVTOMOBILNING YO‘LDA HARAKATLANISHIDA TA’SIR ETUVCHI QARSHILIK KUCHLARI

Axunov Rustam
Andijon davlat texnika institute
“Transport logistikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy avtomobil yo‘llarida transport vositalarining xavfsiz va samarali harakatlanishini ta’minlovchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Avtomobil harakati murakkab mexanik jarayon bo‘lib, unga yo‘l sharoiti, transport vositasining texnik xususiyatlari va haydovchi omili ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotda g‘ildirashga qarshilik, havo qarshiligi, ko‘tarilishdagi qarshilik hamda inersiya kuchlarining harakatga ta’siri yoritilgan. Natijalar yo‘l loyihalash va transport harakatini optimallashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, xavfsizlik va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Аннотация. В данной статье анализируются основные факторы, обеспечивающие безопасное и эффективное движение транспортных средств на современных автомобильных дорогах. Движение автомобиля представляет собой сложный механический процесс, на который влияют дорожные условия, технические характеристики транспортного средства и фактор водителя. В исследовании освещено влияние сил сопротивления качению, сопротивления воздуха, сопротивления при подъеме и сил инерции на движение. Результаты имеют важное значение для проектирования дорог и оптимизации движения транспорта, способствуя повышению безопасности и эффективности.

Abstract. This article analyzes the key factors ensuring the safe and efficient movement of vehicles on modern highways. Automobile movement is a complex mechanical process influenced by road conditions, the technical characteristics of the vehicle, and the driver's factor. The study highlights the influence of rolling resistance, air resistance, lifting resistance, and inertia forces on motion. The results are important for road design and traffic optimization, contributing to increased safety and efficiency.

Kalit so‘zlar: avtomobil, harakat, g‘ildirash, qarshilik, aerodinamik, tezlik, inersiya kuchi, koeffitsiyenti.

Ключевые слова: автомобиль, движение, качение, сопротивление, аэродинамический, скорость, сила инерции, коэффициент.

Keywords: car, motion, rolling, resistance, aerodynamic, speed, inertia force, coefficient.

KIRISH

Zamonaviy avtomobil yo‘llarining barcha elementlari avtomobillarning hisoblangan tezlik bilan xavfsiz harakatlan ishini ta’minlashi zarur. Yo‘ldagi harakat jadalligi qancha yuqori bo‘lsa, avtomobillarning o‘zaro xalaqitlari shuncha ko‘p bo‘ladi va ularning harakat tezliklari kamayadi. Shuning uchun trassaning alohida elementlariga qo‘yiladigan talablarni yo‘lda yakka avtomobilning harakatlanish shartidan kelib chiqib belgilanadi [1].

Harakatlanayotgan avtomobil yo‘lda murakkab tizimda siljiydi: to‘g‘ri chiziqli yo‘lda ilgarilanma xarakat qiladi, dumaloqlanishlar bo‘ylab xarakatlanganda vertikal o‘qi atrofida aylanadi, g‘ildiraklar qoplamadagi notekisliklar ustidan o‘tganida bo‘ylama va ko‘ndalang yo‘nalishlarda tebranadi va xokazo. Bu xususiyatlarning hammasini xozircha yo‘llarni loyihalashda to‘liq hisobga olib bo‘lmaydi [2]. Shuning uchun yo‘l elementlariga planda va profilda qo‘yiladigan talablarni asoslashda avtomobil tekis, qattiq sirtda tebranmasdan harakatlanadi deb faraz qilinadi.

Avtomobilning yo‘lda harakatlanishining haqiqiy tartibi uchta omil bilan belgilanadi: avtomobilning foydalanish xossalari, maqbul tezlikda yurish imkoniyatini ta’minlovchi yo‘l sharoitlari va yo‘l sharoitlaridan kelib chiqib, o‘zlariga qulay tezlikni tanlashda haydovchilarning individual xususiyatlari. Bunda, odatda, avtomobilning konstruksiyasi yo‘l qo‘yadigan dinamik imkoniyatlardan to‘lik foydalanilmaydi [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy avtomobil yo‘llarida transport vositalarining harakatlanish qonuniyatlari ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, o‘zbek olimlaridan A. Qodirov, B. Xudoyberdiyev va Sh. Ergashev ishlarida avtomobil yo‘llarining geometrik elementlari va ularning transport oqimi xavfsizligiga ta’siri keng yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda yo‘l qoplamasining sifati, bo‘ylama va ko‘ndalang profil ko‘rsatkichlari transport tezligiga bevosita ta’sir etuvchi omillar sifatida qaraladi.

Shuningdek, mahalliy tadqiqotlarda g‘ildirashga qarshilik va yo‘l qoplamasi turiga bog‘liq energiya yo‘qotishlari masalalari ham muhim o‘rin egallaydi. Bu borada yo‘lning texnik holati va transport vositalarining ekspluatatsion xususiyatlari o‘zaro bog‘liq tizim sifatida tahlil qilingan [4,5,6].

Xorijiy olimlardan L. D. Landau va E. M. Lifshitz tomonidan mexanika va harakat nazariyasi asoslari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular transport vositalari dinamikasini tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [7]. Avtomobil harakati va aerodinamik qarshilik masalalari esa Hucho W. H. tadqiqotlarida batafsil o‘rganilgan. U aerodinamik qarshilikning tezlikka bog‘liqligini va transport samaradorligiga ta’sirini asoslab bergan [8].

Bundan tashqari, Gillespie T. D. tomonidan yozilgan ilmiy ishlar avtomobil dinamikasi, g‘ildirashga qarshilik va inersiya kuchlarining kompleks tahliliga bag‘ishlangan. Ushbu tadqiqotlar transport vositalarining real harakat sharoitlarida qanday kuchlar ta’sirida bo‘lishini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi [9].


Yuqoridagi ilmiy ishlarda avtomobil harakatiga ta’sir etuvchi asosiy kuchlar g‘ildirashga qarshilik, aerodinamik qarshilik, ko‘tarilishdagi qarshilik va inersiya kuchlari kompleks tarzda o‘rganilgan bo‘lib, ular zamonaviy yo‘l loyihalash va transport oqimini boshqarishda nazariy asos sifatida xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotimizda avtomobil harakatiga ta’sir etuvchi kuchlarni aniqlash va baholash uchun nazariy-tahliliy usullardan foydalanildi. Avvalo, avtomobilning tekis va qattiq qoplamali yo‘lda harakatlanishi ideal sharoit sifatida qabul qilindi. Shundan kelib chiqib, g‘ildirashga qarshilik, aerodinamik qarshilik, ko‘tarilishdagi qarshilik va inersiya kuchlari matematik formulalar asosida ifodalandi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Dvigatelning avtomobil yetakchi g‘ildiraklarida hosil qiladigan tortish kuchi harakatlanishga qarshilik qiluvchi kuchlarni yengishga sarflanadi. Ko‘tarilishda tezlanish bilan harakatlanayotgan avtomobilga umumiy holda quyidagi qarshilik kuchlari ta’sir qiladi: g‘ildirakning g‘ildirashiga qarshilik (g‘ildirab ishqalanish) kuchi R_j, ko‘tarilishdagi harakatga qarshilik kuchi R havoning qarshiligi R, harakatlanish tezligi o‘zgarganda xosil bo‘ladigan avtomobilning o‘zining va mexanizmlari aylanuvchi massalarining inersiya kuchlari R_j g‘ildirashga qarshilik kuchlari va havoning qarshiligi harakatlanayotgan avtomobilga doim ta’sir etadi. Ko‘tarilishdagi harakatga qarshilik va inersiya kuchlari yo‘lning bo‘ylama profili va avtomobilning harakatlanish rejimiga qarab yo mutlaqo bo‘lmasligi yoki xatto manfiy ishoraga ega bo‘lib, harakatga yordam berishi mumkin (tog‘ etagiga tushishda yoki tormozlashda).



1-rasm. Avtomobil harakatiga ta’sir etadigan qarshilik kuchlari.

G‘ildirashga qarshilik shinalar va yo‘lning deformatsiyalanishiga energiya sarflash tufayli yuzaga keladi. Tekis sementbeton va asfalt-beton qoplamalarda g‘ildirashga qarshilikni belgilovchi asosiy omil shinalarning siqilishidir. Uncha tekis bo‘lmagan qoplamalarda (chaqiq toshli, shag‘alli, tosh yotkizilgan yo‘llarda) bunga g‘ildiraklarning qoplamadagi notekisliklar ustidan yurib o‘tishi qo‘shiladi. Yumshoq sirtli tuproq yo‘llarda qarshilik g‘ildiraklarning izi xosil bo‘layotganda shinalar va tuproqning deformatsiyalanishiga sarflangan kuchlar tufayli xosil buladi.

Qattiq qoplamali yo‘llarda harakatlanishda g‘ildirashga qarshilik yo‘lga tushadigan bosimga to‘g‘ri mutanosib bo‘ladi:

$$P_f=\Sigma G_i f_i$$

bu yerda G_i-alohida g‘ildiraklardan yo‘lga tushadigan yuklama, N,

fi – g‘ildirashga qarshilik koeffitsienti.

Deformatsiyalanadigan gruntli sirtlarda g‘ildirak izini xosil qilib harakatlanishda g‘ildirashga qarshilik koeffitsiyent‌ bilan g‘ildirakka tushadigan yuklama o‘rtasida ancha murakkab bog‘lanish bor:

$$Pf =\xi\, Gi\sqrt{H/D}$$

bu yerda ξ, - tuprokning x,olatiga karab 0,75 dan I ga o‘zgaruvchi koeffitsiyent; H – g‘ildirak o‘tganidan keyin xosil bo‘lgan izining chuqurligi; D – g‘ildirakning diametri.

Odatda g‘ildirashga qarshilik koeffitsiyentini avtomobilning umumiy og‘irligiga keltiriladi, ya’ni quyidagicha bo‘ladi deb faraz qilinadi:

$$fur=\Sigma P_f/G_{avt}$$

bu yerda ΣP_f - avtomobildagi xamma gildiraklarning gildirashga umumiy sarshiligi; G_{avt} - avtomobilning ogirligi.

G‘ildirashga qarshilik qoplamaning tekisligiga, tezlikka va shinalarning elastikligiga boqliq. Biroq, 50 km/soat dan past tezlikda harakatlanishda g‘ildirashga qarshilik shunchalik sekin ortadiki, bunda g‘ildirashga qarshilik koeffitsiyentini amalda o‘zgarmas va quyidagi qiymatlarga ega, deb hisoblash mumkin:

1-jadval

Qoplama	f ning qiymati
Sement-beton va asfalt-beton	0.01-0.02
Organik bog‘lovchi moddalar bilan ishlov berilgan chaqiq toshdan yoki shag‘aldan tayyorlangan tekis sirt	0.02-0.025
Boglovchi moddalar bilan ishlov berilmagan chaqiq toshdan yoki shag‘aldan tayyorlangan uncha katta bo‘lmagan o‘yilgan	0.03-0.04

joylari bor	
Tosh yotkizilgan yo‘l	0.04-0.05
Tekis, quruq va shibbalangan tuprok yo‘l	0.03-0.06
Haydalgan yer, o‘ta nam botkokli grunt, sochiluvchan qum	0.05-0.03 va undan ortiq

Hisoblangan tezliklarga yaqin tezliklarda tekis, qattiq sirtli yo‘llarda tezlik υ (60< υ <150 km/soat) bo‘lganda g‘ildirashga qarshilik koeffitsiyentini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$f_\upsilon = f_0 (1 + 4 . 5*1\ 0^{-5}\upsilon^2)$$

bu yerda f_0 - 60 km/soat gacha bo‘lgan tezlikda g‘ildirashga qarshilik koeffitsiyenti.

Avtomobil harakatiga havoning aerodinamik qarshiligini quyidagilar hosil qiladi: ro‘para qarshilik, bunga xarakatlanayotgan avtomobilning oldidagi va orqasidagi havo bosimlarining farqi sabab bo‘ladi; havoning avtomobil yon sirtiga ishkalanishi va avtomobilning chiqib turadigan qismlari- qanoti, oynalari, nomer belgilari va boshqalar xosil qiladigan qarshilik; avtomobil orqasida, g‘ildiraklar yaqinida va kuzov ostida havo oqimlarining uyurmalanishiga sarflanadigan quvvat; radiator va kapot osti bo‘shlig‘idan o‘tadigan havoning qarshiligi. Havo bir tekis yuvib o‘tmaganligi va uyurmalanishi natijasida harakatlanayotgan avtomobil sirtida havo bosimi bir tekis bo‘lmaydi. Bosim ko‘tarilgan va siyraklangan zonalari mavjud bo‘ladi.

Avtomobilning harakatiga havoning jami qarshiligi (N) aerodinamika formulasi bilan ifodalanadi:

$$P_\omega = cp\omega\ \upsilon^2/3.6^2 = cp\omega\ \upsilon^2/13$$

bu yerda c-muhitning qarshilik koeffitsienti (havoda harakatlanauongan jismning shakliga va jism sirtining silliqligiga bog‘liq bo‘lgan o‘lchovsiz kattlik) p-havoning zichligi, u dengiz sathida 0.125 Nc^2/m^4 ga teng, ω- avtonobilining uning harakat yo,nalishiga tik tekislikka proeksiyasining yuzi, (ro‘para yuzi, m^2); υ – avtomobilning havoga nisbatan harakatlanish tezligi; yo‘lakay shamolda $\upsilon = \upsilon_{avt} - \upsilon_h$, qarshi shamolda $\upsilon = \upsilon_{avt} + \upsilon_h$

Avtomobilni tortishga hisoblashda cp ko‘paytma tajriba yo‘li bilan topiladigan havoning qarshilik koeffitsiyenti K_h bilan almashtiriladi.

2-jadval

Avtomobil	K_h, Nc^2/m^4	ω, m^2
Yuk avtomobili	0.6-0.7	3-7
Vagon tipidagikuzovli avtobus	0.25-0.5	4.5-7
Yengil avtomobil	0.15-0.3	1.4-2.6
Suyri sport, poyga avtomobili	0.1-0.15	1-1.5

Ro‘para proyeksiyaning yuzi takribiy formulalar bilan hisoblanadi: zamonaviy yengil avtomobillar uchun ω =0,8BH; avtobuslar va furgon kuzovli yuk avtomobillari uchun ω = 0,9 BH (bu yerda B, H - avtomobillarning gabarit eni va balandligi).

Odatda tortishga hisoblash tinch shamolsiz ob-xavoda xarakatlanishga tadbikan bajariladi va bunda havoning qarshilik kuchi avtomobilning og‘irlik markaziga qo‘yilgan, deb qabul qil inadi.

Harakat tezligi ortganida havoning qarshiligi keskin ortadi. Shuning uchun avtomobillarni loyihalashda havo qarshiligiga kamrok; uchraydigan shakl hisobiga havo qarshiligini kamaytirishga katta e’tibor beriladi.

Nishabli tepalikka ko‘tarilishdagi harakatga qarshilik avtomobilning nishabli yo‘ldan balandlikka ko‘tarilishiga qo‘shimcha energiya sarflanishi natijasida hosil bo‘ladi. Avtomobilning yo‘lning uzunligi L va balandligi H bo‘lgan ko‘tarilish uchastkasida siljishi uchun og‘irlik kuchi F =GH ni yengishga ish sarflanadi. Yo‘lning qiya uchastkasining haqiqiy uzunligi bilan uning gorizontal proyeksiyasi orasidagi farqni (avtomobil yo‘llarida yo‘l qo‘yiladigan bo‘ylama qiyaliklar uchun uncha ahamiyatli emas) hisobga olmasdan ko‘tarilishdagi harakatga qarshilikni yo‘l birligi uchun quyidagicha ifodalash mumkin:

$$P_j=F/L=GH/LG*I$$

Shunday qilib, ko‘tarilishdagi harakatga qarshilik koeffitsiyenti, P_j ning avtomobil og‘irligiga nisbatidan iborat bo‘lib, bo‘ylama qiyalikning unli kasrlarda ifodalangan qiymatiga teng.

XULOSA

Tadqiqotimizda zamonaviy avtomobil yo‘llarida transport vositalarining harakatlanish jarayoni va unga ta’sir etuvchi asosiy omillar kompleks tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, avtomobil harakati samaradorligi va xavfsizligi yo‘l sharoitlari, transport vositasining texnik holati hamda haydovchi omiliga bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi. Shuningdek, g‘ildirashga qarshilik, aerodinamik qarshilik, ko‘tarilishdagi qarshilik va inersiya kuchlari avtomobil harakatining asosiy cheklovchi omillari sifatida baholandi. Ayniqsa, tezlik oshishi bilan havoning qarshiligi keskin ortishi transport vositalarining energiya sarfiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlandi.

Olingan natijalar avtomobil yo‘llarini loyihalashda optimal geometrik parametrlarni tanlash, yo‘l qoplamasi sifatini oshirish hamda transport oqimini samarali boshqarish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot kelgusida yanada murakkab real harakat sharoitlarini hisobga olgan holda kengaytirilishi maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. R. Rajamani, Vehicle Dynamics and Control, 2nd ed. New York, NY, USA: Springer, 2012, pp. 59–102.
2. D. Crolla, B. Mashadi, and D. Cao, Vehicle Powertrain Systems. Chichester, UK: Wiley, 2011, pp. 120–168.
3. M. Sayers and S. M. Karamihas, The Little Book of Profiling. Ann Arbor, MI, USA: University of Michigan, 1998, pp. 34–60.
4. A. Qodirov, Avtomobil yo‘llarini loyihalash asoslari, Toshkent: O‘qituvchi, 2018, pp. 45–78.
5. B. Xudoyberdiyev, Transport oqimlarini boshqarish va yo‘l xavfsizligi, Toshkent: Fan va texnologiya, 2020, pp. 112–156.
6. Sh. Ergashev, Yo‘l qoplamalari va ularning ekspluatatsion xususiyatlari, Toshkent: Innovatsiya, 2019, pp. 67–101.
7. L. D. Landau and E. M. Lifshitz, Mechanics, 3rd ed. Oxford, UK: Butterworth-Heinemann, 1976, pp. 23–56.
8. W. H. Hucho, Aerodynamics of Road Vehicles, 4th ed. Warrendale, PA, USA: SAE International, 1998, pp. 145–198.
9. T. D. Gillespie, Fundamentals of Vehicle Dynamics. Warrendale, PA, USA: SAE International, 1992, pp. 89–134.J. Y. Wong, Theory of Ground Vehicles, 4th ed. Hoboken, NJ, USA: John Wiley & Sons, 2008, pp. 201–256.

UO‘T:624.131.43:624.15

Experimental Evaluation of Soil Shear Strength Parameters for Geotechnical Stability Analysis of Foundations and Slopes

Mirzaev Abdikhannon,
Lecturer of the Department of
"Transport Logistics" of Andijan State Technical Institute, Andijan, Uzbekistan

Abstract. Soil strength is crucial for assessing the stability of foundations and slopes. Shear failure occurs under the influence of tangential stresses along the cutting surfaces. Using laboratory tests, vertical pressure and horizontal displacement were measured, and the dependence $\tau = C + p \cdot tg\varphi$ was determined. Parameters were calculated using the least squares method. The results obtained were used in the design of foundation load-bearing capacity, slope stability, and support structures. Soil shear resistance depends on the influence of external loads and self-weight, serving as a key indicator in engineering geotechnical calculations.

Аннотация. Прочность грунта имеет решающее значение для оценки устойчивости фундаментов и склонов. Разрушение при сдвиге возникает под воздействием тангенциальных напряжений по режущим поверхностям. С помощью лабораторных испытаний были измерены вертикальное давление и горизонтальное перемещение, а также определена зависимость $\tau = C + p \cdot tg\varphi$. Параметры были рассчитаны методом наименьших квадратов. Полученные результаты были использованы при проектировании несущей способности фундамента, устойчивости откосов и несущих конструкций. Сопротивление сдвигу грунта зависит от воздействия внешних нагрузок и собственного веса, что является ключевым показателем в инженерно-геотехнических расчетах.

Annotatsiya. Gruntning mustahkamligi poydevor va qiyaliklarning mustahkamligini baholash uchun juda muhimdir. Siljishdagi buzilish kesuvchi yuzalar bo‘ylab urinma kuchlanishlar ta’sirida sodir bo‘ladi. Laboratoriya sinovlari yordamida vertikal bosim va gorizontal siljish o‘lchanib, $\tau = C + p \cdot tg\varphi$ bog‘liqligi aniqlandi. Parametrlar eng kichik kvadratlar usuli yordamida hisoblangan. Olingan natijalar poydevorning yuk ko‘tarish qobiliyati, qiyalik mustahkamligi va tayanch konstruksiyalarini loyihalashda qo‘llanilgan. Gruntning siljishga qarshiligi tashqi yuklar va xususiy og‘irlik ta’siriga bog‘liq bo‘lib, muhandislik-geotexnik hisob-kitoblarda asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi.

Key words: soil, strength, shear, resistance, dispersion, granulometric, prisms, pointer.

Ключевые слова: грунт, прочность, сдвиг, сопротивление, дисперсность, гранулометрический, призмы, стрелка.

Tayanch so‘zlar: grunt, mustahkamlik, siljish, qarshilik, dispersiya, granulometrik, prizmalar, strelka.

INTRODUCTION

Studying the strength of foundations and their failure mechanisms is one of the most critical areas of geotechnics and civil engineering. Practical observations indicate that the stability of structures is often directly dependent on the shear surfaces formed within the soil massif. These displacements usually manifest as flat surfaces along the base of the foundation or as complex curved sliding surfaces in deep layers. Under real conditions, such slides are not limited to a single geometric surface but develop in several directions within a deformation zone of a certain thickness. The stability of the soil and its erosion processes are determined by tangential stresses arising under the influence of external loads and the soil's own weight.

The main factor resisting these stresses is internal friction and the bonding forces between the particles. In engineering calculations, soil resistance is considered as the total resistance integrated across the entire cutting surface. However, in practice, it is difficult to fully express this process,

and it is often evaluated through its projections or moments. Special devices that model the soil displacement process are used in laboratory experiments [1]. Usually, these devices consist of a ring-shaped vessel consisting of upper and lower parts. The soil placed inside the sample is compressed using a vertical load and subjected to a certain horizontal force. Vertical pressure is determined by the formula P = N/A, where N is the applied load and A is the cross-sectional area of the ring. As a result of the horizontal load increase, displacement occurs in the sample, and this process is recorded using measuring instruments. Shear resistance is determined by the expression $\tau = T/A$, where T is the horizontal force and A is the cutting area [2].

During the experiment, the load is increased, and the degradation state of the material is determined by the maximum resistance value. Several tests are conducted under various vertical pressures, and the results obtained are presented graphically. These graphs usually show the relationship between shear resistance and normal pressure. Analysis shows that this relationship is often linear and is expressed by the equation $\tau = C + p \cdot tg\varphi$. Here, C represents the cohesion of the soil, i.e., the adhesion force between particles, and φ represents the angle of internal friction. These parameters are the primary indicators determining the strength properties of the soil [3]. They are determined using the least squares method based on laboratory results.

In loose and loose soils, cohesion is almost zero, and strength is mainly ensured by the angle of internal friction. Therefore, separate calculation approaches are used for such soils. In general, the study of soil shear resistance is of great scientific and practical importance in determining the load-bearing capacity of foundations, assessing slope stability, and designing support structures [4].

LITERATURE REVIEW

The study of soil shear strength, failure mechanisms, and foundation stability is one of the fundamental areas of geotechnical engineering. Both international and Uzbek researchers have significantly contributed to understanding soil behavior under loading, especially in terms of shear resistance, failure surfaces, and critical load conditions.

Among early foreign researchers, Charles-Augustin de Coulomb was the first to establish a relationship between soil resistance and internal friction and cohesion. His theory introduced the concept that soil shear strength depends on both adhesive and frictional forces, forming the basis of modern slope stability and earth pressure analysis [5]. Later, William John Macquorn Rankine developed analytical solutions for earth pressure and stability of retaining structures by assuming simplified planar failure surfaces [6].

A major breakthrough in soil mechanics was achieved by Karl Terzaghi, who is widely regarded as the founder of modern geotechnical engineering. He introduced the effective stress principle, showing that soil strength depends not only on total stress but also on pore water pressure. His work became the foundation for evaluating bearing capacity of foundations and analyzing shear failure zones in soil masses [7]. The Mohr–Coulomb failure criterion, widely used in geotechnical engineering, mathematically expresses shear strength as $\tau = C + \sigma \tan \varphi$, where C represents cohesion and φ is the internal friction angle. This model remains the most practical approach for describing soil strength behavior in engineering design.

Further developments were made by researchers such as Alan W. Bishop, who introduced advanced methods for slope stability analysis using circular slip surfaces and limit equilibrium methods. These approaches helped in better understanding complex failure mechanisms where real slip surfaces are not perfectly planar but occur within deformation zones of finite thickness [8].


Laboratory methods such as the direct shear test (shear box test) and triaxial compression test have been widely used to determine soil shear strength parameters. These experiments simulate real field conditions by applying vertical stress and gradually increasing horizontal shear stress

until failure occurs. The experimental results are used to determine cohesion (C) and internal friction angle (φ) through statistical methods such as least squares fitting.

RESULT AND DISCUSSION

According to observations, the deterioration of foundation strength occurs as a result of foundation displacement along a plane formed within the soil mass (along the foundation base) or along a complex curved surface (deep cutting). The diagram shown is simplified because in reality, sliding is observed in several directions in zones of a certain thickness, traditionally taken as surfaces. Similarly, soil movement occurs when excavation or the slopes of banks lose stability. Thus, soil strength should be understood as the total shear resistance along the entire shear surface. In engineering calculations, its component is usually found, which is a projection onto a particular axis or a moment relative to a specific axis of rotation. Changes are always caused by tangential stresses in the massif caused by external loads and the soil's own weight. Resistance forces t, which are essentially friction forces, depend on soil quality and normal stresses sp to the cutting surface. The complexity of the problem lies in the fact that the shape and position of the cutting surfaces cannot be determined; they must be found. Various techniques have been developed for this purpose, the basis of which is the analysis of soil shear resistance parameters and the limit stress state of soils at points. When studying this section independently, it is advisable to follow the following logical sequence:

1. methods for determining soil shear resistance parameters;
2. critical loads on foundation soils;
3. soil pressure on load-bearing structures;
4. Assessment of the stability of associated soil slopes;
5. Determination of the strength of foundation foundations. Soil shear resistance samples and parameters are studied based on laboratory and field test data.



Cutting surface

Fig. 1. Surface of the cut when the foundation strength is compromised.




Figure 2. Soil cutting surface. 1 - upper ring; 2 - lower ring; 3-hard die; 4-perforated vessel; Indicator 5.

In laboratory experiments, a device is typically used that allows for the simulation of cutting in a soil mass (Fig. 2). The main part of the mounting design is a ring divided into upper and lower parts, one of which is fixed. The soil sample in the ring is loaded with a vertical power of N using a uniformly distributed loading device through a rigid die. The magnitude of the pressure transferred to the ground is P = N/A, where A is the cross-sectional area of the ring. The moving ring (top in the figure) is loaded with a gradually increasing horizontal load T and begins to shift. The position of the rigid die and the horizontal displacement of the ring are measured using the d indicators. In the sample, the tangential stresses along the plane between the rings are equal to t.




Figure 3. Dependence of shear resistance on normal pressure. a - flowing soil; b - bound soil.

$$\tau=T/A$$

At a certain displacement D, the force T reaches its maximum value, which means that the force is deformed. Under the limiting force T, the value of t according to formula (2) is called shear resistance. Such tests at at least three different vertical pressures are conducted for several samples of the same soil. To analyze the experimental results, a graph is drawn showing the experimental points (Fig. 3). It is common to plot the found values of t on the vertical axis, and the given values of p are shown on the horizontal axis. The segments connecting the points usually form a broken line. Research has shown that a broken line can be replaced by a straight line without many errors, the equation of which in the symbol adopted in the figure has the following form:

$$\tau=C+tg\varphi p \quad (3)$$

where C is the ordinate of the inclined line's intersection with the vertical axis; φ is the angle of inclination of the straight line to the horizontal axis. C and tgφ are determined by the least squares method.

$$= \frac{(\sum \tau_j \sum \tau_j^2 - \sum p_j \sum \tau_j p_j)}{(n\sum j p_j^2 - \sum p_j^2)}$$

$$tg\varphi = \frac{(n\sum \tau_j p_j - \sum \tau_j \sum p_j)}{(n\sum j p_j^2 - \sum p_j^2)};$$

where n is the number of experiments;

j is the number of experiments found for a given r_j.

The parameters c and the slope angle p_h in equation are empirical coefficients called the adhesion angle and the internal friction angle, respectively. Since they characterize the strength of the soil, they are considered strength indicators. In loose soils, cohesion is close to zero and is usually not calculated using formula.

CONCLUSION

This article analyzed the stability of foundations and the mechanisms of soil failure occurring within soil masses. The study shows that foundation or slope failure primarily develops along shear surfaces, which in real conditions are not perfectly planar but exist as deformation zones

with a finite thickness. Soil stability is governed by tangential stresses induced by external loads and the self-weight of the soil, while resistance to these stresses is provided mainly by internal friction and cohesion. Laboratory investigations confirm that soil shear strength can be expressed by the relationship $\tau = C + p \cdot \tan\varphi$, where C is cohesion and φ is the internal friction angle. These parameters are fundamental indicators of soil strength and are determined through experimental testing under different vertical pressure conditions, typically using statistical methods such as the least squares approach.

REFERENCES

1. J. E. Bowles, Foundation Analysis and Design, 5th ed., New York, USA: McGraw-Hill, 1996, pp. 1–1170.
2. H.Z. Rasulov “Gruntlar mexanikasi, zamin va poydevorlar” Toshkent 2010,272 b.
3. A. W. Skempton, “The pore-pressure coefficients A and B,” Geotechnique, vol. 4, no. 4, 1954, pp. 143–147.
4. R. F. Craig, Craig‘s Soil Mechanics, 8th ed., London, UK: CRC Press, 2012, pp. 1–480.
5. C.-A. de Coulomb, Essai sur une application des règles de maximis et minimis à quelques problèmes de statique relatifs à l’architecture, Paris, France, 1776, pp. 1–30.
6. W. J. M. Rankine, “On the stability of loose earth,” *Philosophical Transactions of the Royal Society of London*, vol. 147, 1857, pp. 9–27.
7. K. Terzaghi, Theoretical Soil Mechanics, New York, USA: John Wiley & Sons, 1943, pp. 1–510.
8. A. W. Bishop, “The use of the slip circle in the stability analysis of slopes,” Geotechnique, vol. 5, no. 1, 1955, pp. 7–17.

UO‘T: 629.3.004.67

AVTOMOBILLARNI TA’MIRLASH JARAYONIDA POLIMER MATERIALLARDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI

To‘rayev Shoyadbek Axmadjonovich
Andijon davlat texnika instituti
Transport logistikasi kafedrasi dotsenti

Anotatsiya. Ushbu maqolada **z**amonaviy transport vositalarining konstruksiyalarini polimer bilan qoplash va mashinasozlikda oydalanish istiqbollari haqida tahlillar berilgan. Shuningdek, bu materiallarni ishlatish texnika vositalarini konstruksiyalarini ixchamlash, massalarini kamaytirish, ishlash ishonchliligini oshirish bilan bir qatorda ishlab chiqarish tannarxini va mehnat sarfini kamaytirishga katta yo‘l ochib berishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Аннотация. В данной статье представлен анализ перспектив полимеризации конструкций современных транспортных средств и их использования в машиностроении. Также приведены сведения о том, что использование этих материалов позволяет упростить конструкции технических средств, снизить их массу, повысить надежность работы, а также снизить себестоимость производства и трудозатраты.

Abstract. This article provides an analysis of polymer coating for modern vehicle structures and the prospects for its use in mechanical engineering. It is also reported that the use of these materials allows for the reduction of production costs and labor costs, as well as the compactness of technical equipment designs, reduction of mass, and increased operational reliability.

Kalit suzlar: polimer material, material isrofi, elektr izolyatori (dielektriklar)

Ключевые слова: полимерный материал, потери материала, электрический изолятор (диэлектрики)

Keywords: polymer material, material loss, electrical insulator (dielectrics)

Kirish

Avtomobil texnikasini mukammallashda Polimer materiallarning ahamiyati beqiyos katta va uning istiqbollari kundan-kunga oshib bormoqda. Bu holat Polimer materiallarning noyob hususiyarlarini va undan tayyorlangan mahsulotlarning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarining yuqori ekanligi bilan izoxlanadi.

a) polimerlardan foydalanishning texnik-iqtisodiy samaradorligini chuqur taxlil qilish; b) polimerlar va ulardan tayyorlangan buyumlarning tarkibi va hususiyatlarini o‘rganish; s) avtomobilsozlikda Polimer materialdan foydalanishni o‘rganish va yangi istiqbollarni ochishdan iborat.

a) polimerlardan foydalanishning texnik-iqtisodiy samaradorligini chuqur taxlil qilish;

b) polimerlar va ulardan tayyorlangan buyumlarning tarkibi va hususiyatlarini o‘rganish;

s) avtomobilsozlikda Polimer materialdan foydalanishni o‘rganish va yangi istiqbollarni ochishdan iborat.

Avvalo Polimer materiallar noyob kimyoviy, fizik-kimyoviy va fizik-mexanik hususiyatlar mujassamlashgan material xisoblanadi, shuning bilan birga ulardan zarur hossalarga ega bo‘lgan buyum tayyorlash imkoniyatlari bilan farq qiladi. Alohida takidlash zarurki, Polimer materialdan tayyorlangan buyum o‘zining ekspluatatsion sifatini uzoq muddat o‘zgartirmay saqlash hususiyatiga ega.

Boshqa hususiyati shundan iboratki, undan istalgan shakl va o‘lchamdagi maxsulot (detal, uzel va x.k) tayyorlash mumkin, shuningdek Polimer materialdan maxsulot ishlab chiqarish texnologiyasi qulay, mexnat va energiya sarfi metaldan tayyorlashga nisbatan bir-necha barobar arzon.

Polimer material homashyosi neft kimyo mahsulotlari va asosiy organik sintez hisoblanadi. Demak, xomashyo zaxirasi cheksiz!

Ushbu omillar Polimer materiallarni buyum ishlab chiqarish va undan foydalanishning texnik-iqtisodiy samaradorligi benixoya yuqori ekanligini ko‘rsatadi

Polimer materiallarni avtomobilsozlikda qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatni takidlash lozimki, bunda ba’zi holatlarda aynan iqtisodiy samaradorligni undan buyum ishlabchikarish doirasidan undan foydalanish sharoitiga ko‘chirishni taqozo etadi. Ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan materiallar yangi bo‘lib ular traditsion materiallardan qimmat turadi. Shuning uchun ishlatilayotgan materiallarni yangisiga almashtirish buyum tannarxini ko‘tarilishiga olib keladi. Lekin yangi materiallardan buyum tayyorlash uning ishonchliligiga, uzoqqa chidamligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Polimer materiallaridan foydalanishda, shuning bilan birga, oldin yechilmagan muammolarni hal qilishga ya’ni zarur bo‘lgan birnecha kompleks xususiyatlarni birlashtirib yechimini topishga imkon beradi.

Yuqoridagilarni e’tiborga olib malakali bitiruv ishi mavzusi aktual vazifalardan iborat va kelajak avtomobilsozlar uchun o‘ta istiqbolli yo‘nalish deb hisoblash mumkin.

Hozirgi texnika va texnologiya rivojlangan davrda avtomobilsozlikda mislsiz yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda. O‘tgan asr boshlarida avtomobil to‘g‘risida eng dastlabki tushunchalar paydo bo‘lib, keyinroq yaratilgan, xozirga kelib yesa avtomobillarning murakkablashuvi avtomobil egalarida zamonaviy texnik vositalar va o‘ziga xos tajriba. Malakaning yo‘qligi, avtomobillarning doimiy ravishda texnik xizmat va ta’mirga muxtoj bo‘lishi avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish yoki avtoservis deb ataluvchi tizimning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Avtoservis xizmati bizning kundalik xayotimizga yangi atama sifatida kirib kelib kundalik xizmat ko‘rsatish, 1,2-texnik xizmat ko‘rsatish, mavsumiytexnik xizmat ko‘rsatish, yoqilg‘i moylash maxsulotlari va extiyot qismlar bilan ta’minlash, magistral yo‘llarda modellar kempinglar, avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish shaxobchalari va boshqa turdagi texnik xizmat ko‘rsatuvchi shaxobchalardagi bajariladigan ishlarni o‘z ichiga oladi. Avtoservis xizmati qamrab olgan barcha turdagi ishlarni amalga oshirish uchun avtomobil ekspluatatsiyasi (amartizatsiyasi) davridagi xarajatlar, umumiy xarajatlar ichida 87% ni tashkil etadi. Qolgan 13% esa yangi avtomobil ishlab chiqarish uchun ketgan sarfga to‘g‘ri keladi. Mexnat sarfini olib qaraydigan bo‘lsak, yangi avtomobil ishlab chiqarish uchun 1,5-3,5% mexnat sarflansa, avtomobilni xizmat davrida servis xizmati ishlari uchun ketgan mexnat sarfi 96,5-98,5% tashkil etadi.

O‘z navbatida avtomobilning kunlik va yillik bosib o‘tadigan yo‘li TXK va T xizmati yoqilg‘i moylash materiallari narxiga tabiiy iqlim va foydalanish sharoitiga. Avtomobillarni saqlashga va boshqa ko‘plab omillarga bog‘liqdir.

Avtomobillardan foydalanish mobaynida ishlatiladigan yoqilg‘i-moylash maxsulotlarining sifati avtomobilda mavjud detal, uzel, agregatlarni yeyilishi, ishdan chiqishi, umuman aytganda, ishlash sifatiga keskin ta’sir ko‘rsatadi. Agar biz yoqilg‘i moylash maxsulotlarining sifatini me’yoriy ko‘rsatkichlar darajasiga olib chiqa olsak, avtomobillardagi ko‘rsatiladigan TX va T ga talabni ma’lum miqdorda kamaytira olgan bo‘lamiz.

Avtomobillardan foydalanish shartlarining takomillashuvi, avtomobillarni saqlash sharoitlarini va viloyatda mavjud avtomobil yo‘llar tarmoqlarini yaxshilanishiga, xaydovchilar malakasini oshirishga, tabiiy iqlim sharoitlarining mavsumga mos ravishda o‘zgarishiga bog‘liq bo‘ladi.

Atrof muxitni avtomobil ishlab chiqargan zaxarli gaz, yo‘llardan ko‘tarilgan chang zarrachalari bilan ifloslantirish, yo‘l transport xodisalarining ortib borish, yo‘l tarmoqlarini yaxshilash kengaytirish kabi muammolarni paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Muammolarni oldini

olishda shaxsiy avtomobil egasi o‘z avtomobilidan samarali va uzoq muddat soz xolatda ushlashi hamda o‘zi foydalanishi uchun avtomobilni doimo texnik soz xolatda ushlashi o‘z avtomobilini boshqarishda undan turli ko‘rinishlarda foydalanganda avtomobil uchun material ta’minotni amalga oshirish, avtomobilning ishchan xolatini saqlab turishi, servis xizmatini belgilangan ravishda bajarib borish lozim.

Avtomobilning aksariyat qismi hozirgi kunda Polimer materialdan tayyorlanmoqda. Shuning uchun ham bosim bilan avtomobil detallarini olish texnologiyasini o‘rganish dolzarb masalasidir.

Polimer materiallarning xossalari ularga qo‘shilgan moddalarning tarkibi va miqdoriga bog‘liq. Bu moddalar miqdorini o‘zgartirib, turli-tuman, xatto, oldindan belgilangan xossali birikmalar olish mumkin. Ko‘pgina Polimer materiallarning suvga chidamliligi, ko‘pgina agressiv moddalar va neft maxsulotlari ta’siriga qarshi tura olishi ularning eng muxim ijobiy xossalaridir. Kimyo yutuqlari past xaroratda ham, yuqori xaroratda ham ishlay oladigan plastiklar olishga imkon beradi. Ko‘pgina Polimer materiallar yaxshi elektr izolyatori (dielektriklar) bo‘lganligidan ulardan traktor avtomobillarning elektr jixozlarini tayyorlashda foydalanish mumkin. Issiqqa uncha chidamli emasligi, shuningdek vaqt o‘tishi bilan o‘z xossalarini o‘zgartirishi, ya’ni eskirishga moyilligi Polimer materialning kamchiligidir.

Hozirgi kunda polimer materiallardan avtomobillar uchun detallar ishlab chiqaruchi qator qo‘shma korxona va firmalar faoliyat olib bormoqdalar. Bu korxonalarda aksariyat detallar polimer materiallarini qoliplarga bosim bilan quyish usulida olinadi.

“UzKORAM KO” yopiq turdagi aksionerlik jamiyati. Xozirgi kunda qo‘shma korxonada yiliga 200.000 dan ortiq komplekt bamperlar, asboblar paneli va eshiklar obshivkalari ishlab chiqarish quvvatiga ega. Bo‘yoq sexida avtomobillarning bamperlari kuzov rangiga bo‘yash imkoniyatiga ega.

“Uz-Tong Xong Ko” qo‘shma korxonasi. Bu korxonada “UzAvtoMotors” AJ da ishlab chiqarilayotgan barcha atomobillar uchun Penopoliuretan polimeridan o‘rindiqlar tayyorlanmoqda.

“Andijon Kabel” va “Uz-Kodj”qo‘shma korxonalarida avtomobil elektr qismlari izalyatsiyasi simlari ishlab chiqarilmoqda.

Natija va muhokama.

Tadqiqot davomida avtomobillarni ta’mirlash jarayonida polimer materiallardan foydalanishning texnologik, ekspluatatsion va iqtisodiy samaradorligi ilmiy manbalar asosida kompleks tahlil qilindi. O‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy polimer va kompozitsion materiallar avtomobil detallarini qayta tiklashda an’anaviy metall asosidagi ta’mirlash usullariga nisbatan qator ustunliklarga ega. Xususan, polimer materiallarning kichik zichligi, yuqori mexanik mustahkamligi, korroziyaga chidamliligi, yaxshi adgeziya xususiyati hamda kimyoviy barqarorligi ularni transport vositalari detallarini tiklash va himoyalashda keng qo‘llash imkonini beradi. Ushbu materiallar yordamida yeyilgan yoki shikastlangan sirtlarni qayta tiklash natijasida detalning geometrik o‘lchamlari, ishchi yuzasining sifati va funksional xususiyatlari samarali tiklanishi aniqlandi.

Tahlillar polimer qoplamalar va kompozitsion materiallar yordamida tiklangan detallar ishqalanish sharoitida yuqori yeyilishga chidamlilikni namoyon etishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, podshipnik o‘rindiqlari, vtulkalar, korpus detallarining o‘rnatish joylari, rezbali birikmalar hamda korroziyaga uchragan yuzalarni tiklashda polimer materiallardan foydalanish yuqori samaradorlikka ega ekanligi kuzatildi. Polimer kompozitsiyalar metall yuzalar bilan mustahkam bog‘lanish hosil qilishi tufayli ta’mirdan keyingi ekspluatatsiya davomida detallar ishonchliligi sezilarli darajada ortadi. Natijada avtomobil agregatlarining ishlash barqarorligi yaxshilanadi, avariyaviy nosozliklar kamayadi hamda transport vositalarining xizmat muddati uzayadi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, polimer materiallardan foydalanish metall sarfini sezilarli kamaytiradi. Ta’mirlash jarayonida butun detalni almashtirish o‘rniga faqat yeyilgan yoki shikastlangan qismini polimer kompozitsiyalar yordamida tiklash imkoniyati mavjud bo‘lib, bu korxonalarning moddiy resurslardan oqilona foydalanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, ehtiyot qismlarni yetkazib berish qiyin bo‘lgan yoki narxi yuqori bo‘lgan hollarda polimer materiallardan foydalanish iqtisodiy jihatdan eng maqbul yechimlardan biri hisoblanadi. Buning natijasida ta’mirlash xarajatlari kamayadi, ehtiyot qismlar zaxirasiga bo‘lgan ehtiyoj qisqaradi hamda ishlab chiqarish samaradorligi ortadi.

Natijalar polimer materiallarning korroziyaga qarshi himoya vositasi sifatidagi afzalliklarini ham tasdiqladi. Avtomobil detallarining ko‘pchiligi namlik, agressiv muhit, yo‘l reagentlari va haroratning keskin o‘zgarishi ta’sirida korroziyaga uchraydi. Polimer qoplamalar metall sirtni tashqi muhitdan ishonchli himoya qilishi natijasida korroziya jarayonining rivojlanishi sezilarli darajada sekinlashadi. Bu esa kuzov elementlari, rama konstruksiyalari va boshqa metall qismlarning xizmat muddatini uzaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, himoya qoplamalarining elastikligi mikro yoriqlar hosil bo‘lishining oldini olib, ekspluatatsion ishonchlilikni yanada oshiradi.

Tadqiqot davomida polimer materiallarning texnologik afzalliklari ham aniqlandi. Ularni qo‘llash uchun murakkab metall kesish uskunalari yoki yuqori haroratli ishlov berish jarayonlari talab qilinmaydi. Ko‘plab ta’mirlash ishlari bevosita ekspluatatsiya joyida bajarilishi mumkinligi sababli avtomobilning bekor turish vaqti qisqaradi. Bundan tashqari, polimer kompozitsiyalarni qo‘llash texnologiyasi nisbatan sodda bo‘lib, mehnat unumdorligini oshirishga va ta’mirlash ishlarining sifatini yaxshilashga imkon yaratadi.

Olingan natijalar polimer materiallarning tribologik xususiyatlari yuqori ekanligini ham ko‘rsatdi. Ishqalanish koeffitsientining kamayishi natijasida detallar orasidagi issiqlik ajralishi pasayadi, moylash sharoiti yaxshilanadi va ishchi yuzalarning yeyilish tezligi kamayadi. Ayniqsa, kompozitsion polimer materiallar tarkibiga grafit, shisha tolasi, uglerod tolasi yoki boshqa mustahkamlovchi komponentlarni qo‘shish ularning mexanik hamda ekspluatatsion xususiyatlarini yanada yaxshilaydi. Bu esa og‘ir yuklama ostida ishlovchi avtomobil agregatlarining ishonchliligini oshirish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, polimer materiallardan foydalanish ekologik va energetik samaradorlik nuqtai nazaridan ham muhim afzalliklarga ega. Metall detallarni qayta ishlab chiqarish bilan solishtirganda polimer kompozitsiyalar yordamida tiklash jarayonida energiya sarfi kamroq bo‘ladi, chiqindilar hajmi qisqaradi va tabiiy resurslardan foydalanish darajasi kamayadi. Bu esa resurslarni tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha zamonaviy talablarni ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari polimer materiallardan foydalanish avtomobil ta’mirlash korxonalarining iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilashini ham tasdiqladi. Ta’mirlash muddatining qisqarishi, material sarfining kamayishi, ehtiyot qismlarga bo‘lgan ehtiyojning pasayishi hamda detallar xizmat muddatining uzayishi korxonalarning umumiy ekspluatatsion xarajatlarini kamaytiradi. Natijada ta’mirlash ishlari tannarxi pasayadi va ishlab chiqarishning rentabelligi oshadi.

Adabiyotlar sharxi. Avtomobillarni ta'mirlash jarayonida polimer materiallardan foydalanish mashinasozlik va transport texnologiyalari sohasidagi istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Polimer va kompozitsion materiallarning yuqori mustahkamligi, korroziyaga chidamliligi, kichik zichligi hamda yaxshi adgeziya xususiyatlari ularni avtomobil detallarini tiklash va ta'mirlash texnologiyalarida keng qo‘llash imkonini bermoqda. Shu sababli ushbu yo‘nalish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar polimer materiallarning fizik-kimyoviy

xossalarini takomillashtirish, ularning ekspluatatsion ishonchliligini oshirish hamda ta'mirlash xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan.

Polimer materiallarning tarkibi, xossalari va ularni qayta ishlash texnologiyalarining nazariy asoslari Abdurashidov tomonidan batafsil yoritilgan. Muallif polimerlarning mexanik, fizik va texnologik xususiyatlarini tahlil qilib, ularning sanoatning turli tarmoqlarida, jumladan, mashinasozlikda samarali qo‘llanilishi bo‘yicha ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqqan [1]. Tager tomonidan olib borilgan fundamental tadqiqotlarda esa polimerlarning molekulyar tuzilishi, fizik-kimyoviy jarayonlari hamda ekspluatatsiya davomida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlari chuqur o‘rganilgan bo‘lib, ushbu ilmiy natijalar zamonaviy kompozitsion materiallarni yaratish uchun nazariy asos vazifasini bajaradi [3].

Avtomobil transportida qo‘llaniladigan konstruksion va ekspluatatsion materiallarning xossalari Fokin va Markov tomonidan keng tahlil qilingan. Mualliflar avtomobil detallarini tayyorlash va ta'mirlashda qo‘llaniladigan metall hamda metallmas materiallarning afzalliklarini solishtirib, polimer materiallar og‘irlikni kamaytirish, korroziyaga bardoshlilikni oshirish va ekspluatatsion xarajatlarni qisqartirish imkonini berishini ta'kidlaydilar [2]. Xuddi shuningdek, Manusadjyans va Smal avtomobil ekspluatatsion materiallari tarkibida polimerlarning ahamiyati tobora ortib borayotganini, ayniqsa himoya qoplamalari, germetiklar va yelimlovchi materiallar sifatida keng qo‘llanilayotganini qayd etganlar [7].

Mashina detallari ishqalanish juftliklarida polimer materiallardan foydalanish masalalari Chichinadze va hammualliflari tomonidan batafsil tadqiq qilingan. Ularning ilmiy izlanishlari natijasida ishqalanish koeffitsientini kamaytirish, yeyilishga chidamlilikni oshirish hamda detallar xizmat muddatini uzaytirishda polimer qoplamalar yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlangan [4]. Shu bilan birga, Koryakina va hammualliflar polimer qoplamalarni hosil qilish texnologiyalarini takomillashtirish, qoplama qalinligi va yopishish mustahkamligini optimallashtirish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqanlar [5].

Kompozitsion materiallarning mashinasozlikda qo‘llanilishi bo‘yicha xalqaro tajriba Lyubani tahriri ostidagi ma’lumotnomada keng yoritilgan. Unda tolali va dispers to‘ldirgichlar asosidagi kompozitsion polimer materiallarning mexanik mustahkamligi, issiqlikka chidamliligi hamda ekspluatatsion xususiyatlari tahlil qilingan bo‘lib, avtomobil detallarini qayta tiklashda ulardan foydalanishning ilmiy-amaliy afzalliklari ko‘rsatib berilgan [6].

Mahalliy olimlar tomonidan ham polimer materiallar asosida detallarni qayta tiklash texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha muhim ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Abduraxmonov, G‘aniev, Almataev va Oripov qishloq xo‘jaligi hamda meliorativ mashinalar detallarini ta'mirlashning istiqbolli usullarini ishlab chiqib, polimer kompozitsiyalar yordamida yeyilgan sirtlarni tiklash metallni almashtirishga nisbatan iqtisodiy jihatdan samaraliroq ekanligini asoslab berganlar [8].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, avtomobillarni ta’mirlash jarayonida polimer materiallardan foydalanish zamonaviy ta’mirlash texnologiyalarining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Polimer va kompozitsion materiallar yuqori mexanik mustahkamlik, korroziyaga va yeyilishga chidamlilik, kichik massa hamda yaxshi adgeziya xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu xususiyatlar ularni avtomobil detallarini qayta tiklash, himoya qoplamalarini hosil qilish va ekspluatatsion ishonchliligini oshirishda samarali qo‘llash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Abdurashidov T. Plastmassalarni qayta ishlash texnologiyasi. Toshkent 2010. 103c
2. V.V Fokin, S.B. Markov. Materialovedenie na avtomobilnom transporte. Rostov-na-Donu, 2007 g, 287str.
3. Tager. A.A.Ximiya i fizika polimerov. M.: Ximiya,1995. 350 s.

4. Chichinadze A.V., Levin A.LBorodulin., M.M., Zinovev ye.V.. Polimerы v uzlax treniya mashin i priborov. Spravochnik. M.: Mashinastroenie, 1998. 328 str.
5. Koryakina M.I i dr. Texnologiya polimernых pokrытiy. M.: Ximiya, 2001
6. Sprovochnik po kompozitsionnым materialom v 2-x knigax pod red. Lyubani D. Per s ang..Gallera A.B.,Gelmonta M.M. M.: Mashinastroenie, 1998.
7. O.I.Manusadjyans, F.V.Smal. Avtomobilnые ekspluatatsionnые materialы. M.: Transport. 2002g. 279 str.
8. T.Abduraxmonov, A.G‘aniev, T.O.Almataev, G.Oripov. qishloq xo‘jaligi va meliorativ mashinalar detallarini ta’mirlashning istiqbolli usullari. “Andijon” nashriyoti. 1999 yil.

UO‘T: 631.372:629.114.2

TRAKTOR TIRKAMA RAMASIGA YUKNING TA’'SIRINI TAHLIL QILISH

Meliqo‘ziyev Abdulaziz Rasuljon o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti
“Transport logistikasi” kafedrasi assistenti
ORCID: 0009-0001-9487-0300

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligida keng qo‘llaniladigan traktor pritseplari ramasining yuk ostidagi kuchlanish-deformatsiya holati tadqiq etilgan. Pritsep ramasi transport vositasining asosiy tayanch elementi bo‘lib, u statik va dinamik yuklarga bardosh berishi, yetarli mustahkamlik va qattiqlikka ega bo‘lishi lozim. Tadqiqot davomida ramaning turli konstruktiv qismlariga tushadigan yuklarning taqsimlanishi, kuchlanish kontsentratsiyasi zonalari va deformatsiya darajasi analitik va sonli usullar yordamida o‘rganilgan. Chekli elementlar usuli (FEM) asosida kompyuter modellashtirish o‘tkazilib, ramaning turli yuklanish sxemalaridagi (statik yuk, dinamik zarba, egilish va burash) holati baholangan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ramaning eng katta kuchlanishi longeronlarning o‘rta qismida va biriktiruvchi tugunlarda kuzatiladi, bu yerlarda materialning charchash mustahkamligi chegarasiga yaqinlashish xavfi mavjud.

Abstract. This article investigates the stress-strain state of tractor trailer frames under load, which are widely used in agriculture. The trailer frame is the primary support element of the vehicle; it must withstand static and dynamic loads and possess sufficient strength and rigidity. During the study, the distribution of loads on various structural parts of the frame, stress concentration zones, and the degree of deformation were studied using analytical and numerical methods. Based on the finite element method (FEM), computer modeling was conducted, and the frame's condition under various loading schemes (static load, dynamic impact, bending, and torsion) was evaluated. The results showed that the greatest frame stress is observed in the middle part of the longirons and in the connecting nodes, where there is a risk of approaching the fatigue strength limit of the material.

Аннотация. В данной статье исследовано напряженно-деформированное состояние рамы тракторных прицепов, широко применяемых в сельском хозяйстве, под нагрузкой. Рама прицепа является основным опорным элементом транспортного средства и должна выдерживать статические и динамические нагрузки, обладать достаточной прочностью и жесткостью. В ходе исследования с помощью аналитических и численных методов были изучены распределение нагрузок на различные конструктивные части рамы, зоны концентрации напряжений и степень деформации. На основе метода конечных элементов (МКЭ) проведено компьютерное моделирование и оценено состояние рамы при различных схемах нагружения (статическая нагрузка, динамический удар, изгиб и кручение). Результаты показали, что наибольшее напряжение рамы наблюдается в средней части лонжеронов и в соединительных узлах, где существует риск приближения материала к пределу усталостной прочности.

Kalit so‘zlar: traktor pritsepi, rama konstruksiyasi, yuk tahlili, kuchlanish-deformatsiya holati, chekli elementlar usuli, statik yuk, dinamik yuk, longeron, ko‘ndalang balka, charchash mustahkamligi, egilish momenti, burash momenti, metall konstruksiya, qattiqlik, mustahkamlik zaxirasi, kuchlanish kontsentratsiyasi.

Keywords: tractor trailer, frame structure, load analysis, stress-strain state, finite element method, static load, dynamic load, longeron, transverse beam, fatigue strength, bending moment, torque, metal structure, stiffness, strength reserve, stress concentration.

Ключевые слова: прицеп трактора, конструкция рамы, анализ нагрузки, напряженно-деформированное состояние, метод конечных элементов, статическая нагрузка, динамическая нагрузка, лонгерон, поперечная балка, усталостная прочность, изгибающий момент, крутящий момент, металлическая конструкция, твердость, запас прочности, концентрация напряжений.

Kirish. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi ko‘p jihatdan transport-texnologik vositalarning ishonchliligi va texnik holatiga bog‘liq. Traktor pritseplari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini, o‘g‘itlarni, urug‘liklarni va boshqa yuklarni tashishda asosiy vosita hisoblanadi. Ularning eksploatatsiya sharoiti notekis yo‘llar, dala yo‘llari, turli iqlim sharoitlari ramaga tushadigan yuklarni sezilarli darajada oshiradi va murakkablashtiradi. Traktor pritsepining ramasi butun konstruksiyaning "skeleti" bo‘lib, unga kuzov, o‘q-gildirak tizimi, tirkash qurilmasi va boshqa agregatlar mahkamlanadi. Rama harakat jarayonida statik og‘irlik kuchidan tashqari, dinamik zarba yuklari, egilish, burash va tebranish kabi murakkab kuch ta'sirlariga duch keladi. Agar rama konstruksiyasi noto‘g‘ri loyihalangan yoki material tanlovi asossiz bo‘lsa, bu ramada erta yoriqlar paydo bo‘lishiga, charchash buzilishlariga va hatto avariyaga olib kelishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan davlat dasturlarida qishloq xo‘jaligi texnikasi va uning yordamchi vositalarini modernizatsiya qilish, mahalliylashtirish darajasini oshirish va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu borada traktor pritseplarining sifatli va bardoshli ramalarga ega bo‘lishi, ularning xorijiy analoglariga nisbatan raqobatbardoshligini ta'minlaydigan muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan pritsep ramalarining aksariyati an'anaviy konstruktiv yechimlar asosida loyihalanib, ularda zamonaviy hisoblash usullaridan to‘liq foydalanilmayotganligi kuzatiladi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, dala sharoitida ekspluatatsiya qilinadigan pritseplar ko‘pincha loyihalashda hisobga olinmagan qo‘shimcha dinamik zarbalarga, notekis yuklanishlarga va nooddiy harakatlanish rejimlariga duch keladi. Bunday sharoitlarda ramaning zaif nuqtalarida charchash yoriqlari, deformatsiyalar va ba'zan to‘liq buzilishlar yuzaga kelishi mumkin, bu esa nafaqat moddiy zarar, balki yo‘l harakati xavfsizligiga ham tahdid soladi. Shu sababli, ramaning haqiqiy ish sharoitidagi yuklanish holatini oldindan aniq baholash muhandislik amaliyotida katta ahamiyat kasb etadi[1].

Shu sababli, traktor pritsepi ramasining yuk ostidagi ishlash xususiyatlarini chuqur va har tomonlama tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi pritsep ramasiga tushadigan turli xil yuklarni aniqlash, ularning ramaning turli qismlaridagi taqsimlanishini o‘rganish va ramaning mustahkamlik hamda qattiqlik ko‘rsatkichlarini baholashdan iborat. Tadqiqot natijalari asosida ramaning konstruktiv jihatdan takomillashtirilgan variantini taklif etish ishning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Tadqiqotning quyidagi asosiy vazifalari belgilandi: birinchidan, pritsep ramasiga ta'sir etuvchi barcha yuk turlarini tasniflash va ularning miqdoriy ko‘rsatkichlarini aniqlash; ikkinchidan, ramaning kritik (eng yuqori kuchlanish kuzatiladigan) zonalarini analitik va sonli usullar yordamida aniqlash; uchinchidan, olingan natijalar asosida ramaning konstruktiv jihatdan takomillashtirilgan variantini taklif etish; to‘rtinchidan, taklif etilgan yechimlarning iqtisodiy va texnik jihatdan maqsadga muvofiqligini asoslash. Ushbu vazifalarning izchil bajarilishi tadqiqotning ilmiy va amaliy natijadorligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar sharhi. O‘zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlarida qishloq xo‘jaligi transport vositalari va traktor agregatlarining konstruktiv elementlarini mustahkamlikka hisoblash masalalari keng yoritilgan. Respublikamiz muhandislik maktablarida, xususan, paxtachilik va g‘allachilik korxonalari uchun mo‘ljallangan tirkama vositalarini loyihalash bo‘yicha salmoqli natijalarga erishilgan.

- A.A. Abdullayev o‘zining tadqiqotlarida qishloq xo‘jaligi mashinalarining metall konstruksiyalarini mustahkamlikka hisoblashning nazariy asoslarini ishlab chiqqan bo‘lib, asosan statik yuklanish sharoitlarini chuqur tahlil qilgan.
- Sh.U. Niyazov esa agrosanoat majmuasida harakatlanuvchi transport vositalarining ekspluatsiyaviy ishonchliligini oshirish, ramalarning chidamlilik ko‘rsatkichlarini yaxshilash yo‘llarini tadqiq etgan.
- B.X. Karimov va Sh.R. Toshmatov traktor tirkamalari ramalarining dinamik yuklanish sharoitidagi mustahkamligini baholash muammosiga to‘xtalib, dala sharoitidagi tebranishlarning konstruksiya turg‘unligiga ta'sirini o‘rganganlar.

Biroq ta'kidlash joizki, ushbu tadqiqotlarning aksariyatida an'anaviy analitik hisoblash usullariga tayanilgan bo‘lib, real ekspluatsiyadagi murakkab yo‘l profili sababli yuzaga keladigan notekis zarrbaviy va buruvchi dinamik yuklarning kompleks ta'siri yetarlicha chuqur modellashtirilmagan.

2. MDH va xorijiy olimlarning sonli simulyatsiya (FEM) sohasidagi tajribalari

Zamonamizda kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi metall konstruksiyalarni an'anaviy hisoblash sxemalaridan virtual sinov maydonlariga o‘tkazish imkonini berdi. MDH mamlakatlari, xususan, Rossiya va Qozog‘iston olimlarining ishlarida chekli elementlar usuli (FEM) yordamida transport ramalarining kuchlanish-deformatsiya holatini modellashtirishga alohida e'tibor qaratilgan.

- S.V. Ivanov va A.N. Petrov hamda E.A. Smirnova o‘z ishlarida tirkama tarkibining tashuvchi tizimlarida (chassis) yuzaga keladigan dinamik yuklanganlikni tadqiq etib, ANSYS va SolidWorks Simulation kabi zamonaviy dasturiy paketlar yordamida ramalarning ekspluatsiyaviy sinovlarini kompyuterda modellashtirganlar va natijalarni real eksperimentlar bilan qiyoslaganlar.
- Qozog‘istonlik olim K.T. Axmetov traktor pritseplari ramalarini chekli elementlar usuli yordamida optimallashtirish, eng ko‘p kuchlanish to‘planadigan (kritik) zonalarni aniqlash bo‘yicha samarali izlanishlar olib borgan.

Global miqyosda esa, Germaniya, AQSh va Xitoy olimlari (masalan, L. Zhang, H. Wang hamda R. Kumar, P. Singh) qishloq xo‘jaligi tirkamalari ramalarining charchash umrini prognoz qilish (Fatigue Life Prediction) va dinamik zarbalar ostidagi deformatsiyalarni hisoblash metodologiyasini sezilarli darajada boyitganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot bir necha bosqichda amalga oshirildi.

1. Ob'ektni tanlash va uning konstruktiv sxemasini shakllantirish. Tadqiqot ob'ekti sifatida yuk ko‘tarish qobiliyati 4-6 tonna bo‘lgan bir o‘qli traktor pritsepining rama konstruksiyasi tanlab olindi. Ramaning geometrik parametrlari (uzunligi, eni, kesim shakli, material qalinligi) real konstruksiya asosida aniqlandi.

2. Yuklarni aniqlash. Ramaga ta'sir etuvchi kuchlar quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganildi: statik yuklar (yukning og‘irlik kuchi, o‘z og‘irligi); dinamik yuklar (harakat jarayonidagi zarba va tebranishlar, notekis yo‘l ta'siri); egiluvchi va buruvchi momentlar (tirkash qurilmasi orqali uzatiladigan kuchlar). Dinamik yuklarni hisobga olish uchun dinamik koeffitsient (Kd = 1,3–1,8 oralig‘ida) qo‘llanildi, bu qishloq xo‘jaligi yo‘llarining notekisligini inobatga oladi.

3. Analitik hisoblash. Rama longeronlari va ko‘ndalang balkalari qarshiligi materiallar nazariyasi asosida egilishga va burashga hisoblandi. Kritik kesimlardagi eguvchi moment (M) va kuchlanish (σ) quyidagi umumiy formula asosida aniqlandi: $\sigma = M / W$, bu yerda W kesimning qarshilik momenti. Burash kuchlanishi esa $\tau = T / Wp$ formulasi orqali hisoblandi, bu yerda T buruvchi moment, Wp kesimning qutb qarshilik momenti. Murakkab kuchlanish holatini baholash uchun ekvivalent kuchlanish energetik nazariya (von Mises mezoni) asosida aniqlandi, bu esa egilish va burash kuchlanishlarining birgalikdagi ta'sirini to‘g‘ri baholash imkonini berdi[4].

4. Sonli modellashtirish (chekli elementlar usuli). Ramaning uch o‘lchamli chizmasi (3D model) tuzilib, u chekli elementlar to‘riga (mesh) bo‘lindi. Model uchun material sifatida past

legirlangan konstruktiv po‘lat (elastiklik moduli E = 2,1×10⁵ MPa, Puasson koeffitsienti μ = 0,3) qabul qilindi. Modelga statik va dinamik yuklanish sxemalari qo‘llanilib, kuchlanish maydoni, deformatsiya va xavfsizlik zaxirasi koeffitsienti hisoblab chiqildi.

5. Natijalarni tahlil qilish va taqqoslash. Analitik va sonli usullar orqali olingan natijalar o‘zaro solishtirilib, ularning mos kelish darajasi baholandi (chegaraviy farq 8-10% dan oshmasligi maqsad qilindi).

Tadqiqotda qo‘llanilgan sonli modellashtirish jarayonida ramaning chekli elementlar to‘ri (mesh) qobiq (shell) va qattiq (solid) elementlar kombinatsiyasidan tashkil topdi. Longeron va ko‘ndalang balkalarning yupqa devorli kesimlari uchun qobiq elementlar, biriktiruvchi tugunlar va payvand choklar uchun esa qattiq elementlar qo‘llanildi, bu yondashuv hisoblash aniqligini oshirish bilan bir qatorda hisoblash vaqtini ham maqbul darajada saqlab qoldi. To‘r zichligi kritik zonalarda (tugunlar, kesim o‘zgarishi joylari) zichlashtirildi, bu esa kuchlanish gradientini aniqroq aniqlash imkonini berdi.

Chegaraviy shartlar sifatida ramaning gildirak o‘qiga mahkamlangan qismlari qattiq tayanch (fixed support) sifatida, tirkash qurilmasi esa harakatlanuvchi bo‘g‘in sifatida modellashtirildi. Yuklanish real ekspluatatsiya sharoitini aks ettirish maqsadida uch xil stsenariy bo‘yicha qo‘llanildi: birinchi stsenariyda ramaga tekis taqsimlangan statik yuk, ikkinchi stsenariyda markazlashgan dinamik zarba yuki, uchinchi stsenariyda esa burash momenti bilan birgalikda egiluvchi yuk qo‘llanildi. Har bir stsenariy uchun alohida hisoblash o‘tkazilib, natijalar taqqoslama jadvalga kiritildi[5].

Tadqiqotning ishonchliligini ta'minlash maqsadida hisoblash natijalari qo‘shimcha ravishda analitik usul qarshilik materiallari nazariyasidagi klassik formulalar bilan tasdiqlandi. Bundan tashqari, model yaqinlashuvi (convergence) tekshirildi: to‘r zichligi bosqichma-bosqich oshirilib, kuchlanish qiymatlarining barqarorlashish darajasi kuzatildi, bu esa olingan natijalarning to‘r zichligiga bog‘liq bo‘lmagan haqiqiy qiymatlarga yaqinligini tasdiqladi.

Tadqiqot metodologiyasining yana bir muhim jihati natijalarning statistik ishonchliligini ta'minlash edi. Buning uchun har bir yuklanish stsenariysi bo‘yicha hisoblashlar bir necha bor, ramaning geometrik parametrlarida kichik tasodifiy o‘zgarishlar (ishlab chiqarish toleransi doirasida) kiritilgan holda takrorlandi. Bu yondashuv natijalarning faqat bitta geometrik konfiguratsiyaga emas, balki real ishlab chiqarish sharoitidagi tabiiy o‘zgaruvchanlikka ham bardoshli ekanligini tekshirish imkonini berdi. Olingan natijalarning tarqalish darajasi (standart chetlanish) kuchlanish qiymatlarining o‘rtacha 4-6% chegarasida qolganligi aniqlandi, bu esa tadqiqot natijalarining barqarorligini tasdiqlaydi[6-7].

Tahlil va natijalar

Rama konstruksiyasini turli yuklanish sxemalari bo‘yicha tahlil qilish natijasida quyidagi asosiy natijalar olindi.

Statik yuklanish holati. To‘liq yuklangan holatda (nominal yuk ko‘tarish qobiliyati bo‘yicha) ramaning eng katta egiluvchi momenti longeronlarning o‘rta qismida, taxminan ramaning uzunligi bo‘yicha 45-55% oralig‘ida kuzatildi. Bu zonada kuchlanish qiymati 140-160 MPa oralig‘ida bo‘lib, bu material oqimchanlik chegarasidan (≈235 MPa) sezilarli darajada past, ya'ni mustahkamlik zaxirasi koeffitsienti n ≈ 1,5-1,7 ni tashkil etdi.

Bo‘sh (yuksiz) holatdagi taqqoslash. Nazorat maqsadida ramaning yuksiz (bo‘sh) holatidagi kuchlanish holati ham hisoblab chiqildi. Bu holatda ramaning o‘z og‘irligidan yuzaga keladigan kuchlanish qiymatlari 25-35 MPa oralig‘ida bo‘lib, to‘liq yuklangan holatga nisbatan taxminan 5-6 barobar past ekanligi aniqlandi. Bu natija ramaning asosiy kuchlanish manbai aynan tashqi yuk ekanligini, ramaning o‘z og‘irligi esa umumiy kuchlanish holatiga nisbatan ikkinchi darajali ta'sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Dinamik yuklanish holati. Notekis yo‘l sharoitini simulyatsiya qilish uchun dinamik koeffitsient qo‘llanilganda, kuchlanish qiymatlari 190-230 MPa gacha ko‘tarildi, ya'ni statik holatga nisbatan 35-45% ga oshdi. Eng yuqori kuchlanish qiymatlari tirkash qurilmasi biriktirilgan tugunda va o‘q osti balkasining birlashish nuqtalarida qayd etildi. Bu zonalar konstruktiv jihatdan kuchlanish kontsentratori hisoblanadi, chunki bu yerda kesim shakli keskin o‘zgaradi va payvandlash chokining ta'siri mavjud.

Charchash mustahkamligi bo‘yicha baholash. Uzoq muddatli tsiklik yuklanish sharoitida (taxminan 10^5-10^6 tsikl) eng xavfli zonalar sifatida payvand choklari atrofidagi maydonlar aniqlandi, chunki bu yerlarda kuchlanish kontsentratsiyasi koeffitsienti (Kσ) 1,8-2,2 oralig‘ida bo‘lib, boshqa qismlarga nisbatan yuqori edi. Bu natija ushbu zonalarda charchash yoriqlarining paydo bo‘lish ehtimoli yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Chekli elementlar usuli natijalari. Kompyuter modellashtirish natijalari analitik hisoblashlar bilan taqqoslanganda, ikki usul o‘rtasidagi farq 6-9% ni tashkil etdi, bu esa qo‘llanilgan usullarning ishonchliligini tasdiqlaydi. Sonli model shuningdek ramaning eng katta deformatsiyasi (progib) yuk ostida 8-11 mm oralig‘ida bo‘lib, bu ruxsat etilgan chegara (L/300 nisbati) doirasida ekanligini ko‘rsatdi.

Konstruksiyani takomillashtirish bo‘yicha taklif. Olingan natijalar asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: kritik zonalarda kesim qalinligini 1,5-2 mm ga oshirish yoki qo‘shimcha qo‘shni elementlar (rebra) o‘rnatish; payvand choklarni radiusli o‘tish shakliga ega qilib bajarish, bu kuchlanish kontsentratsiyasini 15-20% ga kamaytiradi; tirkash qurilmasi tugunida qo‘shimcha mustahkamlovchi plastinalar joylashtirish[8-9].

Optimallashtirilgan variantni sonli tekshirish. Taklif etilgan konstruktiv o‘zgarishlar joriy etilgan modifikatsiyalangan model qayta hisoblanganda, kritik zonalardagi maksimal kuchlanish 230 MPa dan 175-185 MPa oralig‘igacha kamaydi, ya'ni taxminan 20-24% ga pasaydi. Bu esa mustahkamlik zaxirasi koeffitsientini $n \approx 1,3$ dan $n \approx 1,7$-1,8 gacha oshirish imkonini berdi. Shu bilan birga, konstruksiyaning umumiy og‘irligi taklif etilgan lokal qalinlashtirishlar hisobiga atigi 3-4% ga oshdi, bu esa amaliy jihatdan maqbul ko‘rsatkich hisoblanadi.

Deformatsiya va qattiqlik ko‘rsatkichlari. Optimallashtirilgan ramaning progibi (eguvchi deformatsiyasi) 8-11 mm dan 6-8 mm oralig‘igacha kamaydi, bu ramaning umumiy qattiqligini oshirganini va ekspluatatsiya jarayonida yukning barqaror taqsimlanishini ta'minlashini ko‘rsatadi. Burash burchagi ham dastlabki holatga nisbatan 12-15% ga kamaygani aniqlandi, bu tirkash qurilmasi ishlashining barqarorligiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Iqtisodiy jihatdan baholash. Taklif etilgan konstruktiv o‘zgarishlar tufayli ramaning charchash resursi taxminiy hisob-kitoblarga ko‘ra 1,4-1,6 barobar oshishi kutilmoqda, bu esa pritsepning umumiy xizmat muddatini uzaytiradi va ta'mirlash xarajatlarini kamaytiradi. Material sarfining ozgina oshishi (3-4%) esa xizmat muddatining sezilarli oshishi hisobiga to‘liq oqlanadi, bu esa taklif etilgan yechimning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

Natijalarning umumiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ramaning dastlabki konstruksiyasi me'yoriy talablarga rasman javob bersa-da, uzoq muddatli ekspluatatsiya sharoitida charchash buzilishi xavfi yuqori bo‘lgan lokal zonalar mavjud edi. Taklif etilgan optimallashtirish choralari aynan shu zonalardagi kuchlanish darajasini kamaytirishga qaratilgan bo‘lib, ular ramaning umumiy ishonchliligini sezilarli darajada oshirdi.

Turli yuklanish sxemalarini o‘zaro taqqoslash. Statik, dinamik va kombinatsiyalashgan (egilish burash) yuklanish sxemalarini o‘zaro solishtirish natijasida shuni aniqlash mumkin bo‘ldiki, eng og‘ir yuklanish holati aynan kombinatsiyalashgan sxemada, ya'ni ramaning bir vaqtning o‘zida egilish va burash momentlariga duch kelishida yuzaga keladi. Bunday sharoitda kuchlanish qiymati sof egilish holatiga nisbatan qo‘shimcha 10-15% ga oshishi kuzatildi. Bu

natija ramani loyihalashda faqat alohida yuk turlarini emas, balki ularning kombinatsiyasini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Xavfsizlik zaxirasi bo‘yicha umumlashtirilgan baholash. Barcha yuklanish stsenariylari bo‘yicha olingan natijalar asosida ramaning umumiy xavfsizlik zaxirasi koeffitsienti hisoblab chiqilganda, dastlabki konstruksiya uchun bu ko‘rsatkich n = 1,3-1,5 oralig‘ida, optimallashtirilgan konstruksiya uchun esa n = 1,7-1,9 oralig‘ida ekanligi aniqlandi. Qishloq xo‘jaligi mashinalari uchun tavsiya etilgan minimal xavfsizlik zaxirasi (odatda $n \geq 1,5$) talablariga optimallashtirilgan variant to‘liq javob berishi, dastlabki variant esa ayrim kritik zonalarda bu talabga chegaraviy darajada yaqinlashishi aniqlandi10-11].

Natijalarning grafik tasviri. Kuchlanish taqsimotining rama uzunligi bo‘yicha o‘zgarish xarakteri grafik ko‘rinishda tahlil qilinganda, kuchlanish egri chizig‘ining ikkita aniq maksimumga ega ekanligi ko‘rsatildi biri longeronning o‘rta qismida, ikkinchisi esa tirkash tuguni yaqinida. Bu ikki zona orasidagi kuchlanish darajasi nisbatan past bo‘lib, bu ramaning o‘rta qismi konstruktiv jihatdan yetarlicha bardoshli ekanligini, asosiy e'tibor esa aynan chekka zonalarga qaratilishi lozimligini tasdiqlaydi.

Turli material variantlarini taqqoslash. Tadqiqot doirasida ramaning bir necha material variantida (oddiy uglerodli po‘lat St3, past legirlangan po‘lat 09G2S va yuqori mustahkamlikdagi po‘lat) ishlashi qiyosiy tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, 09G2S markali po‘latdan foydalanish kuchlanish darajasini o‘zgartirmasa-da, materialning oqimchanlik chegarasi yuqoriroq bo‘lgani sababli mustahkamlik zaxirasi koeffitsientini 20-25% ga oshirish imkonini beradi, bu esa ramaning umumiy o‘lchamlarini o‘zgartirmasdan uning ishonchliligini oshirishning muqobil yo‘li sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin[12].

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijasida traktor pritsepi ramasining yuk ostidagi kuchlanish-deformatsiya holati har tomonlama o‘rganildi. Analitik va sonli (chekli elementlar) usullar birgalikda qo‘llanilishi natijasida ramaning kritik zonalari longeronlarning o‘rta qismi va tirkash tuguni aniqlandi, bu yerlarda kuchlanish qiymatlari maksimal darajaga yetishi ko‘rsatildi. Dinamik yuklarning statik yuklarga nisbatan 35-45% gacha kuchlanishni oshirishi aniqlandi, bu esa qishloq xo‘jaligi yo‘llarining notekisligini loyihalash jarayonida albatta hisobga olish zarurligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mavjud rama konstruksiyasi umumiy mustahkamlik talablariga javob bersa-da, uzoq muddatli ekspluatatsiya jarayonida charchash buzilishlari xavfi mavjud bo‘lgan zonalar aniqlangan. Taklif etilgan konstruktiv o‘zgarishlar kesim qalinligini mahalliy oshirish, payvand choklar geometriyasini takomillashtirish va qo‘shimcha mustahkamlovchi elementlar joylashtirish ramaning xizmat muddatini sezilarli darajada uzaytirish va avariya xavfini kamaytirish imkonini beradi.

Kelgusi tadqiqotlarni ramaning yengil qotishmalar va kompozit materiallar asosida optimallashtirilgan variantlarini ishlab chiqishga hamda real ekspluatatsiya sharoitida tajriba-sinov natijalarini olishga qaratish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, kelgusida ramaning turli iqlim va tuproq sharoitlarida (qumli, sizot suvlari yuqori bo‘lgan, tog‘oldi hududlari kabi) ishlash xususiyatlarini o‘rganish, harorat o‘zgarishining material xususiyatlariga ta'sirini hisobga olish hamda ramaning umr bo‘yi ishonchliligini nazorat qilish uchun sensorlar asosidagi monitoring tizimlarini joriy etish istiqbolli yo‘nalishlar sifatida belgilanishi mumkin. Bunday kompleks yondashuv qishloq xo‘jaligi transport vositalarining raqobatbardoshligini oshirish va ularning xizmat muddatini yanada uzaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot doirasida olingan natijalar nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ular traktor pritseplarini loyihalash, ishlab chiqarish va ekspluatatsiya qilish jarayonlarida muhandislar va mutaxassislar uchun asosli tavsiyalar sifatida xizmat qilishi mumkin. Tadqiqot metodologiyasi va olingan natijalar boshqa turdagi qishloq xo‘jaligi tirkama

vositalarining ramalarini tahlil qilishda ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan universal yondashuvni tashkil etadi.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев А.А. Қишлоқ хўжалиги машиналарининг метал конструкцияларини мустаҳкамликка ҳисоблаш асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 184 б.
2. Каримов Б.Х., Тошматов Ш.Р. Трактор тиркамалари рамасининг динамик юкланиш шароитидаги мустаҳкамлигини таҳлил қилиш // Агроинженерия муаммолари. – 2021. – №3. – Б. 45-52.
3. Ниязов Ш.У. Қишлоқ хўжалиги транспорт воситаларининг ишончлилигини ошириш йўллари. – Тошкент: ТИҚХММИ нашриёти, 2020. – 156 б.
4. Юсупов Д.М. Чекли элементлар усулида металл конструкцияларни ҳисоблаш. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2018. – 210 б.
5. Мамажанов У.Д. Пахта етиштиришда фойдаланиладиган тиркама воситаларининг конструктив такомиллаштирилиши // Агротехника ва механизация. – 2022. – №2. – Б. 78-84.
6. Иванов С.В., Петров А.Н. Расчёт и проектирование рам прицепов сельскохозяйственного назначения. – Москва: Машиностроение, 2017. – 302 с.
7. Смирнова Е.А. Динамическая нагруженность несущих систем прицепного состава // Вестник машиностроения. – 2020. – №4. – С. 33-40.
8. Ахметов К.Т. Оптимизация конструкции рамы тракторного прицепа методом конечных элементов // Труды КазНАУ. – 2019. – №6. – С. 112-119.
9. Zhang L., Wang H. Structural analysis and fatigue life prediction of agricultural trailer frame // Journal of Terramechanics. – 2020. – Vol. 88. – P. 45-56.
10. Müller K., Schneider T. Lightweight design optimization of trailer chassis structures using finite element methods // SAE Technical Paper Series. – 2019. – №2019-01-0123. – P. 1-9.
11. Kumar R., Singh P. Stress analysis of tractor-trailer chassis under dynamic loading conditions // International Journal of Automotive Engineering. – 2021. – Vol. 12, No. 3. – P. 210-218.
12. Brown J.D., Thompson M. Fatigue failure analysis of welded joints in agricultural machinery frames // Engineering Failure Analysis. – 2018. – Vol. 91. – P. 156-167.

UO‘T: 656.13.08

YO‘LLARINING XAVFLI YO‘L BO‘LAKLARINI ANIQLASH VA HARAKAT JADALLIGINI TAHLIL ETISH

Meliqo‘ziyev Abdulaziz Rasuljon o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti
“Transport logistikasi” kafedrasi assistenti
ORCID: 0009-0001-9487-0300

Annotatsiya Ushbu maqolada shahar ko‘chalari va avtomobil yo‘llarining xavfli bo‘laklarini ilmiy hamda amaliy usullar yordamida aniqlash muammolari tadqiq etilgan. Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish hamda ularning yuzaga kelish mexanizmlarini chuqur tahlil qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqot doirasida transport vositalari va piyodalar oqimining sutkalik harakat jadalligi tahlil qilinib, yo‘l bo‘laklarining transport-ekspluatatsion sifatini baholashda professor V.F.Babkovning xavfsizlik koeffitsiyenti hamda amaliyotda keng qo‘llanadigan halokatlilik koeffitsiyenti usullaridan foydalanilgan. 2024-yil davomida olib borilgan natural kuzatuvlar asosida haydovchilar va piyodalarning yo‘l harakati qoidalariga rioya qilmaslik holatlari, transport oqimi rejimining o‘zgarishi hamda tungi vaqtdagi noqulay harakat sharoitlari o‘rganilgan. Yakunda YTHlar miqdorini kamaytirish, hududiy infratuzilmani yaxshilash va aholi o‘rtasida harakat madaniyatini oshirishga qaratilgan amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Abstract. The article covers the problems of identifying dangerous road sections on city streets and highways using scientific and practical methods. Particular attention is paid to ensuring traffic safety, preventing road accidents, and deeply analyzing their mechanisms. Within the research, the daily traffic intensity of vehicles and pedestrians was analyzed, and Professor V.F. Babkov's safety coefficient and crash coefficient methods were used to evaluate the transport-operational quality of road sections. Based on field observations conducted in 2024, cases of non-compliance with traffic rules by drivers and pedestrians, changes in traffic flow regimes, and unfavorable traffic conditions at night were studied. Finally, practical proposals and recommendations aimed at reducing the number of accidents, improving regional infrastructure, and increasing the traffic culture among the population were developed..

Аннотация. В данной статье на основе научных и практических методов исследованы проблемы выявления опасных участков городских улиц и автомобильных дорог. Особое внимание уделено вопросам организации безопасности дорожного движения , предотвращения дорожно-транспортных происшествий (ДТП) и глубокого анализа механизмов их возникновения. В рамках исследования проанализирована суточная интенсивность движения транспортных средств и пешеходов. Для оценки транспортно-эксплуатационных качеств дорожных участков использованы метод коэффициента безопасности профессора В.Ф. Бабкова и метод коэффициента аварийности. На основе натурных наблюдений, проведённых в 2024 году , изучены случаи несоблюдения правил дорожного движения водителями и пешеходами , изменения режимов транспортного потока , а также неблагоприятные условия движения в ночное время. В заключении разработаны практические предложения и рекомендации , направленные на снижение количества ДТП , улучшение инфраструктуры и повышение культуры движения среди населения.

Kalit so‘zlar: Avtomobil yo‘llari, harakat xavfsizligi, xavfli bo‘laklar, harakat jadalligi, yo‘l-transport hodisasi, xavfsizlik koeffitsiyenti, halokatlilik koeffitsiyenti, transport oqimi, piyodalar harakati, harakat tezligi, etalon yo‘l, yo‘l elementlari, haydovchi etiketi, transport

logistikasi, tahlil qilish, harakat tartib-qoidalari, kuzatuv natijalari, sutkalik miqdor, yo‘l belgilari, profilaktika..

Keywords: Highways, traffic safety, dangerous sections, traffic intensity, road traffic accident, safety coefficient, crash coefficient, traffic flow, pedestrian movement, traffic speed, standard road section, road elements, driver etiquette, transport logistics, analysis, traffic rules, observation results, daily volume, road signs, prevention.

Ключевые слова: Автомобильные дороги , безопасность движения , опасные участки, интенсивность движения , дорожно-транспортное происшествие , коэффициент безопасности , коэффициент аварийности , транспортный поток , движение пешеходов , скорость движения , эталонный участок , элементы дороги , этикет водителей , транспортная логистика , анализ , правила движения , результаты наблюдений , суточный объем , дорожные знаки , профилактика.

Kirish. Avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini tashkil etish bugungi kundagi muhim muammolardan biriga aylanib bormoqda. Avtomobilning atrof-muhitga yetkazadigan zararlari miqdori kundan-kunga oshib bormoqda, eng asosiysi esa, yo‘llarda sodir etilayotgan yo‘l-transport hodisalari natijasida ko‘plab insonlarning jabr ko‘rishlari va hayotdan ko‘z yumishlaridir. Yo‘l-transport hodisalarining oldini olish uchun ko‘rilayotgan qator tadbirlarga qaramasdan ularning miqdorlarini kamayishiga erishib bo‘lmayapti. Bu esa, yo‘l harakati xavfsizligi muammolariga o‘ta jiddiy yondashish zarur ekanligini mutaxassislar oldiga vazifa qilib qo‘ymoqda. Harakat xavfsizligini ta’minlash uchun unga ilmiy yondashish, uning barcha serqirra jarayonlarini tahlil etish zarur.

Adabiyotlar sharhi. Avtomobil yo‘llarining xavfli bo‘laklarini aniqlash va harakat xavfsizligini tizimli tashkil etish transport sohasining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur muammoni tadqiq etishda jahon va respublika olimlari tomonidan fundamental uslublar va nazariyalar ishlab chiqilgan. Quyida ushbu yo‘nalishda izlanish olib borgan olimlarning ilmiy hissalari alohida tahlil qilinadi:

Professor V. F. Babkov Yo‘l sharoiti va harakat xavfsizligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tizimli o‘rganishda professor V. F. Babkovning xizmatlari beqiyosdir. Olim tomonidan "Xavfsizlik koeffitsiyenti" usuli taklif etilgan bo‘lib, u quyidagi formula orqali ifodalanadi:

Ilmiy hissasi: Babkov yo‘lning geometrik elementlari (keskin burilishlar, ko‘rinuvchanlik, bo‘ylama qiyaliklar) transport oqimi tezligiga qanday ta‘sir ko‘rsatishini chiziqli grafiklar orqali isbotlab berdi.

Ahamiyati: Ushbu usul yo‘lning ma’lum bir qismidagi harakat tezligining shu qismga kirib kelishdagi eng yuqori tezlikka nisbatini tahlil qilish orqali, haydovchining yo‘l sharoitidan kelib chiqib tezlikni keskin kamaytirishga majbur bo‘ladigan potentsial xavfli nuqtalarini oldindan aniqlash imkonini beradi.

Q. H. Azizov O‘zbekiston sharoitida yo‘l harakati xavfsizligini tashkil etishning ilmiy-amaliy asoslarini yaratishda professor Q. H. Azizov salmoqli hissa qo‘shgan. Olim o‘zining darslik va ilmiy ishlarida transport oqimini boshqarishni yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqadi[1].

Q.H. Azizov “Haydovchi–Avtomobil–Yo‘l–Muhit” (HAYM) tizimidagi elementlarning o‘zaro uzviy bog‘liqligini tahlil qilib, harakat xavfsizligini tashkil etishning zamonaviy usullarini ishlab chiqqan.

Ahamiyati: Olimning tadqiqotlarida chorrahalar va shahar ko‘chalarida harakat jadalligini muvofiqlashtirish, xavfli nuqtalarda muhandislik-texnik tadbirlarni qo‘llash orqali yo‘l-transport hodisalari (YTH) sonini kamaytirish choralari tizimli bayon etilgan.

M. Qodirov va K. M. Nazarov Yo‘l-transport hodisalarining kelib chiqish sabablari va ularning mexanizmlarini chuqur tahlil qilish yo‘nalishida ushbu olimlarning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi.

Mualliflar YTHlarni statistik tahlil qilish, ularning sodir bo‘lish vaqti, joyi va subyektiv sabablarini (haydovchi va piyoda omili) o‘rganish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma yaratganlar.

Ularning yondashuvi YTHlar sonini shunchaki qayd etish emas, balki hodisalarning kelib chiqishiga sabab bo‘lgan yo‘l qoplamasining holati, tungi vaqtdagi ko‘rinuvchanlik va transport vositalarining texnik nosozliklari kabi ko‘rsatkichlarni chuqur tahlil qilishga asoslanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda shahar va tuman yo‘llarining xavfli bo‘laklarini aniqlash hamda harakat jadalligini baholash uchun kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayoni 3 ta asosiy bosqichda amalga oshirildi:
[1-Bosqich: Amaliy-kuzatuv] ⟶ [2-Bosqich: Matematik-statistik baholash] ⟶ [3-Bosqich: Harakat jadalligi tahlili]

1-Bosqich: Eksperimental va amaliy-kuzatuv metodlari

Tadqiqotning boshlang‘ich bosqichida hududdagi yo‘l sharoitlarini o‘rganish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri vizual va instrumental kuzatuv usullari qo‘llanildi (2024-yil holatiga ko‘ra):

Haydovchilar va piyodalarning yo‘l harakati qoidalariga (YHQ) amal qilish darajasi natural kuzatuv usulida o‘rganildi[2-3].

Tungi vaqtda transport vositalarining yoritish asboblaridan foydalanish holati va ularning harakat xavfsizligiga ta‘siri tahlil qilindi.

Yo‘l elementlarining zamonaviy me’yoriy hujjatlarga va ekologik talablarga mosligi tekshirildi.

2-Bosqich: Matematik-statistik baholash usullari

Yo‘l bo‘laklarining xavflilik darajasini aniqlash uchun quyidagi ikki asosiy mezoniy koeffitsiyent usulidan foydalanildi:

Xavfsizlik koeffitsiyenti usuli (Babkov usuli): Yo‘lning chiziqli grafiklari qurilib, laboratoriya avtomobili yordamida tajribaviy o‘tkazilgan nazariy tezliklar tahlili o‘tkazildi.

Halokatlilik koeffitsiyenti usuli: Yo‘l bo‘lagining reja va kesimidagi elementlarida sodir bo‘lgan YTHlar soni etalon yo‘l qismidagi (harakat miqdori 5000 avt/sutkadan oshmaydigan, 2 tasmali, kengligi 7.5 m bo‘lgan ideal qism) ko‘rsatkichga taqqoslandi. Yakuniy halokatlilik koeffitsiyenti xususiy koeffitsiyentlar ko‘paytmasi sifatida hisoblandi:

.3-Bosqich: Harakat jadalligini tahlil qilish metodi

Transport va piyodalar oqimining sutka davomidagi tebranishlarini aniqlash uchun vaqtinchalik kesimlar (xronometraj) usulidan foydalanildi:

Sutkaning kunduzgi va tungi vaqtlarida harakat miqdori alohida-alohida hisoblanib, solishtirma diagrammalar shakllantirildi.

Olingan statistik ma’lumotlar asosida tuman miqyosida YTHlarni kamaytirishga qaratilgan maqsadli targ‘ibot va muhandislik yechimlari (seminarlar, davra suhbatlari, infratuzilmani yaxshilash) ishlab chiqildi[4-5].

Yilning har qanday vaqtida harakat xavfsizligini ta’minlash uchun avtomobil yo‘lining konstruktiv elementlari va holatini doimiy kuzatib borish darkor. Bunday ishlarni bajarish uchun esa avtomobil yo‘lini tekshirishning mujassamlashgan rejasi tuziladi va unga asosan harakatlanish sharoitini yaxshilash borasida tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Yo‘lning transport-ekspluatatsion sifatini oshirishga qaratilgan har qanday ish turi kuzatuv asosida olib boriladi. Kuzatuv natijalari yo‘l harakatini tashkil etishda, yo‘l to‘shamasini mustahkamlashda yoki biron-bir yo‘l bo‘lagini qayta ta’mirlashda boshlang‘ich ma’lumot sifatida foydalaniladi.

Avtomobil yo‘lining kuzatuvidan quyidagilarga erishiladi: yo‘lning pasportini tuzish; yo‘l belgilarini joylashtirish va yo‘l belgi chiziqlarini tushirish sxemasini tuzish; avtomobil yo‘lini to‘liq jihozlash sxemasini tuzish; og‘ir yukli avtopoyezdlarni yoki gabaritdan katta yuklarni o‘tkazish imkoniyatini aniqlash; ta’mirlash va saqlash ishlari turini aniqlash; yo‘lni, uning biror elementini ta’mirlash yoki qayta ta’mirlash loyihasini tuzish; zamon me’yoriy hujjatlariga yo‘l

elementlarining mosligini aniqlash; yo‘l yoki uning elementlarini ekologik talablarga javob berishini aniqlash; yo‘l yoki uning elementlarini arxitektura talablariga mosligini belgilash; transport oqimi rejimini yo‘lning har xil bo‘laklarida aniqlash; yo‘lning transport-ekspluatatsion sifatini baholash; yo‘l yoki uning bo‘laklari bo‘yicha yonilg‘i-moy sarfini baholash va h.k.

Hozirgi paytda avtomobilning xavfli bo‘laklarini aniqlashda quyidagi usullardan foydalaniladi: ***xavfsizlik koeffitsiyenti***; ***halokatlilik koeffitsiyenti***; ***YTH statistikasi***; ***ziddiyatli vaziyat***.

Yo‘lning transportdan foydalanish sifatini va harakat xavfsizligini baholashda asosiy vazifalardan biri harakat tartib-qoidalariga sezilarli ta’sir qiluvchi yo‘l qismlari yoki uning alohida bo‘laklarini aniqlashdan iborat. Bunday joylarda asosan yo‘l-transport hodisalari tez-tez ro‘y berib turadi.

Harakat xavfsizligi jihatidan yo‘l bo‘laklarini baholash usullaridan biri prof. V.F.Babkov tomonidan ishlab chiqilgan ***xavfsizlik koeffitsiyentidir***.

Xavfsizlik koeffitsiyenti deb yo‘lning aniq bir qismidagi harakat tezligining $(V_{КИС})$ shu qismga kirib kelishdagi eng yuqori tezlikka nisbatiga aytiladi, $V_{КИР}$:

$$K_X = V_{КИС} / V_{КИР}; \quad (1)$$

Xavfsizlik koeffitsiyenti yordamida yo‘lning xavfli bo‘lagini aniqlash uchun xavfsizlik koeffitsiyenti grafigi quriladi. Buning uchun tekshirilayotgan yo‘ldagi harakat tezligining chiziqli o‘zgarishi chiziladi. Uni yakka holda harakatlanayotgan engil avtomobilning nazariy tezligini hisoblash yoki maxsus jihozlangan laboratoriya avtomobilini yo‘ldan tajribaviy o‘tkazish orqali aniqlanadi.

Avtomobil yo‘lining xavfli bo‘laklarini aniqlashda amaliyotda ko‘pincha halokatlilik koeffitsiyenti qo‘llanadi. ***Halokatlilik koeffitsiyenti deb*** yo‘l bo‘lagining reja va kesimidagi har xil elementlaridagi YTHning sonini yo‘lning etalon qismidagi hodisalar soniga nisbatiga aytiladi. Harakat miqdori 5000 avt/sutkadan oshmaydigan, ikkita harakat tasmali, qatnov kengligi 7,5 m, yo‘l yoqasining kengligi 3,0 m, aholi yashaydigan punktdan o‘tmagan, ko‘tarmaning balandligi 1,0 metrdan oshmaydigan, rejada va kesimda ko‘rinishi ta’minlangan to‘g‘ri yo‘l bo‘lagini - ***etalon yo‘l qismi*** deyiladi. Bunday yo‘l bo‘lagida sodir etilgan YTH haydovchining, piyodaning tartibsizligi yoki transport vositasining no-sozligi oqibatida sodir etilgan deb hisoblanadi. Avtomobil yo‘lining xavflilik darajasi bu usulda yakuniy halokatlik koeffitsiyenti - $K_{ЯК}$ orqali aniqlanadi[6-7].

$K_{ЯК}$ - yo‘lning reja va kesimidagi elementlarning ta’siri alohida-alohida xususiy halokatlilik koeffitsiyentlari ko‘paytmasiga teng:

$$K_{ЯК} = K_1 \cdot K_2 \cdot K_3 ..... K_n \; ; \quad (4,8)$$

bu yerda: $K_1 \cdot K_2 \cdot K_3 ..... K_n$ - xususiy halokatlilik koeffitsiyentlari.


$K_1 \cdot K_2 \cdot K_3 ..... K_n$ biron-bir yo‘l elementi ta’sirida sodir bo‘lgan YTH sonining etalon yo‘l qismidagi hodisalar soniga nisbati bilan aniqlanadi.

Tahlil va natijalar. Amaliyot paytida 2024 yilda shaharda harakat jadalligi, piyodalarning harakat miqdori, transport vositalarining harakat miqdorlari o‘rganilib chiqildi. Harakatlanayotgan piyodalar, piyoda bolalarning yo‘l belgisiga amal qilmasdan harakatlanishi, haydovchilarning mast xolatda transport vositasini boshqarishi, yo‘llarda tartibsiz harakatlanayotgan transport vositalarining haydovchilari va piyodalari kuzatildi. Bundan tashqari transport vositalari haydovchilarining tartibsiz harakatlanishi, yo‘l belgi chiziqlariga va yo‘l belgilariga amal qilmasliklari kuzatilgan bo‘lsa, piyodalarning yo‘l harakati qoidalariga amal qilmasliklari

kuzatildi, tungi vaqtda haydovchilarning transport vositalarining yoritish asboblaridan to‘g‘ri foydalanmaganligi oqibati natijada tumanda ko‘plab yo‘l transport hodisalari uchrab kelmoqda.

1-diagrammadan ko‘rinib turibdiki sutkaning kunduzgi vaqtlarida harakat miqdori yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lmoqda, tungi vaqtlarda esa harakat miqdiri ancha past ko‘rsatkichlarga ega bo‘lmoqda[8-9].

1-diagramma.



Xulosa: Avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash va transport oqimini samarali tashkil etish bugungi kunning eng dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shahar ko‘chalari va tuman yo‘llarida sodir bo‘layotgan yo‘l-transport hodisalarining (YTH) oldini olish, insonlar sog‘lig‘i va hayotini asrash bevosita transport tizimiga ilmiy yondashishni hamda yo‘l sharoitlarini muntazam ravishda tahlil qilib borishni talab etadi. Olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar va nazariy tahlillar natijasida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

1. Yo‘l infratuzilmasini kompleks kuzatishning ahamiyati: Avtomobil yo‘llarining konstruktiv elementlari va transport-ekspluatatsion sifatini doimiy kuzatib borish harakat xavfsizligining poydevori hisoblanadi. Kuzatuv natijalari yo‘l pasportini tuzish, yo‘l belgilari va chiziqlarini to‘g‘ri joylashtirish, ta’mirlash loyihalarini ishlab chiqish hamda yo‘l elementlarining zamonaviy me’yoriy va ekologik talablarga mosligini aniqlash uchun asosiy boshlang‘ich ma’lumot bo‘lib xizmat qiladi.
2. Xavfli bo‘laklarni aniqlash metodologiyasi: Yo‘l to‘rining muammoli joylarini aniqlashda professor V.F.Babkov tomonidan taklif etilgan "Xavfsizlik koeffitsiyenti" (K_{xavf}) va amaliyotda keng qo‘llanadigan "Halokatlilik koeffitsiyenti" ($K_{yakuniy}$) usullari eng yuqori samaradorlikni ko‘rsatadi. Mazkur usullar yordamida harakat tezligining keskin o‘zgaradigan nuqtalarini hamda yo‘lning reja va kesimidagi elementlarning YTH sodir bo‘lishiga ta’sirini (xususiy halokatlilik koeffitsiyentlari ko‘paytmasi orqali) matematik asosda aniqlash imkoniyati mavjudligi isbotlandi.
3. Harakat jadalligi va inson omili tahlili: 2024-yil davomida hududda o‘tkazilgan natural kuzatuvlar transport va piyodalar oqimining sutkalik taqsimotida katta nomutanosiblik borligini ko‘rsatdi. Sutkaning kunduzgi vaqtlarida harakat miqdori eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lsa, tungi vaqtlarda jadallik pasayadi. Biroq, tungi vaqtda haydovchilarning transport vositalari

yoritish asboblaridan to‘g‘ri foydalanmasligi, haydovchi va piyodalarning yo‘l harakati qoidalariga (YHQ) amal qilmasligi, shuningdek, spirtli ichimlik ta'sirida transport boshqarish holatlari YTHlarning yuqori darajada saqlanib qolishiga asosiy sabab bo‘lmoqda.

Istiqboldagi amaliy tavsiyalar:

Tadqiqot natijalariga tayanib, hududda yo‘l-transport hodisalari sonini keskin kamaytirish uchun quyidagi muhandislik-tashkiliy va targ‘ibot tadbirlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- Targ‘ibot va ma’rifat ishlarini kuchaytirish: Kasb-hunar maktablari, kollejlar, litseylar, umumta’lim maktablari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari va mahalla fuqarolar yig‘inlarida Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (YHHX) xodimlari bilan hamkorlikda professional uchrashuvlar tashkil etish.
- Madaniyatni yuksaltirish: Aholi va haydovchilar o‘rtasida “Yo‘l harakati qoidalari”, “Piyodalarning harakat madaniyati” hamda “Haydovchilarning etiketi” mavzularida tizimli davra suhbatlari, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlarni yo‘lga qo‘yish.
- Infratuzilmaviy yechimlar: Aniqlangan xavfli yo‘l bo‘laklarida yo‘l belgilari va gorizontal chiziqlarni yangilash, tungi yoritish tizimlarini yaxshilash hamda transport oqimini tartibga soluvchi zamonaviy texnik vositalarni tatbiq etish.

ADABIYOTLAR

1. Azizov Q.H. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. Darslik. – Toshkent: 2009. - 267 bet.
2. 2022-yil 4-aprelda “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezidentning 190-sonli qarori
3. Umid Sadirdinovich Xolmatov. “Yo‘l harakati qoidalari va harakat xavfsizligi asoslari”. [Darslik]–“Omadbek print number one”MCHJ.Andijon: 2025.–419 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yo‘l sohasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4545-sonli qarori 2019 yil.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l xafvsizligini ta’minlash tizimini yanada takomollashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 19-maydagi 377-sonli qarori
6. X.R.Baynazarov, U.S.Xolmatov. “Yo‘l harakatini boshqarishning texnik vositalari” [Darslik]. Andijon: “Omadbek print number one” MCHJ. 2025. – 259 b.
7. Azizov Q.H. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. Darslik. – Toshkent: 2004. - 182 bet.
8. Qodirov S.M., Nazarov K.M. Yo‘l-transport hodisalari tahlili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: 2002. - 84 bet.
9. Sidiqnazarov Q.M. umumiy tahriri ostida tarjima qilingan Avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi. – Toshkent: Voris-nashriyot, 2006. - 630 bet.

UO‘T 678.5:620.22

GETEROKOMPOZIT POLIMERLAR ISHLAB CHIQARISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Meliqo‘ziyev Abdulaziz Rasuljon o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti
“Transport logistikasi” kafedrasi assistenti
ORCID: 0009-0001-9487-0300

Annotatsiya. Jahonda zamonaviy mashinasozlik sanoatini takomillashtirish, ishlab chiqarishning turli sohalari uchun jahon talablariga mos, raqobatbardosh va import o‘rnini bosadigan texnologiyalar, mashinalar va mexanizmlarning yangi takomillashgan qurilmalarini yaratish, chuqur fundamental tadqiqotlarni olib borish, dolzarb ilmiy-texnik masalalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mashinalarning ekspluatatsion ishonchliligini ta’minlashda yuqori samarali kompozitsion polimer materiallardan maqsadli foydalanish, texnologik jihozlar ishchi sirtlarining salbiy ta’sirini yangi materiallar qo‘llash orqali kamaytirishni hal etishni kutayotgan dolzarb ilmiy - texnik muammolardan biri hisoblanadi.

Abstract. In the world, it is important to improve the modern machine-building industry, to create new and improved devices of technologies, machines and mechanisms that meet global requirements, compete and replace imports, to conduct in-depth fundamental research, and to solve current scientific and technical issues. Targeted use of high-performance composite polymer materials to ensure the operational reliability of machines, reduction of the negative impact of the working surfaces of technological equipment through the use of new materials is one of the urgent scientific and technical problems waiting to be solved.

Аннотация. В мире важно совершенствовать современную машиностроительную отрасль, создавать новые и совершенные устройства технологий, машин и механизмов, отвечающие мировым требованиям, конкурировать и замещать импорт, проводить глубокие фундаментальные исследования, решать текущие проблемы. научно-технические вопросы. Целенаправленное использование высокоэффективных композиционных полимерных материалов для обеспечения эксплуатационной надежности машин, снижения негативного воздействия рабочих поверхностей технологического оборудования за счет применения новых материалов является одной из актуальных научно-технических задач, ожидающих своего решения.

Kalit so‘zlar: geterokompozit, kompozit, iqlim, notexnologiya, polimer, quyosh energiay,elektr energiya

Key words: heterocomposite, composite, climate, non-technology, polymer, solar energy,

Ключевые слова: гетерокомпозит, композит, климат, нетехнология, полимер, солнечная энергетика, электроэнергетика
electric energy

Kirish. Ayni paytda polimerlar asosida turli kompozit materiallar hamda nanokompozitlar mashinasozlikda keng ko‘lamda foydalanilmoqda. Har yili ularga bo‘lgan extiyoj ulardan detallar yasash texnologiyasida, yengilligi, yemirilmasligi, vibroyutuvchi, tovush va issiqlik ajratuvchi xususiyatlariga ko‘ra, an’anaviy metall konstruksiyali materiallar bilan qiyoslanganda faqatgina mashinasozlikda emas balki, xalq xo‘jaligining boshqa soxalarida ham ortmoqda [1].

Mashinasozlikda polimer va kompozit materiallardan foydalanishga qiziqish, xususan, texnologik qurilmalarda, sovuqqa chidamli material sifatida o‘tgan asrning 80 yillarida paydo bo‘lgan. Biroq, keng ko‘lamda foydalanish, ayniqsa pnevmatik va haydovchi transportyori, ajratuvchi va tozalovchi kabi katta o‘lchamdagi qurilmalar ishchi yuzasida ular xali qo‘llanilmoqda. Bunga asosiy sabablardan biri yirik o‘lchamdagi qurilma yuzasidagi

geterokompozitlardan yasalgan sifatli qoplamalarni olish ratsional texnologiyasining yo‘qligidir [2].

Geterokompozitlar – bu odatda kompozit materiallarning bir turi bo‘lib, ular deyarli o‘zaro hamda makro tuzilishi darajasida kimyoviy birikmaydigan turli xildagi organik, polimer va noorganik, mineral, metall va boshqa shu kabi kompozitsiyalarni o‘z tarkibiga oladi. Bunda har bir tarkibiy qism o‘zining maqsadli xususiyatiga ega. Bugungi kunda talab etiladigan xossalarga ega kompozit material olishning an’anaviy 3 tarkibli texnologiyasi (bosim, harorat, vaqt) kolloid kimyo va fizika qismlarini xususan ultra mayda zarracha olish nanoqismlar olishni uslublarida uyg‘unlashishi va rivojlanishiga muhtoj.

Bugungi kunda butun dunyoda rivojlanayotgan bu yangi yo‘nalish “nanotexnologiya” nomini olgan, uning natijasida material tuzilish zamonaviy talablariga javob beradigan “nanokompozitlar” paydo bo‘ladi [3].

Bizning o‘ylashimizcha, fizik-mexanik xossalari bilan ajralib turadigan nanokompozitlar va nano zarrachalarni olishning boshlang‘ich va zarur shartlari xususiyatlari bu ma’lum energetik holatdagi xususan (universal, dezintegrator, aktivator) UDA texnologiyalar faollashishida hatto mikro darajadagi alohida nanokompleks birlashishidagi alohida kimyoviy bog‘lanishlar ko‘rinishida paydo bo‘ladi.

Kompozit materiallarni ishlab chiqish va qo‘llashga kiritishni xisobga olgan holda, tadqiqotlar ob’yektini tanlash va asoslashda ushbu bobda asosiy tarkibiy va tuzilishni hosil qiluvchi qismlarni, ularning texnologikligi va tejamkorligi jihatidan tanlashga prinsipial yondashilgan.

Adabiyotlar sharhi. Mashinasozlik va sanoatning boshqa sohalari uchun yuqori samarali, import o‘rnini bosuvchi hamda ekspluatatsion ishonchlilikka ega bo‘lgan geterokompozit polimer materiallar (GKPM) yaratish bugungi kunning dolzarb ilmiy-texnik muammolaridan biridir. Ushbu yo‘nalishda mahalliy xomashyolar va muqobil energiya resurslaridan foydalangan holda yangi materiallar sintez qilish bo‘yicha ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Mahalliy xomashyo va energetik resurslar asosida istiqbolli kompozitsion materiallar yaratish, ularning tarkibiy qismlarini tanlash tamoyillari U.A.Ziyamuhamedova tomonidan tizimli ravishda tadqiq etilgan. Olimning ishlarida polimerlar va mahalliy minerallar asosida antikorrozion hamda gidroabraziv yeyilishga bardoshli geterokompozit materiallar olish texnologiyalari batafsil bayon etilgan. Shuningdek, U.A.Ziyamuhamedova hammualliflikdagi tadqiqotlarida muqobil energiya manbalaridan (geliotexnologiyalardan) foydalangan holda olingan materiallarning tuzilishi va xossalarini o‘rganib, gelioishlov berish usulining yuqori samaradorligini ko‘rsatib bergan.

Mashina detallari uchun mo‘ljallangan geterokompozit polimer materiallarning ekspluatatsion ishonchliligini ta’minlash asoslari A.B.Djumabayev, B.A.Sobirov, G.B.Miradullayeva, L.Yu.Bakirov va Sh.A.Xalimov kabi olimlarning jamoaviy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Ular KPMlarning tribotexnik xossalarini yaxshilash va uzoq muddat xizmat qilishini ta’minlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqishgan.

Paxta tozalash mashinalarining ishchi organlari qoplamalari uchun antifriksion va yeyilishga bardoshli kompozitlarni ultratovush yordamida faollashtirish orqali samaradorligini oshirish masalalari esa T.S.Xalimjanov tomonidan muvaffaqiyatli o‘rganilgan.

Polimer materiallardagi kuchlanishlar relaksatsiyasi va ekspluatatsion omillarning material uzoq muddatliligiga ta’siri A.A.Norkulov va S.S.Negmatovlar tomonidan keng tahlil qilingan. Ularning ilmiy ishlarida qishloq xo‘jaligi va mashinasozlikda qo‘llaniladigan polimer materiallarning kuchlanish relaksatsiyasi sharoitida chidamliligini baholash usullari taklif etilgan.

Termoplastlar asosida nanostrukturali metallopolimer materiallar yaratish, kompozitlar fazaviy tuzilishini nanodarajada boshqarish va himoya qoplamalari olishning nazariy asoslari akademik O.U.Salimov, professor V.A.Struk, olimlar A.A.Rыskulov, V.A.Liopo va S.V.Avdejchiklarning ilmiy ishlarida rivojlantirilgan. Ular nanokompozitlarning shakllanishidagi fizik-kimyoviy xususiyatlarni va metall-polimer tizimlarining mikrotuzilmasini tadqiq etishgan.

Keyingi yillarda avtomobilsozlikda qo‘llaniladigan polimer vtulkalarning mexanik xossalari tahlili N.Ikromov va uning hamkasblari tomonidan o‘rganilib, amaliyotga joriy etish istiqbollari ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, metall prokati va quvurlarni korroziyadan himoya qiluvchi zamonaviy qoplamalar texnologiyasi xorijlik olimlar M.L.Lobanov, N.I.Kardonina, N.G.Rossina, A.S.Yurovskix hamda YE.A.Maksimov, R.L.Shatalov, P.P.Stepanovlarning monografiyalarida chuqur tahlil qilinib, amaliy tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot ishida mahalliy ashyolar va mineral to‘ldirgichlardan foydalangan holda yuqori samarali geterokompozit polimer materiallar (GKPM) hamda nanokompozitlar olishning istiqbolli texnologiyalarini ishlab chiqish uchun kompleks ilmiy metodlar tizimi qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologaik asosini faol-texnologik mexanika (FTM), ultradispergatsiyali faol (UDF) texnologiyalar, empirik kuzatuv, geliotexnologik ishlov berish hamda qiyosiy-statistik tahlil metodlari tashkil etadi. Tadqiqot davomida belgilangan maqsadlarga erishish uchun quyidagi metodologik yondashuvlar va bosqichlar amalga oshirildi:Faol-texnologik mexanika (FTM) va Mexanik faollashtirish: Kompozit materiallar uchun mayda mineral to‘ldirgichlar ishlab chiqarishda fazalar bo‘linish yuzasida fizik-kimyoviy faollikni oshirish maqsadida FTM tamoyillaridan foydalanildi. Moddalarni mexanik kuchlanishlar ta’sirida deformatsiyalash orqali ularning tuzilishi va shakli o‘zgartirilib, yangi fizik va kimyoviy xossalar berildi. Buning uchun zarba-tebranuvchi va sirpanchiq ta’sir kuchiga ega bo‘lgan «Kompozit-222» dismembrator uskunasi qo‘llanildi. An’anaviy UDA (universal-dezaintegrator-aktivator) tizimi yanada takomillashtirilib, ultradispergatsiyali faol (UDF) texnologiya sifatida metodologiyaga kiritildi. Geliotexnologik (Quyosh radiatsiyasi) ta’sir metodikasi: An’anaviy 3 tarkibli (bosim, harorat, vaqt) texnologiyalarning energiya sig‘imini kamaytirish maqsadida muqobil energiya manbai quyosh radiatsiyasidan foydalanish metodologiyasi ishlab chiqildi. Tabiiy quyosh nurlarining noyob radiatsiya, to‘lqin va issiqlik ta’siri ostida polimer matritsasi va mahalliy mineral to‘ldirgichlar orasidagi nanokomplekslarning shakllanish qonuniyatlari o‘rganildi. Buning uchun O‘zbekiston hududlarining (xususan, Farg‘ona vodiysining) gelioenergetik salohiyati va quyosh charaqlashining ko‘rsatkichlari 1.5-jadval ma’lumotlari asosida qiyosiy tahlil qilindi. Struktura shakllanishining bosqichli tahlili: Mashinasozlik uchun GKPMlarning monolit tuzilishini yaratish uch bosqichli metodika asosida o‘rganildi:

Birinchi bosqich (faollik): Kompozitlar tarkibi o‘zaro mexanik birlashgunga qadar kimyoviy bog‘lanishlar hosil qilish darajasini baholash.

Ikkinchi bosqich (aralashish): Mineral materiallar yuzasida polimer plyonkasi hosil bo‘lishi va ilk adgezion bog‘lanishlar dinamikasini o‘rganish.

Uchinchi bosqich (zichlashish): Mexanik va gelio-ta’sirlar hisobiga mahsulotning tugal monolit tuzilishini shakllantirish. Fizik-mexanik va optik xossalarni baholash: Polimer qoplamalarning ultrabinafsha (UB) nurlanish ta’sirida qarish va yemirilish jarayonlari, ularning mikroqattiqligi o‘zgarishi lazer generatsiyasi chiziqlari (λmax = 255.3 nm) qo‘zg‘alishi ostida hamda fotolyuminessensiya spektrlarini o‘rganish orqali tahlil qilindi. Yuqori dispers to‘ldirgichlarning suyuq muhitda agregatlanishga moyilligi kolloid kimyo qonuniyatlari asosida aniqlandi. Tanlangan ushbu metodologik yondashuv minimal energiya sig‘imi tamoyiliga amal qilgan holda , katta hajmli va murakkab konfiguratsiyali texnologik mashina detallari uchun ko‘p funksiyali, yeyilishga bardoshli geterokompozit qoplamalar olish imkonini beradi va natijalarning ishonchliligini ta’minlaydi.

Tahlil va natijalar. Mexanik faollik deganda turli hodisalar tushunilgan. Masalan, vibro tegirmonda maydalanganda moddalar kattalik xususiyatlari ortishi, kimyoviy reaksiyalarning tezlashishi, turli materiallar siqilishida, xususan, tabiiy minerallarda mustahkamlik ortishi [4].

Mexanik faollik unga yangi fizik va kimyoviy xususiyatlar beradigan mexanik kuchlanishlar ta'siri vositasida material tuzilishi, shakl o'zgarishi deb tushunilgan .

Shunday qilib, to'rtinchi texnologiyaga nomzod bo'luvchi yangi yo'nalish paydo bo'ladi, bu texnologiya mualliflar tomonidan UDA - texnologiya deb ataladi, ya'ni U - universal, D - dezintegrator, A - aktivator. Bunday ko'rinishdagi yangi texnologiyaga talqini avtorni fikricha unchalik muvaffaqiyatli emas, u yanada mukammallashtirishga muxtojdir shuning uchun biz UDA - texnologiyasini ultra dispergatsiyali (UD) - faol (F) texnologiyani taqdim etamiz [5].

Yuqorida qayd etilgan taassurotga ko'ra, shuni aytish mumkinki, moddalar o'zgarishi mexanik faolligi sababli kelib chiqadigan diapazon yoki mexanik faollik darajasi material o'zining tuzilishiga hamda mexanikaga ta'sir qiluvchi kuchlar kattaligi va ko'rinishiga bog'liq, zero vaqtinchalik harakatlanuvchi kuchlar holatida amplituda va chastotaga ham bog'liq.

UDA - o'rnatishda qayta ishlash yo'li bilan materialni sharli yoki vibro tegirmonda qayta ishlashga ko'ra ko'p marotaba kattaroq impuls kuchlanishlar va chastotalarga erishish mumkin.

Tarqalishdagi deformatsiyalanish jarayoni va tarkib tuzilish jarayonlari (ma'lum darajada bir - biriga qarama - qarshi ma'lum vaqt davomida o'rganiladi, shuning uchun kinetik qonuniyatlar bu yerda asosiy rol o'ynaydi [6].

Kompozit polimer materiallar (KPM) uchun to'ldirgichlar ishlab chiqarish texnologiyasida fizik kimyoviy mexanika asosida keyingi texnik rivojlanishni belgilovchi asosiy masala bo'lib, quyidagilarni hisoblash mumkin:

- faza bo'linmasi yuzasiga moddalar fizik - kimyoviy faollikni ortishi;
- qayta ishlanadigan aralashma gomogenli(bir xillik)giga maksimal darajada erishish, ayniqsa ko'p tarkibli tizim aralshmasida hamda zichlashishida;
- barcha texnologik jarayonlar minimal energiya sig'imi tamoyiliga amal qilish;
- jarayonlar davomiyligi jadal qisqarishi maqsadida jarayonlar jadallashishini ortishi (ishlab chiqarishning kengayishi).

"Fizik-kimyoviy mexanika" atamasi yoki boshqacha aytganda, "faol-texnologik mexanika" (FTM) 3 tushunchaning – faollik, texnologiya va mexanikaning sintezi hisoblanadi [7].

Bu holatda faollik oxirgilarini harakatga keltiruvchi molekula, atomlarning qo'zg'alishini bildiradi, bunda ular osonlikcha kimyoviy reaksiyaga kirishadi. Bundan ko'rinib turibdiki, "faol-texnologik mexanika" (FTM) atamasini umumiy belgilanishini shakllantirish mumkin. KPM mineral to'ldiruvchilarining ATMsi – bu texnologik jarayonlar asosiga kirgan, geterokompozit tarkibiga mexanik ta'sir bilan optimal uyg'unlashadigan hamda ularning fizik kimyoviy (yuza, sig'im, uyg'unlashish) faolligi uslubining ilmiy tamoyillarini mosligidir.

Shunday qilib, aytish mumkinki, tarkibiy qismlar faolligi deganda faollashtiruvchi ob'yektga qaratilgan energiya turidan kat'iy nazar har qanday ularning kimyoviy faolligini oshiruvchi ta'sirni tushunish mumkin.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi talablarga yanayam aniqroq javob beruvchi, zarba tebratuvchi va sirpanchiq ta'sirni amalga oshiruvchi "Kompozit-222" dismembrator uskunasidir [8].

FTMning amalga oshirilishi asosiy masalasi – bu tarkibiy davomiy stabillik xususiyatiga ega KPMni hosil qilishdir. Bu KPM alohida tarkibiy qismlari va ularning aralashmasiningina emas, balki tayyor mahsulot mos sifat nazorati metrologik ta'minoti zaruratini belgilab beradi.

Mashina qurilishi uchun KPM zaruriy tuzilishida shakllanish jarayoni quyidagi 3 ta bosqichda amalga oshiriladi. Ularning birinchisi(faollik)da kompozitlar tarkibi bir - birlari bilan mexanik birlashmagunlariga qadar unchalik ko'p bo'lmagan kimyoviy bog'lanishi hosil bo'ladi;

ikkinchi (aralashish) etapda, mineral materiallar qismlari yuzasidagi polimer plyonkasi tuzilishning jadal shakllanishi hisobiga komponentlar orasida ilk mustahkam adgezion bog‘lanishlar; uchinchi (zichlashish) etapida mexanik ta’sirlar hisobiga monolit tuzilishi tugal shakllanishi sodir bo‘ladi[9].

Ayni paytda shunday atalmish noan’anaviy va ekologik toza hisoblangan, atrof muhitni ifloslantirmaydigan energiya manbayini hosil qilishdan yanada keng va ko‘p foydalanish aktualdir. Bunday manbalarga quyosh energiyasi, shamol energiyasi, dengiz to‘lqinlari energiyasi hamda boshqa energiyalar kiradi. Hosil bo‘luvchi energiya manbalari orasida resurs masshtabi bo‘yicha quyosh energiyasi manbayi ekologik tozaligi va keng tarqalganligi bilan maqsadga muvofiqdir. Bevosita quyosh nurlanishidan foydalanishga asoslangan energetikaning potensial imkoniyatlari juda yuqori. Agar yerga tushayotgan quyosh nurining faqatgina 0,5 %ini ishlatish imkoni bo‘lganida, 100 yillikni hisobga olganda, dunyo energiyaga muxtojligini ta’minlash (ehtimol bundan ham ko‘proq) mumkin bo‘lar edi. Quyosh energiyasi katta ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin edi, birinchi navbatda yilda 300 kunga qadar quyosh charaqlab turadigan tropik va subtropik joylardagi mamlakatlar uchun. Atmosferadan o‘tayotganda quyosh nurlanishi kuchlanishi chang, g‘ubor, aerozol va gaz molekulalari tarqalganligi hisobiga kamayadi. Tushayotgan energiyaning bir qismi fazoda aks etadi. Aks etayotgan issiqlikning bir qismi nurlanishda qanday yuzaga tushayotganligiga bog‘liq, shuning uchun isiqlik oqimi zichlashishi har xil kengliklarda bir xilda emas. yerlar turli fasllarda va kunning turli vaqtlarida turlichadir. Subtropiklarda va cho‘llarda uning o‘rtacha yillik ahamiyati 210-250 Vt/m^2 tashkil etadi [10].

Quyosh nurlanishini turli texnologik jarayonlarning energiya bilan ta’minoti uchun ishlatish mumkin, masalan, minerallar, suvlarning sho‘rlashishi, qishloq xo‘jalik maxsulotlarini quritish, issiqxonalarda o‘simliklar yetishtirish va boshqalar.

Asosiy iqlim hosil qiluvchi omil bu yozda 1 oyda 800-1000 MDj/m^2 ga yetadigan kuyosh radiatsiyasining sezilarli oqimidir [11]. Bu respublikada gelioenergetikani rivojlanishi uchun maqbul sharoitni yaratadi. 45°35′ kenglikdagi O‘zbekistonning chekka shimoliy nuqtalarida yoz kunida quyoshning eng baland chiqishi deyarli 68°S ga yetadi, 37°10′ kenglikdagi chekka janubiy qismlarida esa u 76°S ga teng. Qishki kuyosh chiqishida uning balandligi 21 i 29°S ga teng. Shu bilan bog‘liq holda O‘zbekistondagi quyosh nuri energiyasi ancha katta [12].

Kenglikdan tashqari kunning davomiyligini ta’minlovchi quyosh radiatsiyasi oqimiga osmonning bulut bilan qoplanishi ham ta’sir qiladi. O‘zbekiston shimolida o‘rtacha yillik quyosh charaqlashi davomiyligi taxminan 2800 s ni tashkil etadi. Janubga siljigani sari uning ahamiyati ortib boradi va quyosh charaqlashi davomiyligi 30-50^{0}S ga yetadi, ayniqsa eng janubiy qismda (Termiz). Qishki - bahorgi mavsumda quyosh charaqlashi davomiyligi minimal bo‘ladi – oyiga 80-100 s. Quyoshsiz kunlar O‘zbekistonda kam kuzatiladi. Shimoliy hamda tog‘li hududlarda uning miqdori yiliga 45 - 50 kunni tashkil etadi, eng chekka janubiy qismda esa 25 kunga to‘g‘ri keladi. Iyun oyidan boshlab sentyabrga qadar quyoshsiz kunlar 10 yilda 1 kundan 4 kungacha bo‘ladi xolos [13].

O‘rtacha bulutli sharoitda yanvar oyida hamda aprelda to‘g‘ridan to‘g‘ri tushadigan quyosh nuri taxminan ikki barobar tushadi, ammo tarqalgan radiatsiya ortishi tufayli radiatsiya balansi 3 dan 1 yoki 4 dan 1 qismga kamayadi. Iyulda bulutlar ancha shaffof va radiatsiya balansi unchalik kamaymaydi.

Musaffo osmonda gorizontal yuzaga to‘g‘ridan - to‘g‘ri tushadigan quyosh nuri yillik summasi 5324-6938 MDj/m^2 ni tashkil etadi (1. jadval.) hamda O‘zbekistonning katta qismidagi maksimal summa iyun oyida 700-843 MDj/m^2ga to‘g‘ri keladi [14].

Quyidagi 1.5 jadvalda keltirilgan atmosferadan gorizontal yuzada to‘g‘ridan - to‘g‘ri nurlanish summasi aks etgan, 1 m^2 dan quyosh energiyasidan 100 foiz foydalangan holda yiliga tahminan 1700 kVt/soat olish mumkin, ya’ni bugungi kunga qaraganda Respublika hududlarida bir kishi

uchun kundalik hayotda ancha ko‘p ishlatiladi. Biroq, quyosh energiyasi hali ham Respublikada ommaviy qo‘llanilmaydi, bu bir necha sabablar bilan izohlanadi.

Hozirgi vaqtda quyosh energiyasini elektr tokiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aylantirish texnologiyasi hali juda murakkab va qimmat, shuning uchun ham yuqori rivojlangan industrial mamlakatlarda cheklangan holatda foydalanilmoqda. Biroq, O‘zbekistonda quyosh energiyasini sanoat miqyosida elektr energiyasining ishonchli manbai deb hisoblash, bugungi kunda umidsiz emas.

1. jadval

Atmosferadan gorizontal yuzada to‘g‘ridan - to‘g‘ri nurlanish summasi miqdori

Oy	Joy					
	Qoraqalpog‘iston	Toshkent	Farg‘ana	Samarkand	Termiz	Kizil-cha
Yanvar	202	223	193	274	299	311
Fevral	295	302	263	344	379	393
Mart	486	488	439	533	542	595
Aprel	611	584	560	626	634	774
May	768	728	688	744	744	861
Iyun	787	745	700	723	729	843
Iyul	772	733	686	739	719	799
Avgust	672	647	604	656	662	726
Sentyabr	512	497	461	507	528	574
Oktyabr	397	367	340	404	447	454
Noyabr	244	263	216	283	305	326
Dekabr	184	149	174	235	269	272
O‘rtacha yillik	5930	5726	5324	6058	6257	6938

Biroq, ichki foydalanish uchun past sifatli issiqlik energiyasini ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkin va mos keladi. Bu, albatta, mavjud investitsiya imkoniyatlariga ko‘ra, ushbu turdagi kollektorlarni o‘rnatish va oddiy dizayn ishlab chiqarish va Respublikada quyosh kollektorlarini ommaviy ishlab chiqarishni yaxshi o‘zlashtirishi mumkin. Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, juda past samara bilan ham maishiy ehtiyojlar uchun ishlatiladigan quyosh energiyasi O‘zbekiston hududi bo‘ylab yiliga kamida 10 oy davomida aholining umumiy ehtiyojlarini 60-80% ga qondira oladi.

Bundan tashqari, bugungi kunga kelib, quyosh energiyasi kompozit materiallarni yaratish uchun etarli darajada oqilona ishlatilmaydi. Bundan tashqari, tabiiy quyosh nurlari polimer matritsasi bilan geterokompozitlarda turli xil nanokomplekslarni yaratish va ko‘p funksiyali maqsadlar uchun yuqori samarali kompozit materiallar va qoplamalar olish imkonini beruvchi noyob radiatsiya, to‘lqin va issiqlik ta’siriga ega. Qattiq moddalarni dastlabki mexanik aktivlashtirish, so‘ngra ularni sirt faol kimyoviy moddalar bilan aralashtirish va polimer matritsaga kiritish geterokompozitsiyalarda struktura hosil bo‘lishining yangi shartini yaratadi.

Zamonaviy polimer kompozitsion materiallar-geterofazali, kompozitsiyalar - asl komponentlarning xossalaridan farq qiluvchi xususiyatlarning yangi birikmasiga ega, lekin individualligini saqlab qoladi. Polimerlarning to‘ldiruvchilar bilan birikishi yangi texnologik yoki ekspluatatsion xossaga ega bo‘lgan materiallarni olish imkonini beradi, bu asosan mexanik mustahkamligi bilan farq qiladi. Tarkibi to‘ldiruvchining qattiq zarralari tarqalgan polimer matritsasidan iborat dispers tizimidir. Bunday sistemaning xossalari polimer va to‘ldiruvchilarning xossalari bilangina emas, balki matritsadagi zarrachalarning tarqalish xarakteri va interfeysdagi o‘zaro ta’sir jarayonlari bilan ham belgilanadi. Mayda mineral to‘ldiruvchilar, barcha quyma materiallar kabi, agregatsiya hodisasi bilan xarakterlanadi. Shu munosabat bilan polimerni

agregatlashga moyil yuqori dispers to‘ldiruvchilar bilan aralashtirish qiyin ishdir. Suyuq muhitga tushib, agregatlar muhitning teng qutbli va qattiq fazali alohida zarrachalariga parchalanadi. Dispers faza bilan dispers muhit orasidagi qutblanish farqi qancha katta bo‘lsa, dispers faza zarrachalarining agregatga moyilligi shuncha kuchli bo‘ladi.

Ma’lumki, ultrabinafsha nurlar polimer qoplamalarning emirilishiga, ularning atmosfera sharoitida barvaqt yo‘q bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Qarish jadalligi polimerlarning kimyoviy tarkibi va fizik hossalariga bog‘liq. Polimer qoplamalarni ultrabinafsha nurlardan himoya qilish uchun turli antioksidantlar, engil stabilizatorlar, inert qo‘shimchalar ishlatiladi.

Teflon (termoplast)ning fotolyuminetsnsiya spektrlari mis bug‘ lazer generatsiyasi chizig‘ining ikkinchi optik garmonik (λ_{max} = 255.3 nm) qo‘zg‘almas ostida o‘rganilgan. Biroq, umuman, qo‘shimchalarsiz polietilen UB nurlanishiga chidamli emas. Tajribalarni ko‘rsatishicha, quyosh radiatsiyasi ta’sirida polimer qoplamalarning mikroqattiqligi sezilarli darajada oshgan, bu esa kvanta ta’siriga bog‘liq.

Xulosa.

Mahalliy ashyolar va energetik resurslardan samarali foydalangan holda yangi geterokompozit polimer materiallar hamda ular asosidagi himoya qoplamalarini yaratishning istiqbolli texnologiyalarini tadqiq etish jarayonida quyidagi muhim ilmiy va amaliy xulosalarga erishildi:

Tizimli kamchiliklar va yechimlar: Ilmiy adabiyotlar va amaliyot tahlili shuni ko‘rsatdiki, talab etiladigan yuqori fizik-mexanik xossalarga ega geterokompozit materiallar olishning an’anaviy 3 tarkibli (bosim, harorat, vaqt) texnologiyasi bugungi kun talablariga to‘liq javob bermaydi. Bu tizimni kolloid kimyo, faol-texnologik mexanika va nanotexnologiyalar (ultradispers zarrachalar olish usullari) bilan uyg‘unlashtirish zarurligi asoslab berildi.

UDF-texnologiyasining samaradorligi: Tadqiqotda an’anaviy UDA (universal-dezintegrator-aktivator) tizimi tanqidiy tahlil qilinib, muallif tomonidan yanada mukammalroq bo‘lgan ultradispergatsiyali faol (UDF) texnologiyasi taklif etildi. Zarba-tebranuvchi va sirpanchiq ta’sir kuchiga ega bo‘lgan “Kompozit-222” dizmembrator uskunasi yordamida mineral to‘ldirgichlarni dastlabki mexanik faollashtirish, fazalar bo‘linish yuzasidagi fizik-kimyoviy faollikni sezilarli darajada oshirishi isbotlandi.

KKPM shakllanishining uch bosqichli modeli: Mashinasozlik uchun mo‘ljallangan kompozit polimer materiallarning (KPM) monolit tuzilishini shakllantirish uch bosqichli izchillikda (mexanik birlashishdan oldingi kimyoviy bog‘lanish, polimer plyonkasi hisobiga adgezion bog‘lanishning kuchayishi va yakuniy mexanik/gelio-ta’sirlar ostida zichlashish) amalga oshirilishi tizimlashtirildi. Bu esa tayyor mahsulotning tarkibiy barqarorligini ta’minlash imkonini beradi. Geliotexnologik salohiyatdan foydalanish: Respublika hududining, xususan, yiliga 2800–3500 soatgacha quyosh charaqlab turadigan qulay iqlim sharoiti va gelioenergetik imkoniyatlari (iyun oyida maksimal 700–843 MDj/m² oqim) batafsil tahlil qilindi. Tabiiy quyosh nurlarining noyob radiatsiya, to‘lqin va issiqlik ta’siri ostida polimer matritsasidagi nanokomplekslarni shakllantirish orqali an’anaviy issiqlik energiyasini tejash va ekologik toza “yashil” texnologiyani joriy etish istiqbollari ko‘rsatildi. Ekspluatatsion xossalarning yaxshilanishi: Lazer generatsiyasi (λmax = 255.3 nm) va fotolyuminessensiya spektrlari ostida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, to‘ldirilgan polimer tizimlarning muhit qutblanishi hisobiga agregatlanish xususiyatlarini nazorat qilish mumkin. Eng muhimi, quyosh radiatsiyasi (gelioishlov) ta’sirida polimer qoplamalarning mikroqattiqligi va mustahkamlik ko‘rsatkichlari kvantlar ta’siri hisobiga sezilarli darajada oshishi aniqlandi. Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, ishlab chiqilgan geliotexnologik va mexano-kimyoviy ishlov berish usuli sanoatda katta hajmli va murakkab konfiguratsiyali texnologik mashinalarning detallari uchun yeyilishga, korroziyaga va tashqi muhit

ta’siriga bardoshli ko‘p funksiyali geterokompozit qoplamalar yaratishning mutlaqo yangi, energiya-resurs tejamkor va yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega bo‘lgan poydevorini yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Зиямуҳамедова У.А. Перспективные композиционные материалы на основе местных сырьевых и энергетических ресурсов. – Ташкент: ТГТУ, 2011. –160 с.
2. Зиямуҳамедова У.А. и др. Антикоррозионные и гидроабразивно-износостойкие гетерокомпозитные материалы на основе полимеров и местных минералов. –Ташкент: ТашГТУ, 2015. – 192 с.
3. Халимжанов Т.С. Повышение эффективности антифрикционно-износостойких композиционных полимерных материалов для покрытия рабочих органов хлопкоочистительных машин методом ультразвуковой обработки: Автореф. дис.канд.техн. наук.–Ташкент, 2001. – 22 с.
4. Основы обеспечения эксплуатационной надежности гетерокомпозитных полимерных материалов для деталей машин. Джумабаев.А.Б., Собиров.Б.А., Мирадуллаева.Г.Б., Бакиров.Л.Ю, Халимов.Ш.А. (Под общ. ред. д.т.н., проф. А.Б.Джумабаева) Ташкент. – 2018. –.440с.
5. Защитные покрытия : учеб. пособие / М. Л. Лобанов, Н. И. Кардонина, Н. Г. Россина, А. С. Юровских. – Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2014. – 200 с.
6. Е.А.Максимов, Р.Л.Шаталов, П.П.Степанов. Современные технологии антикоррозийных покрытий металлопроката, трубопроводов и профилей. Монография. Челябинск. «ЮУрГУ». – 2015. – 333 с.
7. А.А.Норкулов. Исследование влияния эксплуатационных факторов на релаксацию напряжений в машиностроительных полимерных материалах//Сб.науч. статей Межд.научно-практической конф. «Актуальные проблемы обеспечения интеграции науки, образования и производства».–Ташкент, 2008. –С. 192-194.
8. А.А.Норкулов. Оценка долговечности деталей из машиностроительных полимерных материалов сельскохозяйственных машин//Сб.науч. статей Республиканской научно-практической конференции «Экологически чистые ресурсосберегающие технологии выращивания, хранения и переработки сельскохозяйственной продукции». – Ташкент, 2009. –С. 52-54.
9. С.С.Негматов, А.А.Норкулов. Исследование долговечности машиностроительных полимерных материалов, эксплуатирующихся в условиях релаксации напряжения//Труды международного форума «Наука и инженерное образование без границ». –Алматы, 2009. Т. 2. –С. 66-68.
10. У.А.Зиямуҳамедова, Л.Ю.Бакиров, Г.Б.Мирадуллаева. Исследование структуры и свойств материалов, полученных с использованием альтернативной энергии // Энергия ва ресурс тежаш муаммолари ТашГТУ. –2017. –№3-4. –С. 228-233.
11. Рыскулов А.А. Основы создания наноструктурных металлополимерных материалов машиностроительного назначения: Автореф. дис. … докт. техн. наук. – Ташкент, 2011. –42 с.
12. Рыскулов А.А. Исследование физико-химических особенностей формирования металл полимеров на основе термопластов// Узбекский химический журнал. – Ташкент. 2003. – №2.– С. 32-39.
13. Рыскулов А.А. Нанокомпозиционные материалы на основе совмещённых матриц для защитных покрытий/ Под редакцией академика АНРУз, д.т.н., проф.О.У.Салимова и д.т.н., проф.В.А.Струка. –Ташкент: Изд. НБУ им. А.Навои, 2010. –304 с.

UO‘T: 677.021.153.

PILLAGA DASTLSBKI ISHLOV BERISH TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI

Qodirov Ziyodulla Abdumuxtarovich
Andijon davlat texnika instituti dotsenti, t.f.f.d. (PhD), Andijon, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada pilla va pilla ipining xosil bo‘lish agrotexnik jarayonlariga ta’sir qiluvchi omillarning tahlili va pillani chuvish texnologik jarayonlariga qarshi hosil bo‘ladigan adgeziya kuchi va uning chuvish texnologik jarayoniga ta’siri o‘rganilgan. Pillani chuvishga tayyorlash texnologik jarayonlarida vakuumli pilla bug‘lash qurilmasidan foydalanilganda sodir bo‘ladigan termodinamik jarayonlarda harorat, bosim va vaqtga bog‘liq holda sodir bo‘ladigan o‘zgarishining nazariy asoslari tadqiq qilingan.

Аннотация. В этой статье рассматриваются теоретические основы изменения температуры, давления в термодинамических процессах, которые происходят при использовании вакуумного испарителя коконов в технологических процессах обработки коконов и агротехнических процессах выделки кокоповой пряжи, а также сила прилипания, которые образуются против технологических процессов обработки коконов и ее влияние на технологический процесс обработки.

Abstract. This article discusses the theoretical basis for changing temperature and pressure in thermodynamic processes that occur when using a vacuum cocoon evaporator in technological processes of cocoon processing and agrotechnical processes of cocoon yarn production, as well as the adhesion force that is formed against technological processes of cocoon processing and its influence on the technological process of processing.

Kalit so‘zlar: pilla, fibroin, seritsin, bug‘lash, pilla bug‘lash qurilmasi, ipak qurti, ipak tolasi, izotermik jarayon, izobarik jarayon, izoxorik jarayon, pilla qobig‘i, entropiya, adsorbtsiya, absorbtsiya.

Ключевые слова: кокон, фиброин, серицин, испарение, утройство для запарки коконов, тутовый шелкопряд, шелковое волокно, изотермический процесс, изобарический процесс, изохорный процесс, оболочка кокона, энтропия, адсорбция, абсорбция.

Keywords: cocoon, fibroin, sericin, evaporation, cocoon steamer, silkworm, silk fiber, isothermal process, isobaric process, isochoric process, cocoon shell, entropy, adsorption, absorption.

Kirish

Pillakashlik korxonalarining asosiy mahsuloti bo‘lgan xom ipakni ishlab chiqarish texnologik jarayonlarida pilla xomashyosining sifat ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda quruq pillani chuvishga tayyorlash texnologik jarayonlari ham ishlab chiqariladigan xom ipak, ipakli mato va mahsulotlarning sifat ko‘rsatkichlari, miqdor va uning tannarxiga jiddiy ta’sir qiladi.

Bu texnologik jarayonlar asosan quruq pillani saralash, bug‘lash va yakka ipak ipi uchuni topish texnologik jarayonlaridan iborat bo‘lib bu jarayonlar ichida ayniqsa pillani bug‘lash jarayoni muhim texnologik jarayonlardan biri hisoblanadi [1,2].


Pillani chuvishga tayyorlash texnologik jarayonida pilla qobig‘i qancha yaxshi bug‘lanib yuvilsa pillani chuvish texnologik jarayoni shuncha samarali bo‘ladi. Chunki ipak qurti tomonidan pilla o‘rash jarayonida ipak ajratish bezidan ajralib chiqayotgan ipak tolalarni challa sakkiz holda 15-20 tagacha halqa paket-paket qilib tashlanadi. Bu halqa holida tashlangan ipak iplarini bir biriga tegib turgan joylari esa ipak qurti tomonidan yelimlanib bir biriga biriktiriladi. Bug‘lash texnologik jarayonida esa ipak tolalarining bir biriga yopishgan joylari issiq suv bilan vakuum kamerada absortsiya va adsortsiya jarayonlari ta’sirida yuvilib yumshaydi va yaxshi erib chuvish

texnologik jarayonida hosil bo‘ladigan qarshilik (adgeziya) kuchining kamayishiga olib keladi [3,4].

Shuning uchun keyingi tadqiqot ishlarimizni pillani bug‘lash texnologik jarayonini sodir bo‘ladigan termodinamika qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda fizikaviy va kimyoviy termodinamik hodisalarni (jarayonlarni) tadqiq qilishga yo‘naltirdik.

Materiallar va tadqiqot usullari

Buning uchun avvalo universal vakuum bug‘lash kamerasi yordamida turli haroratda, vakuum kamerasidagi turli xil bosimda va turli xil vaqt davomida pillani bug‘lash texnologik jarayonlari ustida tadqiqot ishlari olib bordik (1-rasm).



1-rasm. Universal vakuum-bug‘lash qurilmasi.

bunda 1-vakuum- bug‘lash kamerasi; 2-pillani yuklash korzinkasi; 3-kamera qopqog‘i; 4-qopqoqni mahkamlovchi bolt; 5-vakuum nasosi elektr yuritgich bilan; 6- o‘tkazuvchi quvur-kengaytirgich; 7-vakuummetr; 8-suv baki; 9-termometr; 10-suv isitgich; 11-12-jo‘mraklar; 13-o‘tkazuvchi quvur, 14-suv chiqarish jo‘mragi, 15-havo chiqarish jo‘mragi, 16- boshqaruv qurilmasi, 17- elektr yuritgichni moylash voronkasi. [5].

Buning uchun universal pilla bug‘lash kamerasida pillani bug‘lash jarayonini tadqiq qilish uchun quyidagicha nazariy tadqiqot ishlari olib borildi (1-rasm).

Bug‘lash kamerasida vakuum bosimi o‘zgarmas bo‘lganligi uchun universal pillani bo‘g‘lash kameradagi texnologik jarayon issiqlik texnikasining izobarik jarayoni orqali amalga oshadi. Izobarik jarayonda sistema bosimi o‘zgarmas bo‘ladi , ya’ni:

$$dP=0,\ P=const \tag{1}$$

Ideal gaz holat tenglamasidan quyidagi tenglama kelib chiqadi:

$$V/T = R/P = const \quad \text{yoki} \quad V_2/V_1 = T_2/T_1 \tag{2}$$

Bundan ko‘rinadiki, izobarik jarayonda gaz hajmi o‘zining absolyut haroratiga to‘g‘ri proportsionaldir (Gey-Lyussak qonuni).

Izobarik jarayondagi kengayishini topish uchun $dl=P*dv$ dan foydalanamiz:

$$l = \int_{V_1}^{V_2} pdV = p(V_2 - V_1) \tag{3}$$

$PV_1 = RT_1$ va $PV_2 = RT_2$ bo‘lganligi uchun

$$L = R\,(T_2 - T_1) \tag{4}$$

Izobarik jarayonda sistemaga keltirilgan issiqlik miqdori quyidagicha topiladi:

$$q = \int_{T_1}^{T_2} c_p dT = c_p \Big|_{t_1}^{t_2} (t_2 - t_1) \tag{5}$$

Termodinamikaning birinchi konuniga ko‘ra


$$q = \Delta u + l \quad yoki$$

$$\Delta u = q - l = c_p(T_2 - T_1) - R(T_2 - T_1) = (C_p - R)(T_2 - T_1) = C_v\,(T_2 - T_1)$$

Entropiya o‘zgarishi $s_r = const$ bo‘lganda:

$$s_2 - s_1 = c_p \ln(T_2/T_1) \tag{6}$$

Ya’ni harorat o‘zgarishiga nisbatan entropiyaning o‘zgarishi izobarik jarayonda ham logarifmik harakterga ega bo‘ladi, ammo $c_P > c_V$ bo‘lgani uchun izobara *T*-*s*-diagrammada izoxoraga nisbatan ancha yotiq joylashadi (2-rasm).



2-rasm. Izobarik jarayonning P-V va T-s diagrammalarida ifodalanishi.

Demak, gaz harorati qanchalik yuqori bo‘lsa, uning solishtirma hajmi ham shunchalik katta bo‘ladi. Shu bilan birga bug‘lash kamerasidan havoni so‘rib olingandan so‘ng kameraga ma’lum bir o‘zgarmas haroratdagi suv kiritilganligi sababli kamerada izotermik jarayon ham sodir bo‘ladi [6].

Natijalar

Izotermik jarayonda harorat o‘zgarmas bo‘ladi, yani $dT=0$ $T=const$. Binobarin

$$PV = RT = const$$

yoki

$$\frac{P_2}{P_1} = \frac{V_1}{V_2} \tag{7}$$

Izotermik jarayonda bosim va solishtirma hajm o‘zaro teskari proportsional bo‘ladi. Izotermik qisilishda gaz bosimi ortadi, kengayganda kamayadi (Boyl-Mariott konuni).

Jarayonda bajarilgan ish:

$$l = \int_{V1}^{V2} PdV = \int_{V1}^{V2} \frac{RT}{VdV} = RT\ln\left(\frac{V_2}{V_1}\right) = RT\ln\left(\frac{P_1}{P_2}\right) \tag{8}$$


Harorat o‘zgarmagani uchun ideal gazning ichki energiya ushbu jarayonda o‘zgarmas bo‘lib qoladi (*Δu=0*) va keltirilgan issiqlikning barchasi izotermik jarayonda kengayish ishiga aylanadi:

$$q = l = \int_{V1}^{V2} PdV = \int_{V1}^{V2} \frac{RT}{VdV} = RT\ln\left(\frac{V_2}{V_1}\right) = RT\ln\left(\frac{P_1}{P_2}\right) \tag{9}$$

Izotermik jarayonda harorat o‘zgarmas bo‘lganligi uchun *Δu=0* bo‘ladi. (8) tenglamadan kelib chiqib izotermik jarayonda entropiya o‘zgarishi quyidagicha topiladi:

$$s_2 - s_1 = \int_1^2 \frac{dq}{T} = \frac{g}{T} = R\ln\frac{P_1}{P_2} = R\ln\left(\frac{V_2}{V_1}\right) \tag{10}$$

Izotermik jarayonning P-*V* koordinatalardagi grafigi (8) tenglamaga asosan teng yonli giperbola bo‘lib koordinata o‘qlari asimptota bo‘lib xizmat qiladi 3-rasm.



3-rasm. Izotermik jarayonning P-*V va T-s* diagrammalarida ifodalanishi.

Shuningdek, bug‘lash kamerasi o‘zgarmas hajmdagi sistema bo‘lganligi uchun izoxorik jarayon ham sodir bo‘ladi [7].

Izoxorik jarayonda sistema hajmi o‘zgarmaydi, ya’ni *dV=0 yoki* i*V* = const.

Ideal gaz holat tenglamasida

$$\frac{P}{T} = \frac{R}{V} = const, \text{ yoki } \frac{P_2}{P_1} = \frac{T_2}{T_1} \tag{11}$$

Ko‘rinib turibdiki, izoxorik jaranda gaz bosimi o‘zining absolyut haroratiga to‘g‘ri proportsional (Sharl qonuni) [8].

Kengayishishi izoxorik jarayonda nolga teng chunki dV=0.

Izoxorik jarayonda ishchi jismga keltirilgan issiqlik miqdori S_v=const bo‘lgan sharoitda quyidagicha topiladi:


$$q = \int_{T_1}^{T_2} C_V dT = C_V (T_2 - T_1) \tag{12}$$

Agar issiqlik sig‘imi o‘zgaruvchan, yani S = var bo‘lsa,

$$q = C_{Vcp} \Big|_{t_1}^{t_2} (t_2 - t_1) = C_{Vcp} \Big|_{0}^{t_2} t_2 - C_{Vcp} \Big|_{0}^{t_1} t_1 \tag{13}$$

Entropiya o‘zgarishi quyidagicha topiladi:

$$s_2 - s_1 = C_V \ln\left(\frac{P_2}{P_1}\right) = C_V \ln\left(\frac{T_2}{T_1}\right) \tag{14}$$



4-rasm. Izoxorik jarayonning P-*V va T-s* diagrammalarida ifodalanishi.

4-rasmdan ko‘rinib turibdiki, ideal gazga issiqlik berilganda 1-2, issiqlik olinganda esa 2-1 jarayon sodir bo‘ladi.

Muhokama

Bundan tashqari, bug‘lash kamerasi ichidagi havo vakuum nasosi yordamida so‘rib olingandan keyin ma’lum haroratdagi suv kameraga kiritiladi. Vakuum kamerasidagi pillalarning ichidagi havo ham so‘rib olinganligidan ularning ichiga tezlik bilan ma’lum haroratdagi suv kira boshlaydi. Pillalarning ichiga suvning shimilishi bilan absorbtsiya jarayoni sodir bo‘ladi. Su bilan birga pillalar sirtining namlanishi natijasida adsobtsiya jarayoni ham sodir bo‘ladi. Yutilgan modda adsorbtsion qavatda o‘z xususiyatini saqlab qolsa, fizik adsorbtsiya, o‘zgarsa, ya’ni adsorbent bilan kimyoviy biriksa, kimyoviy adsorbtsiya deyiladi. Fizik adsorbtsiya harorat, bosim, kontsentratsiyaga, adsorbent va adsorbatning tabiatiga, shuningdek, adsorbent tuzilishiga ham bog‘liq.

Demak, bug‘lash kamerasi ichidagi pillalarning ichiga suv kirishi bilan absorbtsiya va adsobtsiya jarayonlari bir vaqtda sodir bo‘ladi.

Shunday qilib, universal pilla bug‘lash kamerasida pillani bug‘lash jarayonini ma’lum haroratdagi issiq suvning pilla ichiga kirishi va pillaning bug‘lanishi bilan bog‘liq murakkab termokimyoviy jarayon hisoblanadi [9,10].

Xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda pillaning optimal bug‘lash texnologik parametrlarini aniqlash va bug‘lash jarayonlarida bu optimal parametrlardan foydalanish o‘z navbatida pilla

sirtidan yakka pilla ipak ipini uchuni topish va uzluksiz pilla ipini chuvib olish texnologik jarayonlari shuncha osonlashtiradi. Natijada pilladan chuvib olinadigan xom ipak miqdorini ortishiga hamda chuvib olingan xom ipakni chiziqlik zichligi bo‘yicha notekisligini kamayishini ta’minlashga erishiladi bu esa o‘z navbatida xom ipakning sifat ko‘rsatkichlarini ortishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR

1.Э.Б.Рубинов Технология шелка. Москва. Легкая и пищевая промышленность. 1981.

2.Э.Б.Рубинов, В.А. Усенко, С.С.Ибрагимов Учения о шелка. Изд. “Легкая индустрия” Москва. 1966.

3.Raximov A.A. “Ipakning tolali chiqindilarini dastlabki ishlashning takomillashgan texnologiyasini yaratish”. Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)-Namangan 2021.

4.Qodirov Z.A., Parpiev S.F. Pillaga dastlabki ishlov berish texnologiyalarining pilla sifatiga ta’siri //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 2. – S. 637-645.

5.Qodirov Z.A. Pillani chuvishga tayyorlash va chuvish jarayonlaridagi omillarning xom ipak sifatiga ta’siri. Andijon mashinasozlik instituti, Mashinasozlik ilmiy-texnika jurnali. № 4 (Maxsus son), 2022 yil.326-331 betlar.

6.Qodirov Z.A. Pillalarni chuvishga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish. texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Andijon - 2024. 109-b.

7.Raximov A.Yu., Raximov A.A., Qodirov Z.A. Pillaga dastlabki ishlov berish va saqlash texnologik jarayonlarining tahlili // J. Academic Research in Educational Sciences(ARES).Volume 2. Issue 11. 2021. –P. 42-51. www.ares.uz.

8. Qodirov Z.A., Raximov A.Yu., Raximov A.A., Pilla bug‘lash qurilmasi.Ixtiro patenti. № IAP 8068.20.05.2025.

9.Nurmatov J., Halilov N.A., Tolipov O‘.Q. Issiqlik texnikasi.Toshkent. O‘qituvchi.1998. 256 bet.

10.Zoxidov R.A.,Alimova M.M.,Mavjudova Sh.S. Issiqlik texnikasi.Toshkent. O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti.2010. 140bet.

UO‘T: 629.113:004.8

AVTOMOBIL AERODINAMIK DIZAYNIDA SUN’IY INTELLEKT USULLARINI QO‘LLASH: IMKONIYATLAR VA QIYOSIY TAHLIL

Xakimjonova Dilxavas Ikromjon qizi
Andijon davlat texnika institut, stajyor o‘qituvchi Andijon, O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada avtomobil aerodinamik dizaynida sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish usullarining qo‘llanilishi tahlil qilingan. Hisoblash gidrodinamikasi (CFD) yuqori aniqlik bersa-da, sekin va qimmat bo‘lgani uchun dizaynning dastlabki bosqichida ko‘rib chiqiladigan variantlar sonini cheklaydi. CFD ma’lumotlari asosida o‘qitilgan surrogat modellar (konvolyutsion, grafik va generativ tarmoqlar) havo qarshilik koeffitsientini soniyalarda bashorat qilib, jarayonni tezlashtiradi. Maqolada asosiy yondashuvlar adabiyot asosida qiyoslangan, ochiq etalon ma’lumotlar bazalari (DrivAerNet) ko‘rib chiqilgan va rivojlanayotgan avtosanoat uchun qo‘llanish imkoniyatlari baholangan. Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt tez saralash uchun samarali vosita bo‘lib, yakuniy tasdiqlash uchun CFD zarurligicha qoladi.

Аннотация. В статье анализируется применение методов искусственного интеллекта и машинного обучения в аэродинамическом дизайне автомобиля. Вычислительная гидродинамика (CFD) обеспечивает высокую точность, но является медленной и дорогой, что ограничивает число рассматриваемых вариантов на ранней стадии проектирования. Суррогатные модели (свёрточные, графовые и генеративные сети), обученные на данных CFD, прогнозируют коэффициент сопротивления за секунды и ускоряют процесс. В работе сравниваются основные подходы на основе литературы, рассматриваются открытые эталонные наборы данных (DrivAerNet) и оцениваются возможности применения для развивающейся автомобильной промышленности. Сделан вывод, что искусственный интеллект является эффективным инструментом быстрого отбора, а CFD остаётся необходимым для окончательной проверки.

Abstract. The article analyzes the application of artificial intelligence and machine learning methods in automotive aerodynamic design. Computational fluid dynamics (CFD) provides high accuracy but is slow and expensive, which limits the number of variants considered at the early design stage. Surrogate models (convolutional, graph and generative networks) trained on CFD data predict the drag coefficient within seconds and accelerate the process. The paper compares the main approaches based on the literature, reviews open benchmark datasets (DrivAerNet), and assesses the applicability for a developing automotive industry. It is concluded that artificial intelligence is an effective tool for rapid screening, while CFD remains necessary for final validation.

Kalit so‘zlar: avtomobil dizayni, aerodinamika, havo qarshilik koeffitsienti, sun’iy intellekt, mashinaviy o‘qitish, surrogat model, CFD, generativ dizayn, neyron tarmoq.

Ключевые слова: автомобильный дизайн, аэродинамика, коэффициент сопротивления, искусственный интеллект, машинное обучение, суррогатная модель, CFD, генеративный дизайн, нейронная сеть.

Keywords: automotive design, aerodynamics, drag coefficient, artificial intelligence, machine learning, surrogate model, CFD, generative design, neural network.

Kirish

Avtomobil aerodinamikasi uning yoqilg‘i tejamkorligi, elektromobillarda yurish masofasi va yo‘lda barqarorligiga bevosita ta’sir qiladi. Yuqori tezliklarda havo qarshiligi umumiy harakat qarshiligining katta qismini tashkil etgani sababli, kuzov shaklini aerodinamik jihatdan optimallashtirish dizaynning markaziy vazifalaridan biriga aylangan.

An’anaviy loyihalashda bu vazifa hisoblash gidrodinamikasi (CFD) va shamol tunneli sinovlari yordamida hal qilinadi. CFD yuqori aniqlik beradi, biroq bir variantni hisoblash ko‘p soat, ba’zan kun davom etadi va katta hisoblash resurslarini talab qiladi. Natijada dizayner dastlabki bosqichda yuzlab g‘oyani emas, balki atigi bir nechtasini sinab ko‘ra oladi; qolgan variantlar esa umuman tekshirilmay qoladi. Aynan shu cheklov so‘nggi yillarda ma’lumotga asoslangan, ya’ni sun’iy intellektga tayanadigan usullarga qiziqishni kuchaytirdi.

Bu usullarning g‘oyasi sodda: agar tarmoqqa ko‘plab kuzov shakllari va ularning aerodinamik natijalari ko‘rsatilsa, u shakl bilan natija o‘rtasidagi bog‘lanishni o‘rganadi va keyin yangi shakl uchun havo qarshilik koeffitsienti (C_d) ni soniyalarda baholay oladi. Bunday surrogat modellar CFD ni butunlay almashtirmaydi, lekin dizaynning dastlabki bosqichini sezilarli tezlashtiradi.

Ushbu maqolaning maqsadi — avtomobil aerodinamik dizaynida qo‘llanilayotgan sun’iy intellekt usullarini tahlil qilish, ularning asosiy yondashuvlarini qiyoslash va rivojlanayotgan avtosanoat, jumladan O‘zbekiston sharoiti uchun qo‘llanish imkoniyatlarini baholashdir. Maqola tahliliy-sharh xususiyatiga ega bo‘lib, mavjud ilmiy manbalarga asoslanadi.

Adabiyotlar tahlili

Suyuqlik mexanikasida mashinaviy o‘qitish usullarining o‘rni Brunton va hammualliflari tomonidan keng umumlashtirilgan [4]. Oqim maydonini neyron tarmoq orqali tez approksimatsiya qilish bo‘yicha dastlabki muhim ishlardan birini Guo, Li va Iorio amalga oshirib, konvolyutsion tarmoq CFD ga nisbatan bir necha tartibga tez ishlashini ko‘rsatishgan [5]. Keyinchalik bu g‘oya avtomobil kuzovlariga ko‘chirildi: Jacob va hammualliflari ixtiyoriy shakldagi avtomobil uchun aerodinamik baholashni real vaqtda bajaradigan chuqur o‘qitish modelini taklif qildilar [8].

Sohaning rivojiga turtki bo‘lgan muhim qadam — ochiq, yirik etalon ma’lumotlar bazalarining paydo bo‘lishi. Elrefaie va hammualliflari DrivAerNet bazasini (4000 ta sanoat darajasidagi avtomobil modeli va ularning CFD natijalari) hamda shakldan bevosita C_d ni bashorat qiluvchi grafik konvolyutsion tarmoqni taqdim etishdi [9]; uning kengaytirilgan varianti DrivAerNet++ esa 8000 ta dizaynni qamrab oldi [10]. Bunday ochiq bazalar tadqiqotchilarga o‘z hisoblash resurslarini sarflamasdan model o‘qitish imkonini beradi.

Foydalaniladigan tarmoq arxitekturalari umumiy chuqur o‘qitishdan o‘zlashtirilgan: chuqur tarmoqlarni o‘qitishni osonlashtirgan qoldiqli bog‘lanishlar (ResNet) [6] va yangi shakllar generatsiyasiga imkon beruvchi generativ-raqobatli tarmoqlar (GAN) [7]. Aerodinamik hisobning nazariy asoslari — yer usti transporti izi [1], turbulentlik modellari [3] va avtomobil aerodinamikasi [2] — klassik adabiyotda bayon etilgan. Mavjud ishlarning aksariyati muayyan usul yoki bazaga bag‘ishlangan; dizayn amaliyoti va rivojlanayotgan sanoat nuqtai nazaridan ularni umumlashtirish esa amaliy ahamiyatga ega.


Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot tahliliy-qiyosiy xususiyatga ega bo‘lib, mavjud ilmiy manbalarni umumlashtirish va yagona mezonlar asosida solishtirishga asoslanadi. Surrogat modelning vazifasi quyidagicha ifodalanadi: u kuzov geometriyasidan havo qarshilik koeffitsienti C_d (va ba’zan to‘liq bosim hamda tezlik maydoni) ga o‘tuvchi akslantirishni ma’lumotlardan o‘rganadi.

Modellar geometriyani turli ko‘rinishda qabul qiladi: ikki o‘lchovli tasvir, uch o‘lchovli voksel panjarasi, nuqtalar buluti yoki sirt to‘ri (grafik). Funksional jihatdan ularni uch guruhga ajratish mumkin: birinchisi — C_d ni bashorat qiluvchi regressiya modeli; ikkinchisi — oqim maydonini tiklovchi model; uchinchisi — berilgan maqsad bo‘yicha yangi shakl generatsiya qiluvchi generativ model. Qiyoslash uchun to‘rtta mezon belgilandi: kirish geometriyasini ifodalash usuli, bashorat aniqligi, o‘rgatish ma’lumotiga ehtiyoj va dizaynning dastlabki bosqichida qo‘llash qulayligi.

Muhokama va natijalar

Sun’iy intellektga asoslangan aerodinamik dizaynning umumiy ish jarayoni 1-rasmda keltirilgan: CFD ma’lumotlar bazasida o‘qitilgan surrogat model yangi shakllar uchun tez bashorat beradi yoki yangi shakllarni generatsiya qiladi, eng istiqbolli variantlar esa CFD yoki shamol tunnelida yakuniy tekshiruvdan o‘tkaziladi.



1-rasm. Sun’iy intellektga asoslangan aerodinamik dizayn ish jarayoni

Asosiy yondashuvlarning qiyosiy tahlili 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval


AI surrogat modellari yondashuvlarining qiyosiy tahlili

Yondashuv	Kirish tasviri	Asosiy vazifa	Xususiyatlari
Konvolyutsion tarmoq (CNN)	2D tasvir yoki 3D voksel	Cd va oqim maydonini bashorat	Sodda, lekin 3D geometriyani qo‘pol ifodalaydi
Grafik/nuqtali tarmoq (GNN)	Sirt to‘ri yoki nuqtalar buluti	Cd ni bevosita 3D shakldan bashorat	Geometrik aniqligi yuqori, zamonaviy natijalar
Generativ model (GAN/VAE)	Shovqin + maqsad (Cd)	Past-Cd yangi shakllarni generatsiya	Teskari dizayn imkonini beradi, aerodinamik tekshiruv shart
Klassik CFD (taqqoslash uchun)	To‘liq 3D geometriya	Aniq aerodinamik hisob	“Oltin standart”: aniq, lekin sekin va qimmat

(muallif tomonidan manbalar asosida tuzilgan)

Konvolyutsion tarmoqlar (CNN) sodda va keng tarqalgan bo‘lsa-da, ular geometriyani tasvir yoki voksel ko‘rinishida qabul qilgani uchun uch o‘lchovli shaklning nozik tafsilotlarini bir qadar yo‘qotadi. Grafik va nuqtali tarmoqlar (GNN) esa kuzovning sirt to‘ri yoki nuqtalar buluti bilan bevosita ishlaydi va shu sababli geometrik aniqligi yuqoriroq; DrivAerNet bazasida sinalgan grafik model bunga yaqqol misol [9]. Generativ modellar (GAN, VAE) boshqa vazifani — teskari

dizaynni — bajaradi: ular berilgan maqsad (masalan, past Cd) bo‘yicha yangi shakl variantlarini taklif qiladi, lekin bu variantlarning aerodinamik sifati albatta CFD bilan tekshirilishi shart [7].



2-rasm. AI surrogat modellari yondashuvlarining qiyosiy tahlili (CNN, GNN, GAN/VAE va CFD)

Adabiyotdagi ishlarning umumiy xulosasi shuki, surrogat modellar C_d ni CFD ga nisbatan bir necha tartibga tez baholaydi va aniqlikning nisbatan kichik yo‘qotilishi bilan kechadi [5; 8]. Shu bois ular dizaynning dastlabki bosqichida ko‘plab variantni tez saralash uchun ideal, yakuniy tasdiqlash uchun esa CFD va shamol tunneli o‘rni saqlanib qoladi.

Rivojlanayotgan avtosanoat, jumladan O‘zbekiston uchun bu yo‘nalishning eng amaliy jihati — ochiq ma’lumotlar bazalari va oldindan o‘qitilgan modellardan foydalanish imkoniyatidir. DrivAerNet++ kabi bazalar [10] tadqiqotchiga o‘zining qimmat CFD klasterini qurmasdan model o‘qitish va sinash imkonini beradi. Shu bilan birga, mahalliy sharoitda qo‘llashda model qaysi ma’lumotda o‘qitilganini hisobga olish, natijalarni mahalliy CFD yoki sinov bilan tasdiqlash zarur — chunki bir to‘plamda o‘qitilgan model boshqa turdagi kuzovlarda xato berishi mumkin.

Xulosa va takliflar

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektga asoslangan surrogat usullar avtomobil aerodinamik dizaynida CFD ni to‘ldiruvchi samarali vositadir: ular dastlabki bosqichda ko‘plab variantni tez saralash va generativ yo‘l bilan yangi shakllarni izlash imkonini beradi. Hozirda grafik va to‘rga asoslangan yondashuvlar aniqlik bilan tezlik o‘rtasida eng yaxshi muvozanatni namoyish etmoqda, generativ usullar esa teskari dizaynga yo‘l ochadi, biroq ularning natijalari aerodinamik tekshiruvni talab qiladi.

Rivojlanayotgan avtosanoat uchun real kirish yo‘li — ochiq ma’lumotlar bazalari va oldindan o‘qitilgan modellardan foydalanish, mahalliy ma’lumot to‘plamini esa bosqichma-bosqich shakllantirishdir. Kelgusi tadqiqotlarda surrogat saralashni CFD bilan birlashtirgan gibrid jarayonni ishlab chiqish, shuningdek tahlilni faqat havo qarshiligi bilan cheklamay, ko‘p maqsadli dizayn (barqarorlik, shovqin, ishlab chiqarish qulayligi) tomon kengaytirish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Ahmed S.R., Ramm G., Faltin G. Some salient features of the time-averaged ground vehicle wake // SAE Technical Paper. – 1984. – No. 840300. https://doi.org/10.4271/840300

2. Schuetz T.C. (Ed.) Aerodynamics of Road Vehicles. 5th ed. – Warrendale: SAE International, 2015. – 600 p.

3. Menter F.R. Two-equation eddy-viscosity turbulence models for engineering applications // AIAA Journal. – 1994. – Vol. 32, No. 8. – P. 1598–1605. https://doi.org/10.2514/3.12149

4. Brunton S.L., Noack B.R., Koumoutsakos P. Machine learning for fluid mechanics // Annual Review of Fluid Mechanics. – 2020. – Vol. 52. – P. 477–508. https://doi.org/10.1146/annurev-fluid-010719-060214

5. Guo X., Li W., Iorio F. Convolutional neural networks for steady flow approximation // Proceedings of the 22nd ACM SIGKDD. – 2016. – P. 481–490. https://doi.org/10.1145/2939672.2939738

6. He K., Zhang X., Ren S., Sun J. Deep residual learning for image recognition // IEEE Conference on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR). – 2016. – P. 770–778. https://doi.org/10.1109/CVPR.2016.90

7. Goodfellow I., Pouget-Abadie J., Mirza M. et al. Generative adversarial nets // Advances in Neural Information Processing Systems (NeurIPS). – 2014. – Vol. 27. – P. 2672–2680.

8. Jacob S.J., Mrosek M., Othmer C., Köstler H. Deep learning for real-time aerodynamic evaluations of arbitrary vehicle shapes // SAE International Journal of Passenger Vehicle Systems. – 2022. – Vol. 15, No. 2.

9. Elrefaie M., Dai A., Ahmed F. DrivAerNet: A parametric car dataset for data-driven aerodynamic design and graph-based drag prediction // ASME IDETC-CIE. – 2024. – Paper V03AT03A019. https://doi.org/10.1115/DETC2024-143593

10. Elrefaie M., Morar F., Dai A., Ahmed F. DrivAerNet++: A large-scale multimodal car dataset with CFD simulations and deep learning benchmarks // Advances in Neural Information Processing Systems (NeurIPS). – 2024. – Vol. 37. – P. 499–536.

UO‘T: 629.331:533.6

ELEKTROMOBILLAR TASHQI DIZAYNINING AERODINAMIK TAMOYILLARI VA YURISH MASOFASIGA TA’SIRI

Xakimjonova Dilxavas Ikromjon qizi
Andijon davlat texnika institut, stajyor o‘qituvchi Andijon, O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada elektromobillar tashqi dizaynining aerodinamik tamoyillari va ularning yurish masofasiga ta’siri tahlil qilingan. Elektromobil masofasi batareya quvvati bilan cheklangani uchun, yuqori tezlikda harakat qarshiligining katta qismini tashkil etadigan havo qarshiligi masofani bevosita belgilaydi. Maqolada havo qarshilik koeffitsientini kamaytiruvchi tashqi dizayn yechimlari — yopiq yoki faol panjara, silliq tag qism, tekis eshik dastaklari, aerodinamik g‘ildiraklar va toraygan orqa qism — ko‘rib chiqilgan. Seriyali modellar (Lucid Air 0,197, Mercedes EQS 0,20, Hyundai Ioniq 6 0,21) misolida tahlil keltirilgan. CFD va sun’iy intellekt usullarining dizayndagi o‘rni muhokama qilingan. Xulosa: aerodinamik tashqi dizayn elektromobil masofasini oshirishning asosiy vositalaridan biridir.

Аннотация. В статье анализируются аэродинамические принципы внешнего дизайна электромобилей и их влияние на запас хода. Поскольку запас хода электромобиля ограничен ёмкостью батареи, аэродинамическое сопротивление, составляющее на высокой скорости значительную часть сопротивления движению, напрямую определяет дальность. Рассмотрены дизайнерские решения, снижающие коэффициент сопротивления: закрытая или активная решётка, гладкое днище, заподлицо установленные дверные ручки, аэродинамические колёса и сужающаяся задняя часть. Анализ приведён на примере серийных моделей (Lucid Air 0,197, Mercedes EQS 0,20, Hyundai Ioniq 6 0,21). Обсуждается роль CFD и методов искусственного интеллекта. Вывод: аэродинамический внешний дизайн является одним из основных средств увеличения запаса хода.

Abstract. The article analyzes the aerodynamic principles of electric vehicle exterior design and their effect on driving range. Since the range of an electric vehicle is limited by battery capacity, aerodynamic drag — which constitutes a large share of driving resistance at high speed — directly determines the range. Design solutions that reduce the drag coefficient are reviewed: a sealed or active grille, a smooth underbody, flush door handles, aerodynamic wheels and a tapered rear. The analysis is illustrated with production models (Lucid Air 0.197, Mercedes EQS 0.20, Hyundai Ioniq 6 0.21). The role of CFD and artificial intelligence methods is discussed. Conclusion: aerodynamic exterior design is one of the main means of extending electric vehicle range.

Kalit so‘zlar: elektromobil, aerodinamika, tashqi dizayn, havo qarshilik koeffitsienti, yurish masofasi, yopiq panjara, silliq tag qism, toraygan orqa, CFD.

Ключевые слова: электромобиль, аэродинамика, внешний дизайн, коэффициент сопротивления, запас хода, закрытая решётка, гладкое днище, сужающаяся задняя часть, CFD.

Keywords: electric vehicle, aerodynamics, exterior design, drag coefficient, driving range, sealed grille, smooth underbody, tapered rear, CFD.

Kirish

Elektromobilning yurish masofasi batareya quvvati bilan cheklangan, shu sababli energiyaning har bir ulushi muhim ahamiyatga ega. Iste’molchilar uchun “masofa tashvishi” hamon asosiy to‘siqlardan biri bo‘lib qolmoqda; demak, dizayner energiya sarfini kamaytirishning har qanday imkoniyatidan foydalanishga intiladi. Aynan shu yerda aerodinamika hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Yuqori tezlikda harakat qilganda havo qarshiligi umumiy harakat qarshiligining asosiy qismini tashkil etadi — 100 km/soat tezlikda bu ulush 75–80 foizga yetadi [5]. Elektromobillarda esa, yonuv dvigatelidagi yo‘qotishlar yo‘qligi va elektr yuritmaning yuqori foydali ish koeffitsienti tufayli, sarflanadigan energiyaning nisbatan kattaroq qismi aynan havo qarshiligini yengishga ketadi [5]. Shu bois aerodinamik tashqi dizayn elektromobil uchun yonuv dvigatelli avtomobilga qaraganda yanada ustuvor vazifaga aylanadi.

Bundan tashqari, yonuv dvigatelining yo‘qligi dizaynerga yangi erkinlik beradi: katta radiator va undan o‘tadigan havo oqimiga ehtiyoj kamayadi, chiqindi gaz tizimi yo‘q. Bu old qism va tag qismni ancha silliqroq qilish imkonini yaratadi. Ushbu maqolaning maqsadi — elektromobillarning aerodinamik tashqi dizayn tamoyillarini va ularning yurish masofasiga ta’sirini, seriyali modellar misolida tahlil qilishdir. Maqola adabiyotga asoslangan tahliliy-sharh xususiyatiga ega.

Adabiyotlar tahlili

Avtomobil aerodinamikasining nazariy asoslari va kuzov atrofidagi oqim ajralishi hodisalari klassik adabiyotda batafsil bayon etilgan [1; 2]. Hisoblash gidrodinamikasida keng qo‘llaniladigan turbulentlik modellari, jumladan k-omega SST, muhandislik masalalari uchun ishonchli vosita sifatida tan olingan [3]. Elektromobillar uchun aerodinamikaning ustuvorligini Tran va hammualliflari ko‘rsatib bergan: havo qarshiligi elektromobilda energiya yo‘qotishning asosiy manbai bo‘lib, uni kamaytirish dizaynning bosh maqsadlaridan biridir [5].

So‘nggi yillarda dizayn jarayonini tezlashtirishda ma’lumotga asoslangan usullar ham qo‘llanilmoqda: mashinaviy o‘qitishning suyuqlik mexanikasidagi imkoniyatlari [4], shakldan bevosita havo qarshiligini bashorat qiluvchi ochiq ma’lumotlar bazalari [6] va generativ modellar [7] dizaynerga ko‘p sonli variantni tez baholash imkonini beradi. Biroq mavjud ishlar ko‘pincha alohida usul yoki modelra qaratilgan; elektromobil tashqi dizayni tamoyillarini masofa nuqtai nazaridan umumlashtirish amaliy ehtiyoj bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot tahliliy-qiyosiy xususiyatga ega bo‘lib, mavjud ilmiy manbalar va seriyali modellarning ochiq ma’lumotlarini umumlashtirishga asoslanadi. Tahlilning fizik asosi quyidagicha: havo qarshilik kuchi $F = 0{,}5 \cdot \rho \cdot C_d \cdot A \cdot v^2$ ifoda bilan aniqlanadi, bunda ρ — havo zichligi, C_d — havo qarshilik koeffitsienti, A — peshona maydoni, v — tezlik. Qarshilikni yengishga sarflanadigan energiya bu kuchga va bosib o‘tilgan masofaga proporsional bo‘lgani uchun, C_d yoki peshona maydonini kamaytirish bevosita energiya tejash va, demak, yurish masofasini oshirishga olib keladi.

Tezlik kvadratga ko‘tarilgani sababli havo qarshiligi yuqori tezlikda hal qiluvchi omilga aylanadi. Shu bois tahlilda asosiy e’tibor C_d ni kamaytiruvchi tashqi dizayn yechimlariga qaratildi. Har bir yechim uch mezon bo‘yicha ko‘rib chiqildi: ta’sir mexanizmi, havo qarshiligiga ta’siri va dizayn hamda ishlab chiqarishga moslik.

Muhokama va natijalar


Elektromobil kuzovida havo qarshiligini kamaytiruvchi asosiy dizayn yechimlari 1-rasmda umumlashtirilgan.

Old qism. Elektromobil katta hajmdagi sovituvchi havoga kamroq muhtoj bo‘lgani uchun radiator panjarasini yopiq yoki faol (zarur bo‘lgandagina ochiladigan) qilib loyihalash mumkin. Bu old qismdagi havo oqimi turbulentligini kamaytiradi.

Tag qism. Batareya bloki yassi bo‘lgani va chiqindi gaz tizimi mavjud emasligi sababli, elektromobil tag qismini deyarli to‘liq silliq qilib qoplash mumkin. Bu — elektromobilning tabiiy aerodinamik ustunligi va havo qarshiligini eng sezilarli kamaytiruvchi omillardan biri.

Yon va g‘ildiraklar. Tekis (kuzov sirtiga botiriladigan) eshik dastaklari, silliq sirtlar, kamera asosidagi yon oynalar oqimni buzilishdan saqlaydi. G‘ildiraklar havo qarshiligining muhim

manbai bo‘lgani uchun, aerodinamik g‘ildirak qoplamalari va g‘ildirak atrofidagi havo pardalari qo‘llaniladi.



Izoh: Yechimlar C_d (drag coefficient) qiymatini kamaytirish orqali elektromobilning yurish masofasini oshirishga xizmat qiladi.

1-rasm. Elektromobil tashqi dizaynining asosiy aerodinamik yechimlari

Orqa qism. Kuzovning orqa qismini asta-sekin toraytirish (Kammback yoki boat-tail shakli) iz mintaqasidagi pasaytirilgan bosimni va shu bilan bog‘liq qarshilikni kamaytiradi. Spoyler shakli ko‘pincha CFD yordamida aniq sozlanadi.

Bu yechimlar samarasini seriyali modellar yaqqol ko‘rsatadi (1-jadval). Eng past havo qarshiligiga ega seriyali elektromobillardan biri Lucid Air bo‘lib, uning Cd qiymati 0,197 ni tashkil etadi; Mercedes EQS — 0,20, Hyundai Ioniq 6 — 0,21. Taqqoslash uchun, kamroq optimallashtirilgan qutisimon Hyundai Ioniq 5 ning C_d qiymati 0,29 ga teng. Ko‘rinib turibdiki, dizayn yechimlari C_d ni 0,08–0,10 ga o‘zgartirishi mumkin.

1-jadval

Ayrim seriyali elektromobillarning havo qarshilik koeffitsienti

Model	**C_d**	**Asosiy aerodinamik yechimlar**
Lucid Air	0,197	silliq tag qism, tekis dastaklar, cho‘zilgan oqimli shakl
Mercedes-Benz EQS	0,20	yopiq panjara, oqimli tom chizig‘i, silliq tag qism
Tesla Model S	0,208	silliq sirt, aerodinamik g‘ildiraklar
Hyundai Ioniq 6	0,21	aktiv havo qopqog‘i, g‘ildirak havo pardasi, boat-tail orqa
Hyundai Ioniq 5 (qiyos uchun)	0,29	qutisimon shakl, kam optimallashtirilgan

(ishlab chiqaruvchilarning rasmiy ma’lumotlari asosida)

Bu farqning amaliy ahamiyati katta: adabiyotga ko‘ra havo qarshiligini taxminan 20 foiz kamaytirish trassada energiya sarfini qariyb 4 foizga kamaytiradi [5], elektromobil uchun esa bu bevosita yurish masofasining oshishini anglatadi. Dizayn jarayonida bu yechimlar CFD yordamida

tekshiriladi; so‘nggi yillarda esa sun’iy intellektga asoslangan surrogat modellar ko‘plab variantni tez baholab, optimal shaklni izlashni tezlashtirmoqda [5; 6].

O‘zbekiston sharoiti uchun bu yo‘nalish dolzarb: mamlakatda elektromobil ishlab chiqarish va iste’moli o‘sib borayotgan bir paytda, aerodinamik tashqi dizaynni optimallashtirish yurish masofasini oshirishning nisbatan arzon vositasidir. Buning uchun qimmat infratuzilma shart emas — CFD va ochiq AI vositalaridan foydalanish kifoya. Shu bilan birga, har qanday aerodinamik yechim estetika, salon hajmi va ishlab chiqarish qulayligi bilan muvozanatlashtirilishi lozim.

Xulosa va takliflar

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, aerodinamik tashqi dizayn elektromobil yurish masofasini oshirishning asosiy vositalaridan biridir. Yopiq yoki faol panjara, silliq tag qism, tekis sirtlar, aerodinamik g‘ildiraklar va toraygan orqa qism — bularning barchasi havo qarshiligini kamaytiradi. Seriyali modellar (Cd ≈ 0,20) bu yondashuvning amaliy natijasini namoyish etadi, C_d ni taxminan 0,1 ga kamaytirish esa sezilarli masofa qo‘shimchasini beradi.

Rivojlanayotgan bozorlar uchun eng amaliy yo‘l — CFD ni sun’iy intellekt surrogat modellari va ochiq ma’lumotlar bazalari bilan birlashtirib, dizaynni tejamkor optimallashtirishdir. Kelgusi tadqiqotlarda aerodinamik dizaynni ko‘p maqsadli loyihalash (salon hajmi, xavfsizlik, ishlab chiqarish qulayligi) bilan uyg‘unlashtirish va natijalarni mahalliy sharoitda tasdiqlash istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Ahmed S.R., Ramm G., Faltin G. Some salient features of the time-averaged ground vehicle wake // SAE Technical Paper. – 1984. – No. 840300. https://doi.org/10.4271/840300

2. Schuetz T.C. (Ed.) Aerodynamics of Road Vehicles. 5th ed. – Warrendale: SAE International, 2015. – 600 p.

3. Menter F.R. Two-equation eddy-viscosity turbulence models for engineering applications // AIAA Journal. – 1994. – Vol. 32, No. 8. – P. 1598–1605. https://doi.org/10.2514/3.12149

4. Brunton S.L., Noack B.R., Koumoutsakos P. Machine learning for fluid mechanics // Annual Review of Fluid Mechanics. – 2020. – Vol. 52. – P. 477–508. https://doi.org/10.1146/annurev-fluid-010719-060214

5. Tran J. et al. Aerodynamics-guided machine learning for design optimization of electric vehicles // Communications Engineering. – 2024. – Vol. 3. – Article 174. https://doi.org/10.1038/s44172-024-00322-0

6. Elrefaie M., Dai A., Ahmed F. DrivAerNet: A parametric car dataset for data-driven aerodynamic design and graph-based drag prediction // ASME IDETC-CIE. – 2024. – Paper V03AT03A019. https://doi.org/10.1115/DETC2024-143593

7. Goodfellow I., Pouget-Abadie J., Mirza M. et al. Generative adversarial nets // Advances in Neural Information Processing Systems (NeurIPS). – 2014. – Vol. 27. – P. 2672–2680.

UO‘T: 629.113:004.92

AVTOMOBIL KUZOVI DIZAYNIDA PARAMETRIK MODELLASHTIRISH VA CAD/CAE TEXNOLOGIYALARI

Xakimjonova Dilxavas Ikromjon qizi
Andijon davlat texnika institut, stajyor o‘qituvchi Andijon, O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada avtomobil kuzovi dizaynida parametrik modellashtirish va CAD/CAE texnologiyalarining o‘rni tahlil qilingan. Zamonaviy kuzov dizayni estetika, aerodinamika, mustahkamlik va ishlab chiqarish qulayligi o‘rtasidagi muvozanatni talab qiladi. Parametrik modellashtirish geometriyani parametrlar bilan boshqarish, variantlarni tez yaratish va avtomatik optimallashtirish imkonini beradi; CAE (FEA, CFD) esa kuzovning mustahkamlik va aerodinamik ko‘rsatkichlarini baholaydi. Maqolada parametrik modellashtirish tamoyillari, CAD–CAE dizayn tsikli va optimallashtirish usullari ko‘rib chiqilgan hamda rivojlanayotgan avtosanoat uchun qo‘llanish imkoniyatlari baholangan. Xulosa: integratsiyalashgan parametrik CAD/CAE zamonaviy kuzov dizaynining asosidir.

Аннотация. В статье анализируется роль параметрического моделирования и технологий CAD/CAE в дизайне кузова автомобиля. Современный дизайн кузова требует баланса между эстетикой, аэродинамикой, прочностью и технологичностью. Параметрическое моделирование позволяет управлять геометрией через параметры, быстро создавать варианты и автоматически оптимизировать конструкцию; CAE (FEA, CFD) оценивает прочностные и аэродинамические характеристики. Рассмотрены принципы параметрического моделирования, цикл проектирования CAD–CAE и методы оптимизации, а также оценены возможности применения для развивающейся автомобильной промышленности. Вывод: интегрированная система параметрического CAD/CAE является основой современного дизайна кузова.

Abstract. The article analyzes the role of parametric modeling and CAD/CAE technologies in automotive body design. Modern body design requires a balance between aesthetics, aerodynamics, strength and manufacturability. Parametric modeling makes it possible to drive geometry through parameters, rapidly generate variants and automatically optimize the design; CAE (FEA, CFD) evaluates the structural and aerodynamic characteristics. The paper reviews the principles of parametric modeling, the CAD–CAE design cycle and optimization methods, and assesses the applicability for a developing automotive industry. Conclusion: an integrated parametric CAD/CAE system is the backbone of modern body design.

Kalit so‘zlar: avtomobil dizayni, kuzov, parametrik modellashtirish, CAD, CAE, sirt modellashtirish, NURBS, optimizatsiya, virtual prototip.

Ключевые слова: автомобильный дизайн, кузов, параметрическое моделирование, CAD, CAE, моделирование поверхностей, NURBS, оптимизация, виртуальный прототип.

Keywords: automotive design, body, parametric modeling, CAD, CAE, surface modeling, NURBS, optimization, virtual prototype.

Kirish

Avtomobil kuzovini loyihalash — dizaynerdan bir vaqtning o‘zida bir necha qarama-qarshi talabni uyg‘unlashtirishni so‘raydigan murakkab vazifa. Kuzov ham chiroyli (estetik), ham aerodinamik jihatdan samarali, ham mustahkam, ham arzon hamda ishlab chiqarishga qulay bo‘lishi kerak. An’anaviy yondashuvda bu muvozanat ko‘p sonli jismoniy prototiplar va takroriy sinovlar orqali topilar edi — bu esa katta vaqt va xarajat talab qilardi.

CAD (kompyuterli loyihalash) va CAE (kompyuterli muhandislik tahlili) texnologiyalari bu jarayonni tubdan o‘zgartirdi: dizayner kuzovni avval raqamli ko‘rinishda yaratadi, uni

kompyuterda sinaydi va optimallashtiradi, jismoniy namuna esa faqat eng yaxshi variant uchun tayyorlanadi. Bu yondashuvning markazida parametrik modellashtirish turadi.

Parametrik modellashtirishning mohiyati shundaki, geometriya aniq son qiymatlar bilan emas, balki o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan parametrlar bilan ifodalanadi. Biror parametr (masalan, tom balandligi yoki old oynaning og‘ish burchagi) o‘zgartirilsa, model avtomatik qayta quriladi. Bu ko‘plab variantni tez yaratish va avtomatlashtirilgan optimallashtirishga yo‘l ochadi.

Ushbu maqolaning maqsadi — avtomobil kuzovi dizaynida parametrik modellashtirish va CAD/CAE texnologiyalarining o‘rnini, dizayn tsiklini va optimallashtirish usullarini tahlil qilish hamda rivojlanayotgan avtosanoat uchun qo‘llanish imkoniyatlarini baholashdir. Maqola adabiyotga asoslangan tahliliy-sharh xususiyatiga ega.

Adabiyotlar tahlili

CAD/CAM/CAE tizimlarining nazariy asoslari va geometrik modellashtirish tamoyillari klassik adabiyotda batafsil bayon etilgan [1]. Avtomobil kuzovining tashqi sirtini — estetik jihatdan muhim bo‘lgan “Class-A” yuzalarni — yaratishda NURBS (notekis ratsional B-splaynlar) asosiy matematik vosita bo‘lib xizmat qiladi [2]. Bu yondashuv silliq va nazorat qilinadigan murakkab sirtlarni tasvirlash imkonini beradi.

CAE tomonida kuzovning mustahkamligi va to‘qnashuvga chidamliligi cheklangan elementlar usuli (FEA) yordamida baholanadi [3], aerodinamik xususiyatlari esa hisoblash gidrodinamikasi (CFD) bilan tahlil qilinadi [4; 7]. Dizaynni optimallashtirishning umumiy usullari [5] va materialdan oqilona foydalanishga qaratilgan topologik optimizatsiya [6] kuzov konstruksiyasini yengillashtirish va mustahkamlashda qo‘llaniladi. So‘nggi yillarda esa CAE hisob-kitoblarini tezlashtirish uchun sun’iy intellektga asoslangan surrogat modellar ham keng tarqalmoqda [8]. Mavjud ishlarning aksariyati ayrim usulga bag‘ishlangan; ularni yagona dizayn jarayoni doirasida umumlashtirish amaliy ahamiyatga ega.


Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot tahliliy-qiyosiy xususiyatga ega bo‘lib, mavjud ilmiy manbalarni umumlashtirishga asoslanadi. Parametrik modelni shartli ravishda quyidagicha ifodalash mumkin: geometriya $G = f(p_1, p_2, ..., p_n)$, bunda p_i — dizayn parametrlari (o‘lchamlar, burchaklar, boshqaruvchi nuqtalar), f esa ular asosida shaklni quruvchi qoidalar va cheklovlar to‘plami. Cheklovlar elementlar orasidagi bog‘lanishni saqlaydi, shu sababli bitta parametr o‘zgartirilganda model yaxlit holda yangilanadi.

CAD–CAE dizayn tsikli quyidagicha ishlaydi: parametrik CAD model asosida hisoblash to‘ri (mesh) quriladi, CAE simulyatsiyasi (FEA yoki CFD) kuzovning ko‘rsatkichlarini baholaydi, optimallashtirish algoritmi esa maqsadga erishish uchun parametrlarni yangilaydi va jarayon takrorlanadi. Bu yopiq tsikl tajriba rejalashtirish (DOE) yoki optimizatsiya algoritmlari yordamida avtomatlashtirilishi mumkin. Tahlilda har bir texnologiya uch mezon bo‘yicha ko‘rib chiqildi: parametrlash moslashuvchanligi, simulyatsiya bilan integratsiya va optimallashtirishni avtomatlashtirish imkoniyati.

Muhokama va natijalar

Parametrik model CAD va CAE ni yagona, yopiq optimallashtirish tsikliga bog‘laydi; bu tsiklning umumiy tuzilishi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Parametrik CAD–CAE dizayn tsikli

Parametrik modellashtirishning asosiy afzalligi — variantlarni tez hosil qilishdir. Parametrlar jadvali yordamida bir necha o‘nlab versiyani avtomatik yaratish, ularni qiyoslash va eng yaxshisini tanlash mumkin. Tashqi sirtlar uchun NURBS va Class-A modellashtirish dizaynerga estetik jihatdan sifatli, silliq yuzalarni shakllantirishga imkon beradi.

CAE bilan integratsiya bu tsiklni mazmunli qiladi: cheklangan elementlar usuli kuzovning bikirligi va to‘qnashuvdagi xatti-harakatini, CFD esa havo qarshiligini baholaydi. Bu ko‘rsatkichlar optimallashtirish algoritmida birlashtirilib, kuzov bir vaqtning o‘zida mustahkam, yengil va aerodinamik bo‘ladigan tarzda parametrlar sozlanadi. Topologik optimizatsiya esa material qayerda zarurligini aniqlab, ortiqcha massani kamaytiradi.

CAD/CAE texnologiyalarining kuzov dizaynidagi o‘rni 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

CAD/CAE texnologiyalarining kuzov dizaynidagi o‘rni

Bosqich / vazifa	**Texnologiya / usul**	**Natija**
Geometrik loyihalash	Parametrik CAD modellashtirish	Parametrlar bilan boshqariladigan model
Tashqi sirt (estetika)	NURBS / Class-A sirt modellashtirish	Silliq, yuqori sifatli kuzov sirti
Mustahkamlik va to‘qnashuv	Cheklangan elementlar usuli (FEA)	Kuchlanish, deformatsiya, xavfsizlik
Aerodinamika	Hisoblash gidrodinamikasi (CFD)	Havo qarshiligi (Cd), oqim maydoni
Optimallashtirish	DOE, topologik/parametrik optimizatsiya	Maqbul dizayn variantlari
Sinov	Virtual prototip / raqamli egizak	Kam sonli jismoniy prototip

(muallif tomonidan manbalar asosida tuzilgan)

Bunday integratsiyalashgan yondashuvning amaliy samarasi — jismoniy prototiplar sonining keskin kamayishi va dizayn vaqtining qisqarishidir. Virtual prototip va raqamli egizak texnologiyalari kuzovni qurishdan oldin uning xatti-harakatini to‘liq tekshirish imkonini beradi. So‘nggi yillarda CAE hisob-kitoblari sun’iy intellekt surrogat modellari bilan tezlashtirilmoqda, bu esa optimallashtirish tsiklini yanada jadallashtiradi [8].

O‘zbekiston avtosanoati uchun bu yo‘nalish amaliy ahamiyatga ega: CAD/CAE vositalari nisbatan arzon va keng tarqalgan bo‘lib, mahalliy korxonaga katta xarajatsiz dizayn tsiklini qisqartirish imkonini beradi. Bu yerda asosiy investitsiya — texnologiya emas, balki mutaxassislarni tayyorlashdir. Shu bilan birga, parametrik modelni to‘g‘ri qurish va cheklovlarni oqilona belgilash muayyan malaka va tajribani talab qiladi.

Xulosa va takliflar

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, integratsiyalashgan parametrik CAD/CAE zamonaviy avtomobil kuzovi dizaynining asosini tashkil etadi. Parametrik modellashtirish, NURBS sirtlari, CAE simulyatsiyasi va optimallashtirish yagona yopiq dizayn tsiklini hosil qiladi: bu takroriy ishlashni tezlashtiradi, dizaynni optimallashtiradi va jismoniy prototiplar sonini kamaytiradi.

Rivojlanayotgan avtosanoat uchun eng muhim qadam — CAD/CAE texnologiyalarini joriy etish va muhandislarni tayyorlashdir; sun’iy intellekt surrogat modellari esa bu jarayonni yanada tezlashtiradi. Kelgusi tadqiqotlarda CAD, CAE va sun’iy intellektni yanada chuqurroq integratsiyalash, ko‘p maqsadli optimallashtirish va raqamli egizak texnologiyalarini qo‘llash istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Lee K. Principles of CAD/CAM/CAE Systems. – Reading: Addison-Wesley, 1999. – 582 p.

2. Piegl L., Tiller W. The NURBS Book. 2nd ed. – Berlin: Springer, 1997. – 646 p. https://doi.org/10.1007/978-3-642-59223-2

3. Bathe K.J. Finite Element Procedures. – Upper Saddle River: Prentice Hall, 1996. – 1037 p.

4. Versteeg H.K., Malalasekera W. An Introduction to Computational Fluid Dynamics: The Finite Volume Method. 2nd ed. – Harlow: Pearson Education, 2007. – 503 p.

5. Martins J.R.R.A., Ning A. Engineering Design Optimization. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021. – 637 p. https://doi.org/10.1017/9781108980647

6. Bendsøe M.P., Sigmund O. Topology Optimization: Theory, Methods, and Applications. 2nd ed. – Berlin: Springer, 2004. – 370 p.

7. Schuetz T.C. (Ed.) Aerodynamics of Road Vehicles. 5th ed. – Warrendale: SAE International, 2015. – 600 p.

8. Elrefaie M., Dai A., Ahmed F. DrivAerNet: A parametric car dataset for data-driven aerodynamic design and graph-based drag prediction // ASME IDETC-CIE. – 2024. – Paper V03AT03A019. https://doi.org/10.1115/DETC2024-143593

UDC: 531.1:512.64

THE ROLE OF THE SCALAR PRODUCT AND MATHEMATICAL MODELING IN COMPUTING THE WORK OF VARIABLE FORCES IN MECHANICAL SYSTEMS

Kirgizboeva Malohat Mamatkarim kizi
Assistant of the Department of "Technological Machines and Labor Protection"
Andijan State Technical Institute
E-mail: qirgizboyevamalohat94@gmail.com
Orcid: https://orcid.org/0009-0004-5377-0970

Abstract. This paper investigates the fundamental role of the vector scalar product and line integral apparatus in determining the work executed by variable forces acting along motion trajectories in mechanical systems. Although classical mechanics formulates work via a simple algebraic inner product for constant forces, real-world engineering systems experience continuous fluctuations in both force magnitude and spatial orientation. In this study, the differential form of the vector dot product is analytically linked to line integrals of the second kind, establishing a generalized mathematical model for variable work computation. The proposed methodology is validated through exact deterministic calculations along linear and parabolic trajectories. The results demonstrate that in non-conservative (rotational) force fields, the macrokinetic work exhibits strict path-dependency. This insights prove that mathematical modulation of path geometry can be strategically leveraged to optimize the mechanical efficiency of dynamic systems.

Annotatsiya. Ushbu maqolada mexanik tizimlarda harakat trayektoriyasi bo‘ylab ta’sir etuvchi o‘zgaruvchan kuchlarning bajargan ishini aniqlashda skalyar ko‘paytma va chiziqli integral apparatining fundamental o‘rni tadqiq etiladi. Klassik mexanikada o‘zgarmas kuchning ishi oddiy algebraik ko‘paytma orqali hisoblansa-da, real muhandislik muammolarida kuch ham miqdor, ham yo‘nalish jihatidan o‘zgarib turadi. Maqolada vektorlar skalyar ko‘paytmasining differensial formadagi ko‘rinishi ikkinchi tur chiziqli integral bilan bog‘lanib, o‘zgaruvchan kuch ishini hisoblashning umumiy matematik modeli qurilgan. Taklif etilgan model chiziqli va parabolik trayektoriyalar misolida aniq analitik hisob-kitoblar orqali tekshirilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, uyurmaviy (nopotensial) kuch maydonlarida bajarilgan ish trayektoriya geometriyasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lib, uni matematik modellashtirish orqali mexanik tizimlar samaradorligini optimallashtirish imkonini beradi.

Аннотация. В данной статье исследуется фундаментальная роль скалярного произведения и аппарата криволинейных интегралов при определении работы переменных сил, действующих вдоль траектории движения в механических системах. Хотя в классической механике работа постоянной силы рассчитывается с помощью простого алгебраического произведения, в реальных инженерных задачах сила непрерывно изменяется как по величине, так и по направлению. В работе дифференциальная форма скалярного произведения векторов увязана с криволинейным интегралом второго рода и построена общая математическая модель расчета работы переменной силы. Предложенная модель верифицирована посредством точных аналитических расчетов на примере линейной и параболической траекторий. Результаты показывают, что в вихревых (непотенциальных) силовых полях совершаемая работа напрямую зависит от геометрии траектории, что позволяет оптимизировать эффективность механических систем с помощью математического моделирования.

Keywords: scalar product, variable force, mechanical work, line integral, trajectory, conservative field, non-conservative field, mathematical model, optimization.

Kalit so‘zlar: skalyar ko‘paytma, o‘zgaruvchan kuch, mexanik ish, chiziqli integral, trayektoriya, potensial maydon, nopotensial maydon, matematik model, optimallashtirish.

Ключевые слова: скалярное произведение, переменная сила, механическая работа, криволинейный интеграл, траектория, потенциальное поле, непотенциальное поле, математическая модель, оптимизация.

1. Introduction

In classical and computational continuum mechanics, determining the work expended to transition a mechanical system or a material point from an initial state to a definitive final state constitutes a foundational pillar of structural design and kinematic optimization. In the most simplified scenarios, where a constant force vector F acts upon a particle constrained to a rectilinear trajectory, the mechanical work W is routinely formulated via the standard algebraic dot product:

$$W = \vec{F} \cdot \vec{s} = |\vec{F}||\vec{s}| \cos \alpha$$

where s represents the displacement vector and α denotes the spatial angle between the force and displacement vectors.

However, realistic engineering assemblies—such as reciprocating piston mechanisms, non-linear viscoelastic dampers, variable-pitch helical springs, and tribological interfaces in heavy machinery—seldom operate under static force fields. In these dynamic environments, the force vector continuously fluctuates in both magnitude and spatial orientation as a function of time, velocity, and phase-space coordinates. Consequently, static algebraic formulations become insufficient, requiring a transition toward differential and integral calculus frameworks.

When evaluating the work performed by such variable forces along an arbitrary curvilinear trajectory L, the mathematical synergy between the vector **scalar product** (dot product) operator and **line integrals of the second kind** serves as a fundamental analytical bridge. The differential scalar product acts as a geometric filter, intrinsically isolating the tangential component of the varying force vector along the instantaneous direction of motion at any given point.

Despite its widespread application, a rigorous pedagogical synthesis that bridges abstract multi-variable calculus with applied mechanical efficiency parameters is often omitted in standard engineering literature. This paper aims to elucidate the precise mathematical role of the scalar product in formulating work under non-conservative variable force fields, establishing a robust methodological framework for trajectory optimization in complex mechanical systems.

2. Methods and Mathematical Modeling

The mathematical formulation of the work performed by variable forces is rigorously grounded in the framework of differential geometry and vector field theory. Consider a continuous or piecewise-smooth curvilinear trajectory L embedded in a three-dimensional Euclidean space (R^3). A material point traversing this path is subjected to a spatially varying force field denoted by the vector-valued function F (x, y, z).

At any arbitrary point along the trajectory, let *dr* represent the infinitesimal displacement vector, which can be dynamically expressed via the arc-length differential ds and the unit tangent vector τ as $dr = \tau ds$. In terms of the standard Cartesian orthogonal basis (i, j, k), the differential displacement vector is structured as:

$$dr = dxi + dyj + dzk$$

Over the infinitesimal interval *dl* = |*dr*|, the force vector F is assumed to be locally invariant in both magnitude and spatial orientation. According to the foundational principles of analytical mechanics, the elementary work dW executed across this differential displacement is defined as the inner product (scalar dot product) of the force and displacement vectors:

$$dW = W \cdot dr$$

Geometrically, the scalar product projects the force vector directly onto the instantaneous unit tangent vector of the trajectory, isolating the effective tangential component ($F_\tau = |W| \cos \alpha$, where \alpha is the structural angle between the vectors). Thus, the energy increment yields:

$$dW = |W| \cdot |dr| \cdot \cos \alpha = F_\tau dl$$

Let the vector force field be decomposed into its constituent scalar component functions mapping$R^3 \to R$:

$$F(x,y,z) = P(x,y,z)i + Q(x,y,z)j + R(x,y,z)k$$

where *P(x,y,z)*, *Q(x,y,z)*, and *R(x,y,z)* are assumed to be continuously differentiable (C^2 class) functions within the open domain containing L. Utilizing the algebraic properties of the dot product under an orthonormal basis, the differential form of the elementary work expands into a total differential expression:

$$dW = P(x, y, z)dx + Q(x, y, z)dy + R(x, y, z)dz$$

To evaluate the total macrokinetic work W performed as the particle moves from an initial state M_0 to a terminal configuration M_n along the curve L, we execute a line integral of the second kind across the vector field:

$$W = \int_L F \cdot dr = \int_L (P(x,y,z)dx + Q(x,y,z)dy + R(x,y,z)dz)$$

2.1. Parametric reduction and computational mapping.

In mechanical system simulations, the spatial coordinates of the trajectory are typically parameterized by an independent cinematic variable, such as time t or generalized coordinates, yielding the parametric equations:

$$x = x(t), \quad y = y(t), \quad z = z(t) \ (t0 \le t \le tn)$$

Applying the chain rule for differentials, the coordinate increments transform as follows:

$$dx = x'(t)dt, \quad dy = y'(t)dt, \quad dz = z'(t)dt$$

This parametric transformation map reduces the line integral to a classical Riemann definite integral over a closed interval, establishing the ultimate computational model for variable work:

$$W = \int [t^0 \to t_n]\big[P\big(x(t), y(t), z(t)\big)x'(t) + Q\big(x(t), y(t), z(t)\big)y'(t) + R\big(x(t), y(t), z(t)\big)z'(t)\big]dt$$

2.2. Conservatism and irrotational field criteria

The analytical formulation of the scalar product within the integral operator provides deep insights into the thermodynamic and energetic constraints of the system. The force field is classified as conservative (lamellar) if and only if the curl of the vector field vanishes ($\nabla \times F = 0$), satisfying the following partial differential equations derived from Stokes' Theorem:

$$\frac{\partial P}{\partial y} = \frac{\partial Q}{\partial x}, \frac{\partial Q}{\partial z} = \frac{\partial R}{\partial y}, \frac{\partial R}{\partial x} = \frac{\partial P}{\partial z}$$

Under these irrotational conditions, the scalar product integral becomes completely path-independent, functioning solely as a state function dictated by the boundary potentials. Conversely, when these mathematical identities are violated, the field is non-conservative (rotational), meaning the geometric optimization of the trajectory is critically linked to minimizing energy dissipation.

3. Results

To evaluate the mathematical framework and verify the mechanical implications of the scalar product in a variable force field, we conduct a deterministic analytical simulation. Consider

a mechanical component traversing a two-dimensional vector field defined by the non-linear variable force:

$$F(x,y) = (x^2 - y)i + (x + y^2)j$$

The component is displaced from the spatial origin O(0,0) to the terminal coordinate A(1,1). To investigate how the path-dependent geometry interacts with the differential scalar product, the total macrokinetic work is computed along two distinct trajectories, denoted as L_1 and L_2.

3.1. Work computation along the linear trajectory L_1(y = x)

For the linear path L_1 parameterized directly by $y = x$, the differential relationship yields $dy = dx$. The spatial boundary conditions restrict the independent variable such that $x \in [0, 1]$. Applying these parametric constraints, the differential scalar product within the line integral operator simplifies as follows:

$$W1 = \int_{L1} (x^2 - y)dx + (x + y^2)dy$$

Substituting the algebraic identities $y \rightarrow x$ and $dy \rightarrow dx$ maps the line integral into a classic 1D Riemann integral:

$$W_1 = \int_0^1 [(x^2 - x) + (x + x^2)]dx = \int_0^1 2x^2\ dx$$

Evaluating the definite integral via the Fundamental Theorem of Calculus determines the precise energy expenditure:

$$W_1 = \left[\frac{2x^3}{3}\right]_0^1 = \frac{2}{3} \approx 0.667 \text{ Joules}$$

3.2. Work computation along the parabolic trajectory $L_2(y = x^2)$

For the parabolic path L_2 structured by the quadratic map $y = x^2$, the corresponding differential change is defined by $dy = 2x\,dx$. The integration limits for the independent variable remain bounded within $x \in [0, 1]$. The integration of the scalar product expands as:

$$W_2 = \int_{L_2} (x^2 - y)dx + (x + y^2)dy$$

Executing the structural substitutions ($y \rightarrow x^2$ and $dy \rightarrow 2x\,dx$) yields:

$$W_2 = \int_0^1 [(x^2 - x^2)dx + (x + (x^2)^2)(2x\,dx)]$$

$$W_2 = \int_0^1 (x + x^4)(2x)\ dx = \int_0^1 (2x^2 + 2x^5)\ dx$$

Computing the antiderivatives across the bounded domain determines the final work value:

$$W_2 = \left[\frac{2x^3}{3} + \frac{2x^6}{6}\right]_0^1 = \left[\frac{2x^3}{3} + \frac{x^6}{3}\right]_0^1 = \frac{2}{3} + \frac{1}{3} = 1.000 \text{ Joule}$$

3.3. Quantitative data synthesis

The quantitative behavior of the differential scalar product integrated across the respective kinematic trajectories is structured in the comparative matrix below.

Trajectory Topology	**Governing Equation**	**Parametric Scalar Product Differential Form**	**Evaluated Work (W, Joules)**

Linear Path (L_1)	y = x	$2x^2\,dx$	0.667
Parabolic Path (L_2)	$y = x^2$	$(2x^2 + 2x^5)\,dx$	1.000

The empirical divergence between W_1 and W_2 mathematically substantiates that the underlying inner product is highly sensitive to the spatial matrix of the path, providing a numerical foundation for the subsequent thermodynamic discussion.

4. Discussion

The rigorous analytical evaluations demonstrated in the results section provide profound mathematical and physical insights into the behavior of variable force fields. Crucially, although both trajectories share identical boundary states—initiating at O(0,0) and terminating at A(1,1)—the computed macrokinetic work differs significantly ($W_1 \neq W_2$). This quantitative divergence mathematically proves that the underlying force field is non-conservative (rotational).

From a vector calculus perspective, the differential scalar product $\vec{F} \cdot d\vec{r}$ functions as a dynamic geometric operator. At each instantaneous coordinate along the continuum, it intrinsically accounts for the spatial orientation angle (\alpha) subtended between the localized force vector and the unit tangent vector of the path. When traversing the parabolic trajectory (L_2), the vector field maps into a more energetically favorable orientation matrix where the cosine of the directional angle (\cos\alpha) remains closer to unity relative to the linear path (L_1). Consequently, the cumulative Riemann sum of the inner product yields a greater magnitude of total work.

To mathematically validate this phenomenon under the framework of vector field theory, we evaluate the system utilizing the curl operator $(\nabla \times \vec{F})$, which serves as the criteria for path-independence based on Stokes' Theorem. Let us analyze the component functions of the field:

$$\frac{\partial P}{\partial y} = \frac{\partial (x^2 - y)}{\partial y} = -1$$

$$\frac{\partial Q}{\partial x} = \frac{\partial (x + y^2)}{\partial x} = 1$$

Because the mixed partial derivatives are unequal($\frac{\partial P}{\partial y} \neq \frac{\partial Q}{\partial x}$), the curl of the field is non-zero $\left(\nabla \times \vec{F} = 2\vec{k}\right)$. This rigorous inequality confirms that the field possesses vorticity.

In applied engineering, this mathematical insight is invaluable for kinematic efficiency and structural thermodynamics. In non-conservative systems—such as those governed by aerodynamic drag, hydrodynamic resistance, or tribological friction—the scalar product serves as the primary tool to optimize mechanical trajectories. By algorithmic modulation of the path geometry, engineers can minimize energy dissipation or, conversely, maximize energy extraction, fundamentally elevating the mechanical efficiency of industrial powertrains and automated systems.

Conclusion

This study establishes that when calculating the work performed by variable forces within mechanical systems, the vector scalar product functions not merely as a rudimentary algebraic operator, but as a critical analytical bridge mapping spatial fluid dynamics onto line integrals of the second kind. The rigorous mathematical modeling and subsequent analytical validations yield the following conclusions:

1. The differential scalar product mathematically transforms the continuous variance of a force vector's magnitude and spatial orientation into an exact analytical differential form, accurately filtering the active tangential component along any point of a curvilinear continuum.
2. In rotational (non-conservative) mechanical fields, kinetic work exhibits strict path-dependency. Consequently, systemic energy expenditure or extraction can be strategically optimized by manipulating the geometric topology of the trajectory, providing a mathematical foundation for maximizing the mechanical efficiency of industrial powertrains and automated systems.

Ultimately, the integrated mathematical framework presented herein underscores the necessity of interdisciplinary synthesis between multi-variable calculus and applied theoretical mechanics. This methodology serves as a robust pedagogical and scientific paradigm suitable for advanced curriculum design in higher technical education and state-of-the-art mechanical engineering optimization.

REFERENCES

1. Anton, H., Bivens, I. C., & Davis, S. (2021). *Calculus: Early Transcendentals* (12th ed.). Wiley.
2. Beer, F. P., Johnston, E. R., Cornwell, P. J., & Self, M. W. (2019). *Vector Mechanics for Engineers: Statics and Dynamics* (12th ed.). McGraw-Hill Education.
3. Fihtengolts, G. M. (2018). *The Course of Differential and Integral Calculus* (Vol. 2). Physics and Mathematics Publishers.
4. Meriam, J. L., Kraige, L. G., & Bolton, J. N. (2020). *Engineering Mechanics: Dynamics* (9th ed.). Wiley.
5. Piskunov, N. S. (2022). *Differential and Integral Calculus for Technical Universities* (Vols. 1-2). High School Publishing House.
6. Stewart, J., Clegg, D. K., & Watson, S. (2020). *Calculus: Metric Edition* (9th ed.). Cengage Learning.
7. Thomas, G. B., Hass, J., Heil, C., & Weir, M. D. (2018). *Thomas' Calculus* (14th ed.). Pearson.

UDC: 621.9:512.64

MODELING THE CUTTING FORCE PROJECTION ON THE FEED DIRECTION IN MACHINING USING THE SCALAR PRODUCT

Khamdamova Dilnoza Rahmatilla kizi
"Assistant of the Department of "Technological Machines and Labor Protection"
Andijan State Technical Institute
E-mail: dxamdamova49@gmail.com
Orcid: https://orcid.org/0009-0002-7700-6884

Abstract. This paper proposes a new analytical model for determining the projections of cutting forces on the tool feed (displacement) direction during metal cutting processes (turning, milling). Existing traditional trigonometric models require complex spatial calculations in multi-axis (3D and 5D) machining. In this study, a mechanism for determining the force projection (F_f) was developed using the dot (scalar) product of the cutting force vector and the unit vector of the feed direction (F•u) The modeling results demonstrated that employing the scalar product reduces computation time by up to 35% and ensures universal consistency across various coordinate system transformations.

Annotatsiya. Ushbu maqolada metallarga kesib ishlov berish jarayonlarida (kesish, frezalash, yo'nish) yuzaga keladigan kesuvchi kuchlarning asbob surish (siljish) yo'nalishidagi proyeksiyalarini aniqlashning yangi analitik modeli taklif etiladi. Amaldagi an'anaviy trigonometrik modellar ko'p o'qli (3D va 5D) ishlov berishda murakkab fazoviy hisob-kitoblarni talab etadi. Tadqiqotda kesuvchi kuch vektori va surish yo'nalishi birlik vektorining skalyar ko'paytmasi (F•u) orqali kuch proyeksiyasini (F_f) aniqlash mexanizmi ishlab chiqildi. Modellashtirish natijalari shuni ko'rsatdiki, skalyar ko'paytmadan foydalanish hisoblash vaqtini 35% gacha qisqartiradi va koordinatalar tizimi o'zgarganda ham universal muvofiqlikni ta'minlaydi.

Аннотация. В данной статье предложена новая аналитическая модель для определения проекций сил резания на направление подачи инструмента, возникающих при механической обработке металлов (точение, фрезерование). Существующие традиционные тригонометрические модели требуют сложных пространственных расчетов при многоосевой (3D и 5D) обработке. В исследовании разработан механизм определения проекции силы (F_f) посредством скалярного произведения вектора силы резания и единичного вектора направления подачи (F•u) Результаты моделирования показали, что использование скалярного произведения сокращает время вычислений до 35% и обеспечивает универсальную инвариантность при смене систем координат.

5. Yeyilish tezligini hisobga olgan holda qalinlikning o‘zgarishi. Bronya qalinligining vaqtga nisbatan kamayishi (chiziqli yeyilish tezligi) tog‘ jinsining qattiqligi (f) orqali ham ifodalanishi mumkin:

$$\Delta\delta = k \cdot \frac{P_{max} \cdot \sigma_s}{H} \cdot t$$

bunda: P_{max} - maydalash kamerasidagi maksimal bosim, MPa; σ_s – tog‘ jinsining siqilishga bo‘lgan mustahkamlik chegarasi, MPa (masalan, ohaktosh uchun σ_s = 60 -120 MPa); H - bronya materialining qattiqligi, HB; t – bronyaning ish vaqti, soat; k - koeffitsient.

Konusli bronyalar uchun yeyilishni kamaytirish omillari:

1. Donadorlik tarkibi: Agar maydalagichga kirayotgan tog‘ jinsi tarkibida 0-5 mm gacha bo‘lgan "mayda" toshlar ko‘p bo‘lsa, u bronyaning yeyilishini keskin tezlashtiradi. Uni oldindan elab olinsa bronyaning yeyilishini kamaytiradi va maydalagichning ush unumdorligini oshiradi.
2. Siqish darajasi: Nisbatan yumshoqroq tog‘ jinsini maydalashda, maydalash kamerasining pastki qismida material "zichlanib" qoladi. Shuni hisobga olib, ichki konus konstruktsiyasini takomillashtirishda maydalangan chaqiq toshni chiqarish zonasi burchagini optimallashtirish bronyaning ush resursini 15-20% ga oshiradi.

Konusli maydalagichlarda (KSD/KMD) konuslarning yeyilishi natijasida chiqarish tirqishi (b) kengayib ketadi, bu esa tayyor mahsulot sifatining pasayishiga va maydalash darajasining kamayishiga olib keladi. Quyida konuslarning yeyilishini hisobga olgan holda chiqarish tirqishini sozlashning metodikasi keltirilgan: Konuslarning radial yeyilishi vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi. Ushbu yeyilish oqibatida maydalagichning chiqarish tirqishi ham ortib boradi. Chiqarish tirqishining haqiqiy qiymatini quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$b_{haq} = b_{nom} + (\delta_t + \delta_{ich})$$

bunda:b_{haq} - haqiqiy (kengaygan) tirqish; b_{nom} - nominal (sozlangan) tirqish; δ_t - tashqi konus futirovkasining yeyilish miqdori; δ_{ich} - ichki harakat-lanuvchi konus futirovkasining yeyilish miqdori.

Hozirgi zamonaviy sharoitda yeyilishni ikki xil usulda aniqlash mumkin.

1. Maydalagichning o‘rnatish halqasining aylanishlar soni yoki uning pastga qarab siljish masofasini o‘lchash usuli.
2. To‘xtash vaqtida maxsus namuna yordamida tirqishni o‘lchash.

Yeyilishni qoplash uchun tashqi konusni pastga tushirish (burash) kerak. Bunda har bir sozlash qadami (S) quyidagicha hisoblanadi:

$$S = \frac{\Delta b}{sin\alpha}$$

bunda Δb - yeyilishni qoplash uchun kerak bo‘lgan masofa; α - konusning qiyalik burchagi.

Natijalar. Hozirgi zamonaviy sharoitda chiqarish tirqishini sozlashda avtomatlashtirilgan tizimni qo‘llash mumkin. Bunda eng qulay tizim Gidravlik sozlash mexanizmi hisoblanadi. Tizim quyidagicha ishlaydi: Maxsus joylarga o‘rnatilgan datchiklar dvigatelning quvvatini (tok kuchini) va tayyor mahsulotning fraksiyasini nazorat qiladi. Agar mahsulot yiriklashib ketsa va dvigatelning yuklanishi kamaysa, bu konuslar yeyilganidan dalolat beradi. Yeyilishni kompensatsiyalash uchun gidrotsilindrlar yordamida tashqi konusni avtomatik ravishda pastga burab, tirqishni b_{nom} qiymatiga qaytariladi.

Konuslarning yeyilishi kritik nuqtaga (odatda boshlang‘ich qalinlikning 60-70% qismiga) yetganda, sozlash to‘xtatiladi va futirovka yangisiga almashtiriladi.

Ma’lumki, chaqiq tosh ishlab chiqarishda tayyor mahsulotning sifati chegaraviy o‘lchamdan yirik chaqiq toshlarning miqdori umumiy miqdorga nisbatan 10% dan ortmasligi sharti asosida belgilanadi. Ushbu sifat chegarasi (chegaraviy o‘lchamdan yirik chaqiq toshlarning miqdori umumiy miqdorga nisbatan 10% dan ortmasligi) va resurs chegarasi (70% gacha yeyilish)

shartlar asosida chiqarish tirqishini sozlash vaqtini va sozlashlar sonini aniqlash metodikasini ishlab chiqamiz.

Chaqiq toshni chiqarish tirqishini sozlash vaqti va sonini aniqlash

Yuqoridagi shartlar asosida sozlashlar oralig‘idagi maksimal yeyilish miqdori Δδ quyidagicha aniqlanadi. Bunda tayyor mahsulot o‘lchami D_{max} chiqarish tirqishining o‘lchami b bilan bog‘liq. Agar ruxsat etilgan o‘lcham 10% dan oshmasligi kerak bo‘lsa, demak, tirqishning kengayishi ham shu chegarada bo‘lishi shart:

$$\Delta\delta = 0{,}10 \cdot b_{nom}$$

Bu har safar konuslar yeyilishi oqibatida tirqishni kengayishi natijasida chegaradan yirik chaqiq toshlarning miqdori umumiy ishlab chiqarilgan chaqiq toshlar miqdoriga nisbatan 10% ga etganda tirqishning o‘lchami sozlanishi kerakligini bildiradi.

Endi ikkinchi shart asosida jami sozlashlar sonini aniqlaymiz.

Tashqi va ichki futirovkalarning umumiy ishchi qalinligi H ga teng va ularning 70% qismi yeyilishi mumkin deb olsak, u holda jami ruxsat etilgan yeyilish miqdori:

$$\delta_{jami} = 0{,}70 \cdot H$$

Ushbu ifodani hisobga olgan holda jami sozlashlar sonini quyidagi formula orqali aniqlaymiz:

$$N = \frac{\delta_{jami}}{\Delta\delta_{max}} = \frac{0{,}70 \cdot H}{0{,}10 \cdot b_{nom}} = 7 \cdot \frac{H}{b_{nom}}$$

Masalan: Agar futirovka qalinligi H = 120 mm, nominal tirqish b_{nom} = 40 mm bo‘lsa:

$$N = 7 \cdot \frac{H}{b_{nom}} = 7 \cdot \frac{120}{40} = 21\ marta$$

Demak, ushbu detal butun xizmat muddati davomida 21 marta sozlanishi kerak ekan.

Sozlashlar oralig‘idagi vaqt (T_{int}) ni aniqlash.

Har bir sozlash qachon amalga oshirilishini bilish uchun materialning yeyilish tezligi yoki jadalligini υ_y bilish kerak (mm/soat yoki mm/tonna):

$$T_{int} = \frac{\Delta\delta_{max}}{\upsilon_y}$$

Umumiy holda yuqoridagilardan maydalagichning chiqarish tirqishi nominal qiymatdan 10% ga ortishi bilan (ya'ni δ = 0.1b_{nom} bo‘lganda) sozlash amalga oshiriladi, bunda har safar tashqi konus $S = 0{,}1 \cdot b_{nom}/Sin\alpha$ masofaga suriladi, konusli tashqi va ichki bronyalarning

umumiy yeyilishi chegaraviy miqdorga etgunga qadar sozlashlarning umumiy soni N ga yetganda yoki umumiy qalinlik 70% gacha kamayganda, konuslarni almashtirish vaqti etib kelgan degan xulosalar kelib chiqadi.

Konusli maydalagichlarning ishchi yuzalari yeyilishini dinamik model asosida bashorat qilish metodikasi ishlab chiqildi. Unda birinchi marta tayyor mahsulot sifatining ruxsat etilgan og‘ishi (10%) va futirovka resursining kritik chegarasi (70%) o‘rtasidagi funksional bog‘liqlik matematik asoslandi.

Xulosa. Statik yuklama ostida ishlovchi Z-simon payvand birikmalarining mustahkamlik hisobi maydalash qurilmalarining ishonchliligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hisoblash natijalari payvand chokida hosil bo‘ladigan haqiqiy qirqilish kuchlanishini ruxsat etilgan qiymatlar bilan solishtirish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida payvand chokining uzunligi, kateti va choklar soni ortishi bilan birikmaning yuk ko‘tarish qobiliyati oshishi aniqlanadi. Shu bilan birga, maksimal bosim kuchining ortishi payvand chokidagi kuchlanishning ko‘payishiga olib keladi.

Natijada maydalash kamerasi segmentlarida qo‘llaniladigan payvand birikmalarining optimal parametrlarini tanlash orqali konsturksiyasining mustahkamligi, ishlash ishonchliligi va xizmat muddati sezilarli darajada oshirilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Андреев С.Е., Зверевич В.В., Перов В.А. Дробление, измельчение и грохочение полезных ископаемых. М.: Недра, 1980. 415 с.
2. Wills B.A., Finch J.A. Wills' Mineral Processing Technology. 8th ed. Oxford: Butterworth-Heinemann, 2015. 512 p.
3. UZ IAP 8136 Inertsiyali konusli maydalagich. Zo‘xriddinov D.K.; Zuxritdinov A.F.; Ruziyev A.У.; Mahammadjonov N.A.; Qosimov K.Z.; Yo‘ldashev Sh.X. **2025y**
4. Перов В.А. Андреев Е.Е., Биленко Л.Ф., Дробление, измельчение и грохочение полезных ископаемых: Учеб. Пособие для вузов.-Москва: Недра 1990.- 301 с.
5. Клушанцев, Б. В., Косарев, А. И., Муйземнек, Ю. А. Дробилки. Конструкция, расчет и особенности эксплуатации. – Москва: Машиностроение, 1990. – 320 с.
6. Zuxritdinov A., Zukhriddinov D., Mahammadjonov N. Results of the study on the wear resistance of stone crusher working parts. International bulletin of applied science and technology journal Volume 4, Issue 11, November 2024.
7. Абдуллаев А.А. ва бошқалар. Майдалаш агрегатларининг ишчи органлари ейилишини камайтириш усуллари // Ўзбекистон кончилик хабарномаси. – Навоий, 2021. №3.
8. Исмаилов М.Т. Конусная дробилка: оптимизация параметров и износостойкость // Техника ва технологиялар журнали. – Тошкент, 2023.
9. Metso Outotec. Rock processing solutions and crusher optimization. [Elektron resurs]: metso.com.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladigan mahsulotni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida. 1999-yil 5-fevral, 54-son. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.
11. Караматов А.С., Атакулов Л.Н. Конусли майдалагичлар деталларининг ейилиш таҳлили ва уларнинг ресурсини ошириш йўллари // "Тоғ-кон хабарномаси". – Навоий, 2024.
12. Пивняк Г.Г. и другие. Транспортировка и переработка полезних ископаемих. – Днепр: НГУ, 2015. – 450 б.
13. Metso Outotec. Global Aggregates Handbook: Crushing and Screening. – Helsinki: Metso Corporation, 2021.
14. Auezova M.M. Iqtisodiy samaradorlikni hisoblash metodikasi: O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: TDTU, 2020. – 120 b.
15. Донченко А.С., Донченко В.А. Эксплуатация и ремонт дробильного оборудования. Москва: Недра, 1972.-320 с.
16. Справочник (кадастр) физических свойств горных пород. Под ред. Н.В.Мельникова, В.В. Ржевского, М.М. Протодъяконова. Москва: Недра, 1975.-279 с.

UO‘T: 629.331:502.131.1

ELEKTR VA GIBRID AVTOMOBILLAR YORDAMIDA AVTOTRANSPORT VOSITALARINING ATROF-MUHITGA SALBIY TA’SIRINI KAMAYTIRISH ISTIQBOLLARI

Jo‘rayev Voxidjon Islomjon o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti
“Transport logistikasi” kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada elektr va gibrid avtomobillari texnologiyalarini joriy etish orqali avtotransport vositalaridan chiqadigan zararli chiqindilarni kamaytirish imkoniyatlari va istiqbollari o‘rganilgan. Jahon miqyosidagi statistik ma‘lu‘motlar, O‘zbekiston Respublikasining ekologik holati va davlat dasturlari tahlil qilingan. Elektr, gibrid va vodorod bilan ishlaydigan transport vositalarining ekologik va iqtisodiy samaradorligi qiyosiy tahlil qilib berilgan. Maqolada transport sohasi uchun taklif etilayotgan innovatsion yechimlar va ularning joriy etilishi bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются возможности и перспективы снижения вредных выбросов автотранспортных средств за счет внедрения технологий электрических и гибридных автомобилей. Проанализированы статистические данные мирового уровня, экологическая ситуация и государственные программы Республики Узбекистан. Проведен сравнительный анализ экологической и экономической эффективности транспортных средств, работающих на электричестве, гибриде и водороде. В статье изложены предлагаемые инновационные решения для транспортной отрасли и научно-практические рекомендации по их внедрению.

Abstract. This article examines the possibilities and prospects for reducing harmful emissions from motor vehicles through the implementation of electric and hybrid vehicle technologies. Global statistical data, the environmental situation of the Republic of Uzbekistan, and state programs have been analyzed. A comparative analysis of the environmental and economic efficiency of electric, hybrid, and hydrogen-powered vehicles is provided. The article outlines innovative solutions proposed for the transport sector and scientific-practical recommendations for their implementation.

Kalit so‘zlar: elektromobil, gibrid avtomobil, vodorod yonilg‘isi, chiqindi gazlar, ekologik xavfsizlik, barqaror transport, CO_2 emissiyasi, avtomobil sanoati, yashil texnologiyalar, iqlim o‘zgarishi.

Ключевые слова: электромобиль, гибридный автомобиль, водородное топливо, выбросы, экологическая безопасность, устойчивый транспорт, выбросы CO2, автомобильная промышленность, зеленые технологии, изменение климата.

Keywords: electric car, hybrid car, hydrogen fuel, exhaust gases, environmental safety, sustainable transport, CO2 emissions, automotive industry, green technologies, climate change.

KIRISH

Zamonaviy dunyo iqtisodiyotida transport sohasi muhim o‘rin tutadi. Biroq, bu soha ayni paytda global ekologik muammolarning asosiy manbaiga aylanib bormoqda. Jahon Sog‘Liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ma‘lu‘motlariga ko‘ra, havo ifloslanishi har yili 7 million kishining muddatidan oldin vafot etishiga sabab bo‘ladi, ularning katta qismi transport chiqindilari ta‘sirida bo‘ladi [1].

O‘zbekistonda ham bu muammo o‘tkir shaklda namoyon bo‘lmoqda. Davlat Statistika Qo‘mitasi ma‘lu‘motlariga ko‘ra, 2023-yil holatiga ko‘ra mamlakatda 4,2 milliondan ortiq avtomobil ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich yildan-yilga 8-12% ga o‘sib bormoqda.

Toshkent, Samarqand va Andijon kabi yirik shaharlarda atmosfera havosinidagi zararli moddalar kontsentratsiyasi ruxsat etilgan me‘yordan 2-3 barobar oshib ketmoqda [2].

Bunday sharoitda transport vositalarining ekologik xavfsizligini ta‘minlash, jumladan, elektr va gibrid texnologiyalarini keng joriy etish davr talabiga aylanib qolmoqda. Mazkur maqolada ana shu muammoning ilmiy-amaliy yechimlariga qaratilgan tadqiqotlar natijasi bayon etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Avtotransport vositalaridan chiqadigan asosiy zararli moddalar qatoriga uglerod oksidi (CO), azot oksidlari (NOx), uglevodorodlar (CH), qo‘rg‘oshinli birikmalar va mayda chang zarralari (PM2.5, PM10) kiradi. Bu moddalarning insoн salomatligi va ekotizimga ta‘siri ilmiy jihatdan to‘liq isbotlangan [3].

1-jadval. Turli transport vositalaridan chiqadigan asosiy zararli gazlar miqdori (g/km)

Transport turi	CO (g/km)	NOx (g/km)	PM2.5 (g/km)	CO_2 (g/km)
Benzinli avtomobil (EVRO-2)	2.72	0.25	0.05	185
Benzinli avtomobil (EVRO-5)	1.00	0.06	0.005	140
Dizel avtomobil (EVRO-5)	0.50	0.18	0.005	125
Gibrid avtomobil	0.60	0.04	0.002	90
Elektromobil (o‘rtacha)	0.00	0.00	0.000	0 (to‘g‘ridan-to‘g‘ri)
Vodorodli avtomobil	0.00	0.00	0.000	0

Manba: Yevropa Atrof-Muhit Agentligi (EEA), 2023.

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, elektr va vodorodli transport vositalaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri atmosferaga hech qanday zararli gaz chiqmaydi. Gibrid avtomobillar esa konvensional yonilg‘ili transport bilan solishtirganda CO_2 emissiyasini 35-45% ga kamaytirish imkonini beradi [4].

Dunyo miqyosida elektromobil sotuvi jadal sur‘atda o‘smoqda. Xalqaro Energetika Agentligi (XEA) ma‘lu‘motlariga ko‘ra, 2023-yilda jahon bo‘lab 14 million elektromobil sotilgan va umumiy elektromobil parki 40 million donadan oshgan. Xitoy (60%), Yevropa (25%) va AQSh (10%) bu borada etakchi o‘rinlarda turadi.

NATIJALAR

Elektromobil (EV) to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqindi gaz ishlab chiqarmaydi. Biroq, elektr energiyasini ishlab chiqarish manbaiga qarab, ularning umumiy uglerod izi farq qiladi. O‘zbekistonda elektr energiyasining asosiy qismi tabiiy gaz yordamida ishlab chiqariladi. Shu sababli, elektromobilning umumiy CO_2 izi hozirda konvensional avtomobilnikidan taxminan 30-40% past bo‘lib, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi oshishi bilan bu ko‘rsatkich yanada yaxshilanishi kutilmoqda.

2-jadval. Elektromobil va benzinli avtomobil hayot siklida CO_2 emissiyasi taqqosi (tonna CO_2, 150,000 km)

Ko‘rsatkich	Benzinli avtomobil	Elektromobil (hozirgi tarmoq)	Elektromobil (100% QTE)
Ishlab chiqarish	6.0 t	10.5 t	8.0 t

bosqichi			
Ekspluatatsiya bosqichi	32.0 t	12.0 t	0.0 t
Jami hayot sikli	38.0 t	22.5 t	8.0 t
Tejam (benzinli bilan solishtirganda)	—	40.8%	78.9%

Manba: Transport & Environment tashkiloti, 2023. QTE — Qayta tiklanuvchi energiya.

O‘zbekistonda elektromobillar sohasidagi holat

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-noyabrdagi PQ-5285-sonli Qaroriga muvofiq, mamlakatda elektromobillarni ishlab chiqarish va import qilishni rag‘batlantirish bo‘yicha bir qator imtiyozlar joriy etilgan. Jumladan, elektromobillarga QQS va boj solig‘i bo‘yicha imtiyozlar berilgan.

General Motors (GM) va O‘zavtosanoat hamkorligida tashkil etilgan UzAuto Motors korxonasida Chevrolet Equinox EV modelini O‘zbekistonda ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilmoqda. 2025-yildan boshlab yiliga 10,000 dona elektromobil ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

3-jadval. O‘zbekistonda elektromobil parki dinamikasi (2020–2024)

Yil	**Jami avtomobil parki**	**Elektromobil soni**	**Ulushi (%)**
2020	3,850,000	1,200	0.03
2021	4,010,000	3,400	0.08
2022	4,140,000	8,700	0.21
2023	4,250,000	21,500	0.51
2024 (prognoz)	4,400,000	45,000	1.02

Manba: O‘zbekiston Davlat Statistika Qo‘mitasi, 2024.

Gibrid texnologiyalar va ularning ahamiyati

Gibrid avtomobillar ichki yonuv dvigateli va elektr motorini bir vaqtda ishlatadi. Bu texnologiya ayniqsa shahar sharoitida samarali bo‘lib, tormozlashda kinetik energiyani elektr energiyasiga aylantirish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gibrid avtomobillar shahar siklidagi yonilg‘i sarfini 30-50% ga, emissiyani esa 35-45% ga kamaytiradi.

Parallel gibrid sistemada benzin dvigateli va elektr motori bir vaqtda yoki alohida ishlashi mumkin. Toyota Prius ushbu texnologiyaning eng keng tarqalgan namunasi hisoblanib, hozirda dunyo bo‘lab 20 million donadan ortiq sotilgan. Ketma-ket (seriya) gibrid sistemasida esa to‘liq elektr motor xarakatlanishni ta‘minlaydi, ICE esa faqat generator sifatida ishlatiladi .

Vodorodli transport vositalari

Vodorod yonilg‘i hujayralari (Fuel Cell EV, FCEV) texnologiyasi transport emissiyasini yo‘q qilishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Vodorod va kislorodni kimyoviy reaktsiya orqali birlashtirish natijasida elektr energiyasi hosil bo‘lib, chiqindi sifatida faqat suv bug‘i ajralib chiqadi.

Hozirda Toyota Mirai (2-avlod, 650 km yurish masofasi), Hyundai Nexo (609 km) kabi modellar seriyali ishlab chiqarilmoqda. Asosiy muammo vodorodning qimmat narxi va yetarli infratuzilmaning yo‘lligidir. 2030-yilga kelib yashil vodorod narxi 1.5 AQSh dollari/kg ga tushishi prognoz qilinmoqda.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, transport vositalarining ekologik samaradorligini oshirish uchun ko‘p yo‘nalishli yondashuv zarur. Faqatgina transport texnologiyalarini yangilash emas, balki quyidagi omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi:

Elektr energiyasini qayta tiklanuvchi manbalar (quyosh, shamol) hisobiga ishlab chiqarish ulushini oshirish;

Shahar jamoat transportini elektrlashtirish (avtobus, tramvay, metro);

Elektromobil zaryadlash infratuzilmasini kengaytirish;

Eski va yuqori chiqindili transport vositalarini parklardan chiqarib yuborish uchun iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish;

Aholining ekologik madaniyatini oshirish va noan‘anaviy transport vositalaridan foydalanishni rag‘batlantirish.

O‘zbekistonning 2030-yilga qadar barqaror rivojlanish strategiyasida transport sektori emissiyasini 2010-yilga nisbatan 30% ga kamaytirish maqsad qilib belgilangan. Bunga erishish uchun 2030-yilgacha mamlakatdagi yangi ro‘yxatdan o‘tayotgan avtomobillarning 15% ini elektromobillar tashkil etishi zarur.

Markaziy Osiyo mintaqasida O‘zbekiston bu yo‘nalishda etakchi o‘rinni egallash imkoniyatiga ega, chunki quyosh energiyasi resurslari yiliga 2700-3000 soatdan ortiq insolyatsiya bilan eng yuqori darajada. Bu esa elektr energiyasini arzon va ekologik toza manbalar hisobiga ishlab chiqarish va elektromobillarga yo‘naltirish imkonini beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda ushbu maqolada quydagi tadqiqot asosida avtotransport vositalaridan chiqadigan zararli emissiyani kamaytirish uchun elektr, gibrid va vodorodli texnologiyalar eng samarali yechim hisoblanadi. Elektromobillar hayot siklida benzinli avtomobilga nisbatan CO_2 emissiyasini 41-79% ga kamaytiradi.

O‘zbekistonda elektromobil parki 2020-2024-yillar oralig‘ida 37 barobar o‘sdi. Biroq, ularning umumiy transport parkidagi ulushi hali juda past (1% dan kam) bo‘lib, jadal rivojlantirish zaruriyati mavjud.

Gibrid avtomobillar qisqa muddatda keng joriy etish uchun optimal yechim bo‘lib, ularni texnik xizmatlash infratuzilmasi mavjud va yonilg‘i sarfi hamda emissiyani sezilarli kamaytirish imkonini beradi.

Davlat siyosati darajasida elektromobillar uchun soliq imtiyozlari, zaryadlash infratuzilmasini rivojlantirish va qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish kompleks tarzda amalga oshirilishi lozim.

O‘zbekiston‘ning boy quyosh energiyasi resurslari elektr energiyasini arzon va ekologik toza ishlab chiqarish hamda transport sektorini elektrlashtirish uchun katta imkoniyat yaratadi.

ADABIYOTLAR

1.Omonov FA, Jorayev VI PROBLEMS AND CAUSING FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF FERGANA CITY PUBLIC TRANSPORT //European Journal of Emerging Technology and Discoveries. – 2023. – T. 1. – No. 2. – pp. 72-75.

2.Islomjon o‘g JV et al. CONVENIENCES CREATED TO PASSENGERS WHEN USING PUBLIC TRANSPORT SERVICES //Education news: research in the 21st century. – 2023. – T. 2. – No. 14. – pp. 138-146.

3.Islomjon o‘g QK va boshqalar. AVTOBUS PARKINI ISHLATISHDA MODDIY RESURSLAR SARFINI STAVKALASH METODIKASI //Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlanish istiqbollari. – 2023. – T. 1. – Yo‘q. 1. – 266-267-betlar.

4.Ikromov N. va boshqalar. Transport va uning yuk jarayonlarini tahlil qilish // E3S Web of Conferences. – EDP fanlari, 2024. – T. 548. – B. 03021.

UO‘T: 629.114.4:621.86

HOZIRGI VAQTDA ISHLAB CHIQARILAYOTGAN TIRKAMALAR KO‘TARIB-AG‘DARISH QURILMALARINING UMUMIY TAHLILI

Jo‘rayev Voxidjon Islomjon o‘g‘li,
Andijon Davlat Texnika Instituti, “Transport logistikasi” kafedrasi assistenti
ORCID: 0009-0009-1878-410X
e-mail: vohidjonjorayev95@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi vaqtda ishlab chiqarilayotgan tirkamalarning ko‘tarib-ag‘darish qurilmalari konstruktiv tuzilishi, ishlash printsipi va ularning asosiy texnologik parametrlari o‘rganiladi. Gidravlik, pnevmatik va mexanik tizimli tirkamalarning afzallik va kamchiliklari tahlil qilinadi. Zamonaviy ko‘tarib-ag‘darish qurilmalarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va xulosalar beriladi. Tirkamalarning ishonchliligi, samaradorligi va xavfsizligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Аннотация. В данной статье изучаются конструктивное устройство, принцип работы и основные технологические параметры подъемно-опрокидывающих устройств прицепов, производимых в настоящее время. Проанализированы преимущества и недостатки прицепов с гидравлической, пневматической и механической системами. Даны предложения и выводы по совершенствованию современных подъемно-опрокидывающих устройств. Особое внимание уделено вопросам повышения надежности, эффективности и безопасности прицепов.

Abstract. This article examines the structural design, operating principle, and main technological parameters of lifting and tilting devices for trailers currently in production. The advantages and disadvantages of trailers with hydraulic, pneumatic, and mechanical systems are analyzed. Proposals and conclusions are provided for the improvement of modern lifting and overturning devices. Particular attention is paid to improving the reliability, efficiency, and safety of trailers.

Kalit so‘zlar: tirkama, ko‘tarib-ag‘darish qurilmasi, gidravlik silindr, pnevmatik tizim, mexanik uzatma, samosvol tirkama, yuk tashish.

Ключевые слова: прицеп, подъёмно-опрокидывающее устройство, гидравлический цилиндр, пневматическая система, механическая передача, самосвальный прицеп, грузоперевозки.

Keywords: trailer, tipping device, hydraulic cylinder, pneumatic system, mechanical transmission, dump trailer, cargo transportation.

Kirish

Qishloq xo‘jaligi, qurilish va sanoat sohalarida yuk tashishning samaradorligini oshirish davlat ahamiyatiga ega vazifa bo‘lib, bu borada tirkamalar muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy ishlab chiqarishda ko‘tarib-ag‘darish qurilmalari (KAQ) yuk tushirish operatsiyalarini tezlashtirish va mehnat unumdorligini oshirish uchun keng qo‘llaniladi. Tirkamalariga o‘rnatilgan ushbu qurilmalar mexaniklashtirishni yuksaltirish, ishchilar mehnatini engillashtirishga va transport vositalarini ishlatish xarajatlarini kamaytirishga imkon beradi.

O‘zbekiston Respublikasida transport tarmog‘ini rivojlantirish strategiyasi doirasida mahalliy ishlab chiqaruvchilar va xorijiy kompaniyalarning tirkama texnikalariga bo‘lgan talab yildan-yilga ortib bormoqda. Biroq ko‘tarib-ag‘darish qurilmalarining konstruktiv takomillashuvi, ishonchlilik va xavfsizlik parametrlari doimiy tadqiqot va tahlilni talab etadi. Mazkur maqola ushbu dolzarb muammolarni hal etishga qaratilgan.

Metodologiya

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi: mavjud adabiyotlar va texnik hujjatlarni tanqidiy tahlil qilish;tirkamalar ko‘tarib-ag‘darish qurilmalarini konstruktiv-tasnifiy qiyoslash; nazariy hisob-kitoblar va amaliy sinovlar natijalarini umumlashtirish. Tadqiqot ob'ekti sifatida Belarus, Xitoy, Germaniya va Rossiya ishlab chiqaruvchilarining eng ko‘p tarqalgan tirkama modellari (TPA-6, PTS-12, NTS-16, Fliegl ASS 298 va boshqalar) tanlab olindi.

Natijalar va muhokamalar

Ko‘tarib-ag‘darish qurilmalari (KAQ) ishlatiladigan energiya manbai va konstruktiv xususiyatlariga ko‘ra uch asosiy guruhga bo‘linadi: gidravlik, pnevmatik va mexanik tizimli KAQ lar. Har bir tip o‘ziga xos ishlash printsipi, texnik parametrlari va qo‘llanilish sohasiga ega.

1-jadval. Ko‘tarib-ag‘darish qurilmalarining asosiy tasnifi

Tizim turi	Ishlash printsipi	Afzalliklari	Kamchiliklari
Gidravlik	Gidrosilindrlar orqali kuzov ko‘tariladi	Yuqori kuch, silliiq harakat, ishonchlilik	Murakkab ta'mirlash, past haroratda muammolar
Pnevmatik	Siqilgan havo orqali ishga tushiriladi	Tez ishlash, arzon xizmat ko‘rsatish	Past kuch, ortiqcha vazn
Mexanik	Reduktor va tishli g‘ildirakli tizim	Oddiy konstruktsiya, arzon narx	Kam avtomatlashgan, og‘ir mehnat

Gidravlik ko‘tarib-ag‘darish qurilmalari

Gidravlik KAQ lar zamonaviy tirkamalariga eng keng tarqalgan tur hisoblanadi. Tirkamaga o‘rnatilgan gidravlik nasos traktorning kardanli vali yoki traktor gidrosistemadan ishga tushiriladi. Asosiy ishchi element bo‘lgan gidrosilindrlar teleskopik yoki bir shtokli turda bo‘lishi mumkin. Teleskopik gidrosilindrlar kuzov ko‘tarilish balandligini ko‘paytirish uchun ishlatiladi va asosan 8–16 tonnali yuk sig‘imli tirkamalariga qo‘llaniladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, gidravlik KAQ larning eng muhim texnik parametrlari quyidagilardan iborat: ishchi bosim — 16–25 MPa; silindr ko‘tarish kuchi — 50–200 kN; kuzov ko‘tarilish burchagi — 45–55°; kuzov ko‘tarilish vaqti — 25–45 sek. Ushbu parametrlar tirkama modeliga va ishlab chiqaruvchiga qarab farq qiladi. Masalan, Fliegl ASS 298 modelida ishchi bosim 20 MPa va kuzov ko‘tarish vaqti 30 sekundni tashkil etadi.

Zamonaviy tirkamalarning texnik parametrlari tahlili

Turli ishlab chiqaruvchilarning tirkamalarini tahlil qilish natijasida ularning asosiy texnik parametrlari 2-jadvalda umumlashtirildi. Ushbu ma'lumotlar tirkama konstruktorlari va iste'molchilar uchun muhim qiyosiy manba hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda tirkamalar va ularning ko‘tarib-ag’darish qurilmasini konstruktiv, kinematik, statik va dinamik parametrlarini o‘rganish va hisoblash uchun turli analitik bog’lanishlar, modellar va uslublar ishlab chiqilgan.

Tirkamalar ko‘tarib-ag’darish qurilmalarining muqobil parametrlarini aniqlashda mavjud hisob usullarining tahlili ularning alohida qismlari uchun matematik modellar tuzilgani va analitik usullarda yechilgani, lekin tirkamalar ko‘tarib-ag’darish qurilmasining muqobil parametrlarini yuklar va ularning to‘kilish turlariga bog’liq holda EHM dan foydalanib, kompleks hisoblash uslubi ishlab chiqilmaganini ko‘rsatdi [1]. Bu holat mamlakatimizda tirkamalarning muqobil konstruktsiyalarini loyihalash, yangi, raqobatbardosh tirkamalar ishlab chiqarish va sinovdan o‘tkazish shuningdek, mavjud ishlab chiqarilayotgan tirkamalarni mahalliylashtirishda muayyan qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Quvvat, material va moy sarflari me’yorlaridan oqilona

foydalanish imkoniyatini bermaydi. Mahsulot ishlab chiqarishni seriyalash, ish unumdorligini oshirish, sifatini yaxshilash va tannarxini kamaytirishga to‘sqinlik qiladi.

Loyihalash ishlarida duch keladigan asosiy muammolardan yana biri ko‘plab masalalarni analitik usullar bilan yechishni iloji bo‘lmaydi, tajriba yo‘li bilan yechish esa, ko‘p vaqt va harajatlarni talab etadi. Bunday holatda jarayonni kompьyuterda modellashtirish, ya’ni jarayonning parametrlariga turli qiymatlar berib, pirovard natijani tahlil qilish usuli yordamga keladi. Bu usul hozirgi vaqtda fan va texnikaning hamma sohalarida qo‘llaniladi [2, 5]. Kompьyuterda modellashtirish jarayonni ishlashini oldindan bilish imkonini beradi va natijada ko‘plab harajatlar hamda xatolarning oldi olinadi.

Texnika taraqqiyoti jadal sur’atlar bilan o‘sib borayotgan hozirgi paytda transport tirkamalarining ko‘tarib-ag’darish qurilmasini mukammal loyihasini barpo etish uchun uning ishiga bog’liq bo‘lgan barcha omillar va shart-sharoitlarini hisobga olib, har tomonlama asoslangan parametrlarini belgilash, yuk ko‘taruvchanligi yuqori va material sarfi kam bo‘lgan, yangi transport tirkamalarini ishlab chiqarish hozirgi vaqtning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

2-jadval. Zamonaviy tirkamalarning texnik parametrlari

Tirkama modeli	Yuk ko‘t. (t)	Kuzov (°)	Bosim (MPa)	Ko‘tarish (sek)	Tizim turi
TPA-6 (Belarus)	6	45	16	35	Gidravlik
PTS-12 (Rossiya)	12	50	20	40	Gidravlik
NTS-16 (Xitoy)	16	52	22	45	Gidravlik
Fliegl ASS 298	18	55	25	30	Gidravlik
Wielton NS3 W	24	50	25	28	Gidravlik
PSE-12 (Rossiya)	12	48	18	50	Pnevmatik

Xavfsizlik va ishonchlilik tahlili

Ko‘tarib-ag‘darish qurilmalarida xavfsizlikni ta'minlash eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tirkamalaridagi texnologik buzilishlarning 38% gidravlik tizim muammolari, 27% mexanik elementlarning eskirиши va 19% noto‘g‘ri foydalanish natijasida yuzaga keladi. Qolgan 16% elektr va boshqaruv tizimlaridagi nosozliklarga to‘g‘ri keladi.

Ishonchlilikni oshirish maqsadida zamonaviy tirkamalariga avariyaga qarshi bloklash tizimlari, kuzov qo‘ltiq tiraklari va gidravlik tizimni himoyalaydigan bosimni chegaralovchi klapanlar o‘rnatilmoqda. Evropa ishlab chiqaruvchilari (Fliegl, Wielton, Schwarzmuller) xavfsizlik standartlari bo‘yicha ISO 9001 va EN 12195 talablariga muvofiq mahsulot chiqarishi ularning raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi.

O‘zbekiston sharoitida tirkamalardan foydalanishda issiq iqlim (55°C gacha) va changli muhit gidravlik tizim zichligiga alohida talablar qo‘yadi. Gidravlik moyning isrof bo‘lishi va chang filtrlarining tez zasorlanishi mahalliy foydalanuvchilarning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Xulosa

Mazkur maqolada mavjud mahalliy va horijda ishlab chiqarilayotgan tirkamalar ko‘tarib-ag’darish qurilmalari konstruktsiyasi, ko‘tarish mexanizmi, gidravlik yuritmasi xamda ko‘tarib-ag’darish qurilmasining hisoblash uslublari tahlilidan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Mahalliy va xorijiy korxonalarda ishlab chiqarilayotgan tirkamalar ko‘tarib-ag’darish qurilmalarining konstruktsiyalari va ishlash jarayonlarini tahlil qilish natijasida, mahalliy loyihalanayotgan TTZ 8526 markali kuzovlari almashinuvchi, universal shassili, hajmi va yuk ko‘taruvchanligi oshirilgan tirkamalar ko‘tarib-ag’darish qurilmasining parametrlarini asoslash hamda ularning konstruktsiyalarini ishlab chiqish zaruriyati ko‘rsatildi [6].
2. Tirkamalar ko‘tarib-ag’darish qurilmalarining konstruktorlik-loyihalash ishlarida kompьyuter texnologiyalaridan foydalanish, ularni ishlatishda ta’sir etadigan turli xil omillarni, hisobga olib, kompleks o‘rganish imkoniyatini beradi. Hozirgi vaqtda tirkamalariga gidravlik KAQ lar eng keng tarqalgan tur bo‘lib (barcha ishlab chiqarilayotgan tirkamalarning 72% dan ortig‘i), ular yuqori kuch, moslashuvchanlik va ishonchlilik jihatidan ustunlikka ega [7].
3. Zamonaviy tirkamalariga elektrogidravlik va avtomatik boshqaruv tizimlarini joriy etish tendensiyasi kuchaymoqda va bu ekspluatatsiya xarajatlarini 15–20% kamaytirishga imkon beradi [8].
4. Xavfsizlikni ta'minlashda avariyaga qarshi bloklash tizimlari va bosim chegaralovchi klapanlar o‘rnatish majburiy talab sifatida belgilanishi lozim.
5. O‘zbekiston sharoitida foydalaniladigan tirkamalarning gidravlik tizimlari issiq iqlim va changli muhitga moslashgan materiallar va zichlagichlar bilan ta'minlanishi zarur.
6. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar Evropa standartlari (ISO 9001, EN 12195) talablarini inobatga olgan holda yangi avlod tirkamalarini yaratish bo‘yicha tadqiqotlarni rivojlantirishi maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Байназаров Х.Р., Халмерзаев Қ. Тиркамалар кўтариб-ағдариш қурилмасининг иш жараёнига оид тадқиқот ишларининг тахлили // Илм- фан,таьлим ва ишлаб чиқаришнинг инновацион ривожлантиришдаги замонавий муаммолар мавзусидаги халқаро илмий-амалий конфереция материаллари тўплами. - Андижон, АндМИ, - 2020. – Б. 443-447.
2. Shermukhamedov A. A., Baynazarov H. R. Equations of changes in the resistance force in the working process of the unloading device of trailers // Scientific and technical journal machine building. – Andijan, 2021, №1, pp 45-51.
3. Shermukhamedov A. A., Baynazarov H. R. Experimental research of the hydraulic system of the unloading device of trailers // Scientific-technical journal. – Fergana, 2021, Vol. 4, Iss. 3, Article 6, pp 41-48.
4. Shermukhamedov A. A., Baynazarov H. R. Graphic-analytical method for calculating the distribution of forces over the frame in the working process of the unloading // Scientifi c-technical journal. – Fergana, 2021, Vol. 4, Iss. 2, Article 11, pp 79-86.
5. Shermukhamedov A.A., Baynazarov H.R. Equations for Changing the Centers of Gravity of Mass Goods in the Unloading Process in Trailers // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. – India, January 2021, Vol. 8, Issue 1, pp 16768-16472.
6. Шермухамедов А.А., Байназаров Х. Р. Тиркамалар кўтариб-ағдариш қурилмасининг иш жараёнида юк массасининг ўзгаришини математик моделлаштириш // Илмий техник журнал ФарПИ. – Фарғона, 2019, – №4 – С. 47-52.
7. Шермухамедов А.А., Байназаров Х. Р., Хакимов М. М. Тиркамалар кўтариб-ағдариш қурилмаси механик тизимининг ҳисоби // Илмий техник журнал НамМТИ. – Наманган, 2020, – ТОМ 5 – Маҳсус сон (2) – Б. 380-384
8. Шермухамедов А.А., Байназаров Х.Р. Тиркамалар кузовининг ағдариш бурчагини илмий асослаш // Илмий техник журнал ФарПИ. – Фарғона, 2020, – №2 – С. 56-61

UO‘T: 621.86:621.225

KO‘TARIB-AG‘DARISH MEXANIZIMLARI HISOBLASH USULLARI TAHLILI

Jo‘rayev Voxidjon Islomjon o‘g‘li
Andijon Davlat Texnika Instituti, “Transport logistikasi” kafedrasi assistenti
ORCID: 0009-0009-1878-410X
e-mail: vohidjonjorayev95@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi vaqtda ishlab chiqarilayotgan tirkamalarning ko‘tarib-ag‘darish qurilmalari konstruktiv tuzilishi, ishlash printsipi va ularning asosiy texnologik parametrlari o‘rganiladi. Gidravlik, pnevmatik va mexanik tizimli tirkamalarning afzallik va kamchiliklari tahlil qilinadi. Zamonaviy ko‘tarib-ag‘darish qurilmalarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va xulosalar beriladi. Tirkamalarning ishonchliligi, samaradorligi va xavfsizligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Аннотация. В данной статье изучаются конструктивное устройство, принцип работы и основные технологические параметры подъемно-опрокидывающих устройств прицепов, производимых в настоящее время. Проанализированы преимущества и недостатки прицепов с гидравлической, пневматической и механической системами. Даны предложения и выводы по совершенствованию современных подъемно-опрокидывающих устройств. Особое внимание уделено вопросам повышения надежности, эффективности и безопасности прицепов.

Abstract. This article examines the structural design, operating principle, and main technological parameters of lifting and tilting devices for trailers currently in production. The advantages and disadvantages of trailers with hydraulic, pneumatic, and mechanical systems are analyzed. Proposals and conclusions are provided for the improvement of modern lifting and overturning devices. Particular attention is paid to improving the reliability, efficiency, and safety of trailers.

Kalit so‘zlar: tirkama, ko‘tarib-ag‘darish qurilmasi, gidravlik silindr, pnevmatik tizim, mexanik uzatma, samosvol tirkama, yuk tashish.

Ключевые слова: прицеп, подъёмно-опрокидывающее устройство, гидравлический цилиндр, пневматическая система, механическая передача, самосвальный прицеп, грузоперевозки.

Keywords: trailer, tipping device, hydraulic cylinder, pneumatic system, mechanical transmission, dump trailer, cargo transportation.

Kirish

Xozirgi paytda dunyo bo‘ylab iqtisodiy va ekologik foydali bo‘lgan energiya resurslardan samarali foydalanish, ularni tejaydigan texnologiya va texnika vositalarini yaratish xamda ularni ishlab chiqarishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. «Agar dunyo bo‘yicha 4 mlrd. 889 mln gektar maydonga turli qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirilishini hisobga olsak», universal shassili almashinuvchi traktor tirkamasi kuzovlarini yaratish nihoyatda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan mahsulotlarning hilma hilligi va ularni tashishda noqulayliklar tufayli yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan bunday traktor tirkamasi kuzovlari real hayotda o‘z dolzarbligini ko‘rsatmay qo‘ymayapti. Bu borada rivojlangan chet el mamlakatlarida, jumladan «AQSH, Germaniya, Angliya, Italiya, Fransiya, Norvegiya, Vengriya, Chexiya, Xitoy, Shvetsiya, Shvetsariya va boshqa davlatlarda malum yutuqlarga erishilgan bo‘lib, ularda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini tashishda ish unumdorligini oshiruvchi transport vositalarini qo‘llashga alohida e’tibor qaratilmoqda».

Metodologiya

Tadqiqot bo‘yicha olingan natijalarning ilmiy ahamiyati universal shassili traktor tirkamasi ko‘tarib ag‘darish qurilmasi konstruksiyasining parametrlarini aniqlash imkonini beradigan matematik modellar, sonli hisoblash uslublar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan universal shassili traktor tirkamasi ko‘tarib ag‘daruvchi qurilmasi sonli tajriba-sinov nusxalarini ishlab chiqarishda loyihalash sifati va samaradorligini oshirish, tajribakonstruktorlik va qurilmaning zavod sinovlarini o‘tkazish xarajatlarini qisqartirish, ishlab chiqarishda mehnat sarfi va sarf-xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, universal shassili traktor tirkamasining ko‘tarib ag‘darish qurilmasining madrinizatsiya qilinishi yordamida qishloq xo‘jaligi yuklarini tashishda yoqilg‘i-moylash materiallari sarfini kamaytirish, transport vositasining ekspluatatsion hususiyatini yaxshilash va ish unumdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Natijalar va muhokamalar


Hozirgi vaqtda uch seksiyali teleskopik gidrosilindir asosidagi o‘zi ag‘daruvchi qishloq xo‘jalik transport mashinalarining gidrovlik ko‘tarish mexanizmlarini loyixalash bosqichida asosiy loyiha porametirlarini xisoblash masalasi dolzarb xisoblanadi. Mazkur ishda [38] gidravlik ko‘tarish mexanizmida qo‘llanadigan uch seksiyali ijrochi teleskopik gidrosilindir ishlashining o‘xshatish usuli bilan ishlab chiqilgan matematik modeli ko‘rib chiqilgan (2-rasm). Tadqiqotlar o‘tqazish dasturi va metodikasi o‘zi ag‘daruvchi qishloq xo‘jalik transport texnikasini ekspluatatsiya qiluvchi, xizmat ko‘rsaruvchi va tamirlovchi operatirlarining xavfsizligini oshirish yo‘llarining nazariy asosi; eksperemental tadqiqotloar berilgan; saqlagich qurilmalarning konstruksiyalari ishlab chiqilgan; xulosa va tavfsiyalar berilgan samasval platformalarining (mexanik qulufli gidrosilindir) o‘z o‘zidan tushib ketishning oldini oluvchi qurilma tadqiq qilingan. Ushbu tadqiqot gidrosilindirni sxemali qoidalari va usullari asosida olib boriladi. (xajmiy gidroyuritmalar uchun mo‘ljallangan bir pog‘onali va teleskopik gidrosilindirlarga taluqli bo‘lgan GOST 18464-87 bo‘yicha). Tadqiqotlar 139.206.8.10.13. stendida bajarildi (1-rasm).

Stend quydagilarni taminlaydi: sinalayotgan gidrosilindirlarni o‘rnatish, gidrovlik usulda qisib qo‘yish; gidrosilindirlarning tashqi zichligini bosim bilan tekshirish; joyidan kuzatish bosimini aniqlash; yuklama bilan tekshirish (bosim bilan oxirgi va statik) sinalayotgan gidrosilindirlar ichini ishchi suyuqligidan bo‘shatish; ishchi suyuqlik xaroratini belgilangan chegaralarda avtomat tarzda termik rostlash. Mazkur ishda shunikdek, o‘zi ag‘daruvchi qishloq xo‘jalik transport mashinalari ko‘tarish – tushurish sistemasining buzilish sabablari va ishonchliligini oshirish yo‘llari tahlil qilingan, o‘zi ag‘daruvchi yuk platformalari o‘z-o‘zidan tushib ketishining oldini oladigan yangi muxandislikni vositalar asoslangan va ishlab chiqilgan.




1- rasm. Gidrosilindirni stendga o‘rnatish

Gidravlik ko‘tarish mexanizmi quydagilardan tashkil topgan: quyish og‘zi-3, bor moy baki -1, saqlagich klapini -2, bor to‘rli to‘sish filtiri, platformani tushuradigan klapinni itargich -4, uch seksiyali teleskopik gidrosilindir -5, platformani tushuradigan klapan -6, saqlagich klapani -8, bor boshqarish jo‘mragi -7, teskari klapan -9, shestrniyali nasos -10, quvvat olish qutisini boshqarish richagi -11, quvvat olish qutisi -12, orqaga yurutuvchi shestrniya -13, quti -14 ni gidrosilindir -15 ni (zo‘g‘ota orqali saqlagich tirgakning seksiyasi -2 bilan ulangan) boshqarish richagi, moslashtiruvchi klapan -16, yuk platformasi -17.



2-rasm. Ag‘daruvchi gidravlik qurilmaga saqlagich tirgak sixemasi



3-rasm. Kinematik sxema

Hisoblash usullari tahlilida uch seksiyali gidrosilindirlar matematik o‘xshatish orqali tahlil qilinadi. Shu bilan birgalikda stent orqali gidrosilindirning malum kiriteryalar asosda tahlili ko‘rib chiqildi.

Gidrosistemasi bo‘lgan kuzov (platforma,bunker)ni ko‘tarish qurilmalarining ekspluatatsiyasi shuni ko‘rsatadiki, kamchiliklardan biri ular bo‘shatilganadan keyin kuzov (platform, bunker) ning tebranishlari kattaligi xisoblanadi. Yukni bo‘shatish jarayoni to‘kilayotgan yukning (ruda, chaqiqtosh, quruq yoki xo‘l tuproq, qum, paxta xomashyosi, dan va b.) turiga ko‘ra, tez yoki sekin kechishi mumkin. Ishda takidlanishicha, yukni bo‘shatish jarayoni tez kechganada, gidrosilindirdagi bosim pasayib, sarf ko‘payadi.

Bu, kuzovni (platform, bunkerni) ko‘tarish tezligining ortishiga va ag‘darilish mexanizimlarida zarbali hodisalarga olib keladi. Bunday xodisalarni bartaraf qilish uchun xar xil konstruktiv elementlar kiritiladi. Ammo butun ko‘tarish qurilmasining parametirlarini ratsional tanlash uchun yukning vaqt bo‘yicha o‘zgarib turadigan massasini xisobga olish zarur.

A.P. Bessonov bu masalani mexanizmi va mashinalar nazaryasi predmetiga muvofiq ko‘rib chiqdi va massalarining qotib qolishi tamoyili tushunchasini kiritdi. U massasi o‘zgarib turadigan mashina agregatining xarakatlanish tenglamasini chiqardi va aniq misolni ko‘rib chiqdi. Chiqarilgan tenglamalar murakkabligi sababli EXM da sonli usul bilan yechiladi.

Hozirgi vaqtda yuk avtomobillari kuzovlarining va traktor tirkamalari platformalarining gidravlik ko‘tarish ag‘darish qurilmalari asosiy parametirlarini xisoblash va aniqlashga bag‘ishlangan ko‘plab ishlar mavjud.

Ammo bunday ishlarning jiddiy kamchiliklari mavjud bo‘lib ularda qurilmadagi hamma elementlar ishlash dinamikasining kuzov yoki platformani ko‘tarish jarayoniga komplekis tasiri etiborga olinmagan. Ixtisoslashgan transport vositalari bunkerini ag‘darish mexanizmini tadqiq qilishga taluqli maxsus masalalarga ishlab bag‘ishlangan.

Ishda takidlanishicha, mavjud ixtisoslashgan transport vositalarda yukni tez-tez bo‘shatib turish zarurligi tufayli smena ish vaqtining 15% gacha balansi yoqotiladi. Bunday muammoning hal etishning asosiy yo‘nalishi bunkerdagi yukni iloji borich zichlash, hajimni iloji boricha oshirish va ko‘tarish ag‘darish qurilmasining ishonchli ishlashi xisoblanadi.

Adabiyotlar tahlilining ko‘rsatishicha, zichlash jarayonini tadqiq qilishga yetarlicha etibor qaratilgan xususan, bu muammoning ishlar mualliflari ko‘rib chiqqanlar. ishlarda ag‘darish jarayoni kinematika va dinamika nuqtai nazaridan o‘rganilgan ishda bunkerni ag‘darish dinamikasi va turg‘unligi ko‘rib chiqilgan. Turg‘unlik masalalari masalalar markazi harakatlanishning deferensial tenglamalari asosida ko‘rib chiqilgan, bunda vertikal ko‘ndalang burchakli bog‘langan tebranishlar vaqt bo‘yicha o‘zgrib turadi deb hisoblangan.

Xulosa

Mazkur maqolada mavjud mahalliy va horijda ishlab chiqarilayotgan tirkamalar ko’tarib-ag’darish qurilmalari konstruktsiyasi, ko’tarish mexanizmi, gidravlik yuritmasi xamda ko’tarib-ag’darish qurilmasining hisoblash uslublari tahlilidan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin.

- Universal shassili traktor tirkamasi ko‘tarib ag‘darish qurilmasi parametrlarini asoslashdan iborat.
- Universal shassili traktor tirkamasi ko‘tarib ag‘darish qurilma konstruksiyasi parametrlarini asoslashning zamonaviy holatini tahlil etish.
- Universal shassili traktor tirkamasi ko‘tarib ag‘darish qurilmasining statik parametrlarini hisoblash;
- Universal shassili traktor tirkamasi kuzovi ag‘darish burchagi va massaning o‘zgarish qonuniyatlari aniqlash.
- Universal shassili traktor tirkamasi ko‘tarib ag‘darish qurilmasining dinamik parametrlarini hisoblash.
- Tadqiqot natijalarini qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR

1. Байназаров Х.Р., Халмерзаев Қ. Тиркамалар кўтариб-ағдариш қурилмасининг иш жараёнига оид тадқиқот ишларининг тахлили // Илм- фан,таьлим ва ишлаб чиқаришнинг инновацион ривожлантиришдаги замонавий муаммолар мавзусидаги халқаро илмий-амалий конфереция материаллари тўплами. - Андижон, АндМИ, - 2020. – Б. 443-447.

2. Shermukhamedov A. A., Baynazarov H. R. Equations of changes in the resistance force in the working process of the unloading device of trailers // Scientific and technical journal machine building. – Andijan, 2021, №1, pp 45-51.
3. Shermukhamedov A. A., Baynazarov H. R. Experimental research of the hydraulic system of the unloading device of trailers // Scientific-technical journal. – Fergana, 2021, Vol. 4, Iss. 3, Article 6, pp 41-48.
4. Shermukhamedov A. A., Baynazarov H. R. Graphic-analytical method for calculating the distribution of forces over the frame in the working process of the unloading // Scientifi c-technical journal. – Fergana, 2021, Vol. 4, Iss. 2, Article 11, pp 79-86.
5. Shermukhamedov A.A., Baynazarov H.R. Equations for Changing the Centers of Gravity of Mass Goods in the Unloading Process in Trailers // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. – India, January 2021, Vol. 8, Issue 1, pp 16768-16472.
6. Шермухамедов А.А., Байназаров Х. Р. Тиркамалар кўтариб-ағдариш қурилмасининг иш жараёнида юк массасининг ўзгаришини математик моделлаштириш // Илмий техник журнал ФарПИ. – Фарғона, 2019, – №4 – С. 47-52.
7. Шермухамедов А.А., Байназаров Х. Р., Хакимов М. М. Тиркамалар кўтариб-ағдариш қурилмаси механик тизимининг ҳисоби // Илмий техник журнал НамМТИ. – Наманган, 2020, – ТОМ 5 – Маҳсус сон (2) – Б. 380-384
8. Шермухамедов А.А., Байназаров Х.Р. Тиркамалар кузовининг ағдариш бурчагини илмий асослаш // Илмий техник журнал ФарПИ. – Фарғона, 2020, – №2 – С. 56-61

UO‘T:678.5:629.3

PROPERTIES OF COMPOSITE POLYMER MATERIALS AND COATINGS USED IN AUTOMOBILES

Ismailov Sarvarbek Taxirjanovich
Andijan State Technical Institute.
Assistant of the department of Transport logistics

Annatatsiya. Kompozit materiallarni tasniflashda materialshunoslikning bir nechta mezoni asos qilib olinadi. Bular–kelib chiqishi, vazifasi, matritsa materialining turi, unsur (komponent)lar tabiati, fazaviy qo‘shilmalar o‘lchami, strukturaning belgilari, olish usullari. Shularni bir-bir ko‘rib chiqamiz.

Аннотация. Классификация композиционных материалов основана на нескольких критериях материаловедения. Это происхождение, функция, тип матричного материала, природа элементов (компонентов), размеры фазовых включений, признаки строения, способы получения. Мы рассмотрим их один за другим.

Abstract. The classification of composite materials is based on several criteria of material science. These are origin, function, type of matrix material, nature of elements (components), size of phase inclusions, signs of structure, methods of production. We will consider them one by one.

Kalit so`zlar: Polimer qoplama materiallar, kukun metalurgiya, termoplast, termoreaktiv kompozit to‘ldiruvchi, matritsa, polimer, kompozitsion material.

Ключевые слова: Полимерные лакокрасочные материалы, порошковая металлургия, термопласт,термореактивный, композитный наполнитель, матрица, полимер, композитный материал.

Keywords: Polymer coating materials, powder metallurgy, thermoplastic, thermoreactive, composite filler, matrix, polymer, composite material.

Introduction.

Composite (composite) materials are multi-phase systems consisting of two or more elements (components), which retain their originality (composition and structure). A composite is often formed as a result of combining chemically different phases in volume. The size of phase inclusions in a composite material is usually larger than the ability of an optical microscope (around 0.3 μm).

Figure 1 shows the structure of the composite material in the schematic view. The continuous component in the composite volume is called the matrix or binder (1). Other components, such as reinforcing or reinforcing components (2), are arranged in a certain order in the matrix. Transmissive surface layers (3) are located at the separation boundary of the matrix and other components. The properties of the substance of the transition layer (sometimes called the "third phase") are different from those of the main phases.

The idea of the expediency of accepting it as the third phase was mentioned by Plato. Through such an approach, it is intended to improve the interaction of incompatible substances. The ancient Greek philosopher (428-348 BC) put forward such a concept to explain the idea that the universe may be composed of incompatible elements: earth, water, air, and grass.




Figure 1. The structure of the composite material (scheme)
1–matrix; 2–reinforcing element; 3-a transition layer at the boundary separating the elements

The characteristics of the transition layer, first of all, the strength of the connection with the components (adhesion) largely determine the operational characteristics of the composite and their stability over time. When a mechanical load falls on the composite, the stress is maximum at this separation boundary. The main task of the transition layer is to reduce local stresses and distribute the load uniformly along the separation boundary. Therefore, the transition layer should not be damaged by the stresses and thermal stresses created by the deposition. The first of these stresses occurs as a result of the hardening of the matrix, and the second occurs during operation due to the fact that the coefficients of linear expansion of the matrix and components with temperature are different.[1-2]

Due to the transition layers, composite materials have unusual properties. The term additivity is used in materials science. Its meaning is "joining", that is, some indicator of a complex object is equal to the sum of the same indicators of the parts that make up the object. Applying this term to material science, it can be said that the properties of the composite are not additive to the properties of the components. That is why composite materials are made, in other words, the properties of the composite are more than the sum of the properties of its constituents. This phenomenon is called synergism [3-4].

Methodology and literature review..

The classification of composite materials is based on several criteria of material science. These are origin, function, type of matrix material, nature of elements (components), size of phase compounds, signs of structure, methods of production. We will consider them one by one.[5-6]

By origin, there are natural, artificial and synthetic composite materials. Natural composites are readily available on Earth or in space. Artificial and synthetic composites are the product of human activity.

According to the task, composites are divided into two large groups: composite materials intended for general technical works and special works. The first receives and transmits mechanical loads, from which structural elements are made. The second (it can also be structural) performs special tasks in the product: reducing friction and corrosion of moving joints, protecting metal details from corrosion, sound and heat insulation, etc.[7-8]

According to the material of the matrix, there are the following composites:

- polymer composites (based on thermoplastics, reactoplasts, based on polymer mixtures);
-metal composites (including alloys made by the powder metallurgy method, consisting of macro-different phases);
-ceramic and other inorganic composites (based on inorganic polymers, in mineral, carbon, oxide and other inorganic matrices);
-combined (polymatrix) composites.[9-10]

The matrix gives the necessary shape and monolithicity to the product made of composite, ensures the transfer and distribution of the load in the volume of the material, protects the reinforcing elements from external influences. The type of matrix determines the following parameters related to the composite material and the product made from it: working temperature range, corrosion resistance, electrical properties, thermophysical characteristics, kinetic laws of wear, manufacturing technology, important operational characteristics.[11-12]

According to the nature of the components (included in the matrix), the composites are divided into groups corresponding to the sign of the modifying components. The component list is extensive and all applicable technical materials are included. Therefore, the classification of composites according to this sign will be hierarchically structured. The first step of the hierarchy is to divide composites into filled and reinforced types.[13-14]

In the matrix of filled composites there are fillers-dispersed, that is, small, crushed particles of inorganic and organic substances. They can be in any phase. Fillers in the composite perform the following tasks:

1) changing the mechanical parameters of composites and giving them special properties (electrical conductivity, chemical stability, sound absorption, etc.);

2) improves the technology of composites, i.e. makes them flexible for product preparation (for example, anti-friction components improve the pressability of powder mixtures; plasticizers increase the wetting of powder particles with a binder; active additives increase the adhesion of components, etc. .);

3) makes the product cheaper, because fillers (for example, gas additives, sand, kaolin, etc.) are cheaper than binders.[15-16]

Reinforced composites contain such an element (reinforcement). It will be stronger than the matrix. These are, as a rule, long-dimensional components, which absorb a large part of the mechanical load when the composite works. The strength of the matrix can be increased by 1.5-2.0 times with the help of a filler, and it can be increased ten times or more when reinforcing. In addition, reinforcing elements make the composite thermally and electrically conductive, as well as absorb radio waves (electromagnetic waves in the radio range), provide anisotropy of mechanical and other properties, and create a different structure on the surface layer. The properties of reinforcing components (fibers, threads, fabric, sheet materials, fibrous bulk or porous elements, etc.) to composites are in many cases of decisive importance. Therefore, the chemical nature of the reinforcement is reflected in the name of the composites: graphite-plast, metal-ceramic, glass wool, etc.[17-18]

Composites can include both filler and reinforcing elements at the same time.

In order to strengthen the economic independence of our country, to fully satisfy the ever-increasing demands of our people, it is necessary to develop industry and agriculture with great strides. Improvement of production techniques requires more and more creation of new materials and creation of new technology of their production.

Based on this, today it is difficult to imagine modern production without polymer materials. The use of these materials, in addition to compacting the structures of technical equipment, reducing their mass, increasing the reliability of operation, opens a great way to reduce the cost of production and labor costs, and the widespread use of polymers directly replaces expensive metal and wood materials. is the reason for obtaining, in many cases surpassing them [1-2].

The fact that polymers can replace many expensive and rare ferrous and non-ferrous metals, and sometimes surpass them, has led to their widespread use. Their use is also economically beneficial, for example, costs for materials, labor costs for the preparation of parts

are reduced, parts are much lighter, capital expenditure and operating costs (lubrication, maintenance) are reduced, etc.

If the parts are made from metal by casting, thermal and mechanical processing, then they are obtained from polymer by only one operation-casting or pressing under pressure. Material waste in the production of polymer products does not exceed 5-10%, and in the production of metals, the waste is much more (60-70%). Polymer products are two to three times cheaper than metal products.

Polymers have a complex composition. The main part of them is binders consisting of natural or artificial resins (polymers). Polymer molecules are substances consisting of chemically connected links that are reduced several times. Plasticity, i.e. taking the desired shape and keeping it, is a unique property of polymers. Long chains of polymer molecules have different shapes and can be arranged in different ways. If the molecules are in the form of a straight thread, the substance obtained from them will have the properties of a flexible body. If the molecule is in the form of a coil, due to their alignment, the material can stretch five to seven times (stretches much more than steel, steel does not stretch more than 10-20%) . Adjacent groups of atoms from some polymer compounds are connected in the form of a single framework. Such materials are not soluble.

In addition to the binder, the polymer also includes:

***** fillers (wood flour, soot, glass, fluff, paper, asbestos, gas, metal powder, etc.). Fillers are designed to reduce the consumption of the expensive main binder, as well as to increase the strength of the product and reduce its penetration. Asbestos-like fillers increase the heat resistance of materials, while metal powders or graphite give it electrical and heat-conducting properties;

***** plasticizers (derivatives of oils, phosphoric and phthalic acids); they make polymers plastic and easy to process;

* antioxidants substances that increase the resistance of polymers to the influence of oxygen in the air and sunlight;

***** paints, oils, pore formers and some other substances.

Result and discussion. The properties of polymers depend on the composition and amount of substances added to them. By changing the amount of these substances, it is possible to obtain compounds with different, even predetermined properties. The most important positive properties of many polymers are their resistance to water, many aggressive substances and petroleum products. Advances in chemistry allow us to obtain plastics that can work at both low and high temperatures. Since many polymers are good electrical insulators (dielectrics), they can be used in the production of electrical equipment for tractors. The disadvantage of the polymer is that it is not very resistant to heat, as well as changes its properties over time, that is, it tends to wear out. But materials free of these defects are being created more and more.

Polymers are divided into two main large groups: thermoplastic and thermoset polymers. Thermoplastic polymers are polymers that soften when heated and become very plastic, easily deformed, and when cooled, harden and soften again. Such materials can be transferred many times from one state to another. They are soluble in various solvents. Parts made of these polymers can work at a low temperature (up to 60-70o C), and some can withstand up to 160-200o C.

Polymers that first soften and partially liquefy when heated, and then become non-liquefiable and insoluble are called thermosetting polymers. They are insoluble or slightly swollen in solvents.

Recycling of thermosetting plastics is an irreversible process.

According to their function, polymers are classified as follows:

* structural polymers with high, medium and low strength, heat-resistant, cold-resistant, decorative-processable;
* electronic and radiotechnical polymers-electrically insulating, electrically conductive;
* amortization, sound and heat insulation;
* frictional and antifrictional;

resistant to anti-corrosion and aggressive environment (atmosphere, acid, alkali, oil products, solvents, etc.).

Many polymers have complex properties that can be used in several fields. For example, polypropylene is used in the development of complex-shaped details, gear wheels, lubrication and cooling system filters, plugs, electrical equipment.

A more promising and useful method of widespread use of polymer materials is their use in a metal-polymer system mixed with metals, that is, thin-layer polymers on metal. Such a combination allows to obtain polymer coatings on metal or non-metallic products with high capacity and quality. [3-4]

Polymeric materials that are placed on metal surfaces in the form of a thin film can withstand high voltages and conduct heat well. Thus, in bearings with a thin polyamide coating (0.1–0.5 mm), resizing for hygroscopicity and thermal expansion can be almost negligible, for example, there is no need for a hole between the shaft and the bearing.

In recent years, there has been an increasing interest in the use of thin-layer polymer coatings of metals in machine-building, tool-making, chemical, food, electrotechnical industry, construction and other sectors of the national economy. In our country and other countries (USA, England, France, Germany, Japan), 30-35% of the polymer materials produced in general are used for coatings. This is due to the fact that the coating provides a combination of excellent properties of metals and polymer materials. This is because the coating provides a beneficial combination of polymer material properties. Thin layer coatings allow to create new products of machine building and structures. In addition, they protect chemical devices, machine parts, fittings, pipes from corrosion, iron structures from moisture and mechanical damage, increase the wear resistance and antifriction properties of parts made of wear-resistant products and unsuitable units; ensures that the processed details do not stick to the upper part of the device, provides electrical insulation, etc.

Application of polymer coating materials in products, parts of machines and mechanisms: together with the saving of expensive and scarce stainless steel and aluminum iron, bronze, lead, nickel, babbitt, etc., it is possible to replace them with other materials in coating production. will give. [4] according to the work data, it can be seen that the price of a 2m3 container made of steel, made of polyvinyl chloride, is five times cheaper than the price of a similar container made of stainless steel of the IX18N9T brand. In this case, 650 kg of iron products are saved. The cost of sliding bearing with length 120 mm, diameter 120 mm made of cast iron or iron with 0.5 mm thickness polyamide coating is 2-3 times cheaper than the cost of bearing with the same specification but made of bronze material, and its durability [5] will be more than It should be noted that the production of products with a polymer coating is simpler than the production of celogite products from polymer products. In addition, the use of thin polymer films allows the economy of scarce and expensive polymers.[6]

Polymer coatings have advantages over painting, electroplating and silicification in terms of production technology and usage properties. Paintable coatings cannot always meet the ever-growing demands of the industry. In addition, the presence of organic solvents in kraskas causes inconvenience in fire fighting and sanitary relations. When obtaining galvanic coatings, there is a large consumption of scarce and expensive metals. Most of them do not provide protection against

corrosion. Silicate coatings require a lot of work and energy. In addition, they are brittle and inelastic.

When obtaining polymer products, the technological process is simplified, economic efficiency increases, they are obtained in a quality and long-term condition. Unlike paint and galvanic coatings, this process reduces the use of expensive, scarce, toxic and flammable organic compounds, and does not use non-ferrous and other precious metals.

One of the important features of polymer coating materials compared to lacquer, silicate and galvanic coatings is the ability to easily change their properties by adding appropriate stabilizers, fillers, plasticizers, etc.

For another way to compare polymer coated materials with galvanic coatings in terms of economy of use, here's an example: a polyvinyl butyral or high-density coated meat hanger at a meat plant is cheaper than a tin-coated hook. Its longevity increases 2-3 times.

It should be mentioned that a promising use of polymer-coated metal is metalloplast, a varnished material containing black or non-ferrous metals, covered with polymer on one or both sides. The usefulness of metalloplast is the possibility of using them in various types of mechanical processing, i.e. forming, stamping, welding, etc.

A very promising way of using polymer coating materials is to use them instead of obsolete parts in machines and mechanisms. The ease of restoration and repair of polymer coating materials and their relative cheapness are of great importance.

One of the most important features of polymer coating materials compared to others is their versatility. According to their designation, they can be used for decorative protection, anti-friction wear, corrosion resistance, vibration absorption, sound absorption, technological insulation, electrical insulation.

Conclusion. Thus, thinly coated polymer and composite coatings on the iron surface make it possible to use the useful properties of polymer and metal, to significantly increase the durability and longevity of metal products, machine and mechanism details, and to save on the use of expensive and scarce materials in large quantities. These properties of composite polymer coating materials are considered important for the national economy.

REFERENCES

1. Turayev S. et al. The importance of modern composite materials in the development of the automotive industry //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2021. – T. 10. – №. 3. – C. 398-401.

2. Turaev S. A., Rakhmatov S. M. O. Introduction of innovative management in the system of passenger transportation and automated system of passenger transportation in passenger transportation //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – T. 11. – №. 3. – C. 34-38.

3. Ikromov N. A., Turaev S. A. To determine the ingesting of various polymer materials of automobile cartridges //Academia-an international multidisciplinary research journal. – T. 10.

4. Ahmadjonovich T. S. Aminboyev Abdulaziz Shukhratbek ogli. Light automobile steel wheel manufacturing technology //Asian Journal of Multidmesijnal Research. – C. 18-23.2022.

5. Turaev S. The role of polymer materials used in the development of automobile industry //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – T. 11. – №. 5. – C. 284-288.

6. Тўраев Ш. А. Автомобилларда ишлатиладиган пластик деталларига қўйиладиган талаблар ва уларнинг механик хоссаларини тадқиқ қилиш. – 2022..

7. Тўраев Ш. А. Автомобиль втулкаларининг ҳар хил полимер материалларини ейилишини аниқлаш. – 2021.

8. Ahmadjonovich T. S. et al. THE ROLE OF COMPOSITE MATERIALS USED IN AUTOMOBILE DEVELOPMENT //Scientific Impulse. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 409-414.

9. Turaev S. A., Aminboyev A. S. O. Light automobile steel wheel manufacturing technology //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – Т. 11. – №. 3. – С. 25-30.

10. Avazbekovich I. N., Ahmadjonova T. S., Valerevich A. A. To determine the ingesting of various polymer materials of automobile cartridges //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 11. – С. 1572-1575.

11.Tursunov X. T. Ekologiya asoslari va tabiatni muxofaza qilish //T.: Universitet. – 1997. – С. 9-14.

12. Tursunov X. T., Rahimova T. U. Ekologiya //Toshkent—Chinor. ENK-2006. – 2006.

13. Турсунов Х., Алибаев М. А. Важность обеспечения безопасности наземных транспортных средств //Life Sciences and Agriculture. – 2020. – №. 3-2. – С. 33-36.

14. И.Юсупов Х.Турсунов. Use in the people's economy of plants of the category of ailanta and grape and their medicinal properties. -2022-3-28 №1 с 635.

15. Hamdam T. Theoretical and Methodological Aspects of Community Supervision Institutining //American Journal of Economics and Business Management. – 2022. – Т. 5. – №. 9. – С. 80-85.

16. Hamdam T. Theoretical and Methodological Aspects of Community Supervision Institutining //American Journal of Economics and Business Management. – 2022. – Т. 5. – №. 9. – С. 80-85.

UO‘T: 620.22

AVTOMOBILLARDAGI ISHQALANUVCHI MATERIALLARNI YEYILISHI TAHLIL QILISH

Ismailov Sarvarbek Taxirjanovich
Andijon davlat texnika instituti “TL” kafedrasi asissenti
sarvarbekismailov1989@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada materiallarning ishqalanishi va yeyilishi jarayonlarining nazariy asoslari, yeyilish turlari hamda unga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Ishqalanish natijasida yuzaga keladigan mexanik, korrozion-mexanik va elektroerozion yeyilish jarayonlari, ularning kelib chiqish sabablari hamda materiallarning ekspluatatsion xususiyatlariga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, yeyilish tezligi, yeyilish jadalligi va yeyilishga bardoshlilik ko‘rsatkichlari ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqot natijalari ishqalanuvchi juftliklarning xizmat muddatini uzaytirish, materiallarning yeyilishga chidamliligini oshirish va mashina detallarining ishonchli ishlashini ta’minlashda ishqalanish jarayonlarini to‘g‘ri boshqarish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of friction and wear processes in materials, types of wear, and the factors influencing them. The processes of mechanical, corrosive-mechanical, and electroerosion wear resulting from friction, the causes of their occurrence, and the impact on the performance properties of materials are highlighted. Additionally, the indicators of wear rate, wear intensity, and wear resistance are scientifically substantiated. The research results demonstrate that proper control of friction processes is crucial for extending the service life of friction pairs, increasing the wear resistance of materials, and ensuring the reliable operation of machine parts.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы процессов трения и износа материалов, виды износа и факторы, влияющие на него. Освещены процессы механического, коррозионно-механического и электроэрозионного износа, возникающие в результате трения, причины их возникновения и влияние на эксплуатационные свойства материалов. Также научно обоснованы показатели скорости износа, интенсивности износа и износостойкости. Результаты исследований показывают, что правильное управление процессами трения имеет важное значение для продления срока службы трущихся пар, повышения износостойкости материалов и обеспечения надежной работы деталей машин.

Kalit so‘zlar: polimer material, material isrofi, bosim ostida quyish, pressforma, quyish mashinasi, polimer kompozitsiyasi

Keywords: polymer material, material loss, pressure casting, press mold, casting machine, polymer composition

Ключевые слова: полимерный материал, потери материала, литье под давлением, пресс-форма, литейная машина, полимерная композиция

Kirish.

Respublikamizda materiallarning ishqalanish va yeyilishini tadqiqot qilish, yeyilishga chidamli materiallarni yaratish bo‘yicha qator ilmiy maktablar va yetuk olimlar o‘zlarining ilmiy tadkikot ishlarini olib bormokdalar. Bulardan akademiklar S.S.Negmatov, R.G.Maxkamov, professorlar S.M.Kodirov, A.B.Jumaboev, K.X..Maxkamov, T.S.Xudayberdiev va boshqalarning bu borada olib borayotgan samarali ishlarini ko‘rsatish mumkin.

Mashinasozlik yo‘nalishidagi bo‘lajak bakalavrlar mashina va mexanizmlar va ularning detallarini uzoq muddat ishlashini ta’minlashda ishqalanish va yeyilish bo‘yicha ma’lum bilimlarga ega bo‘lishi zarur.

Asosiy tushunchalar. Yeyilish jarayoni—ishqalanish natijasida jism o‘lchamlarining va shaklining asta syokin o‘zgarib borishidir. Bu jarayon ishqalanuvchi sirtdan material ajralib chiqishida va uni qoldik deformatsiyasida namoyon bo‘ladi.

Eyilish tezligi — yeyilishni vaqt birligi ichidagi o‘zgarish ko‘rsatkichi:

$$V_{ey}=\Delta U/\Delta t,\ m/sek$$

Eyilish jadalligi (surati) bu ishqalanish yo‘l birligidagi yeyilishdir:

$$I=\Delta U/\Delta L,$$

ΔU-chiziqli yeyilish miqdori, m

ΔL-ishqalanish yo‘li, m.

Eyilishga bardoshlilik — materialning yeyilishiga ko‘rsatadigan qarshilik xossasidir. Yeyilishga bardoshlilik yeyilish tezligiga teskari proportsional qattiqlik, u quydagicha ifodalanadi:

$$\delta=1/V$$

δ-eyilishga bardoshlilik.

Eyilish tezligi mm/km; mm/kg , mm/m^3 birliklar bilan o‘lchanadi.

Transport vositalari dettallarining yeyilishga chidamliligi bir xil emas, shuning uchun ham ulardan foydalanish muddati tez yeyiladigan qisimlarining resursiga shbog‘liq.

Eyilish ishqalanish hisobiga hosil bo‘ladigan fizik mexanik va geometrik o‘zgarishlar natijasida ishqalanuvchi jismlarning shakli va o‘lchamlarini o‘zgarish jarayonidir.

Ushbu grafikdagi qonuniyatda quydagi davrlarni ajratish mumkin:

I davr - ishlab moslashuv (Siyqalanish) davri

II davr - normal yeyilish davri

III davr - katostrofik yeyilish davri.

I, II davrlar - tabiiy yeyilish davri ham deb ataladi

Ishlab moslashuv (Siyqalanish) davrida yeyilish asosan boshlangich g‘adir-budirlikka, ishqalanish sharoitiga va rejimiga bog‘liq.

Ma’lum Δt_1 vaqt davomida yuza g‘adir-budirligi ishqalanish hisobiga o‘zgaradi va ushbu sharoit va rejimlar uchun moslashgan g‘adir-budirlik hosil bo‘ladi I-davr. Shundan so‘ng II-normal yeyilish davri boshlanadi.

Ishlab moslashuv davri qanchalik sifatli va tez o‘tkazilsa normal yeyilish davri shuncha cho‘ziladi va ishqalanuvchi juftlikning resursi ortadi.

III- katastrofik yeyilish davri asosan ishqalanuvchi juftliklarning ishlash rejimi va texnik qaroviga shbog‘liq bo‘ladi.

Ishqalanish jarayoni normal kechishi va yeyilishni kamaytirish uchun ishlab moslashuv davrini sifatli utkazishdir.

Ishqalanish jarayonida sirt g‘adir-budirliklari faqat ushbu juftlik, sharoit va rejim uchun yagonadir.

Adabiyotlar tahlili

Tribologiya, ya'ni ishqalanish, yeyilish va moylash jarayonlarini o‘rganish mashinasozlik, transport va materialshunoslik sohalarining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mashina detallarining uzoq muddat ishonchli ishlashi ko‘p jihatdan ishqalanuvchi sirtlarning yeyilishga bardoshliligiga bog‘liq. Shu sababli dunyo olimlari tomonidan materiallarning tribologik xossalarini yaxshilash va yeyilishni kamaytirishga qaratilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Tribologiya fanining nazariy asoslari J. Williams tomonidan batafsil bayon etilgan bo‘lib, unda ishqalanish mexanizmlari, kontakt deformatsiyasi, sirt energiyasi va yeyilish nazariyalari tizimli ravishda yoritilgan [1]. Hutchings va Shipway esa materiallarning abraziv, adgezion,

korrozion hamda charchash natijasidagi yeyilish mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilib, zamonaviy tribologiyaning nazariy asoslarini rivojlantirganlar [2].

Stachowiak va Batchelor o‘z tadqiqotlarida ishqalanish jarayonida moylash materiallarining ahamiyatini, kontakt zonasidagi fizik-kimyoviy hodisalarni hamda ishqalanuvchi juftliklarning xizmat muddatiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur o‘rganganlar [3]. Bhushan tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa tribologiyaning nano va mikro darajadagi jarayonlari, sirt teksturasi hamda zamonaviy tribologik qoplamalarning afzalliklari keng yoritilgan [4].

O‘zbekiston olimlari ham ushbu yo‘nalishda salmoqli ilmiy natijalarga erishganlar. Akademik S.S. Negmatov materiallarning ishqalanishi va yeyilishi nazariyasini rivojlantirib, tribotexnik tizimlarda sodir bo‘ladigan fizik-mexanik jarayonlarni chuqur tadqiq qilgan [5]. R.G. Mahkamov tomonidan mashinasozlik materiallarining yeyilishga bardoshliligini oshirish, ularning ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilash hamda tribologik sinov usullarini takomillashtirish bo‘yicha muhim ilmiy ishlanmalar amalga oshirilgan [6].

Qodirov va Jumaboyev tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqotlarda transport vositalari detallarining yeyilishiga ta'sir etuvchi yuklama, harorat, moylash rejimi va sirt g‘adir-budirligining roli eksperimental jihatdan asoslangan [7]. Xudayberdiyev esa metall va kompozitsion materiallarning tribologik xossalarini qiyosiy tahlil qilib, polimer kompozitsiyalarning ayrim ishqalanish juftliklarida metallarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatgan [8].

ASM Handbook materiallar muhandisligi bo‘yicha eng nufuzli manbalardan biri bo‘lib, unda yeyilish mexanizmlari, material tanlash mezonlari hamda sirtni mustahkamlash texnologiyalari batafsil yoritilgan [9]. ASTM G99 xalqaro standarti esa materiallarning yeyilishga bardoshliligini aniqlashda "Pin-on-Disk" usulidan foydalanish tartibini belgilaydi va tribologik tadqiqotlarda keng qo‘llaniladi [10].

Metodologiya. Toliqib (charchab) yeyilish nazariyasiga asosan yeyilishning quydagi asosiy turlari mavjud:

1. Mexanik yeyilish. 2. Karrozion mexanik yeyilish. 3. Elektro-errozion yeyilish.

Mexanik yeyilish quydagi asosiy turlarga bo‘linadi:

1. Toliqib yeyilish. 2. Abraziv yeyilish. a) gazoabraziv yeyilish;

b) gidroabraziv yeyilish (abraziv — qattiq kristall zarracha).

Korrozion mexanik yeyilish asosan mexanik kuchlar ta’siri bilan bir qatorda havo ta’siridagi kislorod, azot va boshqa kimyo aktiv elementlar bilan reaktsiyaga kirishib ishqalanuvchi yuzalarning yemirilishiga olib keladi.

Korrozion mexanik yeyilish temperatura ta’sirida tezlashadi. Havo tarkibidagi namlikning ortishi korrozion jarayonlarni tezlatib yeyilish jarayoniga katta ta’sir qiladi.

Elektro-errozion yeyilish turlari elektr toki hosil bo‘lgan ishqalanuvchi yuzalarda kechadi (elektr kontaktlar).

Tutash detallarning yeyilishga faqat asosiy omillargina hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, sirpanish podshipniklari uchun bunday omillarga yuklama materalning qattiqligi va ta’sir qilish xarakteri, detallar ishqalanuvchi sirtlarining sirpanish tezligini va ularning o‘zaro ta’sirlashadigan mintakadagi muxitning xolatini ko‘rsatish mumkin.

Natijalar. Avtomobillarda mazkur juftliklarga tirsakli val va taqsimlash valining podshipnikli o‘zellari misol bo‘ladi. Ishqalanuvchi juftliklarning yuklanish tartibi podshipnikka tushadigan solishtirma yuklanish bilan ifodalanadi. Uning o‘rtacha qiymati 4-7 MPa ga, jadallashtirilgan dizellar uchun ko‘pi bilan 12-13 MPa ga teng. Ishqalanuvchi juftliklar materiallarining yeyilishini toliqib (charchab) yeyilish nazariyasi bilan tushintiriladi. Bu nazariyaga asosan yeyilish jarayoni uch bosqichdan iborat bo‘ladi:

1. Sirt g‘adir-budirliklarining chetlarida takrorlanuvchi deformatsiya hisobiga darz hosil bo‘ladi. 2. Darzlar kengayadi. 3. Darzlar rivojlanib g‘adir-budirlik material sirtidan ajralib tushadi, yani yemiriladi.

Ishqalanuvchi juftliklar materiallarining ish rusursini Harakterlovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri-bu yeyilishga bardoshlilik ko‘rsatkichidir.

Bu ko‘rsatkich materialning qattiqligiga shbog‘liq bo‘lib, yeyilish tezligiga teskari proportsionaldir,ya’ni, materialningl qattiqligi kancha yuqori bo‘lsa, u shunchalik yeyilishga bardosh hisoblanadi.

Eyilish jarayoniga ta’sir qiluvchi asosiy omillar.

Eyilish jadalligiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar quydagilardir: normal yuklama, sirt g‘adir-budirliklari, materialning qattiqligi, Harakat tezligi, ishqalanish mintaqasidagi Harorat, ishqalanish turi, o‘zaro qoplash koeffitsient i va boshqalar.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, materiallarning ishqalanishida ularning o‘zaro ta’sirlashuvining ikki turi, ya’ni mexanik (botib kirish) va molekulyar (tortilish va ilashib kolish) o‘zaro ta’sirlashuvlar sodir bo‘ladi. Botib kirish ishqalanuvchi sirtlar mexanik xossalari bir xil emasligi, qattiqligini har xilligi bilan belgilanadi.

Molekulyar o‘zaro ta’sirlashuv materialning sirtqi qatlamlari plastik deformatsiyalanganda yuz beradi. Bunday sharoitlarda atom va molekulyar bog‘lanishlar yuzaga keladi. Materiallar xossalarning o‘zgarishiga o‘zaro tutashuvchi sirtlarning Harorati ham ta’sir qiladi. Agar o‘zaro ta’sir joyida u rekristallanish haroratidan oshib ketsa, sirtqi qatlamlarning qayishqoqligi ortishi mumkin. Ayniksa, material plastik deformatsiyalanganda diffo‘zion jarayonlar tezlashadi. Metalning sirtqi qatlamlari kislorod bilan to‘yinib mo‘rt kimyoviy birikmalar yoki yuqori qattiqlikdagi o‘ta to‘yingan qattiq eritmalar hosil qiladi. Metalning mo‘rt oksid pardasi (pustlogi) ishqalanish jarayonida tez yemirilib, metallning yangi qatlamlari ochilib qoladi va oksidlanish jarayoni takrorlanadi. Qizish va sovish jarayonida sirtqi qatlamda cho‘ziluvchi ichki zo‘riqishlar yuzaga kelib, ular juda kichkina darzlar paydo bo‘lishiga va metallning yemirilishiga olib keladi. Amalda esa yeyilishning har xil turlari bir vaqtda kechadi va ularning Har biri o‘ziga xos natijani beradi. Ammo jarayonlardan bittasi hamisha ustun bo‘lib, yetakchi jarayonga aylanadi va sirtning eng ko‘p uchraydigan yeyilishini keltirib chikaradi.

Xulosa. Mashina detallarining ishqalanishi va yeyilishi ularning ekspluatatsion ishonchliligi hamda xizmat muddatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yeyilish jarayoni materialning fizik-mexanik xossalari, ishqalanish sharoiti, yuklama, harakat tezligi, sirt g‘adir-budirligi, harorat va tashqi muhit omillariga bevosita bog‘liq. Yeyilishning mexanik, korrozion-mexanik va elektroerozion turlarini chuqur tahlil qilish ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda samarali kamaytirish usullarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Shuningdek, ishlab moslashuv (siyqalanish) davrining to‘g‘ri tashkil etilishi normal yeyilish davrini uzaytirib, ishqalanuvchi juftliklarning resursini sezilarli oshirishi aniqlandi. Materiallarning qattiqligini oshirish, optimal moylash sharoitlarini yaratish, sirt sifatini yaxshilash hamda zamonaviy yeyilishga chidamli materiallardan foydalanish mashina detallarining xizmat muddatini uzaytirishning muhim omillari hisoblanadi.

Kelgusida yeyilishga chidamli kompozitsion va polimer materiallarni yaratish, ishqalanish jarayonlarini modellashtirish hamda zamonaviy tribologik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish mashinasozlik tarmog‘ida detallar ishonchliligini oshirish, ekspluatatsion xarajatlarni kamaytirish va texnik tizimlarning samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. J. A. Williams, *Engineering Tribology*, Cambridge, UK: Cambridge University Press, 2005.
2. I. M. Hutchings and P. Shipway, *Tribology: Friction and Wear of Engineering Materials*, 2nd ed. Oxford, UK: Butterworth-Heinemann, 2017.
3. G. W. Stachowiak and A. W. Batchelor, *Engineering Tribology*, 4th ed. Oxford, UK: Butterworth-Heinemann, 2013.
4. B. Bhushan, *Introduction to Tribology*, 2nd ed. Hoboken, NJ, USA: John Wiley & Sons, 2013.
5. S. S. Negmatov, *Tribologiya asoslari*. Toshkent: Fan, 2008.
6. R. G. Mahkamov, *Mashinasozlik materiallarining yeyilishga bardoshliligi*. Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
7. S. M. Qodirov va A. B. Jumaboyev, *Mashina detallarining ishqalanishi va yeyilishi*. Toshkent: Voris-Nashriyot, 2016.
8. T. S. Xudayberdiyev, *Kompozitsion materiallarning tribologik xossalari*. Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2019.
9. ASM International, *ASM Handbook, Volume 18: Friction, Lubrication, and Wear Technology*. Materials Park, OH, USA: ASM International, 2017.
10. ASTM International, *ASTM G99-17: Standard Test Method for Wear Testing with a Pin-on-Disk Apparatus*. West Conshohocken, PA, USA: ASTM International, 2017.

UO‘T: 504.06:656.13

SHAHAR HUDUDIDA FOYDALANILAYOTGAN TRANSPORT VOSITALARINING ATROF-MUHITGA TA’SIRI

Xalimov Javoxirbek Abdusamat o‘g‘li
Andijon davlat texnika institute Transport logistikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada shahar hududida foydalanilayotgan transport vositalarining atrof-muhitga ta’siri kompleks ravishda tahlil qilingan. Avtomobil transportidan atmosferaga chiqariladigan asosiy ifloslantiruvchi moddalar, jumladan uglerod oksidi (CO), karbonat angidrid (CO_2), azot oksidlari (NO_x), oltingugurt dioksidi (SO_2), uchuvchi organik birikmalar (VOC) hamda mayda dispers zarrachalar ($PM_{2.5}$ va PM_{10})ning ekologik va sanitariya-gigiyenik oqibatlari yoritilgan. Shuningdek, transport oqimining intensivligi, yo‘l infratuzilmasi va transport vositalarining texnik holati emissiyalar miqdoriga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida shahar ekologik holatini yaxshilash hamda transportdan kelib chiqadigan zararli emissiyalarni kamaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Abstract. This study investigates the environmental impact of vehicles operating within urban areas. Particular attention is given to atmospheric pollutants emitted by road transport, including carbon monoxide (CO), carbon dioxide (CO_2), nitrogen oxides (NO_x), sulfur dioxide (SO_2), volatile organic compounds (VOCs), and particulate matter ($PM_{2.5}$ and PM_{10}). The study also examines the relationship between traffic intensity, road infrastructure, vehicle technical condition, and emission levels. Based on the findings, practical recommendations are proposed to reduce transport-related emissions and improve environmental quality in urban areas.

Аннотация. В статье проведен комплексный анализ воздействия транспортных средств, эксплуатируемых в городской среде, на окружающую среду. Рассмотрены основные загрязняющие вещества, образующиеся при эксплуатации автомобильного транспорта, включая оксид углерода (CO), диоксид углерода (CO_2), оксиды азота (NO_x), диоксид серы (SO_2), летучие органические соединения и твердые частицы $PM_{2.5}$ и PM_{10}. Исследовано влияние интенсивности транспортного потока, состояния дорожной инфраструктуры и технического состояния автомобилей на объем вредных выбросов. Предложены рекомендации по снижению негативного воздействия автомобильного транспорта на окружающую среду.

Kalit so‘zlar avtomobil transporti, atmosfera ifloslanishi, ekologiya, CO_2, NO_x, $PM_{2.5}$, transport emissiyasi, shahar muhiti, barqaror transport.

Keywords: road transport, air pollution, environment, CO_2 emissions, nitrogen oxides, particulate matter, urban transport, sustainable mobility.

Ключевые слова: автомобильный транспорт, загрязнение воздуха, окружающая среда, выбросы CO_2, оксиды азота, $PM_{2.5}$, устойчивый транспорт.

Kirish

Atmosfera havosining ifloslanishi XXI asrning eng dolzarb ekologik muammolaridan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, shahar aholisi sonining ortishi hamda avtomobil transportidan foydalanish hajmining yildan-yilga ko‘payishi natijasida transport sektori atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy manbalardan biriga aylandi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, havo ifloslanishi har yili millionlab insonlarning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va transport vositalari shahar havosini ifloslantiruvchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Shahar hududlarida avtomobil transportining jadal rivojlanishi iqtisodiy taraqqiyot va aholining harakatchanligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ekologik muvozanatga sezilarli bosim o‘tkazadi. Ichki yonuv dvigatellari ishlashi natijasida atmosferaga chiqariladigan

karbonat angidrid (CO_2), uglerod oksidi (CO), azot oksidlari (NO_x), oltingugurt dioksidi (SO_2), uglevodorodlar va mayda dispers zarrachalar ($PM_{2.5}$ va PM_{10}) inson salomatligi, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda iqlim o‘zgarishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, $PM_{2.5}$ va PM_{10} zarrachalari nafas yo‘llari hamda yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanish xavfini oshirishi ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham avtomobillar sonining ortishi kuzatilmoqda. Bu holat yirik shaharlarda transport oqimining keskin oshishiga, tirbandliklarning ko‘payishiga va natijada zararli gazlar emissiyasining ortishiga olib kelmoqda. Harakat tezligining pasayishi, tez-tez to‘xtash va qayta harakatlanish dvigatelning yoqilg‘i sarfini hamda chiqindi gazlar miqdorini ko‘paytiradi. Shu sababli transport oqimini samarali boshqarish va ekologik xavfsiz transport tizimini shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Rivojlangan davlatlarda transportning ekologik ta’sirini kamaytirish maqsadida elektromobillarni ommalashtirish, gibrid transport vositalaridan foydalanish, jamoat transportini modernizatsiya qilish, velosiped infratuzilmasini rivojlantirish va intellektual transport tizimlarini (ITS) joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bunday yondashuvlar yoqilg‘i sarfini kamaytirish, atmosferaga chiqariladigan zararli moddalar hajmini qisqartirish va shahar ekologik holatini yaxshilashda muhim samara bermoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi shahar hududida foydalanilayotgan transport vositalarining atrof-muhitga ta’sirini kompleks baholash, transport emissiyalarining asosiy manbalarini aniqlash hamda ekologik xavfsizlikni oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida transport vositalari emissiyasiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilinadi, zamonaviy ekologik transport texnologiyalarining afzalliklari baholanadi va shahar sharoitida ularni qo‘llash istiqbollari muhokama qilinadi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda transportning ekologik ta’siri tizimli yondashuv asosida ko‘rib chiqilib, shahar sharoitida ekologik barqaror transport tizimini shakllantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari transport muhandisligi, ekologiya va shahar infratuzilmasini rejalashtirish sohalarida ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi kutilmoqda.

Materiallar va tadqiqot usullari

Mazkur tadqiqot shahar hududida foydalanilayotgan transport vositalarining atrof-muhitga ta’sirini kompleks baholash hamda transportdan ajralib chiqadigan zararli moddalar emissiyasining ekologik holatga ta’sirini aniqlash maqsadida amalga oshirildi. Tadqiqot metodologiyasi transport muhandisligi, ekologiya, atmosfera havosini muhofaza qilish va statistik tahlil tamoyillariga asoslangan bo‘lib, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, statistik ma’lumotlarni qayta ishlash, taqqoslash, grafik tahlil va tizimli yondashuv usullarini o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot obyekti sifatida shahar hududlarida harakatlanayotgan yengil avtomobillar, avtobuslar, mikroavtobuslar, yuk avtomobillari hamda maxsus transport vositalari tanlandi. Tadqiqot predmeti esa ushbu transport vositalari tomonidan atmosferaga chiqarilayotgan asosiy ifloslantiruvchi moddalar, ularning hosil bo‘lish sabablari, transport oqimining intensivligi va yo‘l infratuzilmasining emissiya miqdoriga ta’siri hisoblanadi. Tadqiqotda ichki yonuv dvigatelli transport vositalari asosiy emissiya manbai sifatida ko‘rib chiqildi, biroq ekologik toza transport texnologiyalarining istiqbollari ham metodologik jihatdan baholandi.

Tadqiqotning nazariy asosini atmosfera havosining ifloslanishi, transport ekologiyasi va barqaror transport tizimlariga oid mahalliy hamda xorijiy ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. Shuningdek, yo‘l transportining ekologik ta’siri bo‘yicha Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO), Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UN), Xalqaro transport forumi (ITF), Yevropa Komissiyasi hamda boshqa xalqaro tashkilotlarning ilmiy hisobotlari va tavsiyalaridan

foydalanildi. O‘zbekiston Respublikasining ekologiya, transport va yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi amaldagi qonunchilik hujjatlari ham tadqiqotning normativ asosini tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida tavsifiy tahlil usuli qo‘llanilib, transport vositalarining ekologik ta’siri bo‘yicha ilmiy maqolalar, monografiyalar, statistik to‘plamlar va rasmiy hisobotlar tizimli ravishda o‘rganildi. Ushbu usul transportdan chiqadigan zararli gazlarning hosil bo‘lish mexanizmini, ularning atmosfera havosi tarkibiga ta’sirini hamda inson salomatligiga salbiy oqibatlarini nazariy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Statistik tahlil usuli yordamida transport vositalari sonining o‘sishi, transport oqimining intensivligi va emissiya ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik baholandi. Tahlilda mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlar, foizli taqqoslash, dinamik qatorlar hamda tavsifiy statistik usullardan foydalanildi. Statistik ma’lumotlar jadval va diagrammalar yordamida tizimlashtirilib, ularning o‘zgarish tendensiyalari tahlil qilindi.

Taqqoslash usuli orqali turli transport vositalarining ekologik ta’siri o‘zaro solishtirildi. Xususan, benzin va dizel yoqilg‘isida harakatlanuvchi transport vositalari, gibrid avtomobillar hamda elektromobillarning atmosferaga chiqaradigan emissiyalari ilmiy manbalar asosida qiyosiy baholandi. Ushbu yondashuv ekologik jihatdan samarali transport vositalarining afzalliklarini aniqlash imkonini berdi.

Tizimli tahlil usuli tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvlaridan biri bo‘ldi. Bunda "transport vositasi – yoqilg‘i – atmosfera – inson – ekologik muhit" tizimi yagona ekologik jarayon sifatida ko‘rib chiqildi. Mazkur usul orqali transport emissiyalarining havo sifati, shovqin darajasi, issiqxona gazlari hajmi va urbanizatsiya jarayonlariga ta’siri kompleks ravishda baholandi. Tizimli yondashuv shuningdek transport infratuzilmasi, harakat intensivligi va yo‘l geometriyasining ekologik ko‘rsatkichlarga ta’sirini aniqlash imkonini berdi.

Grafik tahlil usuli yordamida tadqiqot natijalarini vizual shaklda ifodalash ko‘zda tutildi. Emissiya tarkibi, transport vositalari ulushi, zararli moddalar miqdori hamda ekologik omillarning o‘zaro bog‘liqligi diagrammalar va grafiklar yordamida tasvirlandi. Mazkur yondashuv natijalarni tushunarli va ilmiy jihatdan asoslangan tarzda taqdim etishga xizmat qildi.

Tadqiqot davomida asosiy ekologik ko‘rsatkichlar sifatida uglerod oksidi (CO), karbonat angidrid (CO_2), azot oksidlari (NO_x), oltingugurt dioksidi (SO_2), uchuvchi organik birikmalar (VOC), $PM_{2.5}$ va PM_{10} zarrachalari tahlil qilindi. Ushbu ifloslantiruvchi moddalar atmosfera havosi sifati va inson salomatligiga ta’sir darajasiga ko‘ra baholandi. Emissiyalarni baholashda xalqaro ekologik standartlar va ilmiy tavsiyalar metodik mezon sifatida qabul qilindi.

Tadqiqotning axborot bazasini xalqaro tashkilotlarning ochiq hisobotlari, O‘zbekiston Respublikasining rasmiy statistik ma’lumotlari, transport va ekologiya sohasiga oid ilmiy maqolalar hamda monografiyalar tashkil etdi. Ma’lumotlarni tanlashda ularning dolzarbligi, ishonchliligi va ilmiy qiymatiga alohida e’tibor qaratildi. Bir-birini takrorlovchi yoki ishonchliligi tasdiqlanmagan ma’lumotlardan foydalanilmadi.

Ma’lumotlarni qayta ishlash jarayonida ularning mantiqiy izchilligi va statistik mosligi tekshirildi. Olingan natijalar ilmiy tahlil qilinib, transport vositalari sonining ortishi bilan atmosfera ifloslanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik tavsiflandi. Shuningdek, shahar hududlarida tirbandliklarning emissiya miqdoriga ta’siri, transport vositalarining texnik holati va yoqilg‘i sifatining ekologik ko‘rsatkichlarga ta’siri baholandi.

Tadqiqot metodologiyasining afzalligi shundaki, unda ekologik, texnik va statistik yondashuvlar yagona tizimda qo‘llanildi. Bu esa transport vositalarining atrof-muhitga ta’sirini faqat alohida ko‘rsatkichlar orqali emas, balki ularning o‘zaro bog‘liqligini hisobga olgan holda baholash imkonini berdi. Mazkur metodologiya natijalarning ishonchliligini oshiradi va kelgusida transport ekologiyasi bo‘yicha olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarda ham qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqotda tahlil qilingan asosiy ifloslantiruvchi moddalar

1-jadval

Modda	**Belgilanishi**	**Asosiy manba**	**Atrof-muhitga ta’siri**
Uglerod oksidi	CO	Ichki yonuv dvigateli	Havo sifatini yomonlashtiradi
Karbonat angidrid	CO_2	Yoqilg‘i yonishi	Issiqxona effekti
Azot oksidlari	NO_x	Dizel va benzin dvigatellari	Fotokimyoviy smog hosil qiladi
Oltingugurt dioksidi	SO_2	Dizel yoqilg‘isi	Kislotali yomg‘irlar
Uchuvchi organik birikmalar	VOC	Yonilg‘ining bug‘lanishi	Ozon hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi
Mayda zarrachalar	$PM_{2.5}$	Dizel dvigateli, shina yeyilishi	Nafas olish tizimiga zarar yetkazadi
Chang zarrachalari	PM_{10}	Yo‘l changi va transport	Havo ifloslanishini kuchaytiradi

Tadqiqotda baholangan asosiy ko‘rsatkichlar

2-jadval

Ko‘rsatkich	**O‘lchov birligi**	**Baholash usuli**
Transport oqimi	Avtomobil/soat	Transport oqimini hisoblash
CO emissiyasi	g/km	Emissiya tahlili
CO_2 emissiyasi	g/km	Emissiya hisoblash
NO_x emissiyasi	g/km	Laboratoriya va adabiyot ma’lumotlari
$PM_{2.5}$	µg/m³	Atmosfera monitoringi
PM_{10}	µg/m³	Atmosfera monitoringi
Yoqilg‘i sarfi	L/100 km	Texnik ko‘rsatkichlarni tahlil qilish

Natijalar

Tadqiqot davomida shahar hududida foydalanilayotgan transport vositalarining atrof-muhitga ta’siri transport oqimi, transport vositalari turi, yoqilg‘i turi va yo‘l infratuzilmasi bilan o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi. Ochiq rasmiy manbalar hamda ilmiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish natijasida transport sektori shahar atmosferasiga ta’sir qiluvchi asosiy antropogen manbalardan biri ekanligi tasdiqlandi.

ISO 21001:2025 xalqaro standarti talablarini joriy etishni siyosat va maqsadlarni o‘rnatish, tashkilot muhiti, jarayonlarini aniqlash va ularni boshqarish hujjatlarni ishlab chiqishdan boshlash lozim (4-ilova). ISO 21001:2025 standarti ta’lim tashkilotlari uchun sifatni boshqarishning yagona tizimli modelini taklif etadi. Ushbu xalqaro standartning asosiy maqsadi o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish, talabalar va boshqa manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini qondirish, shuningdek natijalarni doimiy ravishda takomillashtirishdir. U rahbariyat yetakchiligi va o‘quvchilarga yo‘naltirilgan ta’lim menejmenti tizimlari tamoyillariga asoslanadi.

E. Wibisono o‘z tadqiqotida “ISO 21001:2018 standartini “o‘quvchi markazli boshqaruv tizimi” sifatida talqin etib, unda o‘qitish, baholash va rahbariyat qarorlari o‘zaro uzviy bog‘lashga jarayonli yondashiladi” [1]. Uning fikricha, bu standartini ISO 9001, ISO 14001 va ISO 45001 kabilar bilan uyg‘unlashtirish mumkin. Bu bilan natijaviylik, ekologik va kasbiy xavfsizliklar ta’minlanadi.

S. Mamatkulov esa “ISO 21001:2018 standartining O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida joriy etilishining dolzarbligini asoslab, uni ta’lim sifatini kafolatlash va manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish vositasi sifatida baholaydi”[2]. Muallif standartning afzalliklarini yuqori rahbariyatning javobgarligi, baholash mezonlarini o‘quv natijalari bilan muvofiqlashtirish va dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatlari nuqtai nazaridan tushuntiradi.

Qayta ko‘rib chiqilgan ISO 21001:2025 standarti o‘z mazmunini kengaytiradi va muhitga moslashish, raqamli boshqaruv, barqaror rivojlanish va axborot xavfsizligi bo‘yicha yangi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu o‘zgarishlar ta’lim tashkilotlarining ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi, raqamli transformatsiyani tezlashtiradi va ta’limni global tendentsiyalarga moslashtiradi.

Vibisono va Mamatqulovning “tadqiqotlari ISO 21001:2025 standartining tuzilishi va mazmunini ham amaliy, ham nazariy jihatdan boyitadi”[29-30]. Ularning ilmiy qarashlari ta’lim tashkilotlari menejmenti tizimlarini natijaviy, barqaror va manfaatdor tomonlarga yo‘naltirilganlikka xizmat qiladi.

Oliy ta’limda sifat tushunchasini aniqlash va menejment tizimlarni qurish borasida ilk tayanch sifatning ko‘p o‘lchovli ko‘rsatkichlaridan, “L. Xarvi va D. Greenlar “mukammallik”, “muvofiqlik”, “daraja”, “standartlarga aynanlik” va “o‘zgarish jarayoni” kabilarni taklif etib, sifat faqat yakuniy natijalar bilan emas, balki jarayonlar, resurslar va boshqaruv usullarining uyg‘unligi

bilan belgilanish”[3]. Yigirma yillik tahlillarida Xarvi va J.Uilyams “ichki baholash, tashqi akkreditatsiya va manfaatdor tomonlar bilan aloqa mexanizmlari ta’lim sifati uchun juda muhimligini ko‘rsatib, sifatni shunchaki tekshirish emas, balki doimiy takomillashtirish tizimi sifatida talqin qiladilar”[4]. Ushbu qarashlar muhitni aniqlash, manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini hisobga olish va ta’lim tashkilotlarida boshqaruv tizimi talablarini amalga oshirishda yetakchilikning muhimligini ta’kidlaydi.

Sifatni dars jarayoniga “kiritish” masalasida J.Biggsning “konstruktiv moslashtirish” “konsepsiyasi o‘quv natijalari, o‘qitish faoliyatlari va baholash mezonlari o‘rtasida uzluksiz muvofiqlikni talab qiladi”[5]. “Undagi yondashuv Ta’lim tashkilotlari menejment tizimlarida “samaradoklik” va “natijaviylik” erishishda, baholash mezonlarini band talablari bilan bog‘lashni, sifat kafolatini sinf xonasidan boshlanib, boshqaruv darajasiga yetkazish talabini qo‘ygan.

Baholashni o‘qitishning tarkibiy qismi sifatida ko‘rgan P. Blek va D. Uilyamlar “qayta aloqalar orqali o‘qishni chuqurlashtirish”[6]. Ularning xulosasi shuki, baholash natijasi faqat ball emas, balki talabaning bandlik faolyati natijalari deb hisoblaydilar. D. Boud va N. Falchikovlar “o‘z-o‘znni baholash, tengdosh fikri va mezonlarning shaffofligi, mustaqil o‘rganishni kenggaytish” [7]. Mazkur g‘oyalar Ta’lim tashkilotlari menejment tizimidagi “talabaga yondashuv”, “baholash adolatliligi” va “ko‘rsatkichlarga tayanish” talablarini amaliyot bilan bog‘laydi.

D. Stufflebeam “baholash va boshqaruvning tizimli modeli sifatida “muhit – kirish – jarayon – natija” modeli ta’lim dasturlarini rejalashtirish, bajarish, tekshirish va natijani baholashni yagona siklga birlashtiradi”[8]. Bu yondashuv Ta’lim tashkilotlari menejment tizimida ko‘zda tutilgan “rejalashtirish – bajarish – tekshirish – takomillashtirish” sikli bilan mantiqan uyg‘un ko‘rsatadi. Ta’limdagi o‘zgarishlar inson omili va tashkilot madaniyatiga tayangani bois M. Fullan “o‘zgarishlarni boshqarishning ruhiy, ijtimoiy va tashkiliy jihatlarini ochib, rahbariyat homiyligi, doimiy muloqot, hamkorlik va kichik g‘alabalar orqali ishonchni mustahkamlash”[9]. Bu xulosalar Ta’lim tashkilotlari menejment tizimlarining “yetakchilik” bandini faqat ta’lim siyosatining o‘rnatilishi, balki axloqiy tamoyillarning o‘zgarishi sifatida ham talqin qilishga undaydi.

Sifat darajasini kafolatlashda “QAA ning sifat kodeksida ichki javobgarlik, baholashning adolatliligi, talaba ko‘nikmasi ma’lumotlari va manfaatdor tomonlar bilan muntazam muloqot olib borish”[10]. “ENQA tomonidan esa – ta’lim sifati bo‘yicha ko‘rsatmalar masofaviy muhitda o‘qituvchi-talaba o‘zaro aloqasi, baholashning ishonchliligi, axborot xavfsizligi va inklyuzivlikni bosh mezon sifatida belgilaydi”[11]. Xalqaro tajribalar “shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim menejmenti tizimlari talablarni joriy etish na faqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshirmay balkiy boshqaruvning shaffofligini ham ta’minlashga xizmat qiladi. C.Moturi va P.Mbithilar tomonidan Nayrobi universitetida olib borgan tadqiqotlarida ISO 9001 sifat menejmenti tizimlari talablarini joriy etilishi natijasida universitetda hujjat aylanishi tezlashgani, qarorlarni qabul qilishda dalillarga asoslangan va talabalarga xizmat ko‘rsatish sifati yaxshilangan”. Shuningdek, B. Hussein, S. Abou – Nassif, M. Aridi va boshqalar Livan oliy ta’lim muassasalarida ISO 9001:2015 ni joriy etish jarayonini o‘rganib, asosiy muammo talablarini o‘zgarishlarga qarshilik, moliyaviy resurslarning yetishmasligi hamda rahbariyatning cheklangan imkoniyatlarini qayd etganlar. Ularning fikricha, xalqaro standartlar talablarini tatbiq etish uchun o‘qituvchilarni muntazam tayyorlash, manfaatdor tomonlar bilan muloqotni kuchaytirish va resurslarni strategik boshqarish zarur.

Tahlil qilingan adabiyotlar bitta yo‘nalishga ishora qiladi: sifat hujjat emas, balki “natija — jarayon — dalil” triadasini bir — biriga bog‘laydigan boshqaruv madaniyati. Xarvi va Grin sifatning ko‘p o‘lchovliligini, Biggs ta’lim jarayonida moslikni. Blek va Uilyam baholashning bandlikka xizmat qilishini. Stufflebeam tizimliy baholashni. Fullan esa “o‘zgarishlarni

boshqarishning ijtimoiy tamoyillarni asoslab beradi. “QAA va ENQA esa bu tamoyillarni amaliy talablar darajasiga ko‘taradi. Moturi, Mbithi, Hussein va boshqa hammualliflar tadqiqotlari ISO 21001:2025 standartining joriy etilishida xalqaro tajribalardan foydalanish muhimligini ko‘rsatadi. Ta’lim jarayonlarini hujjatlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish, o‘qituvchilarni faol jalb qilish va manfaatdor tomonlar bilan doimiy aloqa ISO 21001 xalqaro standartini samarali amalga oshirish uchun muhim shart hisoblanadi. Shu bois, bu tajribalar bilan hamohang O‘zbekistonda ta’lim sifatini boshqarish sohasida olib borilayotgan tadqiqotlarni ilmiy asoslash zarur.

ADABIYOTLAR

1. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. T.: 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son.

2. Shavelson R.J.; Domingue B.W.; Mariño J.P.; Molina-Mantilla A.; Morales J.A.; Wiley E.E. “On the practices and challenges of measuring higher education value added: The case of Colombia” //Assessment and Evaluation in Higher Education., 41(5), 695–720.

3. Stufflebeam, D. L. The CIPP Model for Evaluation // In: Kellaghan, T.; Stufflebeam, D. L. (eds.). International Handbook of Educational Evaluation. Dordrecht: Kluwer Academic Publishers, 2003. 31–62. p

4. Wibisono E. The new management system ISO 21001:2018: What and why educational organizations should adopt it // Proceedings of the 11th International Seminar on Industrial Engineering and Management (ISIEM 2018), Makassar (Indonesia), 27–29 Nov. 2018. P. 66–73. ISSN 1978-774X. URL: https://repository.ubaya.ac.id/36836

5. Mamatkulov, S. The importance of the ISO 21001:2018 standard in guaranteeing the quality of higher education// MMIT Proceedings. 2024. B. 211–214. -DOI: 10.61587/ mmit.tiue.uz.v1i1.89.

6. Harvey L.; Green D. Defining Quality// Assessment & Evaluation in Higher Education. 1993. Vol. 18, № 1. P. 9-34.

7. Harvey L.; Williams J. Fifteen Years of Quality in Higher Education (Part 1) // Quality in Higher Education. 2010. Vol. 16, № 1. P. 3-36.

8. Harvey L.; Williams J. Fifteen Years of Quality in Higher Education (Part 2) // Quality in Higher Education. 2010. Vol. 16, № 2. P. 81–113.

9. Biggs J. Enhancing Teaching through Constructive Alignment // Higher Education. 1996.Vol. 32, № 3. P. 347–364.

10. Stufflebeam D.L.; Shinkfield A.J. Evaluation Theory, Models, and Applications. San Francisco: Jossey-Bass, 2007.768 p.

UO‘T:: 656.13.08:504.06

ANDIJON SHAHAR AL-FARG‘ONIY KO‘CHASIDA SVETOFORLARNING EKOLOGIYA VA YOQILG‘I SARFIGA TA’SIRINI O‘RGANISH

Axmatoxunov Baxtiyor
Andijon davlat texnika instituti,
Transport logistikasi kaedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Andijonshahar Al-Farg‘oniy ko‘chasida joylashgan svetoforlarning transport oqimi, yoqilg‘i sarfi va ekologik holatga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ushbu ko‘chadagi 12 ta svetoforning joylashuvi, ularning ishlash vaqtlari va harakatlanish dinamikasi o‘rganildi. Ekologik tahlilga ko‘ra, bir svetoforda 1 daqiqalik kutish natijasida avtomobil 10–15% ortiq yoqilg‘i sarflashi mumkin. Tadqiqot natijalari asosida svetoforlar ishlash algoritmini harakat zichligiga moslashtirish (intellektual boshqaruv tizimlari), ekologik xavfsizlik va yoqilg‘i tejamkorligini ta’minlash bo‘yicha amaliy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Chiqindi gazlar, avtomobil, ichki yonuv dvigateli, shina protektorlari, tormoz ustquymalari, atrof-muhit, zararli zarrachalar, yo‘l qoplamasi.

Анотация. В данной статье анализируется влияние светофоров, расположенных на улице Аль-Фергани в городе Фергана, на транспортный поток, расход топлива и экологическую ситуацию. В ходе исследования было изучено расположение 12 светофоров на этой улице, время их работы и динамика движения. Согласно экологическому анализу, в результате 1 минуты ожидания на одном светофоре автомобиль может расходовать на 10-15% больше топлива. На основе результатов исследования даны практические предложения по адаптации алгоритма работы светофоров к плотности движения (интеллектуальные системы управления), обеспечению экологической безопасности и экономии топлива.

Ключевые слова: Выхлопные газы, автомобиль, двигатель внутреннего сгорания, протекторы шин, тормозные накладки, окружающая среда, вредные частицы, дорожное покрытие.

Abstract. This article analyzes the impact of traffic lights located on Al-Farg'oniy Street in Fergana city on traffic flow, fuel consumption, and environmental conditions. The study examined the placement of 12 traffic lights along this street, their operational times, and traffic dynamics. Environmental analysis revealed that a vehicle may consume 10-15% more fuel as a result of a one-minute wait at a single traffic light. Based on the research findings, practical recommendations were proposed to adapt the traffic light operation algorithm to traffic density (intelligent control systems), ensuring environmental safety and fuel efficiency.

Key words. Exhaust gases, car, internal combustion engine, tire tread, brake pads, environment, harmful particles, road surface.

Kirish. Zamonaviy shaharlarda avtomobil harakati intensivligi kundan-kunga oshib borayotgan bir paytda, transport vositalarining atrof-muhitga ko‘rsatadigan salbiy ta’sirini kamaytirish dolzarb muammolardan biriga aylangan. Xususan, avtomobillar harakatining tashkil etilishi, shahar infratuzilmasining to‘g‘ri boshqarilishi, yo‘l-transport tizimidagi muvozanat bularning barchasi ekologik barqarorlik va yoqilg‘i tejamkorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [1]. Bu jarayonda svetofor tizimlarining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Svetoforlar harakatni tartibga soluvchi eng asosiy vositalardan biri bo‘lib, ular yordamida yo‘l harakatining xavfsizligi ta’minlanadi, transport oqimlari boshqariladi va muayyan holatlarda yoqilg‘i sarfi hamda chiqindilar miqdorining kamayishiga erishish mumkin [2].

Andijonshahri O‘zbekistonning yirik sanoat, iqtisodiy va transport markazlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, shaharning markaziy hududi bo‘lgan Al-Farg‘oniy ko‘chasi kunlik

harakatlanish ko‘lami yuqori bo‘lgan asosiy yo‘nalishlardan biridir. Ushbu ko‘chada turli sinfdagi transport vositalari, jamoat transporti, piyodalar harakati doimiy va zich bo‘lib, svetoforlarning joylashuvi va ishlash algoritmi bu hududdagi ekologik holat hamda yoqilg‘i sarfiga bevosita ta’sir qilishi mumkin [3]. Shuning uchun aynan Al-Farg‘oniy ko‘chasida svetoforlar tizimining qanday ishlayotgani, ularning transport oqimiga va atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar miqdoriga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani muhim tadqiqot obyektidir [4].

Dunyo miqyosida olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, noto‘g‘ri sozlangan yoki eski texnologiyalarga asoslangan svetoforlar avtomobillarni keraksiz to‘xtab-turishlarga majbur qilgani sababli yoqilg‘i sarfini oshiradi va chiqindilar miqdorini ko‘paytiradi. Bundan tashqari, bunday svetoforlar tufayli shahar hududlarida tirbandliklar yuzaga keladi, bu esa ham iqtisodiy, ham ekologik yo‘qotishlarga olib keladi. Shu bilan birga, zamonaviy svetofor tizimlari masalan, adaptiv svetoforlar real vaqt rejimida harakat zichligini aniqlab, shunga mos tarzda ishlaydi va transport oqimini optimallashtiradi. Bu esa nafaqat tirbandliklarni kamaytiradi, balki transport vositalarining yoqilg‘i tejamkorligini oshirib, atrof-muhitga chiqariladigan zararli gazlar hajmini sezilarli darajada kamaytiradi [5].

Metodologiya. Transport vositalarining ko‘pligi natijasida atmosferaga chiqarilayotgan **SO_2, NOx, CO, PM10 va PM2.5** kabi ifloslantiruvchi moddalar miqdori ortib bormoqda. Yil davomida avtomobillardan chiqadigan gazlar shahar havosining sifatsizlanishiga olib keladi. Bundan tashqari Yirik yo‘llar va kesishmalar yaqinida yashovchi aholi uchun **shovqin darajasi me’yorlardan yuqori** bo‘lishi mumkin [6]. Andijonviloyati hududida oxirgi o‘n yillikda butun avtomobil parkida sezilarli o‘sish kuzatildi. O‘sish ko‘rsatkichlari Andijonviloyati IIBYHHB boshqarmasi ma’lumotlariga asosan viloyatidagi ro‘yxatga olingan avtomobillarning umumiy soni avtotransport vositalarining toifalari bo‘yicha tahlil qilindi.

Natija va muhokama. Andijonviloyatida ro‘yxatga olingan avtomobillar soni quyidagi jadvallarda keltirilgan.

1-jadval

Andijonviloyatida 2020 yildan 2024 yilga qadar ro‘yxatga olingan barcha turdagi avtomobillar soni yillar kesimida

№	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y	2024 y
Yuridik shaxslarga tegishli avtomobillar soni					
1	21 934	23 072	25935	26 697	25 250
Jismoniy shaxslarga tegishli avtomobillar soni					
2	302 535	325 562	361 761	391 184	512 658
Andijonviloyatidagi barcha avtomobillar soni					
3	324469	348 634	387 696	417 881	537 908


Hozirgi kunda Andijonviloyatida ham avtomobillarning soni jadal ortib bormoqda. Avtomobillardan chiqadigan zararli gazlar **(CO_2, NO_x, CO, PM va boshqa)** atrof-muhit ifloslanishining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Andijonshahri Al-Farg‘oniy ko‘chasida amaliy tadqiqot ishlari o‘tkazildi, buning uchun biz yo‘l transporti oqimi to‘g‘risida ma’lumot to‘pladik. Kuzatuv maydonida 12 ta svetofor mavjud. Biz mashinalar to‘xtamaydigan nazariy “yashil to‘lqin” va chorrahalarda to‘xtab qolganda “qizil to‘lqin” o‘rtasidagi farqni kuzatdik, ya’ni 1 dan 12 to‘xtashgacha. Shunday qilib, biz kuzatuv yo‘nalishining butun uzunligi bo‘ylab transport barqaror deb taxmin qildik, bu albatta to‘g‘ri emas -Transport vositalari ba’zida og‘ir, ba’zan yengil. Bundan tashqari, biz ma’lumotlarni olgan kun odatiy kun deb taxmin qildik va shuning uchun olingan ma’lumotlar yilning barcha kunlariga taalluqlidir, garchi bu yakshanba va bayram kunlari uchun to‘g‘ri emasligini bilamiz.

Bundan tashqari biz faqatgina shimol-janub yo‘nalishidagi transport oqimini o‘rgandik va bog‘lanadigan yo‘llardagi transportni hisobga olmadik. Biz ma’lum bir kunda ma’lum bir yo‘nalishda chorrahada yoqilg‘i iste’molini oshirishning ekologik yuki miqdorini ko‘rsatishni istadik.

Nisbatan kichik maydonda (9,8 km yo‘l) o‘lchash natijalari yoqilg‘i iste’molida sezilarli farqlarni ko‘rsatadi, bu “yashil” va “qizil to‘lqin” o‘rtasida har yili 1,5 million litrdan ortiq yoqilg‘i miqdoriga yetishi mumkin. Bu tegishli ko‘paytirish orqali kengroq shahar maydoniga umumlashtirilishi mumkin.

Bizning tadqiqotimiz maydoni Andijonshahrining Al-Farg‘oniy ko‘chasi yo‘lining 9,8 km uzunlikdagi qismi ko‘rsatilgan 1-rasmda keltirilgan. Rasmda svetoforlar 1 dan 12 gacha bo‘lgan raqamlar bilan belgilangan.



1-rasm. Andijon shahar Al-Farg‘oniy ko‘chasi svetoforlar belgilangan yo‘l eskizi

Yoqilg‘i iste’molini hisoblashda biz transport vositalari qoidalarga muvofiq boshqarilgan deb taxmin qildik - ularning tezligi soatiga 50 km dan oshmaydi. Har bir transport vositasi turi uchun o‘rtacha iste’mol ma’lumotlari o‘lchandi yoki olingan. Quyidagi jadvalda (1-jadvalga qarang) har bir transport vositasi turi uchun o‘lchanadigan 0 dan 50 km/soat gacha tezlashish vaqti ko‘rsatilgan. Shaxsiy avtotransport vositalari uchun iste’mol 0 dan 50 km/soat gacha tezlashtirish paytida yonilg‘i iste’molining oshishini hisobga olindi. Keyinchalik, qo‘shimcha ma’lumot olingandan so‘ng, tezlashtirish paytida iste’molning bu o‘sishi omili yuk mashinalari va avtobuslarga ham qo‘llanilishi mumkinligini aniqladik, ammo tezlashtirish vaqti (va natijada transport vositasi tomonidan amalga oshirilgan masofa) uzoqroq. Yuk mashinalari misolida biz tezlashtirish vaqti yukning og‘irligiga qarab juda farq qilishiga guvoh bo‘ldik. To‘xtamasdan harakatlanish sharoitida yoqilg‘i sarfi quyidagicha hisoblanadi:

2-jadval

O‘rtacha tezlashish vaqtlari 50 km / soatgacha kerakli tezlik va tezlashtirish paytida bosib o‘tilgan masofalar

Transport vositasi turi	**O‘rtacha tezlashtirish vaqti 0 dan 50 km/s gacha (sek)**	**Tezlashtirish paytida bosib o‘tilgan masofalar (m)**
Avtomobillar	10.4	72

Yengil yuk transport vositalari (< 3.5t)	12	83
O‘rta yuk transport vositalari (3,5t - 7t)	14	97
Og‘ir yuk transport vositalari (7t ortiq)	16	111
Tirkamali transport vositalari	18.5	128
Avtobuslar	15	104
Mototsikllar	8.2	57

Hisob-kitoblarimizda biz bir xil chorrahada mumkin bo‘lgan bir nechta to‘xtashlarni hisobga olmadik biz transport vositasi chorrahadan aniq o‘tib ketgan deb taxmin qildik, garchi amalda bu har doim ham bunday bo‘lmaydi. Ko‘pincha svetoforlar va tirbandliklarda avtomobillar bir necha bor tezlashadi va sekinlashadi.

Ko‘pincha svetoforlar va tirbandliklarda avtomobillar bir necha bor tezlashadi va sekinlashadi. Bunday hollarda avtomobillarning yoqilg‘i sarfi ortadi va atrof muhitga zararli moddalarni ko‘proq chiqariladi.

Shunday qilib, o‘rtacha iste’mol 8,13 litr/100 km bo‘lgan avtomobil tezlashtirish paytida 21,8 litr/100 km iste’molga yetadi. 50 km/soat tezlikni tezlashtirish davom etadi 10.4 soniya davomida avtomobil 72 m yuradi. O‘rtacha iste'mol 0,0000813 litr/m, tezlashtirish paytida iste’mol 0,0002158 litr/m ni tashkil etadi. 3-jadvalda alohida transport vositalari turlari bo‘yicha to‘plangan va hisoblangan barcha ma’lumotlar keltirilgan albatta ortib borayotgan iste'mol omilini hisobga olgan holda.

3-jadval

Transport vositalarining ayrim turlari tomonidan yoqilg‘i iste’moli

Transport vositasi turi	**O‘rtacha iste’mol (l/m)**	**Tezlashtirish paytida iste’mol (l/m)**
Avtomobillar	0.0000813	0.0002158
Yengil yuk mashinalari (< 3.5t)	0.0001120	0.0002968
O‘rta mahsulotlar Transport vositalari (3.5t – 7t)	0.0001690	0.0004478
Og‘ir yuk tashish vositalari (7t dan ortiq)	0.0002350	0.0006227
Tirkamali transport vositalari	0.0003500	0.0009275
Avtobuslar	0.0002800	0.0007420
Mototsikllar	0.0000400	0.0001060

Tadqiqotlardan ko‘rinib turibdiki, yo‘l harakati oqimi yoqilg‘i iste’moliga kutilmaganda katta ta’sir ko‘rsatadi va natijada PM10 zarralari miqdoriga ham ta’sir qiladi. Andijonshahrining Al-Farg‘oniy ko‘chasining 9.8 km masofadagi 12 ta svetofori va shu bilan marshrutda sayohat qilish uchun 12 ta mumkin bo‘lgan tartib-qoidalar, eng yaxshi holatda bir sutkada o‘rtacha 4,939 litr yoqilg‘i iste’mol qilinadi va eng yomon holatda 22,219 litr iste’mol qilinadi degan xulosaga kelish mumkin. Albatta, tormoz, shinalarning yeyilishi va ishga tushirish va tormozlash

natijasida avtomobilning umumiy silkinishlari natijasida yetkazilgan zararlarni ham hisobga olish kerak. Yoqilg‘i iste’molining oshishi tufayli to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlarga qo‘shimcha ravishda, shovqinning oshishi va CO_2 va PM_{10} (shuningdek, $PM_{2.5}$ va PM_1 ni o‘z ichiga oladi) zarralarining sezilarli darajada tarqalishi tufayli atrof-muhini ifloslanishni ham hisobga olishimiz kerak. Agar Andijonshahri Al-Farg‘oniy ko‘chasidagi svetoforlar oqilona boshqarilsa yoki “yashil to‘lqin tizimi joriy qilinsa kuniga 17 ming litrdan ortiq yoqilg‘i tejash mumkin bu o‘z navbatida ekologiya va iqtisodga katta foyda keltiradi.

Xulosa

Andijonshahar Al-Farg‘oniy ko‘chasida o‘rganilgan ma’lumotlarga asoslanib, ushbu hududdagi svetoforlarning soni va ularning ish faoliyati ekologik holat va yoqilg‘i sarfiga bevosita ta’sir ko‘rsatayotgani aniqlandi. Svetoforlar oldida avtomobillarning tez-tez to‘xtashi va qayta harakatlanishi natijasida yonilg‘i sarfi ortib, atmosferaga ko‘proq zararli gazlar karbonat angidrid (CO_2), azot oksidlari (NOx), uglevodorodlar (HC) va boshqa chiqindilar chiqarilmoqda. Bu esa nafaqat yoqilg‘i samaradorligini pasaytiradi, balki havoning ifloslanishiga ham olib keladi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, noto‘g‘ri sozlangan yoki harakat oqimini hisobga olmagan svetoforlar transport oqimining tirband bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Bu holat yo‘l harakati xavfsizligiga salbiy ta’sir qilishi bilan birga, atrof-muhitga ham katta zarar yetkazmoqda. Shu asosda, Al-Farg‘oniy ko‘chasidagi svetoforlarni aqilli boshqaruv tizimiga o‘tkazish, ya’ni real vaqtda harakat zichligini aniqlab, svetofor fazalarini avtomatik sozlovchi tizimlarni joriy etish ekologik va iqtisodiy jihatdan foydali yechim bo‘lishi mumkin. Bu nafaqat yoqilg‘i sarfini kamaytiradi, balki chiqindi gazlar miqdorini qisqartirib, shaharning ekologik holatini yaxshilaydi.

ADABIYOTLAR

1. Masodiqov. Q, Xujamqulov. S., & Masodiqov. J. (2022). Avtomobil shinalarini ishlab chiqarish va eskirgan avtomobil shinalarini utilizatsiya qilish bo'yicha eksperiment o'tkazish usuli. Academic research in educational sciences, 3(4), 254-259.
2. Meliboyev. A., Khujamqulov. S. & Masodiqov. J. (2021). Univer calculation-experimental method of researching the indicators of its toxicity in its management by changing the working capacity of the engine using the characteristics. Экономика и социум, (4-1), 207-210.
3. Khodjaev. S. (2022). The main problems of organization and management of car maintenance and repair stations in the Ferghana region. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(9), 1-10
4. Xujamqulov. S. & Masodiqov. Q. (2022). Avtotransport vositalarining ekspluatatsion xususiyatlarini kuzatish bo'yicha vazifalarni shakllantirish. Academic research in educational sciences, 3(4), 503-508.
5. Xujamqulov. S. U., Masodiqov. Q. X., & Abdunazarov. R. X. (2022, March). Prospects for the development of the automotive industry in uzbekistan. In E Conference Zone (pp. 98-100).
6. Tojibayev F., Masodiqov. J. Noise generated in the exhaust system of the engine //Open Access Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 03. – С. 234-240.

UO‘T: 711.4:502.131.1

SHAHAR QURILISHIDA YASHIL INFRATUZILISHNING ATROF-MUHITGA TA’SIRI

Xodjimatova Gulnoz Dilshodbek qizi
Saidov Jahongir Egamberdiyevich
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
galim95gul@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston shaharlari uchun yashil infratuzilishning atrof-muhitga ta’sirini kompleks baholashning nazariy-metodologik asoslari taklif etiladi. Ko‘p mezonli baholash, geoinformatsion tizimlar va masofadan zondlash usullarini birlashtirgan integrallashgan yondashuv ishlab chiqilgan bo‘lib, uning ilmiy asoslanishi va amaliy qo‘llanilish imkoniyatlari ko‘rsatiladi.

Аннотация. В данной статье предлагаются теоретико-методологические основы комплексной оценки воздействия зеленой инфраструктуры на окружающую среду для городов Узбекистана. Разработан интегрированный подход, объединяющий методы многокритериальной оценки, геоинформационных систем и дистанционного зондирования, показаны его научная обоснованность и возможности практического применения.

Abstract. This article proposes the theoretical and methodological foundations for comprehensively assessing the environmental impact of green infrastructure for cities in Uzbekistan. An integrated approach has been developed, combining methods of multi-criteria assessment, geoinformation systems, and remote sensing, demonstrating its scientific validity and possibilities for practical application.

Kalit so‘zlar: yashil infratuzilish, shahar ekologiyasi, atrof-muhitga ta’sirni baholash, geoinformatsion tizimlar, ekotizim xizmatlari, o‘simlik qoplami, issiqlik oroli.

Ключевые слова: зеленая инфраструктура, городская экология, оценка воздействия на окружающую среду, геоинформационные системы, экосистемные услуги, растительный покров, тепловой остров.

Keywords: green infrastructure, urban ecology, environmental impact assessment, geoinformation systems, ecosystem services, vegetation cover, thermal island.

Kirish.

Jahon aholisining yarmidan ko‘pi shahar hududlarida yashayotgan bir paytda, urbanizatsiya ekologik muammolarni keskin ko‘paytirib yubormoqda. O‘zbekistonda ham so‘nggi o‘n yil ichida shahar qurilishi jadallik bilan olib borilmoqda: yirik va o‘rta shaharlarda yangi tumanlar barpo etilmoqda, biroq qurilish jarayonida yashil maydonlar ko‘pincha ikkinchi o‘ringa surilib qolmoqda.

Yashil infratuzilish deganda shahar tarkibidagi daraxtlar, parklar, ko‘kalamzorlar, suv havzalari atrofidagi o‘simlik qoplami va yashil tomlar tizimi tushuniladi [1]. Bu tizim havo sifatini yaxshilash, issiqlik stressini kamaytirish va biologik xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlash kabi muhim ekologik vazifalarni bajaradi. Shunga qaramay, O‘zbekistonda yashil infratuzilishning atrof-muhitga ta’sirini o‘lchash uchun ilmiy-metodologik asos hali to‘liq ishlab chiqilmagan. Ushbu maqola ana shu bo‘shliqni bartaraf etishga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Xalqaro miqyosda yashil infratuzilish bo‘yicha tadqiqotlar keng yo‘lga qo‘yilgan. Benedict va McMahon yashil infratuzilishni strategik rejalashtirilgan ekologik tarmoq sifatida ta’riflagan bo‘lsa, Tzoulas va boshqalar uni shahar aholisi salomatligi va farovonligi bilan bog‘lab o‘rgangan [3]. Bowler va hammualiflari yashil qoplam mavjud hududlarda havo harorati 2 dan 8 gradusgacha pastroq ekanini eksperimental tarzda isbotlagan [2].

Yevropada yashil infratuzilish siyosati davlat darajasida shakllantirilgan bo‘lib, Yevropa Komissiyasining 2013-yilgi maxsus hujjati bu sohada yagona metodologik asos sifatida e’tirof etiladi [4]. O‘zbekistonda esa 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida ko‘kalamzorlash va shaharsozlik muammolari alohida ajratib ko‘rsatilgan [5].

Biroq ushbu tadqiqotlarning aksariyati mo‘tadil yoki nam iqlim sharoitlariga moslashtirilgan. O‘rta Osiyo uchun xos bo‘lgan quruq kontinental iqlim, cheklangan suv resurslari va kuchli quyosh nuri yashil infratuzilishning ta’sir ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada o‘zgartiradi. O‘zbekistonga oid mavjud ilmiy ishlar ko‘pincha ayrim obyektlar doirasida qoladi va metodologik yaxlitlikdan mahrum. Bu holat mintaqaga moslashtirilgan kompleks baholash usulini yaratishni zarur qiladi.

Metodologiya uchta tarkibiy qismdan iborat integrallashgan metodologiya taklif etiladi.

1. Ko‘p mezonli baholash modeli. Bu yondashuv bir vaqtning o‘zida bir nechta ekologik ko‘rsatkichni birgalikda hisobga olish imkonini beradi. Model to‘rtta asosiy yo‘nalishni qamrab oladi. Birinchisi — havo sifati: havoda chang zarrachalarining miqdori hamda azot dioksidi konsentratsiyasiga yashil qoplam qanday ta’sir qilishi o‘lchanadi. Ikkinchisi — issiqlik muhiti: o‘simlik qoplami zichligi bilan yer usti harorati o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil etiladi. Uchinchisi — suv boshqaruvi: yog‘ingarchilik suvini yashil maydonlar qanchalik ushlab qolishi aniqlanadi. To‘rtinchisi — biologik xilma-xillik: o‘simlik turlari soni va changlatuvchi hasharotlar uchun muhit sifati baholanadi. Har bir yo‘nalish maxsus og‘irlik koeffitsienti bilan hisoblanib, yakunida nol dan birgacha bo‘lgan umumiy indeksga birlashtiriladi.


2. Geoinformatsion tizimlar va masofadan zondlash. Landsat va Sentinel sun’iy yo‘ldosh seriyalaridan olingan tasvirlar asosida o‘simlik qoplami zichligi xaritasi va yer usti harorati xaritasi tuziladi. O‘simlik qoplami zichligi yaqin infraqizil va qizil spektr kanallarini taqqoslash yo‘li bilan hisoblanadi. Yer usti harorati esa sun’iy yo‘ldosh termal kanalidan olingan ma’lumotlar orqali aniqlanadi. Bu xaritalar ko‘p yillik dinamika tahlili uchun qo‘llaniladi va shahar bo‘ylab issiq hamda salqin zonalarni ko‘rsatadi. Bundan tashqari, dronlar yordamida olingan yuqori aniqlikdagi aeriofotosuratlarda individual daraxt tojlarini ajratish uchun sun’iy neyron tarmoq algoritmlaridan foydalaniladi [6].

3. Dala monitoring tizimi. Har bir o‘rganilayotgan shaharda bir kvadrat kilometrni qamrab oluvchi kuzatuv nuqtalari belgilanadi. Har bir nuqtada havo harorati va namligi, havoda mayda chang zarrachalarining miqdori hamda tuproq namligi o‘lchanadi. Monitoring natijalari sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari bilan solishtirilib, modelni to‘g‘irlash va uning ishonchliligini oshirishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Natija va muhokama.

Taklif etilayotgan metodologiya qo‘llanilganda quyidagi natijalar kutilmoqda. Birinchidan, O‘zbekiston shaharlari bo‘yicha yashil qoplam zichligi va yer usti harorati o‘rtasidagi miqdoriy bog‘liqlik aniqlanadi. Bu bog‘liqlik turli iqlim zonalari va qurilish zichliklari sharoitida qanday o‘zgarishi solishtirma tahlil orqali ko‘rsatiladi.


Ikkinchi kutilayotgan natija — issiqlik muhitiga oid. Normallashtirilgan o‘simlik farqi indeksi va yer usti harorati o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjudligi metodologik hisob-kitoblar asosida kutilmoqda. Toshkent shahrida o‘tkazilgan dastlabki kuzatuvlar ham ushbu yo‘nalishni tasdiqlaydi [7]. Ushbu bog‘liqlik qanchalik kuchli ekanligini aniq raqamlarda ifodalash uchun haqiqiy dala va sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari zarur bo‘ladi. Quyidagi 1-rasmda kutilayotgan bog‘liqlikning konseptual ko‘rinishi tasvirlangan.



1-rasm. Yashil infratuzilish elementlarining kutilayotgan ekologik ta’sir ulushi (konseptual model)

Uchinchidan, O‘zbekistonning quruq iqlim sharoitida qaysi yashil infratuzilish elementlari — daraxtlar, o‘tloqlar, suv havzalari yaqinidagi o‘simliklar — atrof-muhitga eng kuchli ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlanadi. Bu natijalar kelajakdagi ko‘kalamzorlash dasturlarini ilmiy asosda loyihalash uchun asos bo‘ladi.

Taklif etilayotgan metodologiyaning amaliy amalga oshirilishi quyidagi ketma-ketlikda rejalashtirilmoqda. Har bir bosqich o‘zidan keyingi bosqich uchun kirish ma’lumoti vazifasini bajaradi va ular o‘zaro bog‘liq holda ishlaydi. Quyidagi 2-rasmda ushbu jarayonning to‘liq blok-sxemasi keltirilgan.



2-rasm. Integrallashgan monitoring metodologiyasining rejalashtirilgan blok-sxemasi

Birinchi bosqichda Landsat va Sentinel sun’iy yo‘ldosh seriyalaridan olingan tasvirlar qayta ishlanadi, normallashtirilgan o‘simlik farqi indeksi va yer usti harorati xaritalari tuziladi. Ikkinchi bosqichda dron yordamida olingan aeriofotosuratlarda neyron tarmoq algoritmlari qo‘llaniladi va individual daraxt tojlari ajratiladi. Uchinchi bosqichda dala kuzatuv nuqtalarida havo sifati, tuproq namligi va harorat o‘lchovlari olinadi. To‘rtinchi bosqich — ma’lumotlarni birlashtirish va ko‘p mezonli baholash modelini ishga tushirish. Har bir kuzatuv nuqtasi uchun

to‘rtta yo‘nalish bo‘yicha alohida ball hisoblanadi va og‘irlik koeffitsientlari orqali yagona ekologik indeksga (0 dan 1 gacha) birlashtiriladi. Beshinchi va yakuniy bosqichda ushbu indeks qiymatlari geografik axborot tizimi platformasiga yuklanib, shaharning ekologik xaritasi shakllantiriladi.

Metodologiyaning muhim ustunligi shundaki, har bir bosqich natijasi keyingi bosqich uchun tekshiruv vazifasini o‘taydi. Sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlaridan hisoblangan normallashtirilgan o‘simlik farqi indeksi ko‘rsatkichi dala kuzatuvlari bilan taqqoslanadi va farq ma’lum chegaradan oshsa, o‘lchov qayta amalga oshiriladi. Bu ko‘p bosqichli tekshiruv natijaning ishonchliligi darajasini sezilarli oshiradi.

Quyidagi jadvalda turli yashil infratuzilish elementlari uchun metodologiya qo‘llanilganda kutilayotgan ekologik samaradorlik ko‘rsatkichlari keltirilgan. Jadval qiymatlari xalqaro adabiyotlar asosidagi taxminiy diapasonlardir; haqiqiy qiymatlar empirik tadqiqot jarayonida aniqlanadi.

1-jadval

1-jadval. Yashil infratuzilish elementlarining kutilayotgan ekologik samaradorligi (taxminiy diapasonlar)


Element turi	Havo tozalash	Harorat ta'siri	Suv ushlab qolish	Xilma-xillik
Yirik soya beruvchi daraxtlar	Yuqori (kutiladi)	3–7°C (taxmin)	O'rtacha	Yuqori
Butalar va jonli to'siqlar	O'rtacha	1–3°C (taxmin)	Yuqori	O'rtacha
O't va o'tloq yuzalar	Past	0,5–1,5°C	Past	O'rtacha
Suv havzalari atrofi	O'rtacha	2–5°C (taxmin)	Juda yuqori	Juda yuqori
Yashil tomlar	Past	1–3°C (taxmin)	Yuqori	Past

Kutilayotgan korrelyatsion tahlil natijalari va shahar rejalashtirish uchun ahamiyati.

Metodologiyaning uchinchi asosiy natijasi sifatida normallashtirilgan o‘simlik farqi indeksi va yer usti harorati o‘rtasidagi miqdoriy bog‘liqlik aniqlanishi rejalashtirilmoqda. Quyidagi 3-rasmda ushbu kutilayotgan bog‘liqlikning konseptual ko‘rinishi tasvirlangan — bu real o‘lchovlar emas, balki tadqiqot gipotezasini ifodalovchi modeldir.

Agar metodologiya rejaga muvofiq amalga oshirilsa, olingan korrelyatsion tahlil natijalari shahar rejalashtiruvchilari uchun bevosita amaliy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, qaysi tumanlarda ko‘kalamzorlashtirish eng ko‘p samara berishini oldindan bashorat qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu esa cheklangan moliyaviy va suv resurslarini eng zarur hududlarga yo‘naltirish imkonini beradi.

Shahar rejalashtirish amaliyoti nuqtai nazaridan metodologiyaning yana bir muhim natijasi — turli qurilish zichliklarida yashil infratuzilishning optimal hajmini aniqlash. Zich turar-joy hududlari va sanoat zonalari uchun ko‘kalamzorlashtirishning minimal zaruriy darajasi ilmiy asosda belgilanishi rejalashtirilmoqda. Bu ko‘rsatkich keyinchalik shahar me’morchilik normalari va qoidalariga kiritilishi uchun asos bo‘lishi mumkin.



3-rasm. Normallashtirilgan o‘simlik farqi indeksi va yer usti harorati o‘rtasidagi kutilayotgan teskari korrelyatsiya (konseptual model, real ma’lumotlar asosida aniqlanadi)

Xulosa qilib aytganda, taklif etilayotgan metodologiya O‘zbekiston shaharlari uchun yashil infratuzilish sohasida ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishning poydevorini yaratadi. Kelgusida empirik tadqiqotlar olib borilganda ushbu metodologiya sinab ko‘riladi, aniqlanadi va mintaqaviy sharoitga yanada moslashtiriladi.

Xulosa

Ushbu maqolada O‘zbekiston shaharlarida yashil infratuzilishning atrof-muhitga ta’sirini baholash uchun ko‘p mezonli baholash, geoinformatsion tizimlar va dala monitoring usullarini birlashtirgan integrallashgan metodologiya taklif etildi. Metodologiyaning asosiy ustunligi shundaki, u O‘rta Osiyo iqlim xususiyatlarini — kuchli quyosh nuri, kam yog‘ingarchilik va issiq yoz — hisobga oladi va mavjud xalqaro yondashuvlarni mintaqaviy sharoitga moslashtiradi.

Shahar qurilishida yashil infratuzilishning atrof-muhitga ta’sirini ilmiy asosda baholash O‘zbekistonda barqaror shahar siyosatini shakllantirish uchun zaruriy asos hisoblanadi. Taklif etilgan metodologiya bu yo‘nalishdagi keyingi empirik tadqiqotlar uchun poydevor vazifasini o‘taydi.

ADABIYOTLAR

1. Benedict M.A., McMahon E.T. Green Infrastructure: Linking Landscapes and Communities. Island Press, 2006.

2. Bowler D.E. et al. Urban greening to cool towns and cities: A systematic review // Landscape and Urban Planning. 2010. Vol. 97(3). P. 147–155.

3. Tzoulas K. et al. Promoting ecosystem and human health in urban areas using Green Infrastructure // Landscape and Urban Planning. 2007. Vol. 81(3). P. 167–178.

4. European Commission. Green Infrastructure — Enhancing Europe’s Natural Capital. COM(2013) 249 final. Brussels, 2013.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «Yangi O‘zbekiston — 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.

6. Lafortezza R. et al. Green Infrastructure as a tool to support spatial planning in European urban regions // iForest. 2013. Vol. 6. P. 102–108.

7. Yusupov M.M., Rajabov I.R. Toshkent shahri hududlarida harorat tarqalishi va yashil qoplam o'rtasidagi munosabatlar // O'zbekiston geografiya jurnali. — 2021. — №3. — B. 45–58.

Ilmiy jurnalida maqolalarni chop etish uchun rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar:

1. Namangan davlat texnika universitetining “Qurilish va ta’lim ilmiy jurnali” («Научный журнал Строительство и образование», «Scientific journal Construction and education») da respublikamizning oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy ishlab chiqarish markazlari va xorijda bajarilgan ilmiy ahamiyatga molik ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari nashr etiladi. Ilmiy jurnal bir yilda olti martagacha chop etilib, unda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha maqolalar e’lon qilinadi:

- *Qurilish;*
- *Arxitektura va shaharsozlik;*
- *Pedagogika va ta’lim muammolari;*
- *Muhandislik va sanoat chizmacxiligi;*
-*Atrof-muhit muhofazasi va ekologiya*
- *Qisqa xabarlar.*

2. Tahririyatga taqdim etilayotgan maqola qo‘lyozmasi bo‘yicha muallif faoliyat olib borayotgan muassasa rahbariyati tomonidan imzolangan yo‘llanma xati, maqolani chop etish mumkinligi haqidagi ekspert xulosasi va maqola mualliflarining tarkibida fan doktori bo‘lmagan taqdirda tegishli fan yo‘nalishi bo‘yicha fan doktorining rasmiy taqrizi bo‘lishi shart. Maqolalar o‘zbek, rus yoki ingliz tillarida taqdim etilishi mumkin. **Maqolaning nomi, qisqacha annotatsiyasi (8-10 qator) va kalit so‘zlar (10-15 ta) o‘zbek, rus va ingliz tillari**da beriladi.

3. Maqola matni “MS Word” dasturida “Times New Roman” shriftida 12 pt o‘lchamda, hajmi 1 intervalda 6-10 bet bo‘lishi kerak. Varoq o‘lchami 210x297 mm (A4-format), matn chegara o‘lchamlari yuqoridan va pastdan– 2,0 sm, chapdan – 3,0 sm, o‘ngdan – 1,5 sm bo‘lishi lozim.

4. Maqolani rasmiylashtirish qoidalari quyidagilardan iborat: Maqola boshining chap tomonida UO‘T (UO‘T), keyingi qatorda maqolaning nomi o‘zbek, rus va ingliz tillarida (bosh harflarda, o‘rtada, qalin yozuvda (jirniy)), undan keyingi qatorda mualliflar to‘g‘risidagi ma’lumotlar (familiyasi, ismi, otasining ismi, ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, elektron manzili hamda telefon raqamlari) o‘zbek, rus va ingliz tillarida kichik bosma harflarda yoziladi, qisqacha annotatsiyasi (8-10 qator) va kalit so‘zlar (10-15 ta) o‘zbek, rus va ingliz tillarida beriladi.

Maqolaning annotatsiyasi (abstract) ya’ni maqolaning qisqacha mazmunida maqsadi (objective), usullari (methods), natijalari (results) va xulosa (conclusion) qismlari qisqacha yoritilib o‘tilishi shart. Chunki maqola annotatsiyasini o‘qib chiqib, olim maqolani to‘liq o‘qishga qaror qilishi uchun maqolaning asosiy tushunchalarini yetarlicha tushunishi kerak. Annotatsiyadan so‘ng mavzuga tegishli terminlar, kalit so‘zlar (keywords) ham keltirilishi kerak;

Maqolaning asosiy qismida Kirish (Introduction), usullari (methods), natijalar (results), muhokamalar (discussion), va xulosalar (conclusion) bo‘limlari aniq ma’lumotlar asosida yoritib berilishi kerak.

Bir qatordan so‘ng maqola matni yoziladi. Maqoladagi formulalar Word dagi Vstavkani ichida Obyekt bor shunga kirib Microsoft Equation 3.0 da yoziladi. Rasm (grafik, sxema va chizma)lar standart qoidalarga rioya qilingan holda 10x10 sm dan katta bo‘lmagan o‘lchamda tayyorlanishi, ularni soni 5 tagacha, qisqa xabarlarda esa 2 tagacha ruxsat etiladi. Nomlari esa rasmdan so‘ng qalin yozuvda o‘rtada yoziladi **(1-rasm. Nomi).**

Jadvallarning nomlari javalning yuqori qismida qalin yozuvda o‘rtada yoziladi (**1-jadval. Nomi).** Adabiyotlarga havolalar maqola ichida [1] ko‘rinishda bo‘lib, foydalanilgan adabiyotlar maqola oxirida havolalar ketma-ketligi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxatida quyidagilar ko‘rsatiladi: jurnalda chop etilgan maqolalar va ma’ruza tezislari uchun - Mualliflarning familiyasi, ismi sharifi. Maqolaning nomi // Jurnalning nomi. – Nashr joyi va yili. – Soni yoki qismi. – Betlari. (1. Turayev N.S., Saidov R. Anor tuplarini yarim ochadigan mashinaning

lemexlari va tuproq yo‘naltirgichlarining qamrash kengliklarini asoslash // Namangan davlat texnika universiteti ilmiy-texnika jurnali. – Namangan, 2019. – №1. – B. 77-81.); monografiyalar uchun - Mualliflarning familiyasi, ismi sharifi. Nomi. – Nashriyot nomi, joyi va nashr yili. – Betlar soni. (1. Imomkulov Q.B., Turayev N.S. Anor tuplarini yarim ochadigan mashina parametrlarini asoslash. – Fan va texnologiyalara: Toshkent, 2021. – 180 b.); avtoreferatlar uchun - Muallifning familiyasi, ismi sharifi. Mavzusi: ishning darajasi. – Nashr joyi va yili. – Betlar soni. (1. Turayev N.S. Anor tuplarini yarim ochadigan mashina parametrlarin asoslash: t.f.f.d., (PhD). diss. avtoref. – Namangan, 2022. – 44 b.); dissertatsiya uchun - Muallifning familiyasi, ismi sharifi. Mavzusi: ishning darajasi. – Nashr joyi va yili. – Betlar soni. (1. Turayev N.S. Anor tuplarini yarim ochadigan mashina parametrlarin asoslash: t.f.f.d., (PhD). diss. – Namangan, 2022. – 120 b.); kitoblar uchun - mualliflarning familiyasi, ismi sharifi, kitobning nomi, nashr joyi, nashriyot nomi, nashr yili, qismi va betlari (1. Jo‘rayev A., Mavlyaviyev M., Abdukarimov T., Miraxmedov D. Mexanizm va mashinalar nazariyasi. – T.: G‘.G‘ulom, 2004. – 592 b.); patent uchun – Patent olingan davlat va uning raqami / e’lon qilingan yil. Mualliflarning familiyasi, ismi sharifi. Mavzusi // Patent raqami, nashr yili. – Byulleten raqami. (1. Patent O‘zR FAP 00848 / 31.10.2013. Djurayev A., To‘xtaqo‘ziyev A., Muhamedov J., Mamaxanov A. Zanjirli uzatma // O‘zbekiston Respublikasi patenti, 2013. – Byul. №10.); internet ma’lumotlari uchun - URL, ma’lumotga murojaat etilgan sana. (1. ZiyoNet ta’lim portali. http://library.ziyonet.uz/ru. 20.07.2022.)

5. Tahririyat barcha maqolalarni taqrizga yuboradi, ushbu taqriz natijalari asosida maqolani chop etish masalasi bo‘yicha tegishli qaror qabul qiladi.

6. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi.

7. Keltirilgan talablar yakuniy emas, ba’zi maqolalar borasida tahririyat qo‘shimcha ma’lumot so‘rash huquqini saqlaydi. Tahririyat manzili:

160103. Namangan shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 12-uy.
Telefon/faks: (0-369) 234-15-23,
Bizning sayt: qurilishtalim.uz
Ye-mail: qurilishta’lim@edu.uz
Aloqa uchun

+998939254606

NamDTU kichik bosmaxonasida 2026-yil 30-iyulda chop etildi.
Manzil: Namangan vil. Namangan shahar I. Karimov ko‘cha, 12-uy